

A. V. Vaxabov, Sh. A. Toshmatov, N. X. Xaydarov, A. V. Vaxobov

# MOLIYAVIY SAVODXONLIK ASOSLARI

O'QUV QO'LLANMA

Обязательный  
экземпляр

Baktria press  
Toshkent—2013



УЎК 336.012.23(075)  
КБК 65.261(5Ў)  
B30

-Mones

Vaxabov A. V.

Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma / A. V. Vaxabov, Sh. A. Toshmatov, N. X. Xaydarov, A. V. Vaxobov. — Toshkent: Baktria press, 2013, 288 b.

O'quv qo'llanma aholi moliyaviy savodxonligining mohiyati, zarurligi, vazifalari, tarkibi va samarali moliyaviy qarorlarni qabul qilishdagi tutgan o'rnnini o'rganishga bag'ishlangan. Xonodon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari, tarkibi, bozor munosabatlarini rivojlanishi tufayli tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq daromadlar ulushining ortib borish tendensiyasi, oila budjeti daromadlarining shakllanishi va xarajatlari tarkibi, aholining jamg'armalarini investitsiyalarga transformatsiyalashushi jarayoni va uni samarali boshqarish masalalari, investitsiya portfelini shakllanishi va diversifikatsiyalashining yo'nalishlari tablib qilingan. Aholini o'z shaxsiy daromadlarini investitsiyalashda bank, sug'urta sohalari, mikromoliyaviy tashkilotlar, fond bozor xizmatlaridan o'z huquq majburiyatlarini anglagan holda samarali foydalanish imkoniyatlari, hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yo'nalishlari bayon etilgan.

O'quv qo'llanma kasb-hunar kolleji, akademik-litsey o'quvchilari, katta yoshdagi fuqarolar, o'qituvchilar va aholini moliyaviy savodxonligini oshirish bilan qiziquvchi kitobxonlar uchun mo'ljalangan.

Mazkur o'quv qo'llanma Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilib, Mikromoliya institutlari Milliy Assotsiatsiyasi va Mikromoliya Markazi (Polsha) hamkorligida amalga oshirilayotgan «Moliyaviy Savodxonlik Dasturi — 2» loyihasi doirasida tayyorlangan va nashr etilgan.

КБК 65.261(5Ў)н722

#### Taqrizchilar:

O. K. Iminov — iqtisod fanlari doktori, professor, D. A. Tadjibayeva — iqtisod fanlari nomzodi, dots.

*O'zbekiston Respublikasi olyi va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'quv-metodik kengashining 2013-yil 13-mart 82-soni qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma'lumotlar va fikr-mulohazalar mualliflarga gagina tegishli bo'lib, ulardan hech biri Yevropa Ittifoqining rasmiy fikrini bildirmaydi. Nashrda keltirilgan ma'lumotlardan foydalilaniganlik holatlarida na Yevropa Ittifoqi, va na unga qarashli bo'lgan hech bir tashkilot, institut, muassasa yoki ularning nomidan amal yuritayotgan hech qaysi bir shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

ISBN 978-9989-64-Navoiy

2014/8

N 41873  
3

nomidagi

ISBN 978-9989-64-Navoiy

2014/8

nomidagi

A  
6 96

O'zbekiston MK

Kirish . . . . .	6
I bob. Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti va vazifalari ( <i>jami: 2 soat: 2 soat ma'ruza</i> ) . . . . .	11
1.1. Moliyaviy savodxonlikning mohiyati . . . . .	11
1.2. Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari . . . . .	18
1.3. Moliyaviy savodxonlikni oshirishda jahon tajribasi va uning O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishning milliy dasturini ishlab chiqishda qo'llash . . . . .	21
II bob. Xonadon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari: ish haqi va boshqa daromadlar ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ) . . . . .	38
2.1. Xonadon xo'jaligining mohiyati. Xonadon xo'jaligi va oila: umumiy jihatlari va farqlari . . . . .	38
2.2. Xonadon xo'jaligining funksiyalari . . . . .	42
2.3. Xonadon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari va o'zgarish dinamikasi . . . . .	44
III bob. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va oilaviy biznesni rivojlantirish ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ) . . . . .	62
3.1. Tadbirkorlik, biznes tushunchalari mohiyati. Tadbirkorlik faoliyatining turlari . . . . .	62
3.2. Oilaviy biznes va kasanachilik bilan shug'ullanishning qonunchilik asoslari . . . . .	64
3.3. Tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish tartibi . . . . .	66

3.4. Tadbirkorlik sub'ektlarining tasniflanishi va litsenziyalash tartibi.....	72
3.5. O'zbekistonda qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ulananishning o'ziga xos xususiyatlari .....	75
 IV bob. Oila budgetini tuzish va favqulodda holatlar uchun zaxiralarni rejalashtirish ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ).....	88
4.1. Oila budjeti tushunchasi va daromadlar tarkibi .....	88
4.2. Oila budjetining qisqa va uzoq muddatli harajatlar tar-kibi va tuzilmasi.....	95
4.3. Favqulotdda holatlar uchun zaxiralarni rejalashtirish .....	101
 V bob. Aholining jamg'armalari va investitsion bozordagi ishtiroki ( <i>jami: 2 soat: 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ) .....	108
5.1. Xonodon xo'jaligi jamg'armalari va turlari .....	108
5.2. Investitsiyalash tamoyillari va turlari .....	115
5.3. Investitsiya portfelini shakllanishi va diversifikatsiyala-shuvi .....	129
 VI bob. Banklar va bank tizimi ( <i>2 soat ma'ruza</i> ) .....	141
6.1. Bank faoliyatining paydo bo'lishi, rivojlanishi va iq-tisodiyotda tutgan o'rni .....	141
6.2. Bank tizimi va uning tarkibi .....	144
6.3. Markaziy bank va uning pul muomalasini tartibga solish siyosati.....	147
6.4. Pul tizimining mazmuni va milliy xususiyatlari .....	150
6.5. Tijorat banklarining turlari va ularning faoliyatini tashkil etish shakllari.....	156
6.6. Bank tizimidagi nobank kredit muassasalari va mik-rokredit tashkilotlari .....	159
 VII bob. Pulning mohiyati va shakllari, elektron to'lovlar ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ).....	171
7.1. Pulning kelib chiqishi.....	171
7.2. Pulning shakllari .....	176

7.3. Elektron to'lovlar, bankomat va terminallardan foydalanish .....	179
 VIII bob. Depozit va kredit xizmatlari ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ) .....	192
8.1. Jamg'arishning zarurati va bank depozitlarining afzalliklari .....	192
8.2. Bank depozitlarining turlari va ular bo'yicha foizlarni hisoblash .....	195
8.3. Aholi omonatlarini kafolatlash mazmuni va zarurati ...	202
8.4. Kreditning mazmuni va unga bo'lgan zarurat .....	204
8.5. Kredit bo'yicha foizlarni belgilash va kreditni qaytarish shakllari .....	205
8.6. Kredit shartnomasi va kredit oluvchi majburiyatining bajarilishini kafolatlash .....	211
8.7. Aholiga beriladigan kreditlarning asosiy shakllari va ulardan foydalanish .....	214
 IX bob. Bank mijozlari va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ) .....	228
9.1. Bank va mijoz o'rtaida tuziladigan shartnomalar .....	228
9.2. Bank va mijozlar huquqlarini himoya qilish .....	234
9.3. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishning obyekтив zarurati .....	239
 X bob. Sug'urta xizmatlari va ulardan foydalanish ( <i>jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot</i> ) .....	267
10.1. Sug'urta haqida tushuncha .....	267
10.2. Mol-mulk sug'urtasi .....	276
10.3. Shaxsiy sug'urta va uning turlari .....	279

## KIRISH

---

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashuvi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablari aholining moliyaviy savodxonligini shakllantirish va uni oshirish zarurligini isbotlamoqda. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha aholi o‘z mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanish, o‘z xarajatlari va jamiq‘armalarini rejalashtirish, investitsiyalashni ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, favqulotddagi vaziyatlar uchun zarur bo‘lgan mablag‘ jamg‘arish borasida yetarli darajada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganliklari sababli, samarasiz qarorlar qabul qilishadi va o‘zlarini moddiy farovonligini oshirish uchun salohiyatlaridan, imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydilar. Kishilarni qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarini samaradorligini oshirish uchun aholining moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etish zarur.

Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to‘lov qobiliyatini rivojlantirish borasidagi to‘siqlarning mavjudligi moliya bozorlar imkoniyatini va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste’molchilar huquqini cheklaydi, shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg‘ariladigan pensiya tizimiga o‘tishga yo‘l qo‘ymaydi. Iqtisodiy nuqtai-nazardan moliyaviy xizmatlar borasidagi bilim darajasining yetarli emasligi aholining keng qatlamlarini, jumladan o‘rtalik sinfni iste’mol qilishga past darajada jalb etilganligini bildiradi hamda barqaror iqtisodiy o‘sish salohiyatini belgilovchi jamg‘arish, investitsiyalar darajasi va sifatini cheklaydi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanishi aholini pensiya jamg‘arish, sug‘urta va ipoteka tizimlarida faol ishtirot etishini talab qiladi. Chunki aholining ushbu tizimlardagi ishtiroti pensiya jamg‘arish, ijtimoiy va tibbiy sug‘urta, uy-joy bilan ta‘minlash va ta‘lim sifatini oshirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. O‘rtalik sinf uchun xos bo‘lgan jamg‘arishni kengaytirish va uni samarali ishlatish mamlakatdagi ijtimoiy-iq-

tisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, makroiqtisodiy muvozanatga erishish va moliya tizimining mustahkamlanishiga asos bo'ladi.

Aholining jamg'arishga yuqori darajada moyilligi, jamg'arish va sug'urtalash dastaklaridan keng foydalanishi aholining moliyaviy savodxonligini yuqori darajada bo'lishini nazarda tutadi. Bunday savodxonlik aholiga moliyaviy institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, bank va sug'urta sektorlarining xizmatlaridan, pensiyani sug'urtalash tizimidan keng miqqosda va unumli foydalanish imkoniyatini beradi. O'rta sinfga kiruvchi uy xo'jaliklari moliyaviy savodxonligini oshirish orqali shaxsiy budgetlaridan samarali foydalanishadi, uzoq muddatli maqsadlaridan kelib chiq-qan holda shaxsiy moliyaviy qarorlarini qabul qilishadi, shaxsiy qarzdarlik darajasini ortib ketishini oldini olishadi, moliyaviy institutlar tomonidan taklif qilinadigan xizmatlar va mahsulotlarni farqlab, ortiqcha xavf-xatarlarni oldi olinadi.

Bu esa moliyaviy savodxonlikni mamlakatning uzoq muddatga mo'l-jallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egalashini aks ettiradi. oxirgi o'n yillikda moliya bozorida iste'molchilar sektorini kengayishi, moliyaviy mahsulotlar turlari va murakkabligini ortishi, aholi daromadlari va yalpi jamg'armalarining o'sishi aholining qabul qilgan moliyaviy qarorlarida shaxsiy javobgarlikni ortganligini aks ettiradi. Ushbu holat ham aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha moliyaviy jihatdan savodxon kishi quyidagi afzalliliklarga ega bo'ladi: pul va narxlar borasida to'g'ri qarorlar qabul qila olish; o'zining oilaviy budgetini oqilona boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish; moliyaviy aktivlar va xarajatlarini samarali boshqarish ko'nik-malariga ega bo'lish; o'z moliyaviy majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda bajarish; moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish asosida shaxsiy jamg'arma va investitsiyalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan dastaklar sonini ortishi; turmush darajasidagi o'zgarishlarga egiluvchan yondashish.

O'quv qo'llanma tarkiban kirish, o'n bob, tayanch atamalar, nazorat savollari, testlar va foydalaniqsan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

«Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti va vazifalari» deb nomlangan birinchi bobda aholi moliyaviy savodxonligining zarurligi, dolzarbliji, mohiyati ochib berilgan. Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari bayon etilgan. Mualliflar moliyaviy savodxonlikka — fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallah, jamiyatda o'zi va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish

uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisidir deb ta'rif berishgan. Moliyaviy savodxonlik asoslari fani predmeti esa aholining iste'mol xarajatlari, shaxsiy jamg'arma va investitsiya, kreditlar olish sohalarida samarali qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat deb tavsiflashgan. Mualliflar moliyaviy savodxonlik tushunchasi quyidagi tarkibga: pul savodxonligi, narx sohasidagi savodxonlik va budjet savodxonligiga asoslashgan. Shuningdek, ushbu bobda moliyaviy savodxonlikni oshirishning jahon tajribasini chuqur tahlil qilgan holda O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishning milliy dasturini ishlab chiqish zarurligini asoslab, uni amalga oshirishda davlat yetakchi rol o'ynagan holda muvofiqlashtirish — konsolidatsiyalash, monitoring va analitik, nazorat va tartibga solish, ta'lim berish vazifalarini bajarishi lozimligi g'oyasi olg'a surilgan.

O'quv qo'llanmaning «Xonadon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari: ish haqi va boshqa daromadlar» deb atalgan ikkinchi bobida xonadon xo'jaligining mohiyati ochib berilgan, xonadon xo'jaligi va oila ning umumiy jihatlari va farqli tomonlari tadqiq etilgan. Xonadon xo'jaligining iqtisodiy (resurslarni taqsimlash, iste'mol, ishlab chiqarish), ishlab chiqarish va noishlab chiqarish funksiyalari tahlil qilingan. Ushbu bobda xonadon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari holati baholangan va o'zgarish dinamikasi o'rganilgan.

Qo'llanmaning «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va oilaviy biznesni rivojlantirish» deb nomlangan uchinchi bobida tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini, tashkil etish va yuritish tartibini huquqiy-institutsional asoslarni va uni namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Jumladan tadbirkorlik va biznes tushunchalari va ularni oilaviy biznes, kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanishining afzalliklari, imtiyozlarini tadqiq etishga jiddiy e'tibor berilgan.

Ushbu qo'llanmaning «Oila budgetini tuzish va favqulotdda holatlar uchun zaxiralarni rejashtirish» deb atalgan to'rtinchi bobida oila budgeti tushunchasi, oila daromadlarini shakllanish tarkibi va oila budgetining xarajatlari tarkibi tavsiflangan, qator me'zonlarga ko'ra tasniflangan. Jahon tajribasini tahlil qilgan holda oila budgetini xarajatlari tarkibida favqulotda holatlar uchun zaxiralarni rejashtirish asoslangan.

«Aholining jamg'armalari va investitsion bozordagi ishtirotki» deb atalgan beshinchi bobida xonadon xo'jaligi xarajatlari iqtisodiy qonunlar (iqtisodiy tanlov, aholining jamg'arishga moyilligi)ga muvofiq amalga oshirilib, aholi jamg'armalari investitsiyalarga aylanishi o'rganilgan. Xonadon xo'-

jaligi daromadlarini investitsiyalashning tamoyillari, turlari va xonodon xo‘jaligi kapitalni boshqarishda bank depozitlari, sug‘urta kompaniyalar, qimmatli qog‘ozlar, pay investitsion fondlar, xedj fondlar, qimmatbaho metallar, ko‘chmas mulk, bank mahsulotlari, muqobil investitsiyalar kabi investitsion dastaklardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Xonodon xo‘jaligining kapitalni boshqarish strategiyalari va investitsion faoliyatni amalga oshirish bosqichlari, investitsiya portfelini shakllanishi va uni diversifikatsiyalashning amalijihatlari tahlil qilingan.

O‘quv qo‘llanmaning «Banklar va bank tizimi» nomli oltinchi bobida bank faoliyatini vujudga kelishi, rivojanish bosqichlari va iqtisodiyotda tutgan mavqeい baholangan, bank tizimining ko‘p pog‘onali tizimida Markaziy bankning o‘rni u bajaradigan vazifalari yordamida ko‘rsatib berilgan. Mamlakatdagi pul tizimining mohiyati, tarkibi va milliy xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu bobda tijorat banklarining mohiyati, funksiyalari va guruhlanishini, hozirda jadal sur‘atlar bilan rivojanayotgan nobank kredit muassasalari va mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini o‘rganishga alohida e‘tibor berilgan.

Qo‘llanmaning «Pulning mohiyati va shakllari. Elektron to‘lovlar» deb atalgan yetinchi bobida pulning kelib chiqish bosqichlari, iqtisodiyotda bajaradigan funksiyalari, shakllari va elektron to‘lovlar, bankomat va terminallardan foydalanishning afzallikkleri, to‘lov tizimini innovatsion usullardan foydalangan holda takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan.

«Depozit va kredit xizmatlari» deb atalgan sakkizinchchi bobda bank depozitlaridan foydalnish afzallikkleri, turlari va ular bo‘yicha foizlarni hisoblash, aholi omonatlarini davlat tomonidan kafolatlanishi, kreditning mohiyati, zarurati, turlari, kredit bo‘yicha foizlarni belgilash va uni qaytarish shakllari tahlil qilingan.

O‘quv qo‘llanmaning «Bank mijozlari va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish» nomli to‘qqizinchchi bobida bank va mijoz o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni tuzish tamoyillari, xususiyatlari, shartlari, tarkibi o‘rganilgan. Ushbu bobda bank va uni mijozlarining huquqlari, majburiyatlar, bank tizimi xodimlarining xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida mijozlar bilan ishslash madaniyati va odob-axloqiy qoidalari «Bank xodimining kasb odob-axloqi» kodeksi asosida tahlil qilingan. Bank xizmatini iste’mol qiluvchilarning huquqlarini himoya qilishning obyektiv zarurligi asoslangan.

Qo‘llanmaning «Sug‘urta xizmatlari va ulardan foydalanish» nomli o‘ninchi bobida sug‘urta tushunchasi mohiyati ochib berilgan, sug‘urta xizmatini ko‘rsatuvchi sug‘urta kompaniyalarning huquq va majburiyat-

lari, sug‘urta shartnomasini tuzish va uni ijro etish, sug‘urta qildiruvchining huquqlari, sug‘urta xizmatining turlari va ulardan foydalanishning xususiyatlari atroficha o‘rganilgan.

«Moliyaviy savodxonlik asoslari» fanining mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashuvida, barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashda, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va moliya tizimini sog‘lomlashtirishda, aholini o‘z huquqlarini chuqr anglagan holda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanishida, investitsion faoliyotni kuchayishida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan ushbu fan bo‘yicha davlatning moliyaviy savodxonlik standartlari talablari asosida aholining turli qatlamlarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan birorta ham darslik, o‘quv qo‘llanma nasr etilmagan. Shu munosabat bilan mualliflar guruhi o‘quv qo‘llanma mazmuni, tarkibi va unda ko‘tarilgan masalalar yuzasidan o‘quvchilardan o‘z fikr va mulohazalarini bildirishlarini so‘raydilar.

Mualliflar o‘quv qo‘llanmada materiallarni zamonaviy pedagogik texnologiya va o‘qitishni interfaol usullaridan samarali foydalangan holda sodda, aniq va mantiqiy bog‘langan holda bayon etishga harakat qilishgan. O‘quv qo‘llanma boblarining so‘ngida tayanch atamalar, nazorat savollari, testlar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan. O‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida xorijiy mamlakatlarning aholining moliyaviy savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish milliy dasturlari ishlab chiqish tajribasidan, xalqaro moliya institutlarining hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi materiallari, xorij va mamlakatimizda nasr etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy jurnallardagi maqolalardan unumli foydalanildi. Mualliflar guruhi ushbu o‘quv qo‘llanmalarni dasturini tuzish, yozish jarayonida o‘zini qimmatli fikrlari va maslahatlari bilan amaliy yordam bergen Mikromoliya Markazining (Polsha) loyiha direktori Katarzyna Pawlakga, ushbu dastur koordinatori i. f. n., dots. Dildora Tadjibayevaga, eksperti Margarita Lalayanga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Ushbu qo‘llanma i. f. d., prof. A. V. Vaxabov rahbarligidagi quyidagi mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan: I, II, V boblar — i. f. d., prof. A. V. Vaxabov; IV, VII boblar — i. f. d., prof. N. X. Haydarov; III, VI, VIII boblar — i. f. d., prof. Sh. A. Toshmatov; IX, X boblar — i. f. d., prof. A. V. Vaxabov.

## MOLIYAVIY SAVODXONLIK ASOSLARI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

(jami: 2 soat: 2 soat ma’ruza)

### Reja:

- 1.1. Moliyaviy savodxonlikning mohiyati.
- 1.2. Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
- 1.3. Moliyaviy savodxonlikni oshirishning jahon tajribasi va uning O’zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishda milliy dasturini ishlab chiqishda qo’llash.

### 1.1. Moliyaviy savodxonlikning mohiyati

Qadim zamonlarda kim o‘qish va yozishni bilsa, savodxon kishi hisoblangan. Kishilik jamiyatni rivojlanishi va bilimni tarqalishi natijasida bunday ko‘nikmalar tabiiy hisoblanib, savodxonlik tushunchasi qator yangi mazmun va ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Masalan, biz hozir kompyuter savodxonligi, matematik savodxonlik, iqtisodiy savodxonlik va boshqa turdagagi savodxonlik turlarini bilamiz. Shuning uchun savodxonlik sohasidagi u yoki bu tushunchalarni bilish yetarli emas. Birinchi navbatda ularni mazmunini tushunish, uni mantiqiy ketma-ketligini bilish va real hayotda ulardan foydalana olish muhimdir. Kundalik hayot voqealari moliyaviy savodxonlikni zarurligini kundan-kunga isbotlab bormoqda. Moliyaviy savodxonlik kishilarni moliyaviy mablag’laridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va murakkab moliya dunyosida to‘g’ri qarorlar qabul qilishning zarurligi tufayli tanlab olindi. Yuqorida sabablarga ko‘ra moliyaviy savodxonlik ta’lim jarayoni natijalarini baholashning xalqaro dasturlarini yangi tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha ko‘p kishilar o‘z mablag’laridan to‘g’ri foydalana olish, o‘z xarajatlari va jamg‘armalarini rejalashtirish, investitsiyalashni ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, favqulotddagi vaziyatlar

uchun mablag‘ jamg‘arish borasida yetarli darajada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganliklari sababli, samarasiz qarorlar qabul qilishadi va o‘zlarini moddiy farovonligini oshirish salohiyatidan to‘liq foydalana olmaydilar. Kishilarni qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarini samaradorligini oshirish uchun aholini moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etish zarur. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbli quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

1. **Aholining daromad manbalari tarkibining o‘zgarishi.** Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes, oilaviy va individual tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushini ortib borishi jamg‘arma va investitsiyalarni samarali boshqarish va xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni keskin ortishiga olib keladi.

2. **Ko‘p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo‘lishi.** Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadilar: moliyaviy oqimlarni va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, sug‘urta fondlarini shakllantirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatidan foydalanish, jamg‘armalarni investitsi- yalash, kreditlar olish, qarzni boshqarish kabilalar shular jumlasidandir.

3. **Aholini uzoq muddatli jamg‘armalarga va kredit olishga bo‘lgan ehtiyojini keskin ortishi.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg‘arishning quyidagi funksiyalarini mustaqil amalga oshirishi lozim: qo‘srimcha pensiya jamg‘armalarini amalga oshirish, tibbiyot, ta‘lim xizmatlariga to‘lash uchun jamg‘arish. Yuqorida holatlar oila budgetini uzoq muddatli rejalashtirishni, risklarni moliya dastaklar (sug‘ortalash, pensiya jamg‘armalari, bank depozitlari va qimmatli qog‘ozlarni investitsiyalash) orqali baholash va boshqarishni talab etmoqda. Shunday qilib, uzoq muddatli jamg‘armalarni shakllantirish va kredit olish ko‘nikmalariga o‘qitish aholining moliyaviy savodxonligining muhim funksiyasi hisoblanadi.

4. **Shaxsiy jamg‘armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg‘armalari va investitsiyalashini amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi. Bank- lar va boshqa moliya institutlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlardan unumli foydalanish uchun kreditlarni boshqarish, investitsiyalashni amalga oshirish, to‘g‘ri samarali qarorlar qabul qilish uchun aholi moliyaviy savodxon bo‘lishi lozim.

**5. Aholi mehnat migratsiyasi miqyosini kengayishi.** Xorijda ishlovchi mehnat migrantlari mehnat faoliyati jarayonida ishdan bo'shatish, aldash, yomon ijtimoiy sharoitlar, yomon muomila kabi xatarlar ta'sirini kamaytirish uchun migrantlarni pul o'tkazmalari, xorij mamlakatlardagi bank xizmati, sug'urta tizimi to'g'risidagi savodxonligini oshirish lozim.

**6. Aholini iste'mol madaniyati sohasidagi an'analarini ayrim xususiyatlari.** Aholining ba'zi an'anaviy bayramlarga sarflaydigan katta xarajatlarini qisqartirish va inson kapitalini investitsiyalash maqsadiga yo'naltirish uchun sarf-lanadigan investitsiyalarni ko'paytirish zaruriyati moliyaviy savodxonlikni oshirishni taqozo etadi.

7. Qator moliyaviy xizmat turlari nisbatan kam iste'mol qilingani uchun ularni is'temol qilish tarkibi cheklangan.

8. Hamma moliyaviy xizmatlar sotib olinayotgan davrda sifati xususiy tekshiruvdan o'tkazilmaganligi uchun sotuvchilar tomonidan sisatsiz mahsulotlarni sotish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

9. Tomonlarning o'z zimmalariga olgan yuqori majburiyatlarini tekshirish xarajatlarini ko'pligi.

Moliyaviy xizmatlarni iste'molchilar uchun moliyaviy savodxonlikning past darajasi quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- samarasiz qarorlarni qabul qilinishi tufayli moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchni pasayishi;
- moliyaviy bozor afzalliklaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi;
- shaxsni qarzdorlik majburiyatlarini yuqori darajadaligi;
- jismoniy shaxslarning ommaviy bankrot bo'lishi;
- o'sib kelayotgan avlodga salbiy moliyaviy tajribani o'rgatish;
- moliyaviy xizmat sotuvchilarining muttahamlik riskiga moyilligi, hul-qining yomonligi;
- hayotiy muhim mahsulotlar uchun jamg'arishning past darajasi;
- pensiya jamg'armalarini shakllanishi va ularni boshqarishning samarasizligi.

Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to'lov qobiliyatini rivojlantirishga to'siqning mavjudligi moliya bozorlar imkoniyatini cheklaydi va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste'molchilar huquqini cheklaydi, shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishga yo'l qo'ymaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan moliyaviy xizmatlar borasidagi bilim darajasini yetarli emasligi aholining keng qatlamlarini ularni iste'mol qilishga

past darajada jalb etilganligini bildiradi hamda iqtisodiy o'sish salohiyatini belgilovchi jamg'arish, investitsiyalar darajasi va sifatini cheklaydi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanishi aholini pensiya jamg'arish, sug'urta va ipoteka tizimlarida ishtirok etishini talab qiladi. Chunki aholining ushbu tizimlardagi ishtiroki pensiya jamg'arish, ijtimoiy va tibbiy su'g'urta, turar joy bilan ta'minlash va ta'llim sifatini oshirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. O'rta sinf uchun xos bo'lgan jamg'arishni kengaytirish va uni samarali ishlatalish mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, makroiqtisodiy muvozanatga erishish va moliya tizimining mustahkamlanishiga asos bo'ladi.

Aholining jamg'arishga yuqori darajada moyilligi, jamg'arish va su'g'urtalash dastaklaridan keng foydalanishi aholining moliyaviy savodxonligini yuqori darajada bo'lishini nazarda tutadi. Bunday savodxonlik aholiga moliyaviy institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, bank va sug'urta sektorlarining xizmatlaridan, pensiyani sug'urtalash tizimidan keng miqyosda va unumli foydalanish imkoniyatini beradi. O'rta sinfga kiruvchi uy xo'jaliklari moliyaviy savodxonligini oshirish orqali shaxsiy budjetlaridan samarali foydalanishadi, uzoq muddatli maqsadlaridan kelib chiq-qan holda shaxsiy moliyaviy qarorlarni qabul qilishadi, shaxsiy qarzdorlik darajasini ortib ketishini oldini olishadi, moliyaviy institutlar tomonidan taklif qilinadigan xizmatlar va mahsulotlarni farqlab, ortiqcha xavf-xatarlarni oldi olinadi.

Hayotning har bir bosqichida aholining turmush farovonligini ta'minlash ustun darajada shaxsiy moliyaviy qarorlarning samaradorligiga bog'liq bo'lmoqda. Bu esa moliyaviy savodxonlikni mamlakatni uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanishida muhim o'rin egalashini aks ettiradi. Oxirgi o'n yillikda moliya bozorida iste'molchilar sektorini kengayishi, moliyaviy mahsulotlar turlari va murakkabligini ortishi, aholi daromadlari va yalpi jamg'armalarining o'sishi aholining qabul qilgan moliyaviy qarorlari-da shaxsiy javobgarlikni ortganligini aks ettiradi. Ushbu holat ham aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi.

### **Moliyaviy savodxonlik deganda nima tushuniladi?**

Moliyaviy savodxonlik — fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o'zi va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilmlar va ko'nikmalar yig'indisidir. Iqtisodiy adabiyot va amaliyotda mo-

liyaviy savodxonlik tushunchasi xususida quyidagi yondashuvlar mavjud: a) bilimga asoslangan moliyaviy savodxonlik (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)) yondoshuvi; b) amaliyotda bilimni qo'llashga asoslangan moliyaviy ko'nikma (Jahon banki(JB)) yondoshuvi. Savodxonlik bilimga urg'u bersa, ko'nikma esa bilimni amaliyotda qo'llashga katta e'tibor beradi. Hozirda IHTT yondoshuvi moliyaviy savodxonlikni o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, Jahon banki moliyaviy ko'nikmalarini baholash orqali moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish modelini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

Ikki yondashuvni qaysi biri afzalligini aniqlash juda qiyin. Yuzaki qaraganda moliyaviy qobiliyat tushunchasi bilim va qobiliyatni farqlash zarurligini ko'rsatadi. Agar inson bilimli bo'lsa, biroq o'z bilimini amaliyotda qo'llay olmasa, uni bilimi amaliyotga joriy etilmaydi, ishlamaydi. Masalan, xizmatlar iste'molchisi mamlakatda omonatlarni sug'urtalash tizimiga amal qilayotganligi va bir bankda omonatni maksimal sug'urtalash summasi 7000000 so'm bo'lsa, ammo u qaysi banklar bu tizimga kirishi ni aniqlay olmasa va sug'urtalangan omonatni bankga qo'yish qobiliyatiga ega bo'lmasa ushbu bilimdan foyda yo'q.

Kishilarni moliyaviy xulqi ko'p omillar ta'sirida shakllanuvchi hodisa bo'lib unga nafaqat bilimni yo'qligi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, kishining bankda omonati yo'q, omonatga ega bo'lmaslikning sababi daromadni yetarli darajaga yetmasligi, yoki ushbu dastakdan depozit bo'yicha real foiz stavkasining pastligi sababli voz kechsa, yoki bank tizimini inqirozga uchrashini yuqori riski bo'lishi mumkin.

Nazariya bilan amaliyotni bir-biridan farqlash uchun aholining pensiya sug'urtasini misol qilib keltirish mumkin. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida aholi pensiya yoshiga yetgunga qadar o'zining yetarli daromad bilan ta'minlash strategiyasi to'g'risida deyarli o'ylamaydi. Ammo aholining bunday strategiyadan foydalanmaslik sabablarini o'rjanmasdan turib, ularning moliyaviy ko'nikmalarini to'g'ri baholab bo'lmaydi. Ushbu strategiyadan foydalanmaslikning sabablari: 1) aholida moliyaviy bilimlarning yetarli emasligi; 2) mazkur strategiyaning turli yuqori darajadagi risklarga moyilligi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, emperik tadqiqotlar orqali beqaror moliya tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy ko'nikmalar darajasini aniq baholab bo'lmaydi, chunki bu mamlakatlarda aholini moliyaviy dasatkardan foydalanmaslik sabablarini aniqlash qiyin. Shuning uchun aho-

lining moliyaviy savodxonligini baholashda moliyaviy bilimlar darajasini aniqlovchi savollar bilan birqalikda moliyaviy ko'nikmalarni baholovchi savollar qo'llaniladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muammosini hal qilishning aniq yo'llarini belgilab olish uchun «moliyaviy savodxonlik deganda nima tushunilishi»ni va «moliyaviy savodxon deb kimlarni hisoblash mumkinligi»ni aniqlab olish kerak. Buyuk Britaniyaning Moliyaviy Xizmatlar agentligi tomonidan quyidagi talablarga javob beruvchi shaxslar moliyaviy savodxon deb hisoblanadi:

- har oyda oilaviy daromadlar va xarajatlarning hisobotini yuritadigan;
- ortiqcha qarzlarni olmasdan o'rtacha hayot kechiradigan;
- o'zining istiqbolli moliyaviy rejasini ishlab chiqkan (kutilmagan vaziyatlarni va nafaqaga chiqishini inobatga olgan);
- chuqur tahlillar asosida moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni xarid qilgan;
- moliya sohasida yetarli bilimlarga ega bo'lgan.

Ushbu mezonlar asosida Britaniya hukumati aholining moliyaviy savodxonlik darajasini muntazam ravishda baholab boradi va istiqbolda bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlarni aniqlaydi.

AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Koreyada o'tkazilgan tadqiqotlar aholining moliyaviy savodxonligi darajasini pastligini ko'rsatdi. AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlar ko'p amerikaliklar uchun samarali qarorlar qabul qilish va shaxsiy mablag'larini boshqarish uchun zarur bo'lgan xonodon xo'jaligi iqtisodiyoti asoslari bo'yicha bilimlar yetishmasligini ko'rsatdi. Yaponiyadagi surovda qatnashgan 71% respondentlar aksiya va obligatsiyalar, 57% moliyaviy xizmatlar, 29% sug'urta, pensiya jamg'armalari va soliqlar to'g'risida tasavvurga ega emas.

Yuqorida mamlakatlarda aholi moliyaviy savodxonligini ta'minlashda aholi guruhlarini ajratish maqsadida quyidagi mezonlardan foydalanildi:


- yoshiga ko'ra — maktab o'quvchilar, talabalar, pensiya yoshi arafasidagi shaxslar, pensionerlar;
- jinsiga ko'ra — ayollar uchun ixtisoslashgan dasturlar ajratildi;
- yashash joyiga ko'ra — moliya infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan shaharlar aholisi, shaharga tutashgan qishloqlar va qishloqlar aholisi;
- daromad darajasiga ko'ra — past daromadli, o'rta daromadli va yuqori daromadli shaxslar va boshqalar.

2008–2009 yillarda Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlarda ham Britaniyani-kiga o'xshash ko'rsatkichlar asos qilib olingen. Uning natijalariga ko'ra, Rossiyada abolining moliyaviy savodxonligi past darajadaligi aniqlangan. Aholining oz qismigina moliyaviy institutlar tomonidan taklif qilinadigan xizmatlar va mahsulotlar to'g'risida ma'lumotga ega. Rossiya aholisining deyarli yarmi (49%) o'z jamg'armalarni uyda saqlashni afzal deb bilishadi, 62% esa moliyaviy xizmatlarni murakkab va tushunarsiz deb hisoblashadi. So'rovda qatnashganlarning 63,5% mamlakat banklariga ishonmaydi. Mamlakat aholisining 1/3 qismi bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan, xususan ayrim aholi punktlarida mazkur ko'rsatkich aholining 2/3 qismi ni tashkil qiladi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha Rossiya aholisi moliyaviy mahsulotlarning alohida turlari bo'yicha past savodxonlik darajasiga ega. Katta yoshdagi abolining 45% omonatlarni sug'urtalash tizimi haqida axborotga ega bo'lgan holda, ularning 58% bunday tizim mavjudligi haqidagi og'zaki eshitishgan, 33% esa tizim faoliyatining umumiyligi jihatlarini bilishadi va 9% so'ralganlar ushbu tizim bo'yicha bilimlarini yuqori darajada deb baholashgan. Rossiya aholisining 25% plastik kartochkalardan foydalanadi. Kredit kartochka egalarining ushbu moliyaviy mahsulot xavf-xatarlari to'g'risidagi bilimlari ham past darajada. Rossiya aholisining 11% qarilikni ta'minlashga yo'naltirilgan jamg'arish strategiyasiga ega, vaholanki ushbu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 63%ni tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Aholining moliyaviy institutlarga ishonchining past darajada bo'lishiga qaramasdan ularning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan qiziqishi yuqori darajadaligi aniqlandi. So'rovda ishtirot etganlarning 33% investitsiyalarni amalga oshirishga tayyorligini va mahalliy korxonalarining aksiyalarini sotib olishga xohish bildirgan. Shu bilan birgalikda moliya bozorida faoliyat yuritishni xohlovchi va moliyaviy xizmatlarning shartlari, imkoniyatlari va afzalliklari haqida ko'proq axborot olishni xohlovchilar soni o'sib bormoqda. 2008–2009 yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Rossiya aholisi moliyaviy savodxonligining past darajasi bilan bog'liq yana bir muammoni aniqlab berdi. Iste'mol kreditlari bo'yicha yuqori darajadagi qarzdorlik, ko'zda tutilmagan holatlar uchun jamg'armalarning yo'qli-

<sup>1</sup> Бокарев А. А. Повышение уровня финансовой грамотности населения в Российской Федерации // Финансы, № 9, 2010. С. 4.



gi, shaxslarni muhim moliyaviy qarorlarni qabul qilishga tayyor emasligi va moliyaviy istiqbolini rejalashtira olmasligini ko'rsatib berdi. Rossiyada inqiroz davrida aholini kerakli axborotga ega emasligi, moliyaviy institutlarining faoliyat kodeksining yo'qligi va nazorat organlarining oldindan monitoring o'tkazish imkoniyatlarining pastligi sababli iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish muammosi dolzarbli kuchaydi. Uy xo'jaliklarning 60% dan ortig'i banklar tomonidan beriladigan kreditlarning samarali stavkasi bo'yicha axborotni mijozlarga taqdim etishi kerakligini bilishmagan, investitsion fond a'zolarining 89% esa ushbu fondlarga qo'yilgan mablag'larni davlat kafolatida bo'lmasligini bilishmagan. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlatni quyidagi uzoq muddatli masalalarni hal qilishda ishtirok etishi zarurligi ma'lum bo'ldi:

- aholida moliyaviy xatarlardan davlat himoyalash kerak degan fikrlarning keng tarqalganligi sababli aholining salmoqli qismi (28%) o'zining moliyaviy qarorlari uchun shaxsan javobgarligini tan olmayda va ushbu qarorlar natijasida ko'rilgan zararni davlat tomonidan qoplanishi zarur deb hisoblaydi;
- fuqarolarning shaxsiy moliyaviy qarorlari asosida oilaning barqaror moliyaviy holatini ta'minlay olmasligi;
- moliya bozorining asosiy dastaklari va tamoyillarini bilmasligi.

## **1.2. Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Moliyaviy savodxonlik asoslari kursining predmeti — aholining iste'mol xarajatlari, shaxsiy jamg'arma va investitsiya, kreditlar olish sohalari-da samarali qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Aholining moliyaviy savodxonligi kishilarning pulni qanday ishlatish va jamg'arish usullari orqali yoshlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlar va an'analarga ta'sir ko'rsatadi. Aholining moliyaviy bilimlari va ko'nikmalari holati investitsion muhit darajasi, moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bilan birgalikda aholining moddiy farovonligini o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik tizimini joriy etish ayniqsa aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari uchun juda muhim hisoblanadi, chun-

ki jamg'armalar va xarajatlar o'rta sidagi nisbatni optimallashtirish, o'zini shaxsiy biznesini amalga oshirish uchun mikrokreditlarni olish aholining farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining moliyaviy savodxonligi kishilarga o'z daromadlari va jamg'armalarini samarali boshqarishda muhim dastak rolini bajarishi mumkin. Moliyaviy savodxonlik oilalarga uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolda o'z xarajatlarini hisob-kitoblarga asoslangan holda rejalashtirish, mablag'larni to'g'ri tejash, qarz va kreditlar olish bo'yicha oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Yuqorida qayd etilgan iqtisodiy fikrlash kam daromadli aholi sonining qisqarishiga, ularni o'z aktivlarini himoya qilish va yangilarini yaratishga undaydi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlik aholiga foyda keltirishi bilan bir qatorda butun moliya tizimi xizmatlarining iste'molchilari sonini kengaytirish va shaxsiy jamg'armalarini ko'paytirish orqali bank, sug'urta sohalari, mikromoliyaviy tashkilotlar, fond bozorini rivojlanishiga imkon yaratadi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha moliyaviy jihatdan savodxon kishi quyidagi afzallikkлага ega bo'ladi:

- pul va narxlar borasida to'g'ri qarorlar qabul qila olish;
- o'zining oilaviy budgetini oqilona boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;
- moliyaviy aktivlar va xarajatlarini samarali boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z moliyaviy majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda bajarish;
- moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish asosida shaxsiy jamg'arma va investitsiyalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan dastaklar sonini ortishi;
- turmush darajasidagi o'zgarishlarga egiluvchan yondashish.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasi quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

1. Pul savodxonligi — ortiqcha naqd va naqd bo'lмаган pullarni, pul o'tkazmalarini dastaklarini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish.
2. Narx sohasidagi savodxonlik — ortiqcha narx belgilash mexanizmi va inflyatsiyani tushuna olish qobiliyatidan iborat.
3. Budjet savodxonligi:
  - o'zining oila budgetini ortiqcha qismini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;
  - turli hayotiy holatlarda moliyaviy jihatdan boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;

- moliyaviy aktivlarni (omonatlar, investitsiyalar va sug'urtalash) va moliyaviy majburiyatlarni (kreditlar, lizing) boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;
- innovatsion moliyaviy mahsulotlar bozoridagi o'zgarishlarni ko'ra biliш, qiyosiy taqqoslay olish va eng qulay mahsulotlarni tanlay olish qibiliyatiga ega bo'lish.

Moliyaviy savodxonlik deganda, moliyaviy ta'lim jarayoni natijasi tushunilib, u ikki elementdan iborat bo'ladi:

1. kishilar tomonidan mavjud moliyaviy mahsulotlarni va ularni ishlab chiqaruvchi (sotuvchilar), axborot va maslahat xizmatlarini olishning mavjud kanallari to'g'risidagi axborotga ega bo'lish;
2. moliyaviy xizmatlarni iste'molchilari tomonidan mavjud axborotni quyidagi qarorlaridan qabul qilish jarayonida foydalanish qobiliyati: maxsus hisob-kitoblarni amalga oshirish, risklarni baholash, u yoki bu moliyaviy xizmatni nisbiy afzalliklari va kamchiliklarni taqqoslash.

Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining joriy etishda moliyaviy savodxonlikning standartlari muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy savodxonlik standartlari kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilarini moliyaviy savodxonlik darajasiga davlat organlari tomonidan qo'yiladigan talabini ifodalaydi. Moliyaviy savodxonlik standartlari aholining u yoki bu qatlamini moliyaviy savodxonlik darajasi holatini yaxlit holda belgilab beradi. Moliyaviy savodxonlik standartlari mazkur fanni o'qitish jarayonini mazmuni va natijalarini quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha belgilaydi: pul; xonardon xo'jaligi iqtisodiyoti; moliyaviy mahsulotlar va iste'molchilarning huquqi. Moliyaviy savodxonlik standartlarini aholi turli qatlamlarini ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda quyidagi ko'rinishda ishlab chiqishi lozim:

- o'rta maktablarni 7–9 sinf o'quvchilari uchun;
- kasb-hunar kolleji va akademik litseylarning o'quvchilari uchun;
- katta yoshdagи fuqarolar uchun.

Ushbu standartlar moliyaviy savodxonlikni ideal bilim darajasiga erishish uchun qo'yiladigan talabni, kursni mazmuni, maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda moliyaviy savodxonlik asoslari fani qisman quyidagi fanlar tar-kibida o'qitilishi mumkin: iqtisodiy bilim asoslari; etika va estetika; davlat va huquq asoslari; matematika; geografiya; tarix; ona tili va adabiyot; chet tili; informatika; chizmachilik; musiqa.

### **1.3. Moliyaviy savodxonlikni oshirishning jahon tajribasi va undan O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishning milliy dasturini ishlab chiqishda qo'llash**

Oxirgi 10–15 yil davomida va ayniqsa 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi ko'plab hukumatlar uchun dolzarb masalaga aylandi. Bir tarafdan zamonaviy moliyaviy xizmatlar iste'molchilarga turmush sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Misol uchun hayotni sug'urtalash, kasal bo'lish, sog'liqning yomonlashuvi sababli yo'qotilgan daromadni tiklab beradi, nodavlat pensiya fondlari nafaqaga chiqqanda qo'shimcha daromad olishni ta'minlaydi. Ammo ko'pincha iste'molchilar yetarli bilimlarga ega bo'limganliklari tufayli moliyaviy dastaklardan samarali foydalana olishmaydi. Misol uchun jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tgan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, odamlar odatda kam pul jamg'arishadi va bu jamg'arma ularning pensiyasini oz miqdorda bo'lishiga, kreditlar to'lovlarini to'lay olmasligiga olib keladi.

Malakasiz investor loyihalarni to'g'ri tahlil qila olmaydi, ma'suliyatsiz qarzdor to'lovlarni o'z vaqtida to'lashga harakat qilmaydi, savodsiz mijoz moliya bozori axborotini tushunmaydi va yuqoridaqilarning barchasi moliya bozorida chayqovchilikning avj olishiga olib keladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish AQSH, Buyuk Britaniya va Avstraliyani davlat iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari AQSHda, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, Avstraliyada, Hindistonda, Indoneyziyada, Malayziyada, Rossiyada, Chexiyada va boshqa mamlakatlarda amal qilmoqda. Ushbu mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi talab va taklif bilan bog'liq bo'lgan holda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi xizmatlari taklifiiga moliya bozori parametridagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatsa, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabiga esa ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Moliya xizmatlari taklifidagi o'zgarishlar quyidagilarda namoyon bo'immoqda:

- moliyaviy xizmatlar turlarini keskin ortishi va murakkablashuvi;
- moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar sonini ortishi;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish tartibini murakkablashuvi;
- moliyaviy xizmatlar iste'molchilari maqsadli guruuhlarining kengayishi.

Moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

demografik og‘irlikni ortishi. Ushbu tamoyil rivojlangan mamlakatlarda qayd etilgan to‘lovga asoslangan pensiya tizimidan qayd etilgan to‘lov to‘la-nadigan pensiya to‘lashga o‘tish va iqtisodiy agentlarni o‘z pensiya jamg‘ar-malari uchun ma‘suliyati darajasini oshirishga olib kelmoqda;

- a) aholini shaxsiy daromadlari darajasini o‘sishi;
- b) aholini tabaqalashuvini ortishi.

Jahonda moliyaviy ta’limni rivojlantirish va aholi moliyaviy savod-xonligini oshirish muammolarini tushunish, hal etilishi va miqyosiga ko‘-ra mamlakatlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Moliyaviy ta’lim va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muam-molari uzoq davrdan boshlab o‘rganilib, yetarlicha muvaffaqiyatli hal etilayotgan mamlakatlar (AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Singapur va Yangi Zellandiya);
2. Moliyaviy ta’lim va aholining savodxonlik darajasi muammolari kun tartibiga qo‘yilgan va mazkur muammo hal etish chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan mamlakatlar (Italiya, Niderlandiya, Avstriya, Polsha, Chexiya, Hindiston, Rossiya);
3. Moliyaviy ta’lim va aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshi-rish muammosini o‘rganish kun tartibiga qo‘yilishi rejalashtirilayot-gan va bu borada ayrim tadbirlar amalga oshirilayotgan mamlakatlar (boshqa mamlakatlar).

Ushbu mamlakatlarda amalga oshirilayotgan aholi savodxonligini oshi-rishning milliy strategiyasi va dasturlari maqsadi aholining kundalik ha-yotida pulning mohiyatini tushunish va undan kundalik hayotda samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Xorij mamlakatlarida aholini moliyaviy savodxonligini oshirish borasidagi amalga oshirilayotgan dasturlarni quyidagicha guruhash mumkin:

- umum davlat — milliy strategiyalar, davlat dasturlari;
- ijtimoiy — notijorat tashkilotlarini dasturlari bo‘lib ular universal xarak-terga ega bo‘lishi, aholining ma’lum auditoriyasiga mo‘ljallangan yoki ma’lum moliyaviy bilimning yo‘nalishiga qaratilgan bo‘ladi;
- xususiy sektor dasturlari — tijorat tuzilmalari tomonidan ishlab chi-qilgan dasturlar bo‘lib o‘zlarining potensial mijozlari bilan ishlashga yo‘naltiriladi;
- xalqaro dasturlar — internatsional xarakterga ega bo‘lgan va mamlakat hududidan tashqariga chiqadigan loyihalari.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning milliy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda obyektivlik va mustaqillik tamoyilla-  
riga rioya etilishi zarur.

AQSH moliya vazirligi moliyaviy ta'lim dasturini amalga oshirish maqsadida 2002-yil moliyaviy ta'lim boshqarmasini tashkil etdi. Boshqar-  
ma Amerika fuqarolariga shaxsiy moliyaviy mablag'larini boshqarishning,  
xususan jamg'arma va kreditlarni, xonodon xo'jaligi va pensiyalarni bosh-  
qarishni planlashtirish, moliyaviy faoliyatning hamma sohalarida to'g'-  
ri tanlovnii amalga oshirishga yordam beradigan bilimni shakllantirish  
va kengaytirish bilan shug'ullanadi.

Avstraliya hukumati tomonidan 2004–2005-yillarda mamlakatda aho-  
liga pul mablag'larini samarali boshqarish imkoniyatini oshirish maqsadi-  
da ta'lim beradigan maxsus g'aznachilik fondi tuzildi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda 2005–2010-yillarga mo'ljallangan mo-  
liyaviy xizmatlar sohasidagi siyosat qabul qilindi. Ushbu hujjatga muvofiq  
Yevropa Ittifoqi aholisining moliyaviy savodxonligini oshirishni rag'batlan-  
tirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish  
ko'zda tutilgan, a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlariga maktab ta'li-  
mi dasturiga moliyaviy savodxonlik fanini kiritish tavsiya etilgan.

Buyuk Britaniyada moliyaviy savodxonlikni joriy etish dasturi 5 yil-  
ga mo'ljallangan bo'lib 10 mln. kishini qamrab oladi. Dasturning maq-  
sadi fuqarolarni moliyaviy qarorlarni qabul qilish va ularni moliyaviy  
xizmatlar bozoriga yanada kengroq jalg etishga qaratilgan, axborotlar bi-  
lan ta'minlashni yaxshilash va savodxonligini oshirishdan iborat. Ushbu  
dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktablarda pulni boshqarish fanini o'qitish;
- qo'shimcha ta'lim tizimida — shaxsiy-moliyaviy ta'lim tizimini o'quv  
dasturlariga joriy etish;
- olyi ta'lim tizimida talabalar bilan ishlovchi konsultantlarni pul mab-  
lag'larini boshqarish mavzusidagi saytlar bilan ta'minlash;
- ta'lim tizimida o'qimayotgan, ish yoki malakali ta'lim sohasida shu-  
g'ullanmayotgan yoshlar uchun maxsus o'quv treninglarini o'tkazish;
- ota-onalarni pul mablag'larini boshqarish to'g'risidagi veb-sayt bilan  
ta'minlash;
- ishlovchilar uchun — o'z farovonligini boshqarishga bag'ishlangan tre-  
ning va seminarlar o'tkazish, va ularni o'quv materiallari bilan ta'min-  
lash.

Moliyaviy savodxonlik to‘g‘risidagi materiallar iste‘molchilarga tekin veb-saytlar va nashr qilingan ma‘lumotlar ko‘rinishida beriladi.

Malayziyada aholi moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida 2001–2010-yillarda mo‘ljallangan mamlakatning moliya sektorini rivojlantirish bosh rejasi amalga oshirila boshlandi. Dastur o‘z ichiga moliyaviy ta‘limni rivojlantirish uchun infratuzilma va institutsional salohiyatni oshirish, maslahat xizmatlarini ko‘rsatish, favqulottdagi holatlarni boshqarish va tiklash kabi qismlarni oladi. Ushbu dastur Malayziya Markaziy banki, Negara banki, Moliya vazirligi va Ta‘lim vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Malayziyaning Negara banki aholining moliyaviy ta‘limini yaxshilash borasidagi faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirdi:

- moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar to‘g‘risidagi o‘quv materillarini bukletlar va veb-saytlar ko‘rinishida ishlab chiqish va tarqatish;
- Ta‘lim vazirligi va moliya institutlariga aholining turli maqsadli guruhlarida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish ta‘lim dasturlarini boshqa strategik tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshirish va yordam berish;
- iste‘molchilarni moliyaviy savodxonligini oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv materillarini ishlab chiqish va tarqatish.

Rossiyada 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan aholi savodxonligini oshirishning milliy dasturi amalga oshirila boshlandi. Dasturning umumiyo‘qiymati 110 mln. dollarni tashkil etadi, jumladan, mazkur mablag‘ning 80% Rossiya Federal budgeti va 20% jahon banki hisobidan moliyalashtiladi.

Rossiyadagi aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturi — fuqarolarga ularni qiziqtirayotgan moliyaviy masalalarga to‘liq va malakali javob olishga asoslangan aholi savodxonligini oshirishni innovatsion dasturi hisoblanadi. Ushbu dastur innovatsiya, ommaboplilik va soddalilik tamoyillariga asoslab ishlab chiqilgan.

Ko‘plab mamlakatlar hukumatlari aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga katta e’tibor berish zarurligi va bu jarayonda hukumat katalizator vazifasini bajarishi kerakligini tan olishgan. Buning asosiy sabablarini quyidagilardan iborat:

- hozirda moliya sohasi aholini zamonaviy iqtisodiyotda yetakchilik qilishga da‘vogarlik qilmoqda. Misol uchun, rivojlangan mamlakatlarida aholining vaqtincha bo‘s sh mablag‘lari investitsion jarayonlarga jalb qilinadi;

- bozorda tovarlar va xizmatlarning (shu jumladan moliya xizmatlarning) taklifining rivojlanishi xaridorlardan maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qilmoqda. Reklamadan keng foydalanish bu muammoni yanada qiyinlashtirmoqda;
- hozirda jamiyatning resurslari cheklanganligi va ulardan samaraliroq foydalanish kerakligini tushunatirishni zarurligi;
- fan-texnika taraqqiyoti malakali ishchilarga qo'yiladigan talablarning oshirilishiga olib kelmoqda. Ishchilarning malakasini oshirish ularning moliyaviy savodxonligini oshirish bilan uzbek bog'liq;
- kredit tizimini rivojlanishi va qarz olishning sodda usullarini shakllanishi kredit iste'molchilarining ko'payishiga olib keldi. Ammo qarzdorlarning hammasi ham o'zining qarz to'lash qobiliyatini to'g'ri baholay oлmaydi. Inqiroz sharoitida bu muammo yanada keskinlashmoqda va hukumatdan kredit munosabatlari aralashishni talab etadi, chunki natijada to'lanmagan qarzlar butun jamiyat zimmasiga yuklanadi;
- hukumatning imkoniyatlari cheklanganligi sharoitida aholining qarishi pensionerlarning turmush farovonligi davlat tomonidan to'lanadigan pensiya miqdoriga emas balki ular tomonidan qabul qilingan moliyaviy qarolarning samaradorligiga bog'liq bo'lmoqda. Bu esa o'z mablag'-laridan faol va samarali foydalanishni talab etadi. Ya'ni odamlar shaxsiy budgetni nazorat qilish, hayot siklini asosiy bosqichlarini moliyaviy rejalashtirish, qoshimcha pensiya tizimlarida ishtirot etish, xavf-xatarlarni sug'urtalash uchun jamg'armalar tashkil etish va pensiyaga chiqish vaqtida o'z ehtiyojlarini o'zi ta'minlashi kabi operatsiyalarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lislari kerak.

Jahon tajribasiga ko'ra iste'molchilarining moliyaviy savodxonligi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining samaradorligi oshishiga va mamlakat moliya tizimining sog'lomlashishiga olib keladi. Qonunning ustuvorligi, aholining o'z huquqlarini bilishi milliy biznesning rivojlanishi uchun turtki bo'ladi.

Mamlakatni uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi va hukumat uchun ustuvor vazifa hisoblangan aholining moliyaviy savodxonligining iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish yo'nalishlari nimalardan iborat?

Moliyaviy bozorlarni rivojlanganligi muhim ko'rsatkich bo'lib u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sur'atlariga va sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, birinchi navbat-

da, mamlakat moliya bozorining salohiyatini ochib berish va bu bozorning investitsion faolligini kuchaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish milliy real sektorga ustun darajada bog'liq bo'lgan raqobatbardosh, barqaror moliya bozorlarini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bundan tashqari moliya bozorida ko'plab kichik investorlarning faoliyat yuritishi bu bozorning barqarorligini oshirishga va chayqovchilik operatsiyalarni kamaytirishga imkon beradi.

Axborot manbasining ochiqligi, ikki tomonlama aloqaning mavjudligi sharoitida moliyaviy savodxonlik dasturlari amaldagi qonunchilikning takomillashuviga xizmat qiladi.

Moliyaviy chayqovchilik operatsiyalarining ahamiyatini oshishi sharoitida moliyaviy aktivlarning daromadlilagini bashorat qilishning qiyinlashuvi ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat aktivlarining qadrini pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy savodxonlik pensiya ta'minoti va tibbiyot xizmatini samarali isloq qilish uchun shart-sharoit yaratadi. Chunki moliyaviy savodxonlik xususiy omonatlarni o'sishiga, istiqbolda davlat xarajatlarini ko'payish ehtimolini kamayishiga olib keladi. AQSH, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga binoan moliyaviy savodxonlik dasturi bo'yicha malaka oshirgan ishchilarning pensiya jamg'armasi va tibbiyot sug'urtasidagi ishtiropi o'sib borgan.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi tabiiy va moliyaviy resurslardan optimal foydalanishni talab qiladi. Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan har qanday dasturning asosini tejamkorlikni oshirish va investitsion faoliyatni rivojlantirish tashkil qiladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturining iqtisodiyotga ko'rsatadigan bilvosita ta'siriga aholi xarid qobiliyatini o'sishi kiradi. Xorijda moliyaviy savodxonlik dasturlari asosan ipoteka kreditining muammolariga, optimal variant-ni tanlash mezonlariga, to'lovlar grafigini tuzish va unga amal qilish, fuqarolarni moliyaviy munosabatlardagi majburiyatlariga va huquqlariga bag'ishlangan bo'ladi. O'z navbatida savodxon iste'molchi tovar va xizmatlarning sifatiga qo'yiladigan talablarni oshiradi, firibgarlik va qonunchilik huzilishiga qarshi kurashadi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarishni barqaror rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

Hukumat tomonidan budjet intizomiga qat'i rioya etish davlatning makroiqtisodiy vazifalarini samarali bajarilishida muhim ahamiyat kasb

etadi. Shu nuqtai nazardan moliyaviy savodxon va qonunga riosa qiluvchi soliq to'lovchi davlat budjetiga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq tushishi kafolati hisoblanadi. Shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligi davlat tomonidan moliyaviy savodsizlik va moliyaviy fribgarlikning oqibatlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan xarajatlarini qisqarishiga olib keladi. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, moliyaviy savodxonlik mehnat unum-dorligiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

- moliya sohasidagi yangi texnologiyalar yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi;
- ishlovchilarни moliyaviy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularga moliya sohasining yangi texnologiyalarini o'zlashtirish bilan birgalikda mavjud texnologiyalardan samaraliroq foydalanishni o'rgatadi.

Natijada ushbu jarayon kadrlarning yangi texnologiyani, mutaxassislikni tez o'zlashtirishiga, mehnat unumdarligini va daromadni ortishiga olib keladi. Olingan bilimlar va orttirilgan ko'nikmalar insonga malakasini oshirish, yaxshi ish topish, o'z moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatini bersa, ish beruvchiga bo'lsa yuqori malakali mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Taraqqiy etgar mamlakatlarda aholi savodxonligini rivojlantirishni ustuvor sohalari quyidagilardan iborat:

- pensiya sug'urtasi;
- kreditlash (iste'mol va ipoteka);
- aholi jamg'armasi va investitsiyalari.

Moliyaviy xizmatlar sohasidagi texnik taraqqiyot pul harakatini tezlashtiruvchi elektron mahsulotlar yaratilishiga olib kelmoqda. Bu mahsulotlar banklarning kredit va oylik kartochkalarini keng qo'llanilishiga olib keldi.

Mamlakatimizda rivojlanayotgan moliya bozori aholining moliyaviy savodxonligini oshirishni talab qilmoqda. Pensiyani ixtiyoriy sug'ortalash tizimining rivojlanishiga aholining past daromadi va bu tizim to'g'risida axborotga ega emasligi to'sqinlik qiladi.

Shunday qilib, aholining moliyaviy madaniyatini ortishi quyidagi omillar orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga tutki bo'ladi:

- mehnat unumdarligini oshishi hisobiga yalpi ichki mahsulotni o'sishi;
- moliya bozorini rivojlanishi, aholi daromadini investitsiyalarga yo'naltirishi, tovar va xizmatlarning sifatini yaxshilanishi, amaldagi qonunchilikning takomillashtirilishi;

- tadbirkorlar va ishchilarning moliyaviy madaniyati ortishi hisobiga kichik biznes va mehnat bozorini rivojlanishi;
- resurslardan, shu jumladan budjet resurslaridan maqsadga muvofiq va ratsional foydalanishi;
- aholini moliyaviy innovatsiyalarni tez o'zlashtirilishi hisobiga fan-texnika taraqqiyotining jadallahshuvi;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ortishi, inflyatsiya ustidan nazoratni kuchayishi, real iqtisodiyotga asoslanishi, aholini moliyaviy savodxonligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashi.

Moliyaviy savodxonlik quyidagi omillar orqali aholining turmush farovonligini o'sishiga olib keladi:

- iqtisodiy islohotlarni me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashuvi;
- korrupsiyaga qarshi kurashni kuchayishi va jinoyatchilikni kamayishi;
- aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini va ijtimoiy faolligini oshishi;
- demokratiyanı rivojlanishi.

Moliyaviy savodxonlik dasturlari samarali bo'lishi uchun davlat iqtisodiy siyosatining quyidagi dastaklari bilan birgalikda qo'llanilishi lozim:

- iste'molchilar huquqini himoya qilish;
- moliyaviy institutlarning faoliyatini tartibga solish;
- moliya bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- moliya bozori bo'yicha ma'lumotlarni aholiga keng tarqatilishi.

Davlatning pul-kredit va budjet siyosati, intitutsional tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari aholiga ishda, uyda va jamiyatda to'g'ri iqtisodiy-moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari o'rtaсидagi raqobatni kuchayishiga, qonunchilik muhitini yaxshilanishiga, aholini moliya tizimiga ishonchini ortishiga va aholi jamg'armalarini kelajakda samarali investitsiyalanishiga olib keladi.

2008-yilda boshlangan inqiroz: inqiroz davrida moliyaviy savodsizlikning subjektiv va obyektiv sabablari dinamikasini o'rganish dolzarbligini oshirdi. Inqiroz aholining o'z moliyaviy mablag'lariiga munosabatini qanday o'zgartirganini va aholining o'z moliyaviy savodxonligini qanday boshlashini aniqlash muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tkazilgan kuzatish natijalari ko'rsatishicha davlatning aholi moliyaviy savodxonligini oshirish dasturini ehtiyojkorlik bilan amalga oshirish

kerak. Chunki odamlar o‘zining moliyaviy savodxonlik darajasini noto‘g‘ri baholab, moliya bozoridagi katta xavf-xatarni o‘z zimmalariga olishi mumkin. Agar hukumatning maqsadi aholining moliyaviy faoliyatini o‘zgartirishdan iborat bo‘lsa, bu maqsadga erishish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirishga sarflanishi kerak bo‘lgan mablag‘ni moliya bozori institutlari ni o‘zgartirishga, isloh qilishga yo‘naltirishi lozim. Misol uchun, maqsad aholini qariganida hayot kechirishi uchun yetarli pensiyaga ega bo‘lishidan iborat bo‘lsa, davlat aholining moliyaviy savodxonligini oshirish o‘rniga soliqlar va pensiya to‘lovleri stavkalarini oshirishi mumkin.

Agar aholiga moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qilish topshirilsa, ularni faqat bir model bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishga chaqirmslik kerak. Aholi belgilangan model bo‘yicha faoliyat yuritishi o‘rniga ma’lumotlarni to‘plash, guruhash va ularni tahlil qilish orqali optimal qarorlarni mustaqil qabul qilishni o‘rganishi kerak. Misol uchun, kishi ma’lum jamg‘armaga ega bo‘lishi kerak degan xulosa odatda to‘g‘ri hisoblanadi, ammo amalda daromad olish nuqtai nazardan aktivlarni jamg‘arish o‘rniga investitsiyalash afzal bo‘ladi.

Shuningdek aholi moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarining maqsadi moliya bozoridagi faoliyatning «to‘g‘ri» modellarini targ‘ib qilishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Buning uchun davlat budgetining moliyaviy mablag‘larini sarflash kerak emas, chunki bunday targ‘ibotlar korxonalarning marketing xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha moliyaviy savodxonlik dasturlari aholiga moliyaviy xizmatlarni xarid qilishda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishi zarur.

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha aholini moliyaviy savodxonligini u yoki bu alohida vazirlik tomonidan amalga oshiriladigan tadbir sifatida qaralishi kerak emas. Moliyaviy ta‘lim berishni qo‘llab-quv vatlash aholini turmush darajasini oshirishning umum davlat strategiyasini muhim vazifalaridan biri deb qarash maqsadga muvofiqdir. Aholini moliyaviy ta‘lim dasturlarini ustun darajada idoralararo darajada qaraladigan muammo sifatida yondoshib, moliyaviy savodxonlikni o‘qitish mexanizmini barqaror takror ishlab chiqarishga qaratilishi zarur.

Moliyaviy ta‘lim dasturlari aholini moliyaviy savodxonligini oshirishdan bevosita manfaatdor bo‘ladigan davlat, xususiy sektor, notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlarni hamkorligida ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak. Ushbu dasturlarni asosiy qatnashchilari jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

1. Davlat vazirliklari va idoralari, masalan Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. Jahon tajribasini ko'rsatishicha moliyaviy ta'lif dasurlarini amalga oshirishda davlat quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- **Muvofiqlashtirish-konsolidatsiyalash vazifasi.** Davlat ushbu dasturlar maqsadi va unga erishish usullarini ishlab chiqishi yagona muvofiqlashtirish markazi, ushbu mavzu bo'yicha muhokama tashkilotchisi, yagona standartlarni aniqlovchisi, bozor o'yinchilariga bir-birlari bilan kelishuvda yordam berishi lozim. Davlat aholi moliya savodxonligiga erishish dasturlari orqali o'z mahsulotini marketing xizmati yordamida reklama qilish va mijozlarni jalb qilishga yo'l qo'ymasligi zarur.
- **Monitoring va analitik vazifalari.** Davlat aholi uchun moliya xizmatlari bozoridagi muammoli zonalar to'g'risidagi ma'lumotni yig'ib olish qobiliyatiga ega.
- **Nazorat va tartibga solish vazifalari.** Davlat ushbu bozorlarni tartibga soluvchi sifatida litsenziyalash, monitoring qilish va himoya qilishni ta'minlaydi, intizomsiz qatnashchilarni aholiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmasliklari ustidan nazorat qilish, moliya institutlari faoliyati shaffofligini ta'minlash siyosatini yuritish, axborotlarni ochish, shartnomalarni unifikatsiyalash, huquqiy bazani takomillashtrib borish.
- **Ta'lif berish vazifasi.** Davlat tasarrufidagi ta'lif muassasalari orqali maktab o'quvchilari va talabalarga har qanday bilimni yetkazib berishga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega. Faqat o'rta maktabning yuqori sinflari doirasidagina aholining turli qatlamlarini maksimal qamrab olishga erishish mumkin. Quyidagi sabablarga ko'ra aholini moliyaviy savodxonligi borasida davlat siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirishi zarur:
  - manfaatlarni muvofiqlashtirishni zarurligi;
  - ushbu dasturlarni amalga oshirishda faoliyat sohalarini muvofiqlashtirishni zarurligi;
  - axborot sifatini nazorat qilishning zarurligi;

Turli taraqqiy etgan mamlakatlarda davlatning siyosati u tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus davlat idoralari, agentliklari yoki tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi: AQSHda — moliyaviy savodxonlik va ta'lif bo'yicha komissiya; Avstraliyada — moliya axborotlari xizmati; Kanadada — moliya xizmatlari iste'molchilarini himoya qilish xizmati;

Buyuk Britaniyada — moliya xizmatlari boshqarmasi. Tahlillar ko'rsatishicha taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha dasturlarining 65% XX asrning 90-yillaridan, 75% esa 90-yillarning oxiri va 2000-yillardan boshlab amalga oshirilmoqda.

Mazkur dasturlarni amalga oshirishning maqsadi aholining tur mush farovonligini oshirish uchun fuqarolarni moliyaviy savodxonligini oshirish hisoblanadi.

2. Notijorat tashkilotlari. Notijorat, jamoat tashkilotlari aholini moliyaviy savodxonlik darajasini ta'minlash strategiyasi tadqiq etish, ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga jalb qilinadi. Nodavlat tashkilotlari ushbu dasturlar o'qitiladigan ma'lum aholining ehtiyojlarini hisobga olib, ular uchun moslashtirishi mumkin.

3. Xususiy tarmoq tashkilotlari. Ayrim tarmoqlar manfaatini ifoda etuvchi xususiy tashkilotlar yoki turli xil bank assotsiatsiyalari.

4. Xalqaro tashkilotlar. Jahonda moliyaviy ta'lim sohasida juda katta va boy tajriba to'plangan. Ushbu tajribani ayrim mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, qo'llab-quvvatlash loyihasi ko'rinishida amalga oshirish mumkin.

5. Ommaviy axborot vositalari (OAV). OAV orqali targ'ib qilish aholining moliyaviy savodxonligini oshirishni poydevori hisoblanadi. OAV uchun tayyorlangan materiallar sifatli ishlab chiqilishi, ayrim bank yoki sug'urta kompaniyasi xizmati reklamasi bo'lmasdan, moliyaviy savodxonlikni oshirishning ayrim tamoyillarini kompleks bayon qilinishi ko'rinishida bo'lishi kerak.

## TAYANCH ATAMALAR

**Savodxonlik** — insonni ona tilida yozish va o'qish ko'nikmalariga ega bo'lish darajasi.

**Matematik savodxonlik** — matematika sohasidagi tegishli bilimga ega bo'lish va atrofdagi real muammolarni matematik yo'l bilan hal etish.

**Iqtisodiy savodxonlik** — kishining iqtisodiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasi bo'lib, unga jamiyat xo'jalik faoliyatida ongli ishtirok etish imkonini beradi.

**Kompyuter savodxonligi** — bu kishining kompyuter tizimlari bilan ishlash sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarining yig'indisi bo'lib, kompyuter tizimidan optimal foydalanish imkonini beradi.

**Moliyaviy savodxonlik** — fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o‘zini va oila a‘zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar va ko‘nikmlar yig‘indisidir.

**Aboli daromadlari** — ma’lum davr davomida aholining olgan barcha pul va natural daromadlari yig‘indisi.

**Tibbiy sug‘urta** — aholini ijtimoiy himoya qilish shakli bo‘lib, sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtachi tomonidan jamg‘arilgan mablag‘lar hisobidan fuqarolarni tibbiy yordam olish haqini kafolatlash.

**Jamg‘ariladigan pensiya tizimi** — iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli hodisalardan ijtimoiy himoya qilish shaklidir.

**O‘rta sinf mulkdorlari** — keng doiradagi moddiy va ijtimoiy ehtiyojlar ni qondirish uchun yetarli barqaror daromadga ega bo‘lgan aholining ijtimoiy guruhidir.

**Moliya tizimi** — takror ishlab chiqarish subyektlari o‘rtasida YAIMni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida sodir bo‘ladigan pul munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

**Moliya bozori** — kapital va kreditlar sotiladigan bozordir.

**Moliyaviy xizmatlar** — yuridik va jismoni shaxslarni pul mablag‘lari ni jaib etgan holda ko‘rsatiladigan moliyaviy vositachilik xizmatlari, shu jumladan kredit.

**Moliyaviy ta‘lim** — kishining moliya sohasidagi bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarga ega bo‘lish darajasi hisoblanib, undan kundalik hayotda ongli foydalanish imkonini beradi.

**Pul savodxonligi** — kishining ortiqcha naqd va naqd bo‘lmagan pullarini va pul o‘tkazmalarini, dastaklarni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lish.

**Narx sohasidagi savodxonlik** — insonni ortiqcha narx belgilash mexanizmi va infliyatsiyani tushuna olish qibiliyatidan iborat.

**Budjet savodxonligi** — kishini oila budjetini daromadlari va xarajatlari ni boshqara olish, moliya bozorida to‘g‘ri qaror qabul qila olishdan iborat.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Savodxonlikni qanday turlarini bilasiz?
2. Moliyaviy savodxonlikga ega bo‘lmasslik qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?

3. Moliyaviy savodxonlikni oshirishga undovchi va rag'batlantiruvchi sabablarini aniqlang?
4. Juhon moliya inqirozini moliyaviy savodxonlik darajasi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatib bering?
5. Moliyaviy savodxonlik tushunchasi xususidagi yondoshuvlarni umumiy jihatlari va farqi nimalardan iborat?
6. Moliyaviy savodxon kishi qanday afzalliklarga ega bo'ladi?
7. Moliviy savodxonlik tushunchasi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
8. Moliyaviy savodxonlik asoslari fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq va ularda qisman o'qitilishi mumkin?
9. Moliyaviy savodxonlikni qanday darajalarini farqlash mumkin?
10. Nima uchun aholining moliyaviy savodxonligiga erishish milliy strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur?
11. Moliyaviy savodxonlikni oshirishdan manfaatdor qanday institutlarni bilasiz?
12. Jahondagi moliyaviy savodxonlikni oshirishning qanday ilg'or tajriba-larini bilasiz va undan mamlakatimizda ijodiy foydalanish imkoniyatlarini aniqlang?
13. Aholini moliyaviy savodxonlik strategiyasini amalga oshirishda davlat qay darajada ishtirok etadi?

## TESTLAR

1. Moliya bozori shakllanishining obyektiv asosi — bu:
  - a) qog'oz pullarning vujudga kelishi;
  - b) birjalarning paydo bo'lishi;
  - v) xorijiy valutaga bo'lgan ehtiyoj;
  - g) pul resurslari va ularning iste'molchilari manbalarining mos kelmasligi.
2. Moliyaviy savodxonlik o'z ichiga oladi:
  - a) daromad va xarajatlarning hisobini olib horish qobiliyati;
  - b) pul resurslaridan oqilonqa foydalanish, jamg'armani shakllantirish va o'z kelajagini rejalashtirish;
  - v) o'z harakati oqibatlarini anglagan holda shaxsiy kapitalni investitsiyalash va qabul qilingan qaror mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga tayyorlik;

- g) hamma javob to'g'ri.
3. O'z moliyaviy savodxonligingizni oshirasizmi? Agar oshirsangiz qanday ko'rinishda?
- bu uchun menin vaqtim yo'q;
  - men kam daromadga egaman;
  - ha, o'z tanishlarim, do'stlarim, qarindoshlarim, OAVdan qandaydir yangiliklardan xabar topaman;
  - ha, men muntazam ravishda o'z moliyaviy savodxonligimni oshiraman, maxsus adabiyotlar o'qiyman seminarlarda qatnashaman, mustaqil moliyaviy konsultantlarning xizmatidan foydalanaman.
4. Bozor iqtisodiyotida moliya bozori bajaradigan asosiy funksiyalarini ko'r-sating:
- jamg'armalarning ssuda va investitsiya kapitaliga aylanishi;
  - moliya dastaklariga (aktivlariga) bozor baholarini shakllanishi;
  - moliya dastaklari (aktivlar) sotuvchilari va xaridorlari o'ttasida malakali vositachilikni amalga oshirish;
  - iqtisodiy jarayonlarni faollashtirish imkonini beruvchi aylanma mablag'larni tezlashtirish;
  - hamma javob to'g'ri.
5. Moliyaviy savodxonlik tushunchasi qanday tarkibiy qismlardan iborat:
- kompyuter, iqtisodiy, matematik;
  - narx, kompyuter, iqtisodiy;
  - pul, narx, budget;
  - iqtisodiy, pul, budget.
6. Iqtisodiy savodxonlik tushunchasi bilan moliyaviy savodxonlik tushunchasi o'ttasida farq bormi?
- moliya iqtisodiydan keng;
  - iqtisodiy moliyaviydan keng;
  - iqtisodiy va moliyaviy bir xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalar;
  - hamma javob to'g'ri.
7. Pul savodxonligi — bu:
- insonni ortiqcha narx belgilash mexanizmi va inflyatsiyani tushuna olish qobiliyatidan iborat;
  - kishini ortiqcha naqd va naqd bo'lmagan pullarni va pul o'tkazmalarini, dastaklarni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;

- v) kishini oila budgetini daromadlari va xarajatlarini boshqara olish, moliya bozorida to'g'ri qaror qabul qila olishdan iborat;
- g) to'g'ri javob yo'q.
8. 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi aholi moliya savodxonligiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
- a) moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatmadni;
- b) moliyaviy savodxonlik darajasi yetarli ekanligini isbotladi;
- v) moliyaviy savodxonlikni oshirish zaruriyati namoyon bo'ldi;
- g) moliyaviy savodxonlik darajasi o'sdi.
9. Narx sohasidagi savodxonlik — bu:
- a) insonni ortiqcha narx belgilash mexanizmi va infliyatsiyani tushuna olish qobiliyatidan iborat.
- b) kishini ortiqcha naqd va naqd bo'lмаган pullarni va pul o'tkazmalarini, dastaklarni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;
- v) kishining iqtisodiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasi;
- g) kishini oila budgetini daromadlari va xarajatlarini boshqara olish, moliya bozorida to'g'ri qaror qabul qilish darajasi.
10. Budget savodxonligi — bu:
- a) budjet sohasidagi tegishli bilimga ega bo'lish va atrofdagi real muammolarni iqtisodiy yo'l bilan hal etish;
- b) kishining bank tizimi sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarining yig'indisi bo'lib, bank tizimidan optimal foydalanish qobiliyati;
- v) jamiyatda o'zini va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisiga ega bo'lish;
- g) kishini oila budgetini daromadlari va xarajatlarini boshqara olish, moliya bozorida to'g'ri qaror qabul qila olishdan iborat.
11. Aholi daromadlari nima?
- a) ish haqi;
- b) moddiy daromadlar;
- v) ish haqi va ijtimoiy nafaqalar;
- g) ma'lum davr davomida aholining olgan barcha pul va natural daromadlari yig'indisi;
12. Moliya bozori — bu:
- a) moliyaviy kapital va tovarlar oldi-sotdisi amalga oshiriladigan joy;
- b) kapital va kreditlar sotiladigan bozor;

- v) iste'mol tovarlari va kreditlari sotiladigan bozor;
- g) valuta va aksiyalar sotiladigan joy.

13. Moliyaviy dastaklar tarkibiga nimalar kiradi?

- a) kreditlar, depozitlar;
- b) chek-schyotlari;
- v) ipotekalar;
- g) kredit va debet kartochkalari.

14. Moliyaviy vositachilarga quyidagilar kiradi:

- a) sug'urta kompaniyalari;
- b) moliya va investitsiya kompaniyalari;
- v) banklar;
- g) pensiya fondlari.

15. O'rta sinf mulkdorlari — bu:

- a) aholining badavlat barcha ehtiyojlari to'liq qondirilgan qatlami;
- b) keng doiradagi moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli, barqaror daromadga ega bo'lgan aholining ijtimoiy qatlami;
- v) aholining o'rtacha statistik daromadiga ega bo'lgan va shaharlarda yashovchi qatlami;
- g) aholining iqtisodiy faol, ish joyi bilan ta'minlangan va daromadlari turli hodisalardan ijtimoiy himoya qilingan qismi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бокарев А. А. Повышение уровня финансовой грамотности населения в Российской Федерации // Финансы, № 9, 2010. с. 4.
2. Букирь М. Я. Кредитная работа в банке: методология и учёт. — М.: КНОРУС, ЦИПСиР, 2012. с. 240
3. Горяев А., Чумаченко В. Финансовая грамота. — М., 2009.
4. Забоенко А. С. Повышение финансовой грамотности населения: важен комплексный подход // Деньги и кредит, №10, 2012. с. 51–53.
5. Зелизер В. Социальное значение денег: деньги на булавки, чеки, пособия по бедности и другие единицы; перевод с англ. А. В. Смирнова и М. С. Добряковой; под науч. ред. В. В. Радаева; — М.: Дом интеллектуальных книг; Издательский дом ГУВШЭ, 2004. с. 284
6. Как экономическая наука помогает делать нашу жизнь лучше / под ред. Д. Зигфрида; пер. с англ. Н. Эдельмана. — М.: Изд. Института Гайдара, с. 432

7. Критерии финансовой грамотности населения и пути ее повышения. Отчет по результатам исследования. — М., 2008. — с. 270
8. Кузина О. Е. Финансовая грамотность россиян (динамика и перспективы) // Деньги и кредит. №1, 2012. с. 68–72.
9. Мамута М. В., Овчинников М. А. и др. Гид по финансовой грамотности. — М., 2009.
10. Овчинников М. Обзор международной практики реализации стратегий и программ в области финансовой грамотности. — М., 2008. — с. 320
11. Хьюз-младший Джеймс И. Богатство семьи. Как сохранить в семье человеческий, интеллектуальный и финансовый капиталы / [Пер. с англ. У. Сапциной]. — М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2012. — с. 288
12. Черемисина Т. П. К вопросу о финансовой грамотности: от Пушкина до наших дней // ЭКО, №6, 2012. с. 151–165.
13. Черногузова Т. Н. Страховое образование как фактор повышения конкурентоспособности российских страховых компаний // Финансы. №11, 2012. с. 31–33.
14. Шахназарян. Повышение финансовой грамотности населения — важнейший приоритет государственной политики // Финансы. №5, 2010. с. 18–21.
15. Finanční gramotnost — obsah a příkladz y praxe škol. Zpracovali: Ing. Petr Klinský, Ing. Danuše Chromá, Ing. Svatava Tesařová, Ing. Michal Janák. Praha. 2008.
16. [www.oecd.org](http://www.oecd.org)

## **XONADON XO'JALIGI DAROMADLARINING SHAKLLANISH MANBALARI: ISH HAQI VA BOSHQA DAROMADLAR**

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### **Reja:**

- 2.1. Xonadon xo'jaligining mohiyati. Xonadon xo'jaligi va oila: umumiyligi jihatlari va farqlari.
- 2.2. Xonadon xo'jaligining funksiyalari.
- 2.3. Xonadon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari va o'zgarish dinamikasi.

### **2.1. Xonadon xo'jaligining mohiyati.**

#### **Xonadon xo'jaligi va oila: umumiyligi jihatlari va farqlari**

Bozor iqtisodiyotida xonadon xo'jaligi bir yoki bir nechta shaxslardan iborat iqtisodiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Xonadon xo'jaligi mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi, o'z ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga harakat qiladi, biron-bir ishlab chiqarish omilining (asosan ishchi kuchi) egasi hisoblanadi, «inson kapitali»ni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishni ta'minlab beradi.

Xonadon xo'jaligi — bu a'zolari qarindoshlik munosabatlari (yoki nirkoh shartnomasi) va yashash sharoitlarining umumiyligi, shuningdek o'zaro ma'naviy mas'uliyat bilan bog'langan kichik guruhlar sifatidagi kishilar o'rtaсидаги о'заро муносабатларинг аниқ тарixiy tizimidir.


Nazariya va amaliyotda yaqin vaqtarga qadar «xonadon xo'jaligi» va «oila» tushunchalari bir xil ma'noda qo'llanilgan. Oilaning xonadon xo'jaligidan printsiplial farqi xonadon xo'jaligi oila tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, tarkibiga ko'ra oila xonadon xo'jaligini yurituvchi, ammo oila a'zolari bilan qarindoshlik munosabatlariga ega bo'lmagan shaxslar hisobiga kengroq hisoblanadi. Bu turdag'i shaxslarga uy xizmatkorlari, enagalar, tarbiyachilar, xizmatchilar, kotibalar, o'qituvchilar, guvernantlar kiradi (agar ular yollab ishlatuvchi oilasida yashasalar). Shuningdek, oilaga qabul

qilingan o'zini moddiy jihatdan ta'minlay olmaydigan yoki layoqatsizligi tufayli o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan shaxslar kiradi. Xonadon xo'jaligiga bir kishi ham kiradi. «Yolg'iz kishi» oila hisoblanmasa-da uning mustaqil ravishda xonadon xo'jaligini yuritishi xonadon xo'jaligi sifatida baholanadi. Demak, xonadon xo'jaligi bir yoki bir nechta oilalardan iborat bo'lishi mumkin.

Oila iqtisodiy subyekt sifatida iqtisodiy aylanishda faol qatnashadi. Bu aylanish mazmunan jamiyatda yaratilgan mahsulotlar, xizmatlar va ular qiymatining ifodasi bo'lgan pul mablag'larining aylanma harakatini bildiradi. Oilaning bozor iqtisodiyotidagi o'rnni quyidagi 2.1.1-chizmada ko'rish mumkin.

### 2.1.1-chizma.

Oilaning bozor iqtisodiyotidagi o'rni



Chizmadan shuni ko'rish mumkinki, xonadon xo'jaligi resurslar bozoriga ishchi kuchi, kapital, yer (agar u xususiy mulk bo'lsa) va tadbirkorlik qobiliyatini chiqarib sotadi va ularning evaziga olingan puldan (pul daromadlari) oila a'zolari ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar va xizmatlar (iste'mol xarajatlari) sotib oladi. Oila ushbu chizmada bozor iqtisodiyotining markazida turadi, u yoki bu darajada xonadon xo'jaliklari va firmalar, resurslar, tovarlar va xizmatlar bozori faoliyatini belgilab beradi. Oila bozor iqtisodiyoti doiraviy aylanishiga qo'shilib turli funksiyalarini hajaradi. Ular jamiyat hayotining barcha jihatlari ni qamrab oladi va ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oila inson kapitalini shakllantirish va jamiy'arishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shuning uchun oila bajaradigan funksiyalar tizimini uch bosqichda ko'rib chiqish mumkin: ta'lim, ishlab chiqarish va «inson kapitali»ni amalga oshirish.

Oilaning «inson kapitali»ni shakllantirishdagi funksiyalarini quyida-  
gi 2.1.2-chizma yordamida ko'rib chiqish mumkin.

## 2.1.2-chizma.

Xonodon xo'jaligining «inson kapitali»ni shakllantirish funksiyalari



Birinchi bosqichda oila budjetini shakllantirish, undan foydalanish va xonodon xo'jaligini yuritish funksiyalarini amalga oshirish jarayonida oilaning moddiy bazasi yaratiladi.

Ikkinchchi bosqichda oila farzand ko'rish, tarbiyalash, rekreatsion funksiyalarni bajaradi. Ushbu bosqichda «inson kapitali»ning jismoniy asosi paydo bo'ladi. Inson kapitalini ishlab chiqarish uchun moddiy resurslar, tovarlar va xizmatlar hamda ishlab chiqaruvchilarning o'zi — oila a'zolari zarur bo'ladi.

Uchinchi bosqichda tadbirkorlik va ishga joylashtirishning turli usullari orqali xonodon xo'jaligi a'zolarining bozor iqtisodiyotida individual qatnashishi, oilaviy biznesning tashkil etilishi, oilalarning bozor iqtisodiyotida korporativ qatnashish shakli, xonodon xo'jaligini yuritish, daromadlar olish va taqsimlash funksiyalari amalga oshiriladi.

Xonodon xo'jalingining «inson kapitali»ni shakllantirish va amalgga oshirish bosqichlaridagi funksiyalari o'zaro bog'liqdir. Barcha funksiyalar «inson kapitali»ni yaratish va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash va jamg'arishga maqsadli yo'naltirilgandir.

Iqtisodiy statistikada «xonodon xo'jaligi» deganda tor ma'noda bandlik sohasi sifatida oila yoki oilalar o'rtasidagi qarindosh-urug'larning o'z mehnatlari bilan oilaning shaxsiy ehtiyojlarini natural ko'rinishdagi mahsulotlar va xizmatlar bilan ta'minlashi tushuniladi. Bu yerda xonodon xo'jaligining bozordagi band-ligi va davlat tomonidan bandlikning tashkil etilishi bir-biriga qarshi qo'yiladi.

BMT tavsiyalariga muvofiq bir birlik yashash joyida birgalikda yashash yoki xo'jalik yuritish mezoni xonodon xo'jaligini mustaqil xo'jalik birligi sifatida ajratish belgisi hisoblanadi. Kishilar o'rtasida birgalikda hayot kechirishni tashkil etish, umumiyo'x xonodon xo'jalik yuritish va boshqa birgalikdag'i munosabatlarda yuzaga keladigan munosabatlarning mavjudligi xonodon xo'jaligining asosiy belgisi hisoblanadi.

Xonodon xo'jaligida oiladan farqli ravishda qarindoshlik munosabatlari yoki xususiyatlari bir xonodon xo'jaligi a'zolari o'rtasida majburiy emas. Umuman, xonodon xo'jaligi tushunchasi alohida shaxslar yoki kishilar guruhining hayot tarziga asoslanadi.

Xonodon xo'jaligi iqtisodiy birlik sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- har bir xonodon xo'jaligi bir kishidan tashkil topgandek yagona qaror qabul qiladi;
- xonodon xo'jaliklari ishlab chiqarish omillarining to'laqonli egalari hisoblanishadi va mustaqil ravishda ularni tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarga sotish to'g'risida qarorlar qabul qilishadi;
- har qanday xonodon xo'jaligi qaror qabul qilar ekan, o'z ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga harakat qiladi.

## 2.2. Xonodon xo'jaligining funksiyalari

Jamiyatning iqtisodiy hayotida xonodon xo'jaligining o'rni qanday?

Xonodon xo'jaligi bozor iqtisodiyoti subyektlari o'rtasida muhim o'rinni tutadi. Xonodon xo'jaligi aholi bandligining xarakterini, bandlikning jamoat ishlab chiqarishi va uy mehnati, turli ishlab chiqarish tarmoqlari, turli bandlik shakllari o'rtasidagi taqsimotini belgilab beradi. Xonodon xo'jaligida qabul qilinadigan qarorlar jamiyat ehtiyojlaridan qat'i nazar, birinchi navbatda xonodon xo'jaligi xususiyatlari, tarkibi, moddiy ta'minoti va boshqa omillarga bog'liq holda qabul qilinadi.

Xonodon xo'jaligi — aholi daromadlarini shakllantiruvchi, ularni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlovchi va qayta taqsimlovchi, shu orqali hozir va kelajakda takror ishlab chiqarish uchun moddiy shart-sharoitlar yaratuvchi subyektdir.

Xonodon xo'jaligi daromadlardan foydalanish xarakteri, ya'ni ularni tovarlar, xizmatlar, jamg'armalarga aylantirishni belgilab beradi.

Xonodon xo'jaligi — mehnat resurslarini takror ishlab chiqaruvchi asosiy subyekt bo'lib, ushbu vazifasini bilvosita aholini takror ishlab chiqarish orqali bajaradi.

Xonodon xo'jaligi — individlarning mehnatda o'zini to'liq ko'rsata olishini ta'minlab beruvchi muhim ijtimoiy subyektlardan biridir. Xonodon xo'jaligining ushbu vazifasi birinchidan, yangi avlodni ijtimoiylashtirish, ularni mehnat faoliyatiga jalb etish bilan izohlanadi. Ikkinchidan, xonodon xo'jaligi a'zolari uchun moddiy va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar yaratib berishi yoki aksincha, ularning mehnat faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Xonodon xo'jaligining u yoki bu faoliyati pirovard natijada jamiyatning iqtisodiy rivojlanish ko'rsat-kichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Xonodon xo'jaligining makroiqtisodiy roli uning bozor xo'jaligida daromadlarni qayta taqsimlash, xarid qobiliyatining, talabning shakllanishi-dagi muhim omil sifatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

Xonodon xo'jaligi bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital jamg'arishining, iqtisodiy taraqqiyotning muhim manbai sifatida faol qatnashadi (rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan jamg'armalarning yarmidan ortig'i xonodon xo'jaliklariga tegishlidir).

Xonodon xo'jaligining iqtisodiy funksiyalari sifatida:

- resurslarni (mehnat, yer va kapital) taqsimlash;

- iste'mol qilish;
- ishlab chiqarishni ajratish mumkin.

Xonodon xo'jaligi moliyasi yakka yoki birgalikda yashaydigan va umumiy budgetga ega kishilar xo'jaligidir. Xonodon xo'jaligida turli faoliyatlar amalga oshirilib, moliyaviy resurslar yaratiladi va ulardan foydalaniladi.

Xonodon xo'jaligi moliyasi — bu individual mehnat faoliyati natijasida yaratiladigan pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari yig'indisidir.

**Xonodon xo'jaligi moliyasining funksiyalari.** Xonodon xo'jaligi moliyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kishilarni moddiy va ijtimoiy-madaniy tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlash. Ushbu funksiyaning roli mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida yanada ortdi;
- yalpi ichki mahsulot va yaratilgan milliy daromad qiymatini kishilar va davlat, kishilar va korxonalar, individual oilalar o'rtaida taqsimlash.

Xonodon xo'jaligida kishilar tomonidan ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda u quyidagi funksiyalarni bajaradi.

I. Xonodon xo'jaligining ishlab chiqarish funksiyasi. Ushbu guruhga quyidagilar kiradi.

1. Shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritish. Bunda barcha turdag'i yer uchastkalari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun foydalaniladi. Ishlab chiqarilgan mahsulot ichki iste'mol va bozorga chiqarib sotish uchun ishlatalishi mumkin.
2. Individual-mehnat va tadbirkorlik faoliyati. Ushbu faoliyatga uy sharoitida aholi ehtiyojlari uchun kundalik tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat turlari kiradi.
3. Individual-oilaviy savdo. Ushbu faoliyat turi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - tovarlarni qimmatroq narxlarda qayta sotish;
  - jamg'arilgan mayda keraksiz buyumlarni sotish;
  - xorijdan sotib olingan keng iste'mol import tovarlarini sotish.

II. Iqtisodiy noishlab chiqarish funksiyalari:

- yashash joylari, dala hovli, yer, uzoq muddat xizmat qiluvchi buyumlar, avtomobillar, garajlar, omborxonalar va boshqalarni ijara berish;
- qimmatbaho qog'ozlar sotib olish va ulardan foydalanish, bankdagi omonatlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish.

Xonodon xo'jaligining turli-tumanligi a'zolarining jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi va boshqa omillar bilan izohlanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra xonodon xo'jaligi to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi mezonlarga muvofiq tizimlashtirish zaruriyati yuzaga keladi:

1. Hududiy-mintaqaqaviy joylashuvi:
  - xonodon xo'jaligining joylashuvi: mamlakat mintaqasi yoki tabiiy-iqlim zonasasi, tog‘, cho‘l, cho‘loldi va h. k.;
  - shahar yoki qishloq;
  - yirik sanoat shahri, o‘rta yoki kichik shaharlar, qishloq, ovul, alohida uy va h. k. larda joylashuvi.
2. Demografik tavsifi (xonodon xo'jaligi a'zolarining soni, o‘rtacha yoshi va h. k.).

### **2.3. Xonodon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari va o‘zgarish dinamikasi**

Bozor munosabatlari va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun xonadan xo'jaliklari yetarli darajada quyidagi tarkibdagi moliyaviy salohiyatga ega bo‘lishlari lozim:

- ko‘chmas mulk (yer uchastkasi, kvartira, boshqa binolar);
- kapital aktivlar (asbob-uskunalar, instrumentlar, ish jarayoni);
- moliyaviy aktivlar (pul, qimmatbaho qog‘ozlar va boshqalar);
- buyumlar (uzoq muddatli foydalaniqidigan tovarlar).

Xonodon xo'jaliklarining ushbu aktivlarga egalik qilishlari ularga mustaqillik va bozorda raqobatbardosh subyekt sifatida faoliyat olib borish imkonini beradi.

Xonodon xo'jaligida ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar hajmi ning ortishi ularning daromadlarini ko‘paytiradi. Xonodon xo'jaligi iqtisodiy holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar yalpi daromadlar deb ataladi. Yalpi daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a) pul daromadlari;
- b) oziq-ovqat mahsulotlari qiymati;
- v) natural ko‘rinishda berilgan dotatsiyalar, imtiyozlar qiymati va xakozolar.

Aholining pul daromadlari xonodon xo'jaligi xarajatlarini qoplash va jamg‘armalar yaratish uchun ixtiyorida bo‘lgan pul mablag‘lari yig‘in-

disidan iborat. Pul daromadlari shakllanish manbalariga ko'ra quyidagi larga bo'linadi:

- ish haqi;
- tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar;
- mulkdan olinadigan daromadlar;
- ijtimoiy to'lovlar.

**Ixtiyordagi pul daromadlari.** Xonodon xo'jaligida pul daromadlaridan majburiy to'lovlar va badallar ayirib tashlab hisoblanadigan **ixtiyoridagi daromadlar** hisobga olinadi. Ma'lum davrda xonodon xo'jaligi tomonidan pul ko'rinishida olinadigan daromadlar **nominal daromadlar** deyiladi. Xonodon xo'jaligining **real daromadlari** xonodon xo'jaligida olinadigan pul daromadiga sotib olinishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar sonini ifodalaydi. Real daromadlar miqdori ma'lum davrda ixtiyoridagi daromadlar va iste'mol baholarning indeksi o'sish sur'atlari o'rtaсидаги nisbatga bog'liq. Xonodon xo'jaligining real daromadlari mulk va ilgari to'plangan jamg'arma hajmi bilan birgalikda xonodon xo'jaligini farovonlik darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Xonodon xo'jaligi ixtiyoridagi pul daromadlari esa quyidagi tarkibga ega:

- ish haqi;
- tadbirkorlik daromadlari;
- mulkdan olinadigan daromadlar;
- olingan ijtimoiy transfertlar.


**Ish haqi** xonodon xo'jaligi a'zolari tomonidan bajarilgan ish uchun olinadigan pul mablag'laridan iborat. **Tadbirkorlik daromadlari** — bu xonodon xo'jaliklari tomonidan tadbirkorlik faoliyati jarayonida olinadigan foyda yoki ish haqi ko'rinishidagi daromadlardir. **Mulkdan olinadigan daromadlar** asosan xonodon xo'jaliklariga tegishli moddiy aktivlarni ijaraga berishdan olinadigan mablag'lardan tashkil topadi. Bundan tashqari mulkdan olinadigan daromadlar bank omonatlari va qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha foizlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar, renta va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Xonodon xo'jaliklari kreditlar bo'yicha foizlar to'lashadi. Shuning uchun mulkdan olinadigan daromadlar qoldig'i bu mulk-dan olingan va to'langan daromadlar o'rtaсидаги farqdir.

Xonodon xo'jaliklari daromadlarining muhim qismini **ijtimoiy to'lovlar (transfertlar)** tashkil etadi. Ularga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, sug'urta

to'lovlari va boshqa budjet, budjetdan tashqari jamg'armalardan tushgan tushumlar kiradi. Xonodon xo'jaliklari budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga soliqlar, ijtimoiy sug'urta badallari va boshqa to'lovlarni amalga oshirishadi. Shuning uchun joriy transferlar qoldig'i bu olingan va berilgan transferlar o'rtasidagi farqdir.

### 2.3.1-rasm.

Xonodon xo'jaligi pul daromadlarining tarkibi, jamiga nisbatan foizda<sup>2</sup>



■ Ish haqi; ■ Ijtimoiy to'lovlari; ■ Mulkdan, tadbirkorlik faoliyatidan va boshqa daromadlar

Xonodon xo'jaligi daromadlari tarkibida yetakchi o'rinni ish haqi va barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgan tadbirkorlik daromadlari tashkil etmoqda. Xonodon xo'jaligi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan daromadlari, mulkdan olinadigan daromadlar ko'rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo'lib 2010-yilda ular hissasiga yalpi daromadlarning 47% to'g'ri keldi. Yangi turdag'i ushbu daromadlarni afzalligi shundaki, aholini tadbirkorlik sohasidagi faollahsuvi xonodon xo'jaligi daromadlarini jadal sur'atlarda oshib boriishi uchun rag'batlantiruvchi bozor omillarini yaratadi. Mamlakatimizda o'rtacha oylik ish haqi miqdorini izchil, bosqichma-bosqich oshirib bori-


2 Ўзбекистон Республикаси иктисодий-ижтимоий тараккиётининг мустакиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари хамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик түплам. — Т.: «Ўзбекистон», 2011. 82–83 бетлар.

lishi xonodon daromadlari tarkibidagi ish haqi ulushini barqaror holatda 38,6%da saqlab turish imkonini bermoqda.

Ish haqi ishlovchiga uning ishchi kuchidan foydalanganlik uchun mehnatiga to'lanadigan haqdir. Ish haqi miqdori quyidagi omillar bilan belgilanadi (2.3.1-chizma).

### 2.3.1-chizma.

#### Ish haqi miqdorini belgilovchi omillar



**Ishchi kuchi qiymati** — bu ishlovchining hayoti va mehnat qobiliyatini normal takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi zarur tirikchilik vositalari va xizmatlari qiymatidan iborat. Odatda, ishchi kuchi qiymatiga ishlovchi va uning oila a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va uni kasbiy malakasini oshirish uchun ketadigan xarajatlar kiradi.

Ishchi kuchi mutlaqo boshqacha tirik va jonli tovar hisoblanadi. Odatda foydali buyumlardan farqli o'laroq ishchi kuchi qiymati miqdori ikki miqdoriy chegaralarga ega. **Quyi fiziologik chegara** eng past dara-

jadagi malakasiz ishchi kuchi mehnat qobiliyatini tiklash uchun yetarli bo'lgan hayotiy ne'matlar va xizmatlar qiymatiga teng bo'ladi. **Yuqori chegarasi esa yuqori malakali ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy va madaniy ne'mat va xizmatlarni yig'indisi qiymatini o'z ichiga oladi<sup>3</sup>.**

Ishchi kuchi qiymati miqdori turli mamlakatlardagi tarixiy va tabiiy shart-sharoitlar, an'analar va jamiyatda aholi erishgan turmush darajasi bilan belgilanadi. Masalan, Amerikada ishchi kuchi qiymatini belgilayotganda avtomobilga bo'lgan ehtiyoji yoki Kanadaning qutb doirasidan narida ishlayotgan ishchilariga ish haqi to'lashda qimmatli mo'yna kiyimi bahosi hisobga olinishi kerak. Ish kuchi qiymati har bir mamlakatda minimal zarur bo'lgan ish haqi normasi uchun mezon hisoblanadi.

Ish haqi miqdoriga sarflangan mehnat qiymati va sifati jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarish xajmining ortishi ishlovchi ish haqini miqdorini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yollanma ishchi kuchiga nisbatan mehnatga qarab taqsimlash tamoyili amal qiladi. Ushbu tamoyilga muvofiq ish haqi miqdori ishning pirovard natijalari bilan bog'liq qilib qo'yiladi (nechta, qanday qilib va qanday sifatga ega mahsulotlar ishlab chiqariladi). Amerikalik taniqli tadbirdor G. Ford aytganidek, «har bir ishchi jamiyatga qancha bergen bo'lsa, shuncha olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim»<sup>4</sup>. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yollanma ishchining ish haqi miqdoriga uning ish faoliyatining pirovard natijalari bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ish haqi darajasi yollanma ishlovchining mehnat unumidorligi darajasiga bog'liqdir. Odatda, amaliyotda mehnat unumidorligi ish haqiga nisbatan tezroq o'sishi kerak. Aks holda mehnat unumdorligining ortishi tufayli olingan samara ish haqi to'lashga sarflanadi, ya'ni bir ishlovchiga tegishli bo'ladi, bu esa adolatsizlikdir. Amaliyot va tahlillar ko'rsatishicha mehnat unumdorligining ortishi bu ayrim olingan ishlovchi mehnatinining natijasi bo'libgina qolmasdan, shuningdek tadbirdor (g'oya, investitsiyalar, risk), menejer va injenerlarni (tashkil etish, boshqarish, texnologiyalar), butun jamiyatning (fan, ta'lim, infratuzilma va boshqalar) mehnat faoliyati natijasi hisoblanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, ushbu jarayonda olingan

3 Куликов Л. М. Экономическая теория: учеб. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. С. 83–85; Борисов Е. Ф. Экономическая теория: учеб. 2-е изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. С. 281–286.

4 Форд Г. Моя жизнь, мои достижения. — М: Финансы и статистика, 1989. С. 16.

samara ish haqini o'sishida, ishlab chiqarish va bahoning pasayishida, tadbirkor va mehnat jarayonining boshqa qatnashchilari daromadlarini ko'payishida namoyon bo'lishi zarur.

Ishchi malakasi va mehnat turi ish haqi miqdorini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, yuqori murakkab mehnatni, mala-kani talab qiluvchi, noyob yoki riskli kasb egalari mehnati, alohida iqtidori li kishilarning ijodiy mehnati tegishli yuqori ish haqi bilan taqdirlanishi lozim. Klassik iqtisodiy maktab asoschilaridan biri hisoblangan A. Smit ta'kidlaganidek, «ish haqi erkin iqtisodiyot sharoitida juda harakatchan va muntazam ravishda o'z-o'zini tartibga solib turadi»<sup>5</sup>. Agar ish haqi miqdori u yoki bu soha yoki kasbda ortib borsa, odamlar o'sha tarmoqqa o'tishga harakat qiladi, ular o'rtasidagi raqobat kuchayib boradi va haq to'lash miqdori pasayadi, yangi yanada yuqoriroq daromad keltiradigan sohalarni izlash jarayoni muttasil davom etadi. Ish haqi murakkab mehnatni rag'batlantirishi uchun korxonalarda ishlovchining ish haqi miqdori bilan malakasi, bajarilayotgan ishning murakkabligi, javobgarlik darajasi o'r-tasida bevosita bog'liqlik bor. Ishchilar o'rtasida ish haqi darajasiga ko'ra hozirgi zamон uskunalariga xizmat ko'rsatadigan mexanik-remontchilar, naladkachilar, slesar-mexaniklar ajralib turadi va ularning ish haqi konveyerda ishlayotganlarga nisbatan ikki-uch baravar yuqori bo'ladi. Eng kam ish haqi oladigan ishlovchilar uzoq, maxsus tayyorgarlikni talab etmaydigan (farroshlar, qorovullar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi do'konlarda mahsulot qadoqllovchilar, kassirlar, yuk tashuvchilar va boshqalar) kash egalaridan iborat.

Mehnat bozorining kon'yunkturasi (holati), ya'ni ishchi kuchiga bo'l-gan talab va taklif o'rtasidagi nisbat, bo'sh ish joylariga da'vogarlar o'rta-sidagi keskin raqobat, ishsizlik darajasi ish haqi miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar talab taklifga nisbatan yuqori bo'lsa mehnatning ma'lum turi bahosi ortadi. Hozirda yuqori malakali ishlovchilarga bo'l-gan talab to'la qondirilmayapti. Bu esa o'z navbatida o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislarining ish haqini ortishiga olib keladi. Ikkinci tomondan malaka-siz ishchi kuchiga bo'l-gan talab aksariyat holatlarda kamaymoqda. Bu esa o'z navbatida o'rta ma'lumotga ega bo'l-magan kishilarning ish haqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda ishsizlik darajasining ortishi ish haqi miq-

5 Аникин А. В. Адам Смит («Жизнь замечательных людей» серия биографий). — М.: Молодая гвардия, 1968. С. 168.

dorini pasaytiradi, tanqis kasb egalariga bo'lgan yuqori darajadagi talab esa ish haqi miqdorini o'sishiga imkon yaratadi.


Ish haqi miqdoriga ta'sir etuvchi muhim bozor omillaridan biri mehnat bozoridagi raqobat va moliya hisoblanadi. Raqobat ish haqi darajarini barobarlashtirish imkonini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorida «teng mehnatga — teng ish haqi» tamoyili amal qiladi. Mehnat bozorida ish beruvchilarning monopol holatini egallashi tufayli ishlovchilarga o'z ish haqi shartlarini o'tkazishga harakat qilishiadi. Ish beruvchilar ishsizlikning ko'payishidan manfaatdor bo'lib, ish haqi miqdorini pasaytirish imkoniyatini vujudga keltirishga harakat qiladi. Shuning uchun mustaqil ishlovchilar professional uyushmalarini tuzish va ish beruvchilar bilan jamoa shartnomalarini imzolash orqali o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladilar.

Ish haqi miqdoriga turli mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy yashash sharoitlarini rivojlanish darajasidagi milliy farqlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ish haqi miqdorigagi farqlar ishlab chiqarishni texnologik va ijtimoiy mehnat unumtdorligi darajasi, ishchi kuchini rivojlanish darajasi mamlakatda erishilgan normal turmush sifati va boshqa omil-larga bog'liq.

Soliqlar va inflyatsiya darajasiga mutanosib ravishda ish haqi nominal va real turlarga bo'linadi (2.3.2-chizma). Nominal ish haqi bu ishchi mehnatiga haq sifatida to'lanadigan pul summasidir. Nominal ish haqini o'z navbatida a) hisoblangan (soliqlar undirilgunga qadar) va b) to'langan (soliqlar undirilgan) ish haqiga bo'lish mumkin.

### 2.3.2-chizma.

Nominal va real ish haqlari o'rtaqidagi farq



Real ish haqi — bu ishchining o'z nominal ish haqiga (soliqlar va narxlarning hozirgi darajasida) sotib olgan tovar va xizmatlar miqdorining qiymatini aks ettiradi. Demak, real ish haqi quyidagi uch omil bilan aniqlanadi: a) nominal ish haqi miqdori; b) amaldagi soliqlar miqdori; v) iste'mol narxlari darajasi.

Real ish haqi dinamikasi quyidagi indekslar yordamida aniqlanadi (2.3.1-jadval).

### 2.3.1-jadval.

Real ish haqi dinamikasi indekslari

Indeks	Indeksning mazmuni	Shartli misol
Nominal ish haqi	Yil boshi va yil oxiridagi nominal ish haqi summalari o'tasidagi foizdagi nisbati	Agar ish haqi 100000 so'mdan 110000 so'mgacha oshsa, unda ushbu indeks 110% ga teng $((110000/10000) \times 100)$
Iste'mol narxlari	«Iste'mol savati» qiymatining yil boshi va yil oxiridagi foizi nisbati	Agar «iste'mol savati» 100000 so'mdan 125000 so'mgacha qimmatlashsa, unda ushbu indeks 125% ga teng $((125000/100000) \times 100)$
Real ish haqi	Nominal ish haqi indeksining iste'mol narxlari indeksiga nisbati	Bizning misolimizda ushbu indeks 88% ga teng $((110/125) \times 100)$ , ya'ni real ish haqi 12%ga pasaygan

Boshqacha aytganda real ish haqi mehnatga to'langan pulning xarid qobiliyatini, uning tovarlar va xizmatlarda ifodalangan iste'mol mazmunini aks ettiradi. Demak, nominal ish haqi miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlar va narxlar qanchalik past bo'lsa, ishchining real ish haqi shunchalik yuqori bo'ladi.

Mehnatga haq to'lashning zamonaviy tizimlarida ish haqi asosiy va qo'shimcha ish haqiga bo'linadi. Asosiy ish haqi ishchining kasbiy malakasiga bog'liq holda lavozim okladi ko'rinishida to'lanadi, qo'shimcha ish haqi esa turli xil qo'shimcha (ortiqcha bajarilgan, kechki, zararli, murakkab ishlar uchun) to'lovlar va mukofotlardan (bonuslar) iborat bo'ladi.

### 2.3.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida o'rtacha oylik ish haqi (2011 yil)<sup>6</sup>

	Ming so'm	Respublika o'rtacha ish haqi darajasi- ga nisbatan foiz hi- sobida
O'zbekiston Respublikasi	634,4	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	555,5	87,6
viloyatlar:		
Andijon	574,0	90,5
Buxoro	606,7	95,6
Jizzax	531,6	83,8
Qashqadaryo	597,4	94,2
Navoiy	912,6	143,8
Namangan	487,1	76,8
Samarqand	498,9	78,6
Surxondaryo	506,9	79,9
Sirdaryo	549,9	86,7
Toshkent	718,6	113,3
Farg'ona	541,6	85,4
Xorazm	493,4	77,8
Toshkent sh.	857,2	135,1

O'zbekistonda ish haqi miqdorining mintaqaviy tarkibi tahlili ko'rsatishicha, ish haqi miqdori barqaror sur'atlarda o'sib borgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan va sanoatlashgan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mintaqalardagi ish haqi miqdori o'rtacha respublika darajasiga nisbatan yuqori bo'lgan. Masalan, 2011-yilda o'rtacha ish haqi miqdori Navoiy viloyatida o'rtacha respublika darajasiga nisbatan 143,8%, Toshkent shahrida 135,1%, Toshkent viloyatida 113,3% ni tashkil etgan holda, aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtacha respublika darajasiga nisbatan past bo'lgan va asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan Namangan viloyatida 76,8%, Xorazm viloyatida 77,8%, Samarqand viloyatida 78,6%, Surxondaryo viloyatida 79,9% ga teng bo'ldi. Hukumatimizni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan mintaqaviy siyosati tufayli ushbu ish haqi darajasidagi mintaqaviy farqlar kamaymoqda.

6 O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi materiallari asosida tuzilgan.

## 2.3.3-jadval.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida o'rtacha oylik ish haqi (2011-yil)<sup>7</sup>

	Ming so'm	Respublika o'rtacha ish haqi darajasiiga nisbatan foiz hisobida
Respublika bo'yicha	634,4	100,0
shu jumladan:		
Sanoat	995,2	156,9
Qurilish	1009,4	159,1
Transport	846,7	133,5
Aloqa	834,0	131,5
Savdo va umumiy ovqatlanish, ta'minot, tayyorlov	709,8	111,9
Uy-joy kommunal xo'jaligi va uy xo'jaliklariiga xizmat ko'rsatishning noishlab chiqarish turlari	507,4	80,0
Sog'lijni saqlash, jismoniy madaniyat va sport, ijtimoiy ta'minot	507,4	80,0
Xalq ta'limi	515,2	81,1
Madaniyat va san'at	494,9	78,0
Fan va fanga xizmat qilish	682,1	107,5
Moliya, kreditlash, sug'urta	652,0	102,8

Mamlakatimizda ish haqi darajasining tarmoq tarkibida quyidagi tamoyillar yaqqol ko'zga tashlanmoqda: a) jadal sur'atlarda modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilayotgan real sektorga kiruvchi tarmoqlarda o'rtacha ish haqi darajasi respublika darajasiga nisbatan qurilish (159,1%), sanoat (156,9%), transport (133,5%), aloqa (131,5%), ijtimoiy soha tarmoqlarida ushbu ko'rsatkich madaniyat va san'atda 78,0%, sog'lijni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot, uy-joy kommunal xo'jaligida 80,0%, xalq ta'limida 81,1% ni tashkil etdi. Hukumatimiz tomonidan ijtimoiy sohada faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, shifokorlar ish haqlarini oshirish borasida amalga oshirilayotgan maqsadli tadbirlar tufayli tarmoqlararo tafovut qisqarish ko'rinishiga ega.

7 O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi materiallari asosida tuzilgan.

Ish haqi va foyda miqdorlari bir-biri bilan teskari nisbatda bo'ladi. Shuning uchun yollanma ishchilar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi asosiy kelishmovchiliklar ish haqi miqdori mavzusida bo'lgan. Amalda ish beruvchi, tadbirkorlar shaxsiy biznes bilan shug'ullanish og'irligini o'z zimmasiga olishni xohlamagan kishilar uchun ishlash va yashash uchun zarur mablag' topish hamda hayotiy zarur iste'mol tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadilar. O'z navbatida «yollanma ishchilar» tadbirkorlarni o'zlarining ishchi kuchlari bilan ta'minlab foyda olish imkoniyatini yaratadilar. Yollanma ishchilar ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni asosiy iste'molchilari hisoblanadilar.

### 2.3.3-chizma.

Tadbirkorlar va yollanma ishchilarning ijtimoiy hamkorligining zarurligi<sup>8</sup>



Biznes va mehnatning asosiy manfaatlari qarama-qarshi emas. Eng muhim holatlar bo'yicha taxminiy balans mavjud. G. Ford ta'biricha, «har bir tadbirkor korxona — bu o'ziga xos sherikchilikdir»<sup>9</sup>. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ish beruvchilar va yollanma ishlovchilar ijtimoiy sheriklar sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Shu sababli ish haqi miqdori va mehnat sharoitlari to'g'risidagi kelishmovchiliklarni davlatning qonun chiqaruvchilik faoliyati va mehnatga haq to'lashni tartibga solish orqali madaniyatli tarzda bartaraf etish lozim.


Davlat ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rasisidagi nizolarni hal etish imkoniyatini beruvchi qonunlar qabul qiladi. Davlat mamlakatda

8 Куликов Л. М. Экономическая теория: учеб. М.: ТК Велби, Изд. во Проспект, 2006. С. 93.  
9 Форд Г. Моя жизнь, мои достижения. М.: Финансы и статистика, 1989. С. 99–100.

zarur minimal ish haqini, asosiy malakaviy va tarif standartlarini belgilaydi va tadbirkorlar unga rioya qiladilar. Mehnat munosabatlarini bevosita tartibga solish mehnat sharoiti, haq to'lash, mehnatni baholash tartibi, shakllari, haq to'lash tizimlarini belgilaydigan shartnoma va kelishuvlar (bitimlar) asosida amalga oshiriladi.

#### 2.3.4-chizma.

Mehnat munosabatlarini tartibga solish mexanizmi<sup>10</sup>



Chizmada keltirilgan alohida va jamoa shartnomalari korxona miqyosida, boshqalari esa katta miqyosda amal qiladi. Alohida mehnat shartnomalari ayrim ishlovchi bilan firma ma'muriyati o'rtaida ma'lum muddatga tuziladi. Jamoa shartnomasi esa ma'muriyat bilan ishlab chiqarish xodimlari o'rtaida tuziladi. Tarmoq shartnomalari to'liq tarmoq (masalan, elektrenergetika), hudud (viloyat, tuman) yoki ma'lum kasbdagi hamma ishlovchilarga (masalan, o'qituvchilar) taalluqli bo'lgan jamoa shartnomalari hisoblanadi. Barcha shartnomalarning oliv shakli mamlakat miqyosida tripartizm tamoyili, ya'ni hukumat, ish beruvchilar uyushmalari va kasaba uyushmalari o'rtaida tuziladigan bosh bitimdan iborat.

Kasaba uyushmalari — o'z manfaatlarini jamoaga uyushgan holda himoya qilish uchun kasblari bo'yicha birlashgan ishlovchilar guruhiidan iborat.

10 Куликов Л. М. Экономическая теория: учеб. М.: ТК Велби, Изд. во Проспект, 2006. С. 95.

## TAYANCH ATAMALAR

**Oila** — bozor iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalini shakllantirish va jamg'arishning asosiy bo'g'ini.

**Xonodon xo'jaligi** — bu oila a'zolarining qarindoshlik munosabatlari (yoki nikoh shartnomasi) va yashash sharoitlarining umumiyligi, shuningdek o'zaro ma'nnaviy mas'uliyat bilan bog'langan kichik guruhlar sifatidagi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning aniq tarixiy tizimi.

**Xonodon xo'jaligi** — aholi daromadlarini shakllantiruvchi, ularni a'zolari o'rtasida taqsimlovchi va qayta taqsimlash orqali inson kapitalini takror ishlab chiqarish uchun moddiy shart-sharoitlar yaratuvchi subjektdir.

**Rekreatsiya** — mehnat jarayonida kishini sarflagan mehnat qobiliyatlarini tiklanish va takror ishlab chiqarish vaqtini.

**Xonodon xo'jaligi moliysi** — bu individual mehnat faoliyati natijasida yaratiladigan pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari yig'indisidir.

**Yalpi daromadlar** — xonodon xo'jaligi iqtisodiy holatini aks ettiruvchi pul daromadlari, oziq-ovqat mahsulotlari qiymati, natural ko'rinishda berilgan dotatsiyalar, imtiyozlar qiymati va boshqa ko'rsatkichlar yig'indisidan iborat.

**Aholining pul daromadlari** — xonodon xo'jaligi xarajatlarini qoplash va jamg'armalar yaratish uchun ixtiyorida bo'lgan pul mablag'larini yig'indisidan iborat.

**Aholi ixtiyoridagi pul daromadlari** — xonodon xo'jaligida pul daromadlaridan majburiy to'lovlari va badallar ayirib tashlangandan keyin qolgan qismi.

**Nominal daromadlar** — ma'lum davrda xonodon xo'jaligi tomonidan pul ko'rinishida olinadigan daromadlar yig'indisi.

**Real daromadlar** — xonodon xo'jaligida olinadigan pul daromadiga sotib olinishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar soni.

**Ish haqi** — xonodon xo'jaligi a'zolari tomonidan bajarilgan ish uchun olinadigan pul mablag'ları.

**Tadbirkorlik daromadlari** — bu xonodon xo'jaliklari tomonidan tadbirkorlik faoliyati jarayonida olinadigan daromadlardir.

**Mulkdan olinadigan daromadlar** — asosan xonodon xo'jaliklariga tegishli moddiy aktivlarni ijara qilish uchun olinadigan mablag'lar.

**Ijtimoiy to'lovlар (transfertlar)** — xonodon xo'jaliklarining pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, sug'urta to'lovlari va boshqa budget, budjetdan tashqari jamg'armalardan tushgan tushumlari.

**Ishchi kuchi qiymati** — bu ishlovchining hayoti va mehnat qobiliyatini normal takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi zarur tirikchilik vositalari va xizmatlari qiymatidan iborat.

**Quyi fiziologik chegara** — eng past darajadagi malakasiz ishchi kuchi mehnat qibiliyatini tiklash uchun yetarli bo'lgan hayotiy ne'matlar va xizmatlari qiymatidan iborat.

**Yuqori fiziologik chegara** — yuqori malakali ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy, madaniy ne'matlar va xizmatlarni yig'indisi qiymatidir.

**Nominal ish haqi** — bu ishchi mehnatiga haq sifatida to'lanadigan pul summasidir.

**Real ish haqi** — bu ishchining o'z nominal ish haqiga (soliqlar va narxlarning hozirgi darajasida) sotib olgan tovar va xizmatlar miqdorining qiymatini aks ettiradi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Xonodon xo'jaligiga ta'rif bering.
2. Xonodon xo'jaligining funksiyalari nimalardan iborat?
3. Xonodon xo'jaligi va oilaning umumiyligi jihatlari va farqi.
4. Xonodon xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida qanday o'rinn tutadi?
5. Xonodon xo'jaligi moliyasining funksiyalari nimalardan iborat?
6. Xonodon xo'jaligi daromadlari tarkibiga qanday elementlar kiradi?
7. Ish haqi miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang va guruhlang.
8. Ish haqining qaysi shakli ishlovchilarning haqiqiy turmush darajasini belgilaydi?
9. Mehnat shartnomasi nima va uning qanday turlarini bilasiz?
10. Davlat qanday qilib ish beruvchilar bilan yollanma ishlovchilar o'rta-sida sodir bo'ladijan mehnat nizolarini hal etadi?
11. Aholi bandligini oshirishda hukumatning maqsadli dasturlari qanday o'rinn tutadi?
12. Bandlikka ko'maklashish jamg'armasining maqsadi va vazifalarini aniqlang.
13. 2012-yilga mo'ljallangan O'zbekistondagi Bandlik dasturining maqsadi va ustuvor yo'nalishlarini aniqlang.

## TESTLAR

1. Xonodon xo'jaligining «inson kapitali»ni shakllantirish funksiyalari:
  - a) inson kapitalini ishlab chiqish uchun normal sharoitlar yaratish;
  - b) inson kapitalini ishlab chiqarish;
  - v) inson kapitalini amalga oshirish;
  - g) hamma javob to'g'ri.
2. Aholi daromadlarini shakllantiruvchi, taqsimlovchi va qayta taqsimlovchi, hozirda va kelajakda ham takror ishlab chiqarish uchun moddiy shart-sharoitlar yaratuvchi subyekt:
  - a) aholi yalpi daromadlari;
  - b) xonodon moliyasi;
  - v) xonodon xo'jaligi;
  - g) korxona xo'jaligi.
3. «Inson kapitali»ni ishlab chiqarish funksiyasi quyidagilarni bajaradi:
  - a) farzand ko'rish, oilaviy biznesni tashkil etish;
  - b) farzand ko'rish, tarbiyalash, rekreatsiya;
  - v) xonodon budgetini shakllantrish, farzand ko'rish, rekreatsiya;
  - g) farzand ko'rish, tarbiyalash, ishga joylashtirish.
4. Xonodon xo'jaligi iqtisodiy birlik sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:
  - a) bir kishidan tashkil topgandek yagona qaror qabul qiladi;
  - b) ishlab chiqarish omillarining to'laqonli egalari sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarga sotish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
  - v) o'z ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga harakat qilish;
  - g) hamma javob to'g'ri.
5. Xonodon xo'jaligi moliyasi — bu:
  - a) individlarning mehnatda o'zini to'liq ko'rsata olishni ta'minlab beruvchi muhim ijtimoiy subyektlar yig'indisidir;
  - b) xonodon xo'jaligi xarajatlarini qoplash va jamg'armalar yaratish uchun ixtiyorida bo'lgan pul mablag'lari yig'indisidir;
  - v) individual mehnat faoliyati natijasida yaratiladigan pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy-pul munosabatlari yig'indisidir;
  - g) xonodon xo'jaliklariga tegishli moddiy aktivlarni ijara berishdan olinadigan mablag'lar yig'indisidir.

6. Xonodon xo'jaligi iqtisodiy holatini aks ettiruvchi pul daromadlari, oziq-ovqat mahsulotlari qiymati, natural ko'rinishda berilgan dotatsiyalar, imtiyozlar qiymati:
  - a) nominal daromadlar;
  - b) aholining pul daromadlari;
  - v) tadbirkorlik daromadlari;
  - g) yalpi daromadlar.
7. Ixtiyoragi pul daromadlar — bu:
  - a) ma'lum davrda pul ko'rinishida olinadigan daromadlar yig'indisi;
  - b) pul daromadlaridan majburiy to'lovlar va badallar ayirib tashlangandan keyin qolgan qism;
  - v) bajarilgan ish uchun olinadigan pul mablag'lari;
  - g) moddiy aktivlarni ijara berishdan olinadigan mablag'lar.
8. Xonodon xo'jaligi xarajatlarini qoplash va jamg'armalar yaratish uchun ixtiyorida bo'lgan pul mablag'lari:
  - a) mulkdan olinadigan daromadlar;
  - b) ijtimoiy to'lovlar;
  - v) aholining pul daromadlari;
  - g) tadbirkorlik daromadlari.
9. Xonodon xo'jaligi ixtiyoridagi pul daromadlari quyidagi tarkibga ega:
  - a) ish haqi va tadbirkorlik daromadlari;
  - b) mulkdan olinadigan daromadlar;
  - v) olingan ijtimoiy transfertlar;
  - g) hamma javob to'g'ri.
10. Nominal daromadlar — bu:
  - a) mulk va ilgari to'plangan jamg'arma hajmi bilan birgalikda farovonlik darajasini belgilaydigan ko'rsatkich;
  - b) bajarilgan ish uchun olinadigan pul mablag'lari;
  - v) ma'lum davrda xonodon xo'jaligi tomonidan pul ko'rinishida olinadigan daromadlar yig'indisi;
  - g) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, sug'urta to'lovleri va boshqa budget, budgetdan tashqari jamg'armalardan tushgan tushumlar.
11. Mulk va ilgari to'plangan jamg'arma hajmi bilan birgalikda xonodon xo'jaligining turmush darajasini belgilaydigan ko'rsatkich:
  - a) nominal daromadlar;
  - b) tadbirkorlik daromadlari;
  - v) real daromadlar;

- g) ixtiyoridagi pul daromadlar.
12. Xonodon xo'jaligi a'zolari tomonidan bajarilgan ish uchun olinadigan pul mablag'lari:
- ijtimoiy nafaqalar;
  - ish haqi;
  - budgetdan tashqari jamg'armalardan tushgan tushumlar;
  - pensiylar.
13. Xonodon xo'jaliklari tomonidan tadbirkorlik faoliyati jarayonida olinadigan daromadlar:
- mulkdan olinadigan daromadlar;
  - ixtiyoridagi pul daromadlar;
  - tadbirkorlik daromadlari;
  - olingan ijtimoiy transfertlar.
14. Xonodon xo'jaliklariga tegishli moddiy aktivlarni ijaraga berishdan olinadigan mablag'lar:
- tadbirkorlik daromadlari;
  - mulkdan olinadigan daromadlar;
  - nominal daromadlar;
  - ixtiyoridagi pul daromadlar;
15. Ishchi mehnatiga haq sifatida to'lanadigan pul summasidir.
- real ish haqi;
  - nominal ish haqi;
  - ijtimoiy transfertlar;
  - mulkdan daromadlar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Ўзбекистон Республикасининг «Ахоли иш билан тъминлаш тўғрисида»ги конуни. 616-1-сон. 1998 йил 1 май.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасида Бандликни кўллаб-куватлаш давлат жамғармасини ташкил этини тўғрисида»ги 606-сонли қарори. 1992 йил 31 декабр.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Бандликни кўллаб-куватлаш давлат жамғармаси маблағларини шакллантириш ва фойдаланиш тартиби тўғрисида»ги Низомни тасдиқлаш бўйича 173-сонли қарори. 2003 йил 2 апрел.
- Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласиди – Т.: «Ўзбекистон», 2011. – 48 б.

5. Аникин А. В. Адам Смит («Жизнь замечательных людей» серия биографий). М.: Молодая гвардия, 1968. 435 с.
6. Беркинов Б. Б. Институционал иқтисодиёт: ўкув қўлланма. Т.: Янги нашр, 2011. 221 б.
7. Борисов Е. Ф. Экономическая теория: учебник 2-е изд., перераб. и доп. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. 544 с.
8. Журавлева Г. П., Смагина В. В. Экономическая теория и политика рыночной системы хозяйствования. М.: Финансы и статистика, 2008. 640 с.
9. Куликов Л. М. Экономическая теория: Учебник. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. 432 с.
10. Национальная экономика: Учебник / под общ. ред. Р. М. Нуриева. М.: ИНФРА-М, 2010. 655 с.
11. Общая экономическая теория (политэкономия): Учебник / под общей ред. акад. В. И. Видяпина, Г. П. Журавлевой. М.: ПРОМО-Медиа, 1995. 608 стр.
12. Общекономические основы рыночного хозяйства. Энциклопедия рыночного хозяйства. / отв. ред. Сорокин Д. Е. М.: Издательский дом «Путь России». 2002. 430 с.
13. Струченкова Т. В. Валютные риски: Учебное пособие. М.: Финакадемия, 2009. 160 с.
14. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараккиётининг мустақиллик йилларидағи (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. — Т.: «Ўзбекистон», 2011. — 140 б.
15. Ўлмасов А. Иктисодий билим асослари: Коллеж ўқитувчилари ҳамда иктидорли ўкувчилари учун услубий қўлланма. — Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003. — 184 б.
16. Ўлмасов А. Оила иқтисодиёти. — Т.: Мехнат. 1998. — 48 бет.
17. Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям экономики и менеджмента / под. ред. Г. Б. Поляка. З-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 639 с.
18. Финансы: Учеб. пособие/О. В. Малиновская, И. П. Скобелева, А. В. Бровкина. М.: ИНФРА-М, 2013. 320 с.
19. Финансы: Учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям, специальности «Финансы и кредит» / под ред. Г. Б. Поляк. З-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 703 с.
20. Форд Г. Моя жизнь, мои достижения. М.: Финансы и статистика, 1989. 360 с.

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH**

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### **Reja:**

- 3.1. Tadbirkorlik, biznes tushunchalari mohiyati. Tadbirkorlik faoliyatining turlari.
- 3.2. Oilaviy biznes va kasanachilik bilan shug'ullanishning qonunchilik asoslari.
- 3.3. Tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish tartibi.
- 3.4. Tadbirkorlik subyektlarining tasniflanishi va litsenziyalash tartibi.
- 3.5. O'zbekistonda qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishning o'ziga xos xususiyatlari.


### **3.1. Tadbirkorlik, biznes tushunchalari mohiyati. Tadbirkorlik faoliyatining turlari**

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kaflatlari to'g'risida»gi qonuniga asosan tadbirkorlik faoliyati bu tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javohgarligi ostida foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Biznes so'zi xalqaro terminda keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, tadbirkorlik tushunchasidan deyarli farq qilmaydi. Biznes — bu foyda keltiradigan iqtisodiy faoliyat, foyda olish yoki shaxsiy manfaatni ko'zlagan holda daromad olishga qaratilgan har qanday faoliyatdir.


#### **Tadbirkorlik tushunchasi**

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari respublikamizda o'rnatilgan tartibga muvofiq ro'yxatdan o'tgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari yirik yoki kichik tadbirkorlik subyektlariga bo'linadi. O'zbek-

kistonda tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismini kichik tadbirkorlik subyektləri təshkil etadi. Kichik tadbirkorlik subyektlərini turlarını quyidaçı chizma orqali ifodalash mumkin:



Kichik tadbirkorlik subyektləri uchun ishlovchi xodimlar sonini mezonlari o'rnatilgan, ya'ni o'rnatilgan me'yorgacha xodimlar soniga ega bo'lgan korxonalar kichik tadbirkorlik subyektlariga kiritilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan respublikamizda mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasi iqtisodiyot tarmoqlariga qarab guruhlanadi:



Respublikamizda oliy o'quv yurtlari, kollej va litsey bitiruvchilarini ish o'rirlari bilan ta'minlashni rag'batlantirish maqsadida, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan kollej bitiruvchilari ishga qabul qilinib, ular bilan mehnat shartnomasi tuzganda xodimlar sonining me'yorlari 20 foizgacha oshirilishga ruxsat etiladi.

*Imtiyoz!!! Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan respublikaning kash-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzilganda, band xodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan normativdan ko'pi bilan 20 foiz oshirilgan hollarda, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar ularda saqlanib qoladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2010-yildagi 4232-PF sonli Farmoni).*

### **3.2. Oilaviy biznes va kasanachilik bilan shug'ullanishning qonunchilik asoslari**

Oila a'zolari yoki boshqa qarindoshlar ishtirokida tadbirkorlik faoliyatini yuritmoqchi bo'lgan shaxslar uchun 2012-yilning 26-aprelida qabul qilingan «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonun bilan yaqindan tanishish ta'lab etiladi. Chunki qonunda ayrim asosiy talablar mayjud. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxona ishtirokchilarining va yollanma xodimlarining umumiyligi soni kichik tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan xodimlar o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak va bir oilaviy korxona ishtirokchisi bir vaqtning o'zida boshqa oilaviy korxona ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas. Agar oilaviy korxonalar hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan bo'lsalar, soliq imtiyozlariga ega bo'ladilar, ya'ni ular ayrim xalq badiiy hunarmandchiligi va qo'lida ishlangan amaliy san'at buyumlarini sotishdan olgan daromadlaridan 2014-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan davrda yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etilgan. Boshqa faoliyat bilan shug'ullananda oilaviy korxonalar yagona soliq to'lovi to'laydilar.

**Diqqat!** Oilaviy korxona ishtirokchilaridan biri uning boshlig'i bo'lishi mumkin, unga oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o'z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi.

**Diqqat!** Oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Bunda faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lislari mumkin.

### Kasanachilik bilan shug'ul-lanish va uning afzalliklari

Respublikamizda kasanachilik bilan shug'ul-lanish ko'p jihatdan ma'lum kasbga ega bo'lib, uy sharoitida ishlashni ma'qul ko'radigan fuqarolar uchun juda qulaydir. Umuman olganda kasanachilik tushunchasi tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq jismoniy shaxs — kasanachiling yashash joyi bo'yicha unga yoki uning oila a'zolariga tegishli ho'lган boshqa binolarda ish beruvchining buyurtmalari bo'yicha tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish tushuniladi. Mamlakatimizda kasanachilikni rivojlantirish maqsadida bir necha imtiyozlar joriy etilgan. Masalan, korxonalar bilan mehnat shartnomasini tuzgan kasanachilarga xuddi biron korxonada shtat asosida ishlayotgan xodimdek mehnat daftarchasi ochiladi va band aholi toifasiga kiradi, eng muhimi ularga, pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqlar tayinlashda kasanachilik asosida ishlagan vaqt mehnat stajiga qo'shiladi. Shu bilan birga korxonalar uchun ham kasanachilar mehnatidan foydalanish qulay, chunki ular 2014-yilning 1-yanvariga qadar mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda, mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod etilgan. Agar korxona kasanachi mehnatidan foydalanmasdan fuqaroni ishchi xodim sifatida qabul qilsa, unga hisoblangan ish haqiga nisbatan 25% miqdorida yagona ijtimoiy to'lov to'lanishi kerak, ushbu xizmatni kasanachi mehnatidan foydalanib tashkil etsa u holda 25% miqdorida yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod etiladi. Mazkur imtiyoz bilan birga agar kasanachilik bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni jalb qilgan holda kichik korxonalar ko'rinishida ishni tashkil etsalar, xodimlar sonining cheklangan me'yorlari 30 foizga oshirishga ruxsat etiladi.

Kasanachi o'zining uyida mehnat faoliyatini ko'rsatayotgan bo'lsa, turar joylarni yashash uchun mo'ljallanmagan joylar toifasiga o'tkazish talab etilmaydi, ya'ni ortiqcha hujjatlar yig'ib hokimiyatdan noturar joy obyekti sifatida ruxsatnoma olish kerak emas. Agarda fuqarolar o'z turar joyidan

kasananachilikdan tashqari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishda foydalanganmoqchi bo'sha, o'rnatilgan tartibda noturar joy obyekti sifatida ruxsat-noma olishi shart.

**Imtiyoz!!!** Kichik korxona o'z uylarida ishlayotgan (kasananachilik bilan shug'ullanayotgan) fuqarolar bilan, qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan normatividan ko'pi bilan 30 foiz oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar mazkur korxona uchun saqlanib qoladi (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.05.2009-yildagi 1112-PQ-sonli Qarori*).

**Imtiyoz!!!** Tovarlar (ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha kasananachilariga buyurtma beradigan korxonalar 2006-yilning 1-fevralidan boshlab 2014-yilning 1-yanvarigacha, mehnat shartnomasi asosida kasananachilarga to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda, mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod qilinadi. (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2006-yildagi 3706-PF-sonli Farmoni*).

Mamlakatimiz aholisi qadimdan badiiy hunarmandchilik va amaliy san'at bilan shug'ullanib kelishgan. Hozirda ham respublikamizda hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan hunarmandlar uy sharoitida ayrim turdag'i xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha qat'i belgilangan soliqni to'lashdan 2014-yilga qadar ozod etilgan.

### **3.3. Tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish tartibi**

Tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishni xohlovchilar o'zi yashayotgan joyidagi hokimliklar huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalariga ariza-xabarnoma orqali murojaat qilishlari yoki pochta aloqasi orqali taqdim etishlari lozim. Bunda ariza-xabarnomadan tashqari quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- davlat tilidagi ta'sis hujjatlarining ikki asl nushasi;
- davlat bojining belgilangan miqdori to'langanligi haqidagi bank to'lov hujjati;

- firma nomlarining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasida qulay firma nomi zaxiraga olinganligini tasdiqlaydigan yagona login va parol;
- ikki nusxada muhr va shtamp eskizlari.

Agar dehqon xo'jaligini yuridik shaxs tashkil etgan holda ro'yxatdan o't-kazmoqchi bo'lsa, u holda davlat bojining belgilangan miqdori to'langanligi haqidagi bank to'lov hujjati talab etilmaydi. Chunki bu to'lovdan dehqon xo'jaliklari ozod etilgan, lekin dehqon xo'jaliklari hamda fermer xo'jaliklari uchun — tuman hokimining yer uchastkasi ajratib berish to'g'risidagi qarori nusha ilova qilish talab etiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, yuridik shaxs tashkil etgan holda tadbirkorlik faoliyati yuritmoqchi bo'lgan shaxslar dastlab ta'sis shartnomasini tuzishlari, keyin statistika idoralaridan o'zлari tanlagan firma nomini zaxiraga olinganligi to'g'risidagi hujjatni olishlari hamda muhr va shtamp eskizlarini chizdirishlari zarur bo'ladi.


Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxslar dastlab, al-batta davlat hokimiyatidan ro'yxatdan o'tishlari zarur. Aks holda ro'yxatdan o'tmasdan faoliyatni amalga oshirish qonunchilikka muvofiq ma'muriy va moliyaviy jarimaga tortiladi. Agar ro'yxatdan o'tmasdan faoliyatni 30 kungacha amalga oshirgan bo'lsa eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida jarimaga tortiladi, lekin ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish natijasida olgan sof tushumning 10%dan kam bo'lмаган miqdorda jarima belgilanadi. Masalan, tadbirkor 20 kun davomida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatib, 15540 ming so'm sof tushumga ega bo'lgan bo'lsa, eng kam ish haqining 79590 so'mga teng bo'lgan miqdorining ellik baravari 3979,5 ming so'm jarimani to'lashga majbur bo'ladi, chunki 15 mln so'mning 10 foizi 1554,0 ming so'mni tashkil etib, 3979,5 ming so'mdan kam. Shuning uchun ushbu holatda solishtirilganda ko'p miqdorni tashkil etuvchi summada jarima undiriladi.

Agar ro'yxatdan o'tmasdan faoliyatni 30 kundan ortiq amalga oshirgan bo'lsa eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida jarimaga tortiladi, lekin ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish natijasida olgan sof tushumning 50%dan kam bo'lмаган miqdorda jarima belgilanadi. Masalan, tadbirkor 90 kun davomida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatib, 18150 ming so'm sof tushumga ega bo'lgan bo'lsa, eng kam ish haqining 79590 so'mga teng bo'lgan miqdorining yuz baravari 7959,0 ming so'mga teng bo'lgani holda, 18150 ming so'mning 50 foizi 9075,0 ming so'm jarimani to'lashga majbur bo'ladi, chunki eng kam ish haqining 79590 so'mga teng bo'lgan miqdoring yuz baravari 7959,0 ming so'mni tashkil etib, 9075,0 ming so'mdan kam.

Mazkur holatda ham solishtirilganda nisbatan ko'p miqdorni tashkil etuvchi summada jarima undiriladi. Bundan tashqari ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish mamlakatda xufyona, yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida pullarning bankdan tashqari aylanmasini ko'paytiradi, natijada soliqlar to'liq to'lanmaydi. Siz u bizni o'qitayotgan o'qituvchilar, davolayotgan shifokorlarning ish haqlarini o'z vaqtida to'lash imkoniyatlari cheklanib qoladi. Shu sababli har bir fuqaroning qonuniy ro'yxatdan o'tib, tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatishi mamlakat oldidagi hamda vijdoni oldidiagi burchi va majburiyatidir.

**Diqqat!!! Ro'yxatdan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish qonunga xilosdir. Ro'yxatdan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganlar qonunda belgilangan jarimaga tortiladilar.**

Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari, ya'ni kichik korxonalar, mikrofirmalar va oilaviy korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumhelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli. Yagona soliq to'lovini muhim afzalligi bir qancha soliq va majburiy to'lovlar o'rniغا bitta yagona soliq to'lovi amalga oshiriladi, lekin ushbu soliq to'lovi faoliyat natijasida foyda olinish yoki zarar bilan yakunlanishdan qat'i nazar realizatsiya hajmiga nisbatan hisoblanadi. Masalan, qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxona yagona soliq to'lovi to'lovchi bo'lsa va uning bajargan qurilish ishlari hajmi 200,0 ming so'mni tashkil etsa, u holda qancha miqdorda foyda olganligidan qat'i nazar 6 foizli stavkada (2012 yil uchun) 12,0 ming (200,0 ming so'm × 6%) so'm yagona soliq to'lovi to'lashi zarur bo'ladi.



Ayrim faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkorlik subyektlari yagona soliq to'lovi to'lashga o'tishga haqli emas. Masalan, aksiz solig'i to'lana-digan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi va yagona yer solig'i to'lovchi fermerlar, qat'i belgilangan soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari yagona soliq to'lovchi to'lashga o'ta olmaydilar. Shu bilan birga savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar, lotoreyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar yagona soliq to'lovchi to'lovchi hisoblanib, umumbelgilangan tartibda soliq to'lashga o'tishga haqli emaslar.



Umumbelgilangan tartibda soliq to'lashda yuqorida keltirilgan soliqlardan tashqari pensiya, Yo'l hamda ta'llim va tibbiyot muassasalarini rivojlantirish jihozlash jamg'armasiga majhuriy to'lovlar amalga oshiriladi. Umumbelgilangan tartibga soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari yuqorida keltirilgan 10 ta soliqni to'lashlari shart ekan degan xulosa chiqarmaslik kerak. Ko'rsatadigan faoliyat turlaridan kelib chiqib, ushbu soliqlardan tegishlilarini to'laydilar xolos. Masalan, agar korxona yer osti boyliklarini qazib oluvchi, ulardan foydalanuvchi bo'lsa yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar, shuningdek yer maydoniga ega bo'lsa yer solig'i, suv tarmog'i mavjud bo'lsa suv solig'i, aksizosti tovarlar ishlab chiqarsa aksiz solig'i, yonilg'i quyish shahobchala-

ri esa qo'shimcha ravishda benzin, dizel yonilg'i va gaz ishlatalganlik uchun soliqlarni to'lashlari mumkin. Lekin aksariyat umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari foyda, qo'shilgan qiymat solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlarini to'laydilar, qolgan soliqlarni soliq solinadigan obyektning mavjud yoki yo'qligiga bog'liq ravishda to'lashlari mumkin. Masalan, mebel ishlab chiqaruvchi korxona balansida binoga ega bo'lmasdan ijara shartnomasi asosida boshqa korxona binosida joylashgan bo'lsa, o'ziga tegishli mol-mulklar o'ttacha yillik qoldiq qiymati ga nisbatan 3,5 foiz miqdorida mol-mulk solig'i, realizatsiya qilgan tovarlari qiymatidan qo'shilgan qiymat solig'i, soliq solinadigan foydasidan 9 foiz miqdorida foyda solig'i hamda o'z ixtiyorida qoldiriladigan foydadan 8 foiz infratuzilmani rivojlantirish soliqlarini to'laydi.

**Diqqat!** Yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar, oilaviy korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmasdan o'zlarini joylashgan tumandagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovi to'lashga o'tishi to'g'risida yozma ravishda xabardor etishlari zarur, aks holda umumbelgilangan tartibda soliq to'laydilar.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro'yxatga olish** Respublikamizda tadbirkorlikning yana bir keng tarqalgan turi bu yakka tartibdagi tadbirkorlikdir (aholida ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni patent olib savdo qiluvchi tadbirkorlar nomi bilan atash ommalashgan). Yakka tartibdagi tadbirkorlik — yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir<sup>11</sup>. Yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi va ushbu faoliyat bilan shug'ullanishi uchun o'zi yashayotgan joyidagi hokimliklar huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalariga ariza-xabarnoma orqali murojaat qilishlari yoki pochta aloqasi orqali taqdim etishlari lozim. Ushbu holatda ro'yxatdan o'tish uchun fuqarolar o'zlarini bevosita borib inspeksiyalarga murojaat qilishlari ma'qul bo'ladi, chunki arizadan tashqari, 3×4 sm o'lchamdagisi ikkita fotosurat, davlat bojining belgilangan miqdori to'langanligi haqidagi bank to'lov hujjatini, pasport nusxasini taqdim etishlari lozim. Agar yakka tadbirkorlik faoliyatida o'z xohishiga ko'ra muhr va shtampa

11 O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda yangi tahrir ostida tasdiqlangan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni, 6-modda.

ega bo'lishni istasalar, qo'shimcha ravishda ikki nusxada muhr va shtamp eskizlarini topshirishlari kerak. Umuman olganda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar to'g'ridan-to'g'ri hokimiyat huzuridagi inspeksiyalarga borib maslahatlar olishlari mumkin, chunki ayrim hollarda davlat bojini qayerda to'lash zarur, miqdori qancha yoki muhr va shtamp eskizlarini qayerda chizdirish mumkin bo'ladi kabi savollarga ushbu joyda javob olishlari mumkin. Yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlar qat'i belgilangan soliq to'lovini va pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini amalga oshiradilar. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari yakka tadbirkorlar shug'ullanadigan faoliyat turlariga va joylashgan joyiga (viloyat, tuman) qarab tabaqaqlashtirilgan. Masalan, 2013-yilda Toshkent shahrida nooziq-ovqat tovarlari bilan savdo qiluvchi yakka tartibdagagi tadbirkor har oy eng kam ish haqining 10 baravari miqdorida qat'i belgilangan soliq va eng kam ish haqining bir baravari miqdorida pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lashi zarur, Nukus va viloyatga bo'ysunadigan shaharlarda 6,5 baravar, boshqa aholi punktlarida 3 baravar eng kam ish haqi miqdorida qat'i belgilangan soliq to'laydilar. 2013-yilga qadar yil davomida eng kam ish haqining o'zgarishi natijasida yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'i belgilangan soliq miqdori o'zgarib borardi, 2013-yildan boshlab yilning boshida belgilangan eng kam ish haqiga nisbatan hisoblangan qat'i belgilangan soliq miqdori yil davomida saqlanib qoladi.

**Imtiyoz!!!** *Qishloq joylardagi mahallalar hududida maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagagi tadbirkorlar (sartaroshlar, tikuvchilar, poyavzal, maishiy texnikani ta'mirlash bo'yicha usta va boshqalar) qat'i belgilangan soliq to'lashdan 3 yil muddatga ozod etiladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.05.2012-yildagi 1754-PQ-sonli Qarori).*

**Diqqat!** *Ariza-xabarnoma barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda taqdim etilgan vaqtidan boshlab tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatiga olib, unga davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi guvohnomani berishgacha o'tadigan muddat ko'pi bilan ikki ish kunini tashkil qiladi.*


**Diqqat!** *Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi idoralar tadbirkorlarini ro'yxatdan o'tkazishdan asossiz rad etishlari mumkin emas.*

**Diqqat!** *Tadbirkorlik faoliyati qonun bilan himoyalangan va kafolatlangandir.*

### 3.4. Tadbirkorlik subyektlarining tasniflanishi va litsenziyalash tartibi

Respublikamiz aholisi tomonidan yuridik shaxslarni ta'riflashda korxona iborasi ommalashgandir. Shu munosabat bilan korxona tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Korxona deganda mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, ishlarni bajaradigan, xizmatlar ko'rsatadigan mustaqil buxgalteriya balansiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt tushuniladi. Korxonaning xo'jalik faoliyati uning ustavida ko'zda tutilgan maqsadlar va vazifalardan kelib chiqib belgilanadi. Korxonaning ustavi uni ta'sis etuvchisi yoki korxona bir necha kishilar tomonidan tuzilayotgan bo'lsa ta'sis etuvchilari tomonidan tasdiqlanadi va tegishli hokimiyat organlarida ro'yxatdan o'tadi. Korxona ustavida korxonaning to'liq va qisqacha nomi, joylashgan manzili, mol-mulkini tashkil etilishi va foydani taqsimlanish tartibi, korxonani qaytadan tashkil etish va uning faoliyatini to'xtatish shartlaridan tashqari uning faoliyat turi va maqsadlari aniq bayon etiladi. Respublikamizda korxonalarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

#### O'zbekistonda korxonalarning tasniflanishi<sup>12</sup>



12 Тошматов Ш. А. Корхоналарни ривожлантиришда соликлар роли. Монография. — Т.: Fan va texnologiya, 2008. 16 бет.

Korxonalarni mulkchilik shakliga qarab guruhashda ularning qaysi mulk asosida tashkil etilganiga e'tibor beriladi, agar korxona bitta jismoniy shaxsning mulki asosida tashkil etilsa xususiy korxona hisoblanadi. Bundan xususiy korxonani boshqarish xususida gap borganda «Xususiy korxona to'g'risida»gi qonunda xususiy korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqarishi shartligi qonunda alohida ta'kidlangan, faqtgina xususiy korxona mulkdori o'zi vaqtinchalik bo'limgan taqdirda shu muddatda rahbarlik vazifasini bajarib turishni boshqa jismoniy shaxs zimmasiga yuklash to'g'risida yozma qaror qabul qiladi<sup>13</sup>. Shuningdek xususiy korxona sifatida tashkil etilgan firmalar soliq to'lagandan keyingi sof foydani o'zlashtirishda soliqqa tortilmaydi.

Bir tomonidan qaralganda mulkchilik shakliga va tashkiliy-huquqiy shakliga qarab korxonalarning tasniflanishi bir-biriga o'xshashdek tuyuladi, lekin ular o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. Biroq tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tasniflanishdagi mas'uliyati cheklangan, qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar va aksionerlik jamiyatlarini umumiy tarzda bitta ko'pchilik shaxslar mulkiga asoslanib tashkil etilgan korxonalar sirasiga kiritildi. Tashkiliy-huquqiy jihatdan olganda esa bu korxonalar bir-birida tubdan farq qiladi ya'ni «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risidagi» qonunga muvofiq «Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilarini uning majburiyatlarini bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog'liq zararlar uchun o'zlarini qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar»<sup>14</sup>. Qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar mas'uliyati cheklangan jamiyatlardan shunisi bilan farq qiladiki, uning ta'sischilarini ustav jamg'armasiga kiritgan mol-mulk hissasi doirasida jamiyat majburiyatlarini bo'yicha javobgar hisoblanadilar, ya'ni «Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyat majburiyatlarini bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulklarini bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan

13 Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 йил, № 1–2. 40 бет.


14 Ўзбекистон Республикасининг Конун ҳужжатлари тўплами. 2(38)-сон, 2002, январь. — Тошкент: Ўзбекистон Республикасининг Адлия вазирлиги. 17 бет.

hissalari qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadi-gan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar»<sup>15</sup>. Aksiyadorlik jamiyatlarida esa asosiy e'tibor ustav fondiga qaratilgan bo'lib, aksiyadorlarning undagi ulushiga qarab majburiyatlar belgilanadi, ya'ni «Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunga muvofiq «ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalar-ga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyat»<sup>16</sup>deb hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxs, birinchi navbatda qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishini bilib olishi zarur. Chun-ki ayrim faoliyat turlari mavjudki, u faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'l-ganlar maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishlari zarur bo'лади.

Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi deyilganda O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi tushuniladi. Litsenziyalash esa litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatish turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksidir.

Litsenziyaning quyidagi turlari mavjud:



Namunaviy (oddiy) litsenziyalarga tegishli faoliyat turini amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan yagona shartlar va talablarga javob beradigan cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi.

Yakka tartibdag'i litsenziyalarga ularga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziatlarga faoliyat-

15 Ўзбекистон Республикасининг Конун хужжатлари тўплами. 2(38)-сон, 2002, январь. — Тошкент: Ўзбекистон Республикасининг Аддия вазирлиги. 17 бет.

16 Ўзбекистон Республикасининг тадбиркорлик тўғрисидаги конун хужжатлари: (Меъёрий хужжатлар тўплами) I китоб. — Т.: «Иктисадиёт ва хукук дунёси», 1999. 146 бет.

ning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdor jihatdan cheklangan litsenziyalar kiradi.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini aniqlashda qonun hujjaliga asosan ro'yxatga kiritilgan faoliyat turlarini bilish zarur bo'ladi. Bunda amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi litsenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'limgan faoliyat turlari kiradi.

### **3.5. O'zbekistonda qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Respublikamiz aholisinining katta qismi qishloq joylarda yashaganligi tu-fayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan olinadigan daromadlar qishloq aholisinining asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra fermer xo'jaligi deyilganda o'ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt tushuniładi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan olinadigan daromad**

Fermer xo'jaligi ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib,

chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqqirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva moliga hisoblanganda Andijon, Namangan, Samarkand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerdarda kamida 0,3 getktarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan yerdarda kamida 0,45 getktarni, sug'orilmaydigan (almikor) yerdarda esa kamida 2 getktarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 10 getktarni, bog'dorchilik, uzum-

chilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida bir gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi yerning kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijara olish shartnomasida mustahkamlab qo'yiladi.

Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijara ga 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'limgan muddatga beriladi.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat'i belgilangan maqsadda foydalaniladi. U xususiy lashtirilishi, oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi va ikkilamchi ijara ga berilishi mumkin emas.

Fermer xo'jaligi (ish beruvchi) va uning xodimlari o'rtasidagi mehnatga oid munosabatlari qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi. Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnatiga haq to'lash taraflarning kelishuviga ko'ra pul yoki natural tarzda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidagi oz bo'limgan miqdorda belgilanadi.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan amaldagi jami umum davlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lash o'rniiga yagona yer solig'ini to'laydilar. Fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtidan boshlab ikki yil mohaynida yagona yer solig'idan ozod etiladi. Masalan, 2011-yilda fermer xo'jaligi tashkil etilgan bo'lsa, 2011 va 2012-yillarda yagona yer solig'ini to'lamaydi, 2013-yildan boshlab foydalanishdagi yerkarning normativ qiymatiga nisbatan 6 foiz miqdorida yagona yer solig'i to'lay boshlaydi.

#### **Dehqon xo'jaligini tashkil etish**

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi yana bir xo'jalik yuritish turi dehqon xo'jaligi hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, dehqon xo'jaligida ko'rsatiladigan faoliyat tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi va dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga

oshirilishi mumkin. Lekin dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas. Bu o‘rinda yollanma mehnat deganda xo‘jalik a‘zolari bilan birga yashayotgan oila a‘zolari, shu jumladan farzandlikka olingen bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, otanonlari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlaridan tashqari jalb etilgan kishilar kiradi.

Dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda u davlat ro‘yxatiga olingenidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunining 8-moddasiga muvofiq oilali va qishloq joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sug‘orilmaydigan yaylovlardan 1 gektargacha o‘lchamda beriladi. Shuningdek, fuqarolarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun 0,06 hektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kim oshdi savdosи asosida realizatsiya qilinishi mumkin. Yangi tashkil etilayotgan dehqon xo‘jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish huquqidан ustun ravishda mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanishlari mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etgan hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo‘jaligi qonun hujjatlariga muvofiq yer solig‘i, suv surslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solig‘i to‘laydilar. Dehqon xo‘jaligidan yer solig‘i tomorqa yer uchastkasining sifatiga, ball bonitetiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta‘minlanish darajasiga qarab, uning kadastr bahosini hisobga olgan holda belgilanadigan miqdorda undiriladi. Dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini yilda bir marta 15 oktyabrdan kechiktirmay to‘laydilar. Birinchi marta tomorqa yer uchastkasi olgan dehqon xo‘jaligi davlat ro‘yxatiga olingen vaqtadan e’tiboran ikki yil muddatga yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Bundan tashqari, soliq qonunchiligiga asosan:

- 1) yaylov chorvachiligining cho‘ponlari, yilqiboqlari, mexanizatorlari, veterinar vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;
- 2) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lganlar, uchala darajali Shuhrat ordeni

- bilan taqdirlanganlar, 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari;
- 3) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;
  - 4) I va II guruh nogironlari;
  - 5) yolg'iz pensionerlar;
  - 6) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar;
  - 7) konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, Chernobil AESdagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtiroy etgan shaxslar;
  - 8) ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha — yer uchastkalari berilgan vaqtidan e'tiboran besh yilgacha yer solig'i to'lashdan ozod etiladilar.

Shuningdek dehqon xo'jaliklari uchun mol-mulk solig'i solish obyekti bo'lib, ularning mulkidagi turar joylar, kvartiralar, dala hovli va bog' uychalari, garajlar va boshqa inshootlar, binolar va qurilmalar qiymati hisoblanadi va soliqni to'lash muddati 15 oktyabrga qadar qilib belgilanadi. Dehqon xo'jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha 1 hektar sug'oriladigan yerga o'tgan yili sarflangan suv hajmi sarfidan kelib chiqib hisoblanadi va soliqni to'lash yiliga bir marta, keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Rezident deganda nimani tushunasiz?
2. Kichik tadbirkorlik subyektlari turlarini aytib bering?
3. Oilaviy biznesni amalga oshirishdagi afzalliliklar nimalardan iborat?
4. Kasanachilik nima?
5. Yakka tartibdagi tadbirkorlar kimlar va ularga O'zbekistonda qanday shart-sharoitlar yaratilgan?
6. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar qanday soliqqa tortiladi?
7. O'zbekistonda korxonalar qanday tasniflanadi?
8. Fermer va dehqon xo'jaliklarining asosiy farqli jihatlari nimalardan iborat?

## TAYANCH ATAMALAR

**Tadbirkorlik faoliyati** — bu tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**Oilaviy tadbirkorlik** — oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**Oilaviy korxona** — uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli.

**Kasanachilik** — mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachining yashash joyi bo'yicha una yoki uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan boshqa binolarda ish beruvchining buyurtmalari bo'yicha tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish tushuniladi.

**Hunarmandchilik** — yuridik shaxs bo'limgan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati;

**Kichik korxona** — xodimlar soni bo'yicha qonunchilikda belgilangan mezonlarga javob beruvchi kichik tadbirkorlik subyekti.

**Yakka tartibdag'i tadbirkor** — tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqisiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

**Savdo faoliyati** — qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga dor faoliyat.

**Mol-mulk** — egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy obyektlar.

**Asosiy ish joyi** — ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi.

**Litsenziya** — bu litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxs-ga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani

holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq) hisoblanadi.

**Fermer xo‘jaligi** — ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

**Dehqon xo‘jaligi** — mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiluvchi tadbirkorlik subyekti.

**Tomorqa yer uchastkasi** — qishloq xo‘jaligi mahsulotini erkin savdo va oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a‘zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o‘lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir.

**Biznes** — bu foya keltiradigan iqtisodiy faoliyat, foya olish yoki shaxsiy manfaatni nazarda tutuvchi daromad olishga qaratilgan har qanday faoliyatdir.

**Kasanachi** — kasanachilik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs.

**Hunarmand (usto-hunarmand, usto)** — mustaqil ravishda yoki shogirdlari yordamida maxsus ko‘nikmalar, asboblar va kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan an‘anaviy texnologiyalar asosida buyumlarning funk-sional xususiyatlarining tarixan qaror topgan talablariga hamda milliy estetik normalarga javob beradigan hunarmandchilik faoliyati buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni tayyorlovchi jismoniy shaxs;

**Mikrofirma** — xodimlar soni bo‘yicha qonunchilikda belgilangan mezonlarga javob beruvchi kichkina tadbirkorlik subyekti.

**Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiysi** — mahalliy hokimiyat organlari huzurida tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarini xabardor qilish tartibida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan shug‘ullanuvchi vakolatli idora, yuridik shaxs.

**Yuridik shaxs** — qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot.

**Jismoniy shaxslar** — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lмаган shaxslardir.

**Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum** — realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lган) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

**Yutuq** — lotoreyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holida yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

**Soliq solishning soddashtirilgan tartibi** — soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i solqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutvchi alohida tartib.

**Oila a'zolari** — er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar.

**Kredit tashkilotlari** — tegishli litsenziyaga ega bo'lган banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

**Dividendlar** — aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lган daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassisleri o'rtaida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtaida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foya ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiyamatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiyamatining oshishi tarzida olingan daromadlari.

**Rezident** — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

**Litsenziyalash** — litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyanı qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi;

**Litsenziya talablari va shartlari** — faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziyat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui;

**Litsenziyalovchi organlar** — qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatlari organlar;

**Litsenziya da‘vogari** — litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Litsenziyat** — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziysi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Litsenziya shartnomasi** — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziyatning litsenziya olishi va undan foydalanishi bora-sidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da‘vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida tuziladigan shartnomasi;

**Namunaviy (oddiy) litsenziyalar** — ularga cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi, agar ushbu shaxslar tegishli faoliyat turini amalga oshirishga nisbatan qo‘yiladigan yagona shartlar va talablarga javob bersalar.

**Yakka tartibdagи litsenziyalar** — ularga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziatlarga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi.

## TESTLAR

### 1. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari:

- a) yirik va kichik tadbirkorlik subyektlariga bo‘linadi;
  - b) kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga bo‘linadi;
  - v) kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlariga bo‘linadi;
  - g) mikrofirmalar va kichik korxonalarga bo‘linadi.
2. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi mikrofirmalarda xodimlarning o‘rtacha yillik soni necha kishi bo‘lishi kerak?
- a) 5 kishi;

- b) 10 kishi;
  - v) 20 kishi;
  - g) 50 kishi.
3. Kichik tadbirkorlik subyektlari kollej bitiruvchilarini ishga qabul qilganda, xodimlarning o‘rtacha yillik soni qanchaga oshiriladi?
- a) 25 foizgacha;
  - b) 10 foizgacha;
  - v) 50 foizgacha;
  - g) 20 foizgacha.
4. Oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni necha kishi bo‘lishi kerak?
- a) 1 kishidan kam bo‘lmasligi kerak;
  - b) 2 kishidan kam bo‘lmasligi kerak;
  - v) 5 kishidan kam bo‘lmasligi kerak;
  - g) 3 kishidan kam bo‘lmasligi kerak.
5. Kasanachilik bilan shug‘ullanishning qanday afzalliklari mavjud?
- a) yashash joyi bo‘yicha mehnat shartnomasini tuzish va faoliyat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi;
  - b) korxonada shtat asosida ishlayotgan xodimga mehnat daftarchasi ochiladi;
  - v) pensiyalar va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlashda kasanachilik asosida ishlagan vaqt mehnat stajiga qo‘shiladi;
  - g) barcha javoblar to‘g‘ri.
6. Xalq badiiy hunarmandchiligi va qo‘lda ishlangan amaliy san‘at bamyumlarini sotishdan olgan daromadlar:
- a) 2016-yilning 1-yanvarigacha bo‘lgan davrda yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etilgan;
  - b) 2015-yilning 1-yanvarigacha bo‘lgan davrda yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etilgan;
  - v) 2013-yilning 1-yanvarigacha bo‘lgan davrda yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etilgan;
  - g) 2014-yilning 1-yanvarigacha bo‘lgan davrda yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etilgan.
7. Yakka tartibdagagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan shaxs ro‘yxatdan o‘tishlari uchun qayerga murojaat qilishlari zarur?
- a) Ichki ishlar idorasiga;
  - b) Hokimiyat huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyasiga;

- v) Tuman moliya bo‘limiga;  
g) Tuman statistika bo‘limiga.
8. Yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlar qaysi soliq va majburiy to‘lovlarni amalga oshiradi?
- a) foyda solig‘i va yo‘l jamg‘armasiga ajratmalarini;
  - b) qat‘i belgilangan soliq to‘lovini va pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badalini;
  - v) yer solig‘i va bandlik jamg‘armasiga ajratmalarini;
  - g) mulk solig‘i va pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badalini.
9. O‘zbekistonda litsenziyaning qaysi turlari mavjud?
- a) namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagи litsenziyalar;
  - b) namunaviy (oddiy) litsenziyalar;
  - v) yakka tartibdagи litsenziyalar;
  - g) to‘g‘ri javob keltirilmagan.
10. Dehqonchilik mahsulotlari (paxtachilik va g‘allachilik) yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijara beriladigan yer uchaskalarining eng kam o‘lchami.
- a) 3 gektarni tashkil etadi;
  - b) bir gektarni tashkil etadi;
  - v) 10 gektarni tashkil etadi;
  - g) 15 gektarni tashkil etadi.
11. Yuridik shaxs tashkil etgan hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo‘jaligi quyidagilardan qaysi soliqni to‘laydilar.
- a) qonun hujjatlariga muvofiq yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni;
  - b) qonun hujjatlariga muvofiq yer solig‘i va mol-mulk solig‘ini;
  - v) qonun hujjatlariga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solig‘ini;
  - g) qonun hujjatlariga muvofiq yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solig‘ini.
12. Fermer xo‘jaligi davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab... mobaynida yagona yer solig‘idan ozod etiladi.
- a) 2 yil;
  - b) 5 yil;
  - v) 10 yil;
  - g) 3 yil.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2005 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг тадбиркорлик тўғрисидаги конун хужжатлари: (Меъёрий хужжатлар тўплами) 1 китоб. — Т.: «Иктисодиёт ва хукуқ дунёси», 1999 й.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Оилавий тадбиркорлик тўғрисида»ги Қонуни. 26.04.2012 й. № ЎРҚ-327.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Дехкон хўжалиги тўғрисида»ги Қонуни. 30.04.1998 й. № ЎРҚ-604-1.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Фермер хўжалиги тўғрисида»ги Қонуни. 30.04.1998 й. № ЎРҚ-602-1.
6. Ўзбекистон Республикасининг Солик кодекси. — Т.: Адолат, 2008 й.
7. Ўзбекистон Республикасининг Қонун хужжатлари тўплами. 2(38)-сон, 2002, январь. — Тошкент: Ўзбекистон Республикасининг Адлия вазирлиги.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 йил, № 1–2.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Йирик саноат корхоналари билан касаначиликни ривожлантириш асосидаги ишлаб чиқариш ва хизматлар ўртасида кооперацияни кенгайтиришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 3706-ПФ сонли Фармони (05.01.2006 й.).
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тадбиркорлик фаолиятини янада қўллаб-кувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1112-ПҚ сонли Қарори (15.05.2009 й.).
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Таълим муассасаларининг битирувчиларини тадбиркорлик фаолиятига жалб этиш борасидаги кўшимча чора тадбирлар тўғрисида»ги 4232-ПФ сонли Фармони (28.07.2010 й.)
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантиришни рағбатлантириш борасидаги кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-3620-сонли Фармони (20.07.2005 й.).
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг 2012 йилги асосий макроитисодий кўрсат-

кичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-1675-сонли Қарори (30.12.2011 й.).

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг 2013 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-1887-сонли Қарори (25.12.2012 й.).
15. Ўзбекистон Республикаси олий ўқув юртларида таълим олиш учун йўналтириладиган маблағларга жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиги бўйича имтиёзни қўллаш тартиби тўғрисидаги НИЗОМ. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига 2010 йил 27 майда 2107-сон билан рўйхатга олинган.
16. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иктисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. — Т.: Ўзбекистон, 2009. — 56 б.
17. Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация килиш ва кучли фукаролик жамияти барпо этиш — устувор мақсадимиздир. Т.: Ўзбекистон, 2010.
18. Каримов И. А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Т.: «Ўзбекистон», 2010. — 56 б.
19. Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди. — Т.: «Ўзбекистон», 2011. — 48 б.
20. Каримов И. А. 2012 йил ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. — Т.: «Ўзбекистон», 2012. — 36 б.
21. Абдурахмонов О. Хорижий мамлакатларда солиқ тизимлари. Ўқув қўлланмаси. — Т.: ТДИУ нашр., 2003.
22. Горяев А., Чумаченко В. Финансовая грамота. Спецпроект Российской экономической школы по личным финансам. Москва — 2009.
23. Жўраев Т. Ж., Аъзамов С. А., Жўраев А. Т. Мулкчиликнинг турли шакллари шароитида тадбиркорлик фаолияти. Ўқув қўлланма. — Тошкент, 1997. — 88 б.
24. Латипов А. Ердан фойдаланиш ва соликқа тортиш. — Т.: «Иктисодиёт ва хукуқ дунёси» нашриёт уйи, 2005.
25. Мэнкью Н. Грегори. Макроэкономика. — М.: изд-во Московского университета, 1994. — 835 с.

26. Налоговые системы зарубежных стран. Уч. под редакцией В. Г. Князева, проф. Д. Б. Черника. — М.: «Закон и право», 1997. — 97 с.
27. Паркинсон С. Закон и доход. — М.: ПКК «Интерконтакт», 1992. — 158 с.
28. Тошматов Ш. А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли. Монография. — Т.: Fan va texnologiya, 2008. — 204 б.
29. Тошматов Ш. А. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиқка төртиш асослари. Монография. — Т.: «Молия», 2012. — 160 б.
30. Финансы./Под ред. Л. А. Дробозиной/ М.: ЮНИТИ, 2003. 350 с.
31. Ҳайдаров Н. Молия. — Т.: Академия, 2001. — 72 б.
32. Ўлмасов А. Иктисодиёт асослари. — Т.: «Мехнат», 1997. — 224 б.
33. Исмоилов А., Муртазаев О. Қишлоқ ҳўжалик иктисодиёти. Дарслик. — Т.: Молия, 2005. — 435 б.
34. Dornbusch R., Fischer S. «Macroeconomics» International edition, McGraw-Hill, Inc. 1994. 635 p.
35. Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Microeconomics-Principles, Problems and Policies. 15<sup>th</sup> ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill/Irwin, 2002. p 514.
36. Namozov O. Influence of Money Supply on the Innflation Process in Uzbekistan //Econometric Anlysis Uzbek Economic Trends Journal, Jan–March 2000, p. 38–47.
37. Szepo G. Financial regualation and multitier Financial intermediation system in Eastern Europe. Introduction journal of Banking and finance, 2000. 410 p.
38. [www.cer.uz](http://www.cer.uz).
39. [www.review.uz](http://www.review.uz).
40. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
41. [www.mf.uz](http://www.mf.uz).
42. [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz).
43. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## OILA BUDJETINI TUZISH VA FAVQULODDA HOLATLAR UCHUN ZAXIRALARINI REJALASHTIRISH

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### Reja:

- 4.1. Oila budjeti tushunchasi va daromadlar tarkibi.
- 4.2. Oila budgetining qisqa va uzoq muddatli xarajatlar tarkibi va tuzilmasi.
- 4.3. Favqulodda holatlar uchun zaxiralarini rejalashtirish.

### 4.1. Oila budjeti tushunchasi va daromadlar tarkibi

Taomilga binoan, har qanday jamiyat shartli ravishda quydagi guruh-larga bo'linadi: davlat, xo'jalik subyektlari va aholi qatlamini o'zida mujassamlashtirgan oilalar. Qayd etilgan har bir guruhnning jamiyat-dagi o'rnidan kelib chiqqan holda budjeti bo'ladi. Masalan, davlat ja-miyatni boshqaruvchi asosiy guruh sifatida juda katta budjetga ega bo'lsa, xo'jalik subyektlari idoraviy bo'ysinishi va tarmoq, sohadagi o'rni, hamda mavqeidan kelib chiqqan holda o'ziga xos budjetga ega bo'ladilar. Oila ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida muayyan bud-jetga ega bo'ladi.

Davlat budjeti bu — davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladi-gan mablag' yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Xo'jalik subyektlari budjeti bu — mulk shakli va idoraviy bo'ysinishi-dan qat'i nazar tijorat, tadbirdorlik yoki markazlashgan jamg'arma mablag'-lari asosida qo'lga kiritayotgan daromadlar va yo'nalishiga mos ravishda xarajatlar yig'indisiga aytildi.

Oila budjeti bu — oila a'zolarining shakllanish manbaidan qat'i na-zar oy, chorak va yil davomida ixtiyoriga kelib tushayotgan daromadlari va normal yashash uchun zarur bo'lgan xarajatlari yig'indisidir.

**Diqqat!** Shuni unutmaslik joizki, davlat budgeti va oila budgeti daromadlari hamda xarajatlarni rejalashtirishda teskari proporsionallik mavjud.

U shunday namoyon bo'ladi. Davlat budgetini rejalashtirishda dastavval xarajatlarni hisoblab olib, so'ngra shunga mos ravishdagi daromad manbalari belgilanadi. Shu bois, aksariyat hollarda davlat budgetida kamomad vujudga keladi (kamomad bu daromadlarga nisbatan xarajatlarning ortiq bo'lishi).

Oila budgetini rejalashtirishda esa — birinchi daromadlar shakllantirib, undan keyin xarajatlarni amalga oshirish rejalashtiriladi. Ayni shu principga binoan xalqimizda quyidagi maqollar shakllangan: «Ko'rpanga qarab oyoq uzat», «Daromadga yarasha buromad».

**Diqqat!** Har qanday budget (davlat, xo'jalik subyektlari yoki oila budget) tabiatan ikki qismdan iborat bo'ladi, ya'ni budget daromadlaridan va budjet xarajatlardan.

Oila budget daromadlari ham xilma-xil va rang-barang daromad manbalardan iborat bo'ladi. Shuni alohida qayd etishimiz joizki, ko'pchilik adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarda oila budgetini uy xo'jaligi moliyasi deyiladi yoxud me'yoriy hujjatlarda «Oilaviy tadbirdorlik» deb ham yuritiladi. Albatta, nomlari turlichcha bo'lsa ham mazmunan bir-biriga yaqin ko'rsatkichlari juda ko'p uchraydi.

Iqtisodchi olimlar prof. Z. Yuldashev, prof. T. Malikovlar «Uy xo'jaligi moliyasi» nomli o'quv qo'llanmasida uy xo'jaligi daromadlarini quyidagi tartibda bayon etgan: «*Uy xo'jaliklarining jami daromadlarini ikki ruhga ajratish mumkin:*

- uy xo'jaliklarining natural shakldagi daromadlari;
- uy xo'jaliklarining pul shaklidagi daromadlari.»<sup>17</sup>

Yuqorida yondoshuvdan kelib chiqqan holda oila budgetining daromadini shartli ravishda ikki guruhg'a bo'lish mumkin.

Jahon tajribasidan bizga ma'lumki, insonlar va ularning avlod qoldirish uchun qurgan oilalari daromadlarini dastlab natura ko'rinishida topishganlar. Unda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish munosabatlari bo'limgan bir sharoitda insonlar tabiat in'om etgan mahsulotlarni yetishtirish va ayirboshlash orqali kundalik, oylik va yillik daromadlarini shakllantirganlar. Asta-

<sup>17</sup> Юлдашев З. Ю., Маликов Т. С. МОЛИЯ: уй хўжаликлари молияси/Ўқув кўлланма. Тошкент, 2008. 53 бет.

sekinlik bilan insonlar, oilalar, urug‘lar va elatlari o‘rtasida ishlab chiqarish munosabatlari rivojlana borgan sari natural daromaddan qiymat ko‘rsat-kichga ega bo‘lgan daromad topish imkoniyatlari tug‘ila boshlangan. Bunguni kunga kelib esa, siz bilan bizning ehtiyojimizga xizmat qiladigan pul daromadlarini olishga muvaffaq bo‘lmoqdamiz.

Biz yuqorida qayd etganimizdek, oila budjeti daromadi natura yoki pul ko‘rinishida bo‘lishidan qat‘i nazar manbalari xilma-xildir. Amaliyot ko‘rsatishicha, qishloq joylarda istiqomat qiladigan oilalarda pul ko‘rinishga qaraganda natural ko‘rinishdagagi daromadlar qisman ustuvorlik qilishi mumkin. Albatta bunda oila a‘zolarining tarmoqlar iqtisodiyotidagi bandligiga e’tibor berish lozim.

Pullik daromadlar ikki ko‘rinishga ega bo‘ladi:

- naqd pul ko‘rinishida;
- naqd pulsiz qiymat ko‘rinishida.

Naqd pul ko‘rinishdagagi daromadlar manbai turlicha bo‘ladi, ammo ulardan asosiyлari quyidagilardir:

- mulk shaklidan qat‘i nazar biror bir yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlaridan olayotgan oylik maosh, mukofot va ijtimoiy himoya sifatida oladigan moddiy yordam;
- yuridik shaxs maqomini olmasdan tijorat va tadbirkorlik asosida fəoliyat yuritayotgan oilaviy tadbirkorlar ishlab chiqargan, xizmat ko‘rsatgan yoki bajargan ishi uchun olayotgan daromadlar;
- oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga beriladigan stipendiyalar;
- pensionerlar uchun beriladigan pensiya pullari, jumladan, mehnatga layoqatsiz oila a‘zolari uchun nafaqa pullari;
- xorijda faoliyat yuritayotgan oila a‘zolaridan kelayotgan pul o‘tkazmalari;
- ixtiyorida bo‘lgan mol-mulkni ijara bergenlik uchun ijara haqlari yoki ortiqcha mol-mulklarini sotishdan olayotgan pullar;
- ixtiyoridan ortiqcha bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va chorva mollarini realizatsiya qilishdan olayotgan daromadlar;
- yengil va yuk avtomashinalarida xizmat ko‘rsatganliklari uchun to‘lov pullari;
- moliya bozoridan, ya’ni tijorat banklariga qo‘yilgan omonat uchun foiz to‘lovlar, xarid qilingan obligatsiyalar uchun foiz to‘lovlar va aksiyalari uchun olayotgan dividend to‘lovlar;

- mahalliy va xorijiy grantlarda ishtirok etganligi uchun daromadlari;
  - mahalliy mentalitetga bevosita xos bo'lgan daromad manbai bu — to'y, tug'ilgan kun va shu kabi an'anaviy marosimlarida shakllanadigan «to'yna» daromadlari;
  - qonun bo'yicha zid etilmagan boshqa daromadlar.
- Endi yuqorida zikr etilgan pul daromad manbalarining har biri haqidagi qisqacha izoh heramiz.
- Hozirgi kunda mamlakatimizda xususiy, davlat, aralash va hissadorlik mulk shakllarida bo'lgan 400 mingdan ortiq yuridik shaxs maqomidagi xo'jalik subyektlari faoliyat yuritmoqda. Ularning soni davr talabi va raqobat muhitiga bardosh bera olmay tugatilib, o'rniغا yangilari tashkil etilmoqda. Bular amaldagi qonunga muvofiq, har bir ishchisiga mehnati yoki ko'rsatgan xizmatiga mos ravishdagi ish haqlarini berish ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda belgilangan eng kam ish haqi 2012-yil 1-dekabrdan boshlab, 79 590 so'm etib belgilangan. Shuni alohida qayd etish joizki, zero mamlakatda eng kam ish haqi yuqoridagi summada belgilangan bo'lsa-da, hech bir ishechi yoki xizmatchi davlat korxonalaridan shunday miqdordagi ish haqini olmaydi, balki undan uch harobar yuqori summada ish haqi olishlari qonun bilan belgilab qo'ilgan;
  - Mamlakatimiz rejali iqtisodiyotdan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrda yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatini yuritishga katta e'tibor berib kelmoqda. Pirovardida hozirgi kunda minglab tadbirkor fuqarolarimiz yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik va tijorat faoliyatini yuritmoqdalar.

*Mamlakatimiz rejali iqtisodiyotdan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrda yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatini yuritishga katta e'tibor berib kelmoqda. Pirovardida hozirgi kunda minglab tadbirkor fuqarolarimiz yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik va tijorat faoliyatini yuritmoqdalar.*

O'z navbatida, ular mehnat natijalarini erkin bozorda realizatsiya qilib pul daromadlarini olishga muvaffaq bo'lishmoqda;

Shuni alohida ta'kidlash joizki, talaba yoki magistr davlat granti asosida o'qiydimi yoki to'lov shartnoma asosida o'qishidan qat'i nazar o'quv natijalari ijobjiy bo'lsa tabalqalashgan ko'rinishda stipendiya oladilar.

*Hozirgi kunda mamlakatimizda 60 dan ortiq oliy ta'lif muassasalari mavjud bo'lib, ularda tahsil olayotgan bakalavr va magistrlarning barcha o'quv reytingi natijalari ijobiy bo'lganda davlat stipendiyalarini olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.*

Bugungi kunda respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarida (xorijiy mamlakatlar oliy ta'lif muassasalarining filiallari bundan mustasno):

- o'rta bahoga o'qiydigan talaba — 134 249 so'm;
- yaxshi bahoga o'qiydigan talaba — 201 374 so'm;
- a'lo bahoga o'qiydigan talaba — 268 498 so'm miqdorida stipendiya olishmoqda<sup>18</sup>;
- bugungi kunda mamlakatimizda 2800 minga yaqin pensiya va nafaqa oluvchilar mavjud bo'lib, ularning barchasiga davlat pensiyalari va nafaqalar berilishi ko'zda tutilgan.

*Bizda fuqaro besh yil mehnat stajiga ega bo'lib pensiya yoshiga yetganda pensiya bilan ta'minlanishi me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Pensiya miqdori fuqaroning pensiya yoshiga yetgunga qadar mehnat faoliyatining sisatiga va miqdoriga bevosita bog'liq bo'ladi.*

Agar fuqaro katta lavozimlarda va uzoq muddat faoliyat yuritgan bo'lsa ko'proq hajmdagi pensiya, agar kam miqdor ishlashi bilan birga, oddiy ishchi bo'lgan bo'lsa, mos ravishda kam miqdorda pensiya tayinlanishi ko'zda tuilgan.

2012-yil 1-dekabrdan hoshlab pensiya ta'minotining minimal miqdori quyidagicha belgilangan:

- yoshga doir pensiyalar — oyiga 155670 so'm;
- bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa — oyiga 155670 so'm;
- zarur ish stajiga ega bo'lмаган keksa yoshdag'i va mehnatga la-yoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 95520 so'm miqdorida belgilangan<sup>19</sup>.
- Bozor iqtisodiyotining talablaridan biri ortiqcha mehnat resurslarini xorijiy mamlakatlarga eksport qilish hisoblanadi.

18 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2012-yil 12-noyabrdagi 441-sonli buyrug'iga 2-ilova.

19 Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Иш ҳаки, пенсиялар, стипендиялар ва ижтимоий нафакалар миқдорини ошириш түғрисида»ги Фармони. 2012 йил 9 ноябрь.

*Bunday tajribadan Meksika davlati AQSHga, Turkiya davlati Germaniyaga va h. k. respublikamiz Janubiy Koreya davlati bilan mehnat resurslarini almashish bo'yicha hukumatlararo bitim imzolagan.*

Buning pirovardida hozirgi kunda bizning mamlakatimizda minglab Koreyalik tadbirkorlar faoliyat yuritishi bilan birga, bizning fuqarolar Ko-reya davlatida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Bu o'z navbatida, har biri ishlab topgan pul mablag'larini o'z davlatida istiqomat qilayotgan oilalariga pul o'tkazmalari orqali yubormoqdalar;

- O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 273-moddasiga binoan, oilalarning mol-mulki bo'lib quydagilar hisoblanadi. Xususan: uyjoylar, kvartiralar, dala hovli binolari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar. Amaliy tajribadan bizga ma'lumki, oilalar ehtiyojidan ortiqcha bo'lgan mol-mulkini shartnoma asosida ehtiyojmandlarga ijaraga beradilar. Ushbu holat, asosan boshqa shahar va viloyatlardan shahar markaziga mehmonga kelganda yoki o'qishga kirganda ko'plab uchrab turadi. Shuningdek, ehtiyojidan ortiq bo'lgan mol-mulkni sotish orqali ham pul topishi mumkin. Masalan, o'z vaqtida yengil mashinasi va uning garaji bo'lgan. Zarurat bo'lib, yengil mashinani boshqa viloyatdagi farzandiga hadya qildi. Garajni ko'chirib ketishning iloji yo'q, ijaraga berishga mijoz yo'q. Shunday holat sodir bo'lganda, uni faqat sotish orqali qo'shimcha daromad manbaini olish mumkin;
- Shaharli xalqidan farqli o'laroq, qishloqda istiqomat qilayotgan fuqarolarimiz mamlakatda yashayotgan aholining qariyib, yarmini tashkil etadi.

*Qishloqda davlat muassasalarida faoliyat ko'rsatib daromad manbaiga ega bo'lganlar ko'p, albatta. Ammo, shaxsiy tomorqasi va dehqon xo'jaligi hisobiga ham daromad olayotganlar kam emas.*

- Hozirgi kunda birgina Toshkent shahrida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun kamida 6,5–7,0 mingta yo'nalishdag'i taksi xizmat qilishi lozim ekan. Ammo shuncha taksi xizmat qila olmayapti, albatta. Bu degani yo'lovchilar taksisiz qoldi degani emas. Iqtisodiyotda tabab — taklifni vujudga keltiradi degan iqtisodiy qonundan kelib chiqib, davlat taksilarining o'rnnini xususiy taksilar egallab turibdi. Bu jarayon vaqtinchalik xarakterga ega, albatta. Shuningdek, ehtiyojmandlar

qurilish materiallari (sement, taxta, temir, qum, tosh va tuproq)ni yuk avtomobillarisiz olib kelishning imkoniyati cheklangan. Bu yerda ham yuk avtomobilari bo'lgan oilalar ushbu xizmatni ko'rsatish hisobiga pul daromadlariga ega bo'limoqdalar;

*Ular o'zları iste'mol qilishi va erkin bozor uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradi yoki chorva mollarini boqishadi. Iste'moldan ortiqcha bo'lib qolgan mahsulotini erkin bozorga olib chiqib sotib qo'shimcha daromad manhaiga ega bo'ladilar.*

- Rejali iqtisodiyotda ham qisman mavjud bo'lgan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu jarayonni tezlashtirish va ko'llamini kengaytirishga qulay shart-sharoit yaratildi.

*Bu moliyaviy bozor operatsiyalaridir. Oilalarda ortiqcha pul mablag'lari vujudga kelgan sharoitda uni investitsiya qilishning qator manbalari mavjud. Shulardan biri tijorat banklariga foiz olish hisobiga omonat qo'yish hisoblanadi. Yillik 10 foizni va'da qilgan tijorat bankiga bir million pul qo'ysangiz, yil so'ngida 100000 so'm qo'shimcha pul olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdazsiz.*

Shuningdek, ayrim holatlarda davlat muomalaga obligatsiyalar chiqaradi. Bu ham qat'i belgilangan foiz to'lash bilan birga, ayrimlarida yutuq ham bo'ladi. Siz yiliga 12 fozli daromad to'laydigan bir millionlik obligatsiyani xarid qilsangiz, yil oxirida 120 ming so'm ortiqcha pul olishingiz bilan, yana «N» summa yutuq ham yutib olishingiz mumkin. Yutuq hammaga ham faqat omadililargagina nasib qiladi albatta. Moliyaviy bozorning yana bir imkoniyati shundaki, aksionerlik jamiyatlar investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida qonun doirasida muomalaga aksiyalar chiqarishi mumkin. Siz aksiyani xarid qilib, yil oxirida dividend olish imkoniyatiga ega bo'lasiz;

- Mustaqillik mahalliy aholi qatlamini respublika, xalqaro miqyosdagi davlat grantlarida ishtirok etish imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Yuqori ilmiy-intellektual salohiyatga ega bo'lgan oila a'zosi e'lon qilin-gan grantlar konkursida ishtirok etib daromad manbalarini kengaytirish mumkin. Yaxshi ishlaganlar uchun bu oilaga sezilarli ravishdagi daromad keltirishi mumkin. Buni bosib o'tgan yo'llimiz va amaliy tajriba ham isbotlab turibdi;

- Jahonda turli mamlakat aholisi, millat elatlarning o'ziga xos va biri ikkinchisini takrorlamaydigan milliy mentaliteti va tabiatni bo'ladi.

*Millat yoki davlat o'zining tabiatini va mentalitetini udumi, an'ana va qoidalarri bilan ajralib turadi. O'zbek xalqida uchrab turadigan o'ziga xos an'anasi to'y-tomosha qilganda to'yna berish odati mavjud. Bunday an'anani ruslarda yoki nemislarda uchratish qiyin, hattoki tili yaqin bo'lgan boshqa turkiy xalqlarda ham kam uchraydi.*

To'yga to'yna bilan deganlaridek, har bir to'yga chaqirilgan mehmon imkoniyati kelgancha, ayrim hollarda to'y qiluvchining mansab-martabasiga qarab to'yna uzatishadilar. Shunday norasmiy gaplar ham uchrab turadiki, "Men qilgan to'yimga ketgan xarajatlarning qariyib barchasini to'yna qoplab ketdi", degan. Buni qanchalik to'g'ri ekanligini to'y qilganlar biladi, albatta;

- Oilaning yana qanday pul daromadlari bo'lismeni endi kitobxonga havola qilamiz, agar jam bo'lib uni biz bilan hamrohlashsa ayni mud-dao bo'lar edi.

Yuqorida qayd etilgan daromad manbalarini qo'lga kiritish oilalarning mintaqalarda joylashgan holatiga qisman bog'liq bo'ladi. Masalan, oila a'zolari qanchalik ko'p shaharda yashasa tijorat, tadbirkorlik, sanoat korxonalari va moliyaviy bozordan olayotgan daromad manbalari ko'lami kattaroq bo'ladi. Mabodo, qishloq joylarda istiqomat qiladigan bo'lsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollarini sotishdan olayotgan daromadlari shaharda yashayotganlarga nisbatan ko'proq bo'ladi.

Shuningdek, oila a'zolari neft-gaz, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari tijorat va savdo tashkilotlarida faoliyat yuritsa pullik daromad olish imkoniyatlari ham qisman yuqori bo'lishi hozirgi kunda namoyon bo'lib turibdi.

#### **4.2. Oila budgetining qisqa va uzoq muddatli xarajatlar tarkibi va tuzilmasi**

Birinchi savolda qayd etib o'tilganidek, oilaning daromadlari manbai turlicha bo'lgani kabi xarajatlari ham shunga mos ravishda xilma-xildir. Xususan, oila budgetining xarajatlar tarkibini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- iste'mol (oziq-ovqat va nooziq-ovqat) xarajatlari;
- kommunal xizmat va elektroenergiya to'lovlari bo'yicha xarajatlari;
- ta'lif olish va sog'lioni saqlash bilan bog'liq xarajatlari;
- transport yoki transport uchun yoqilg'i xarajatlari;
- majburiy (soliqlar va ijtimoiy sug'urta to'lovlari) to'lovlari;
- ma'naviy hordiq olish bilan bog'liq xarajatlari;
- an'ana, urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari;
- ko'zda tutilmagan xarajatlari.

Yuqorida qayd etilgan xarajatlarning barchasi hamma oilada bo'lishi mumkin ham emas, bu asosan xonodon xo'jaligida yashovchi insonlar tar-kibi va yoshiga bevosita bog'liqidir. Lekin mamlakatimizda istiqomat qiluv-chi aksariyat oila budgetida mazkur xarajatlari bo'lishi muqarrar.

Endi yuqorida zikr etilgan xarajat guruuhlarining har biriga qisqacha izoh berib o'tamiz. Odatda har bir oila budgetining birlamchi xarajatlari iste'mol xarajatlariiga to'g'ri keladi. Iste'mol ham o'z navbatida ikkita katta guruhga bo'linadi oziq-ovqat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari va nooziq-ovqat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari.

Oziq-ovqat xarajatlari guruhi turlicha bo'lib, u insonni kun davomida normal yashashi va mehnat qobiliyatini tiklashi lozim, ya'ni insonni fiziologik ehtiyojlarini qondirish kerak. Hayotiy zarur oziq-ovqat mahsulotlariiga quyidagilar kiradi:

- non va non mahsulotlari;
- sut va sut mahsulotlari;
- go'sht va go'sht mahsulotlari;
- meva - sabzovot mahsulotlari;
- yog'-moy mahsulotlari;
- dukkakli ekin mahsulotlari.

Shuni alohida qayd etish joizki, oila budgetida oziq-ovqatlar bilan birgalikda zarur nooziq-ovqat mahsulotlari ham sezilarli xarajatlarni tashkil etadi. Nooziq-ovqat mahsulotlari xarajatlarni shartli ravishda qisqa muddatli va uzoq muddatli guruuhlariga bo'lish mumkin:

#### **Qisqa muddatli xarajatlarga:**

- kundalik kiyim-kechaklar;
- ta'mirlash va tartiblash ishlari va boshqalar.

#### **Uzoq muddatli xarajatlarga:**

- uy-joylarni qurish yoxud xarid qilish;
- avtomobillar va qishloq xo'jaligi texnikasini xarid qilish;

- maishiy xizmat ko'rsatish mahsulotlari (mebel, televizor, muzlatgich, konditsioner)ni xarid etish;
- yirik shoxli qoramollarni sotib olish;
- to'y-tomosha, yubiley, tug'ilgan kunlar va boshqa xarajatlar.

Oila budgetida yana bir zarur o'ziga xos xarajatlardan biri communal xizmat to'lovleri muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'mol xarajatlari tarkibida communal xarajatlari muhim o'r'in tutib ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- elektr-energiya, telefonlar va gazdan foydalanganlik uchun to'lovlar;
- issiq va sovuq suv uchun to'lovlar;
- uy-joydan foydalanish xarajatlari va axlat uchun to'lovlar (shahar joylarga xos) va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda oila budgetining jiddiy qismi ta'lim olish va sog'liqni saqlash bilan bog'liq xarajatlarga yo'naltiriladi. Bizda ham asta-sekinlik bilan bozor iqtisodiyotining prinsiplariga o'tish munosabati bilan ushbu xarajatlar tarkibi o'zgarib o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ammo shuni qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida: «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega», 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir»,<sup>20</sup> — deb qayd etilgan.

Ammo, 1990-yillarni oxiridan boshlab oliy ta'lim tizimida tahsil ola-yotgan talabalarning aksariyat qismi to'lov-shartnoma asosida o'qimoqda. Zero, bu bo'yicha davlat tomonidan to'lov-shartnoma asosida tahsil ola-yotganlar uchun ko'plab imtiyozlar berilgan bo'lsa-da, ushbu xarajat oila budgetidagi xarajatlar sirasiga kiradi.

Shuningdek, kuchli ijtimoiy ahamiyat kasb etmaydigan kasallikkllarning aksariyati pullik to'lov asosida amalga oshiriladi. Profilaktika yuzasidan dorixonalardan olinadigan dori-darmon vositalari ham oila budgetidagi xarajatlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti rivojlangan sharoitda transport vositalaridan foydalanmayotgan biron kimsani topish amrimahol. Shu bois, transport xizmatidan foydalanish xarajatlari ham oila budgetida muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta transport vositalari bo'yicha xarajatlarni kamaytirish bo'yicha mamlakatimizda qator chora-tadbirlar amalga

20 Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Ўзбекистон», 2008 йил, 9 бет.

oshirilmoqda. Ayniqsa shahar joylarda istiqomat qiluvchilar uchun metro xizmatidan foydalanish, jamoat transportlaridan foydalanish, nafaqat foydalanish, balki imtiyozli foydalanish uchun oylik yo'l chiptalari xarid qilish ham mumkin. Asta-sekinlik bilan bunday imtiyozlar nafaqat poytaxtda, balki viloyat va tuman markazlarida ham amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar,»<sup>21</sup> — deb belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fuqarolarimiz egallab turgan yerlari bo'yicha yer solig'i, uy-joylari uchun mol-mulk solig'i va ishlab daromad olayotgan bo'lsalar, daromadning hajmidan kelib chiqqan holda daromad soliqlarini to'lashadi.

Yana Konstitutsiyamizning 39-moddasida: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qtoganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega,»<sup>22</sup> — deb ta'kidlangan. Albatta mana shunday ta'minotni olish uchun ishlayotgan fuqarolar ish haqining muayyan bir qismini yagona ijtimoiy to'lov sifatida oldindan pensiya jamg'armasiga to'lab boradilar. Bu to'lov o'z navbatida, oila budjeti uchun xarajat hisoblaniadi. Lekin shuni alohida qayd etish lozimki, ayrim kishilar ishlamagan bo'lsa-da, lekin davlat tomonidan ularga ijtimoiy nafaqa berilish qonun bilan ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, fuqarolarning dam olishi uchun barcha shart-sharoitlarni amalga oshirib kelmoqda. Buning pirovard natijasida aholimiz mehnat unumdarligini yanada oshirish uchun ma'naviy hordiq olish bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshirmoqda. Ma'naviy hordiq olishning turlari ham xilma-xil va rangbarangdir. Masalan, muzey, tarixiy shaharlar, teatr, kinokonsert zallariga tashrif buyurish, sanatoriy, har xil turdag'i taqdimot va ko'rgazmalarga borish va h. k.

Bir vaqtning o'zida ham quvonarli ham hayajonli onlardan biri — bu har bir o'zbek oilasining to'y marosimlari bo'ladi. To'ylarimiz turlicha bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aqiba;
- uylanish/turmushga chiqish;
- yubiley to'ylar.

21 Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Ўзбекистон», 2008 йил, 10 бет.

22 Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Ўзбекистон», 2008 йил, 9 бет.

Bularning barchasi hozirgi sharoitda oila budgetiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatayotgan xarajatlar tarkibiga kiradi. Xalqimizda keng tarqalgan ibora: «Qiz chiqargan oilaga 40 yil teginma», degan gap bekorga tarqalmagan.

**E'tibor bering!!!** Biz yuqorida oila budgeti daromad manbalari va ularning izohi haqida ma'lumot berib o'tdik. Endi shu daromad manbalaringning qaysi birlarini oila a'zolari o'z mehnati va xatti-harakati ila qisman ko'paytirish mumkin yoki ko'paytirish imkoniyatlari cheklangan? Oilaviy daromad manbalarini ko'paytirish imkoniyati bo'lgan manbalar quyidagi lardan iborat. Xususan:

- mulk shaklidan qat'i nazar biror bir yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik subyektlaridan olayotgan oylik maosh, mukofat va ijtimoiy himoya sifatida oladigan moddiy yordam;
- yuridik shaxs maqomini olmasdan, tijorat va tadbirkorlik asosida fəoliyat yuritayotgan oilaviy tadbirkorlar ishlab chiqargan, xizmat ko'rsatgan yoki bajargan ishi uchun olayotgan daromadlari;
- xorijda ishlayotgan oila a'zolaridan kelayotgan transfert pullar;
- ixtiyorida bo'lgan mol-mulkni ijaraga bergenlik uchun ijara xaqlari yoki ortiqcha mol-mulklarini sotishdan olayotgan pullar;
- ixtiyoridan ortiqcha bo'lgan qishloq xo'jaligi va chorva mollarini sotishdan olayotgan daromadlari;
- yengil va yuk avtomashinalari bilan xizmat ko'rsatganliklari uchun to'lov pullari;
- mahalliy va xorijiy grantlarda ishtirok etganligi uchun daromad olish.

Oilaviy daromad manbalarini ko'paytirish imkoniyati cheklangan manbalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- oliy ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga beriladigan stipendiyalar;
- pensionerlarga beriladigan pensiya pullari, shuningdek, mehnatga la-yoqatsiz oila a'zolari uchun nafaqa pullari;
- moliya bozoridan, ya'ni tijorat banklariga qo'yilgan omonat uchun foiz to'lovlari, xarid qilingan obligatsiyalar uchun foiz to'lovlari va aksiyalari uchun olayotgan devidend to'lovlari;
- mahalliy mentalitetga bevosita xos bo'lgan daromad manbai bu — to'y, tug'ilgan kun va shu kabi marosimlarida shakllanadigan «to'yon» daromadlari;

**Diqqat!!!** Oila budgetida xarajatlar ko'lamini qisqartirish mumkin bo'lgan xarajatlar yo'nalishlari yoki qisqartirish cheklangan xarajatlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Xarajatlar ko'lamini qisqartirish mumkin bo'lgan xarajat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- iste'mol (oziq-ovqat va nooziq-oqat) xarajatlari;
- ma'naviy dam olish bilan bog'liq xarajatlar;
- an'ana, urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari.

Oilada yana shunday noan'anaviy xarajatlar borki, ular nafaqat oila budgetiga, balki sog'liqga ham katta zarar keltiradi. Bir misol keltiramiz.

«Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bir dona sigaretani ishlab chiqarishda inson salomatligi uchun o'ta xavfli sanalmish ko'plab kimyoiy moddalar, xususan, butan, metan, kadmiy, ko'mir gazi, geksamini, marginmush, metanol, ammoniy va nikotindan, shuningdek, gazni tutib turish uchun maxsus ishlov berilgan qog'oz, yelim va xavfli bo'yoqdan foydalilaniladi. Undan chiqaradigan tutun tarkibida esa 4000 ga yaqin zararli is gazi mavjud bo'lib, bu avtomobil tutuniga nisbatan 4 barobar ko'pdir. Boshqacha aytganda, bir dona sigareta chekish uchun o'rtacha 3–5 daqiqa vaqt sarflaydigan kashanda go'yoki 12–20 daqiqa mobaynida avtomobil tutunidan nafas olgan odam bilan teng zaxarlanadi. Bu zararli moddalar ichida eng xavfisi smola bo'lib, uning bir tomchisi bitta otni o'ldirishi mumkin ekan. Qolaversa, sigareta chekuvchilar uglerod oksid va monooksidlar, sianidi vodorod va boshqa zaharlarnilar ham yutadilar. Oqibatda esa...

**Kashanda kuniga kamida bir quti sigareta chekadi. Ba'zan esa bu miqdor ikki qutiga ham yetishi mumkin. Hozir bir quti sigareting narxi o'rtacha 3 ming so'm atrofida. Demak, kashanda tamaki uchun haftasiga 21 ming, oyiga 90 ming, yiliga esa 1 million 95 ming so'm sarflaydi...**

Xo'sh, bu pulga hozir nima xarid qilish mumkin? Masalan, zamonaviy LSD televizori, muzlatkich, kompyuter jamlanmasi, yaxshi mebel... yoki chekishga sarflanadigan bir yillik mablag' bilan eng yaxshi dam olish sanatoriylarining birida dam olishingiz mumkin»<sup>23</sup>.

Oila budgetida yana shunday xarajat turlari borki, ularni qisqartirish imkoniyati deyarli cheklangan, qiman bo'lish mumkin ammo aksariyat

23 Абилов Ф. Ихтиёрий захираланиш. «Халқ сўзи» 2012 йил 15 ноябрь.

hollarda cheklash mumkin emas bo'lib, ularning tarkibi quyidagilardan iborat. Jumladan:

- kommunal xizmat va elektroenergiya to'lovlari bo'yicha xarajatlari;
- transport yoki transport uchun yoqilg'i xarajatlari;
- majburiy (soliqlar va ijtimoiy sug'urta to'lovlari) to'lovlari;
- ta'lim olish va sog'liqni qayta tiklash bilan bog'liq xarajatlari;

**«Biz inson hayotida kutilmagan holat va xodisalar bo'lishi muqarrar ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak».** Shunday ekan, shunga mos ravishda kutilmagan xarajatlar bo'lishi muqarrardir. Real hayotdan bizga ma'lumki, kutilmagan hodisa va holatlar ham xilma-xildir.

Jumladan:

- avtohalokatga uchrash;
- tabiiy ofat va baxtsiz hodisa ro'y berishi;
- hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan televizor, muzlatgich, konditsioner, kir yuvish mashinasining nosoz bo'lib qolishi;
- yirik shoxli mollarning nobud bo'lishi;
- oila a'zolaridan birining betob bo'lib qolishi yoki vafot etish va boshqalar.

#### **4.3. Favqulodda holatlar uchun zaxiralarni rejalashtirish.**

Yuqorida qayd etilgan ko'zda tutilmagan xarajatlarni uz vaqtida va to'liqligicha moliyalashtirish uchun har bir oilada muayyan moliyaviy zaxira tashkil etilishi lozim.

Dunyo hamjamiyatida ta'kidlashicha oila budgetida zaxira jamg'armasi u bir oyda oila topadigan umumiylar daromadning 10 foizi atrofida bo'lishi ta'kidlanmoqda. Lekin amalda hamma vaqt ham shu miqdoridagi mablag' yetarlicha bo'lavermaydi. Agar shunday 10 foizlik zaxira shakllantiriladi-gan bo'lsa, 10 oydan so'ng bir oylik budget mablag'i zaxira sifatida shakllanishi mumkin.

Masalan, oilada shakllanayotgan daromadning 15–20 foizi fiziologik ehtiyojlarni qondirish uchun iste'molga ketib, qolgan qismi uzoq muddatli xarajatlar va jamg'armaga ketadigan bo'lsa, oila budgeti uchun 10 foizlik zaxira yetarli bo'lishi mumkin.

Ammo yuqorida zikr etilgan ko'rsatkich oilada teskari bo'lsa, 10 foiz o'rniiga kamida 20 foiz tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chun-

ki, ayrim hollarda kutilmagan xarajatlar ko'lami keng va katta bo'lishi mumkin.

Bizning mamlakatda oilaviy budgetni daromad va xarajatlarini takomillashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2012-yil 26-aprelda mamlakatimizda «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 2012-yil 16-martda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 23-martda Senat tomonidan ma'qullandi.

Qonun tarkibi 7 bob va 35 moddadan iborat bo'lib, unda oilaviy tadbirkorlik faoliyati, ishtirokchilarining huquq va majburiyatları, oilaviy korxonalarini tashkil qilish va uni tugatishning huquqiy asoslari, oilaviy korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartiblari, mazkur qonunni buzganlik uchun javobgarlik me'yorlari ko'rsatib o'tilgan.

«Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunning maqsadi oilaviy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, sohani rivojlantirish uchun zarur normativ-huquqiy bazani yaratish, oilaviy biznesga keng yo'l ochib berish va yangi ish o'rinalarini tashkil etish uchun kerakli huquqiy shart-sharoitlarini ta'minlashdan iborat.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad — ichki bozorimizda raqobat muhitini shakkllantirish, aholini sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta'minlash, aholining mehnatga yaroqli qatlamini ish bilan ta'minlash va shu orqali xalqimizning turmush darajasini yanada yaxshilashdan iborat.

«Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuning «Mustahkam oila» yilida qabul qilinganligi bejis emas. Mazkur qonun bugungi kunda oila-larga berilayotgan katta e'tiborning izchil davomidir. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sanaladi. Shu sababli Yurtboshimiz Islom Karimov jamiyatning istiqbolli kelajagini ta'minlash uchun asosiy e'tiborni oila-ga qaratganlar.

Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari o'rtasidagi totuvlik, inoqlikni oshiradi. Kutilmagan muammo va masalalarni birgalikda hal qilishdagi hamjihatlik, oila a'zolarining bir-birini tushungan holda ish olib borishi oiladagi tinchlikni ta'minlaydi.

Shuni aytish joizki, «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining yangi qonuni oilalarda yaratuvchanlik, bунyodkorlik g'o-yalarining yanada taraqqiy etishida muhim omil bo'lishi bilan birga oila budgetini daromad qismini barqarorligini ta'minlaydi.

## TAYANCH ATAMALAR

**Reklama** — tovarlar va xizmatlar ist’emolchilarni xabardor qilish va shu yo’l bilan talabni shakllantirish maqsadida ularga oid ma’lumotlarning tarqatilishi;

**Auditor** — davlat organlaridan maxsus ruxsatnomasiga ega bo’lgan, aksioner kompaniyalarning moliyaviy xo’jalik faoliyatini tekshiruvchi shaxs;

**Broker** — valuta bozori, fond va tovar birjalaridagi tovar, qimmatbaho qog’ozlar, valuta va boshqa qimmatliklar savdosi to’g’risidagi bitilmarni tuzishda ishtirok etuvchi rasmiy vositachi;

**Budget** — ma’lum davrdagi daromad va xarajatlar balans smetasining pul-dagi qiyosiy ifodasi;

**Budget nazorat** — asosiy shart-sharoit va qonuniyatlarning o’zgarmasligi sharoitida, bozordagi joriy holatning o’zgarishi tufayli sharoitida firma tomonidan daromad va xarajatlar, ishlab chiqarish va sotishga o’zgartirishlar kiritilishiga asoslangan nazorat;

**Biznes-reja** — firma ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanish rejasi;

**Oddiy aksiyalar** — egasiga aksiyadorlar o’rtasida taqsimlanuvchi, aksiyadorlik jamiyatining haqiqiy foydasidan daromad olish va aksiyadorlar umumiyligi yig’ilishida ishtirok etish huquqini beruvchi aksiya;

**Iste’mol tovarlari** — ya’ni ijlimoiy mahsulotning noishlab chiqarish, asosan shaxsiy iste’molni qondirish uchun ishlatiladigan qismi;

**Aylanma mablag’lari** — korxonaning xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, idishlar kabi ishlab chiqarish zaxiralarini tashkil etish: xo’jalik faoliyatini moliyalashtirish uchun yo’naltiriladigan pul mablag’lari;

**Dividend** — aksiyadorlarning mavjud aksiyalar miqdori va turiga qarab ularga daromadlar tariqasida har yili tarqatiladigan aksiyadorlik jamiyatini foydasining bir qismi;

**Moliyaviy nazorat** — moliyaviy hisobotni tayyorlash, bank departamenti uchun budgetlarni ishlab chiqish, bankning moliyaviy holatini nazorat qilishlarni o’z ichiga oлади;

**Penya** — ko’rsatilgan xizmatlar, bajariilgan ishlar, sotib olingan moddiy-tovar vositalarining to’lovini kechiktirganliklari hamda soliq va nosoliq to’lovlarni muddatida to’lamaganliklari kabi moliyaviy majburiyatlarni o’z vaqtida bajarmaganliklari uchun qo’llaniladigan sanksiya;

**Kafolatchi** — ma’lum bir majburiyatlar bo’yicha kafolat beruvchi davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs

**Investitsiya** — foyda olish maqsadida xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari-  
ga sarf-lanadigan uzoq muddatli kapital qo‘yilmasi;

**Lizing shartnomasi** — mashina va asbob uskunalar, ko‘chmas mulk ijariasi;

**Shartnoma bahosi** — mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o’rtasi-  
da shart-noma asosida belgilangan baho;

**Imtiyozli aksiya** — egalariga daromad olishda ma’lum imtiyozlar beruv-  
chi aksiya;

**Ishlab chiqaruvchi** — foyda olish maqsadida tovar ishlab chiqaruvchi  
yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona;

**Mahsulotlar** — ma’lum bir vaqt mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot-  
lar miqdori;

**Garov** — shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini ta’minlashning bir tu-  
ri. Qarzdor tomonidan majburiyat bajarilmay qolgan taqdirda, kreditor ga-  
rovga qo‘yilgan qiymatlikni sotish evaziga qarz o‘rnini qoplashi mumkin;

**O‘z-o‘zini moliyalashtirish** — qorixona, tashkilot va muassasalar tomonidan  
o‘zining barcha oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xarajatlarini  
o‘z mablag‘lari hisobiga qoplanishini taqozo etuvchi xo‘jalik yuritish tizimi;

**O‘z-o‘zini qoplash** — o‘zining barcha xarajatlarini mahsulotni sotishdan  
tushadigan tushum hisobidan qoplaydigan xo‘jalik hisobidagi korxona-  
ning faoliyat prinsipi;

**Aksiya** — aksioner jamiyatga unda ko‘rsatilgan miqdorda ulush qo‘shil-  
ganligini va uning foydasidan devidend olish huquqini tasdiqlovchi qim-  
matli qog‘oz;

**Homiy** — tekinga yoki qisman qaytarish sharti bilan biron-bir tadbirlarni  
moliyalashtiruvchi tashkilot, firma, jismoniy shaxs;

**Soliq** — korxona, tashkilot, muassasalar va aholi tomonidan to‘lanadigan,  
davlat tomonidan o‘rnatilgan majburiy to‘lovlari;

**Soliq imtiyozi** — soliq to‘lashni keyinga surish;

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Oila budjeti daromadining manbalari nimalardan iborat?
2. Oila budjeti necha qismdan iborat va ularning o’rtasida qanday tafo-  
vutlar mavjud?
3. Oila qanday manbalardan naqd pul ko‘rinishida daromad oladi?
4. Qanday hududlarda yashayotgan oilalarning budjetida tomorqa daro-  
madlari ulushi katta bo‘ladi va nima uchun?

5. Oila budjeti shakllanishida qat'i belgilangan daromadlar bilan tadbir-korlik daromadlari o'rtasida qanday tafovutlar bor?
6. Oila a'zolari moliya bozoridan qanday ko'rinishda daromad olishlari mumkin?
7. Oila budjeti xarajatlari tarkibida salmoqli ulushni nima tashkil etadi?
8. Oila budjeti xarajatlarida qanday xarajat turlarini qisqartirish imkoniyatlari mavjud?
9. Oila budjeti xarajatlari tarkibida qanday birlamchi, zaruriy xarajatlar ni amalga oshirish kerak?
10. Xonodon xo'jaligida qanday noan'anavay xarajat va daromadlar mavjud?
11. Nima uchun xonodon xo'jaligida ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun zaxira tashkil etish kerak?

## TESTLAR

1. Oila budjeti va Davlat budjeti daromad hamda xarajatlarini rejalashtirishda qanday xususiyat mavjud?
  - a) to'g'ri proporsionallik mavjud;
  - b) teskari proporsionallik mavjud;
  - v) hech qanday bog'liqlik yo'q;
  - g) ikkalasi ham bir xil budjet bo'lgani uchun uyg'unlik mavjud.
2. Uy xo'jaliklari yoki oila budjetining jami daromadlarini shartli holatta necha guruhga ajratish mumkin?
  - a) beshta guruhga;
  - b) yettita guruhga;
  - v) ikkita guruhga;
  - g) o'nta guruhga.
3. Bugungi kunda yaxshi bahoga o'qiydigan talaba qancha miqdorda davlat stipendiyasini oladi?
  - a) umuman stipendiya olish ko'zda tutilmagan;
  - b) minimal ish haqining ikki barobari hajmida;
  - v) bugungi kunda talaba 183067 so'm oladi;
  - g) minimal ish haqining besh barobari hajmida;
4. 2012-yil 1-dekabrdan boshlab pensiya ta'minotining yoshga doir pensiyasi oyiga qancha miqdorda belgilangan?
  - a) yoshga doir pensiyalar — oyiga 155670 so'm;
  - b) yoshga doir pensiyalar — oyiga 200670 so'm;

- v) yoshga doir pensiyalar — oyiga 300670 so‘m;
- g) yoshga doir pensiyalar — oyiga umuman belgilanmagan.
5. Har bir millatning o‘ziga xos milliy mentalitet bilan bog‘liq qanday daromad manbai va xarajat yo‘nalishi mavjud?
- a) Tijorat va tadbirdorlik;
- b) to‘y va yubiley marosimlari;
- v) Mol-mulkini ijaraga berish;
- g) Oylik maosh olish.
6. Milliy mentalitetimiz, urf-odatlari bilan bog‘liq, oila budgetida qanday samarasiz xarajatlar mavjud?
- a) qiz to‘yi;
- b) kelin salom;
- v) challar to‘yi;
- g) barchasi to‘g‘ri.
7. Oila budgetida sog‘liqqa va budgetga zarar keltiradigan qanday xarajat turi mavjud?
- a) spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini xarid qilish;
- b) avtomobil va mebel xarid qilish;
- v) yirik shoxli qora mollarni xarid qilish;
- g) to‘yona berish xarajatlari.
8. Oila budgetidan qanday xarajat turlarini cheklash mumkin emas?
- a) kommunal xizmat va elektroenergiya to‘lovları bo‘yicha xarajatlari;
- b) transport yoki transport uchun yoqilg‘i xarajatlari;
- v) majburiy (soliqlar va ijtimoiy sug‘urta to‘lovları) to‘lovlar;
- g) yuqorida barchasini cheklash mumkin emas.
9. Oila budget daromad manbalarini ko‘paytirish imkoniyati cheklangan manbalardan birini ko‘rsating?
- a) ixtiyoridan ortiqcha bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va chorva mollarini sotishdan olayotgan daromadlari;
- b) yengil va yuk avtomashinaliri bilan xizmat ko‘rsatganliklari uchun to‘lov pullari;
- v) oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga beriladigan stipendiyalar;
- g) mahalliy va xorijiy grantlarda ishtirok etganligi uchun daromadlari.
10. Dunyo amaliyotiga ko‘ra, oila budgeti zaxira jamg‘armasi bir oyda oila topadigan umumiy daromadning necha foiz atrofida bo‘lishi ta‘kidlanmoqda?
- a) 20 foiz miqdorida;

- b) 50 foiz miqdorida;
- v) 10 foiz miqdorida;
- g) zaxira tashkil etish shart emas.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Ўзбекистон», 2008 йил.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Бюджет тизими тўғрисида»ги 2000 йил. 4 декабрдаги Конуни.//Соликлар ва божхона ҳабарлар, 2-сон. 2001 йил.
3. «Ўзбекистон Республикасининг Солик кодексини тасдиқлаш тўғрисида»ги конуни. — Тошкент, 2007 йил 25 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бюджетининг ғазна ижори тўғрисида» Конуни. 2004 йил 26 август.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Давлат бюджетига соликлар ва бошка тўловлар бўйича имтиёзлар беришни тартибга солиш тўғрисида»ги Фармони. 1999 йил 26 июнь//Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари. — Т.: Адолат, 2000.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Иш хаки, пенсиялар, стипендиялар ва ижтимоий нафакалар мидорини ошириш тўғрисида»ги Фармони. 2012 йил 9 ноябрь.
7. Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008.
8. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иктисодий инкиrozи, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. — Т.: Ўзбекистон, 2009.
9. Абилов Ф. Ихтиёрий захираланиш. «Халқ сўзи» 2012 йил 15 ноябрь.
10. Маликов Т. С., Хайдаров Н. Х. Бюджет даромадлари ва ҳаражатлари. — Т.: Iqtisod-moliya, 2007.
11. Юлдашев З. Ю., Маликов Т. С. МОЛИЯ: уй хўжаликлари молияси/Ўкув қўлланма. Тошкент, 2008.
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) — O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
13. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) — O'zbekiston Respublikasi Moliya bazasi sayti.

## **AHOLINING JAMG'ARMALARI VA INVESTITSION BOZORDAGI ISHTIROKI**

(jami: 2 soat: 2 soat amaliy mashg'ulot)

### **Reja:**

- 5.1. Xonadon xo'jaligi jamg'armalari va turlari.
- 5.2. Investitsiyalash tamoyillari va turlari.
- 5.3. Investitsiya portfelini shakllanishi va diversifikatsiyalashuvi.

### **5.1. Xonadon xo'jaligi jamg'armalari va turlari**

Xonadon xo'jaligi kundalik hayotda joriy yoki istiqbolda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan iste'moldan birini tanlaydi. Xonadon xo'jaligi joriy va istiqboldagi iste'mol davrida: a) topgan barcha daromadini iste'molga sarflashi; b) topgan daromadining kamroq qismini iste'molga sarflashi, ortib qolgan mablag'larni jamg'arib qo'yishi; v) topgan daromadiga nisbatan iste'molga ko'proq mablag' sarflashi (bunda u moliyaviy bozorlardan qarzga qo'shimcha mablag'lar oladi) mumkin.

Xonadon xo'jaligi daromadi uning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bu eng avvalo xonadon xo'jaligining kundalik iste'molini qondiradi. Xonadon xo'jaligi daromadining bir qismi soliqlar va boshqa to'lovlar sifatida ushlab qolinadi, bir qismi iste'mol uchun sarflanadi, yana bir qismi jamg'ariladi. Daromadning iste'moldan ortgan qismi jamg'arishni hosil etadi. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik iste'mol xarajati kamayib, jamg'arish ortadi.

J. Keyns fikricha, shaxsiy iste'molning o'sishi, daromadning qo'shimcha o'sish funksiyasi hisoblanadi. Bunda iste'mol uchun daromadning bir qismi sarflanadi. Shuning uchun iste'molga moyillik chegarasining (iste'molning qo'shimcha o'sishini daromadning qo'shimcha o'sishiga nisbati) miqdori birdan kichik bo'ladi. Jamg'armalarning qo'shimcha o'sishi bilan daromadlarning qo'shimcha o'sishi o'rtaqidagi nisbat jamg'arishga moyil-

lik chegarasi deyiladi. Misol uchun, agar xonodon xo'jaligining qo'shimcha daromadi 10 mln. so'mni tashkil etib, shundan 7,5 mln. so'mini iste'molga sarflasa, qolgan 2,5 mln. so'mini jamg'arib qo'yadi. Natijada xonodon xo'jaligining iste'molga moyillik chegarasi ko'rsatkichi  $7,5/10=0,75$  ga, jamg'arishga moyillik chegarasi ko'rsatkichi esa  $2,5/10=0,25$  ga teng bo'ladi.

**Xonodon xo'jaligida iqtisodiy tanlov qoidasi.** Xonodon xo'jaligida xarajatlar iqtisodiy qonunlarga muvofiq yuz beradi. Iqtisodiyotda shunday qoida bor: xonodon xo'jaligi daromadi uning ehtiyojlarini to'laroq qondiruvchi tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qaratilishi kerak bo'ladi, aks holda amalga oshirilgan sarflar o'rinsiz bo'ladi. Demak, daromad miqdori cheklangan sharoitda xonodon xo'jaligi tovarlar va xizmatlarni alternativ (muqobil) tanlab olish qoi-dasiga amal qiladi. Bunda daromad asosan tovarlarning eng zaruri va arzoniga sarflanadi, natijada xonodon xo'jaligi imkoniyatidan kelib chiqqan holda ehtiyojni to'liqroq qondirishga intiladi. Eng zarur bo'lmagan ehtiyojlarni qondirish esa keyingi muddatga kechiktiriladi.

Xonodon xo'jaligi iqtisodiy tanlovda pul sarflash yo'llaridan bir nechtaсини qiyosiy taqqoslab, ulardan eng maqbulini tanlab olishi kerak bo'ladi.

Buni tanlov jadvalini chizib amalga oshirish mumkin. Chunonchi, o'ziga to'q xonodon xo'jaligining 2 mln. so'm puli bor. Ayni vaqtda uning avto-mashina, kvartira yoki xorijiy mebel olishga ehtiyoji bor-u, ammo buning uchun 20–30 mln. so'm kerak. Shunday sharoitda tanlash uchun quyidagicha jadval tuzilib, xonodon xo'jaligi pulidan foydalilanildi (5.1.1-jadval).

#### 5.1.1-jadval.

##### Oila xaridining tanlov jadvali

Mahsulotning foydaliligi	Muqobil mahsulotlar		
	avto-mashina	kvartira	xorijiy mebel to'plami
1. Mahsulotga pulning yetishi (+) yetmasligi (-)	+	-	+
2. Qarz bo'imaslik (+) Qarz bo'lishlik (-)	-	-	+
3. Mahsulotning saqlash imkoniyati borligi (+) yo'qligi (-)	-	+	+
4. Tovardan hozir foydalinish imkoniyatining borligi (+) yo'qligi (-)	-	+	+
5. Oila xarajatlarining tejalishi (+) ortib borishi (-)	+	-	-

Tanlov jadvalida birinchi o'rinda mebel to'plami, ikkinchi o'rinda avtomashina, uchinchi o'rinda kvartira turadi. Demak, mebel to'plamiga pul sarflash ma'qul bo'ladi, chunki bu xarid xonodon xo'jaligini qarz qilmaydi, shu tovari saqlash mumkin, u qo'shimcha sarf keltirmaydi. Kvartira hozirchalik zarur emas, u xonodon xo'jaligini qarzga botirishi mumkin, lekin saqlash xarajat talab qilmaydi, undan darhol foydalanish mumkin. Avtomashinaga kelsak, u xonodon xo'jaligini qarzdor etmaydi, oilaning transport xarajatini tejaydi, lekin uni saqlash uchun garaj yo'q, mashinaning ekspluatatsion xarajatlari ham bor. Demak, mebel to'plamiga pul sarflash ma'qul bo'ladi. Daromad qanday bo'lmasin, baribir har bir tanlov tamoyili amal qiladi, lekin tanlanadigan tovarlar doirasi xonodon xo'jaligining iqtisodiy imkoniyatiga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda aholi jamg'armalari milliy iqtisodiyotda investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Tahlillar ko'rsatishicha aholining aksariyat qismi jamg'armalar bevosita investitsiyalash maqsadida emas, balki boshqa maqsadlar uchun jamg'ariladi:

- mablag'larni vaqt bo'yicha tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun taqsimlash. Qator tovarlar va xizmatlar (ko'chmas mulk, avtomashina sotib olish, inson hayotida ro'y beradigan muhim, ahamiyatli voqealarni nishonlash va b.) katta xarajatlarni talab etadi. Shuning uchun ularni joriy daromadlar hisobidan sotib olish uchun o'tkazish mumkin emas. Bunday xarajatlarni amalga oshirish uchun jamg'armalar zarur bo'ladi. Ushbu xarajatlar likvid (oson pulga aylanadigan) shaklda amalga oshiriladi va ko'pincha jamg'armalar sifatida qabul qilinmaydi;
- ehtiyojkorlik sababi. Xonodon xo'jaligi a'zolari o'zlarini kutilmagan holatlardan sug'urtlash maqsadida ham mablag'lar jamg'arib boradilar. Kasal bo'lib qolish, qarindoshlarning o'limi, ish joyini yo'qotish kabi kutilmagan holatlar ro'y berganda xarajatlar daromadlardan oshib ketishi mumkin;
- daromad olish, ya'ni boylikni saqlab qolish yoki ko'paytirish.

Xonodon xo'jaligining asosiy funksiyasi iste'mol bo'lsa-da, u jamg'arishda ham faol ishtirok etadi. Jamg'arma xonodon xo'jaligi daromadlarining moliyaviy to'lovleri va iste'mol xarajatlaridan ortib qolgan qismidir. Daromad kam yerda u joriy sarflarga tenglashadi yoki unga yetmay qolib, kamomad-qarz hisobidan qoplanadi. Daromad ko'p yerda, aksincha, jamg'arma yuzaga keladi.

Jamg'arish quyidagi uch shaklda amalga oshirilishi mumkin: pul uyda saqlanadi, moliyaviy vositachilarga topshiriladi yoki bilvosita qarz oluvchiga qarz-ga beriladi.

Jamg'arish xonadon xo'jaligi daromadi miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Xonadon xo'jaligida jamg'arish darajasini jamg'arish koefitsiyenti belgilaydi, bu ko'rsatkich xonadon xo'jaligi daromadining qanday qismi jamg'arilishini bildiradi:

$$J_k = \frac{J}{D},$$

Bunda  $J_k$  — jamg'arish koefitsiyenti,  $J$  — jamg'arish miqdori,  $D$  — daromad miqdori. Har doim  $J_k < 1$  bo'ladi, chunki hech qachon xonadon xo'jaligi daromadining hammasi jamg'arilmaydi. Bu koefitsiyent 0 bilan 1 oralig'ida o'zgaradi. Masalan, xonadon xo'jalingining yillik daromadi 10 mln. so'm. Shundan qo'lga tekkani 7,8 mln. so'm bo'lsa, uning 7,02 mln. so'mi iste'mol uchun, 780 ming so'mi jamg'arish uchun sarflansa,  $J_k = \frac{0,78}{7,8} = 0,1$  bo'ladi, daromadning o'ndan bir qismi jamg'arilgan.

Agar jamg'arish 1 mln. 560 ming so'mga yetsa,  $J_k = 0,2$  bo'ladi chunki

$$J_k = \frac{1,56}{7,8} = 0,2.$$

Amaliyot ko'rsatishicha daromadlar teng bo'lgan joyda jamg'arish ham turlichcha bo'ladi. Bu xonadon xo'jaligi nimani afzal ko'rishiga bog'liq. Demak, daromad miqdori jamg'arishning obyektiv chegarasi bo'lsa, shu chegara doirasida jamg'arishning turlichcha bo'lishi xonadon xo'jalingining xohish-ixtiyoridan kelib chiqadi.

Bundan tashqari xonadon xo'jaligi jamg'armasining shakllanishini tavsiyelab beruvchi jamg'arishga moyillik koefitsiyenti  $JM_k$  ham mavjud. Bu jamg'armaning  $J$  jami xarajatlardagi yoki daromadlardagi  $W_y$  hissasi-

ning naqadar katta yoki kichik bo'lishidir —  $JM_k = \frac{J}{W_y}$ . Masalan, xonadon

xo'jaligida  $W_y = 2,0$  mln. so'm,  $J = 0,5$  mln. so'm bo'lsa,  $JM_k = \frac{0,5}{2,0} = 0,25$ .

Jamg'arishga moyillik koefitsiyenti har doim birdan kichik bo'ladi, chunki daromadlarning faqat bir qismi jamg'ariladi, qolgan qismi iste'molga sarflanadi. Jamg'arishga moyillik bo'lganda  $JM_k = 0,25$ ;  $JM_k = 0,27$ ;  $JM_k = 0,3$  bo'ladi. Iste'molga moyillik bo'lganda esa

$JM_k = 0,25$ ;  $JM_k = 0,22$ ;  $JM_k = 0,20$  bo'ladi. Birinchi holda daromadning tobora ko'proq qismi jamg'arilsa, ikkinchi holda tobora ko'proq qismi iste'molga sarflanadi.

Xonardon xo'jaligidida jamg'arish shakllari ularning xonardon xo'jaligi uchun naqadar qulay va foydali bo'lishiga bog'liq. Jamg'arish ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho buyumlar, bankdagi yoki uyda-gi pul shaklida bo'ladi. Xonardon xo'jaligi qaysi shakl ma'qul bo'lsa, shuni tanlab oladi. Bu yerda ham tanlov qoidasi amal qiladi, ushbu holatni jadval shaklida tasvirlab ko'ramiz (5.1.2-jadval).

Jadvalga binoan pulni bankda saqlash eng maqbul bo'ladi, chunki bankga qo'yilgan omonat qulaylikning hamma talablariga javob beradi. Eng samarasiz usul pulni uyda saqlash bo'lib, u faqat bir shartga javob beradi. Xonardon xo'jaligidagi jamg'arishning ahamiyati shundaki, u umumiqtisodiy va umummilliy xarakterga ega bo'ladi, chunki jamg'arish investitsiya uchun pul yig'ib borilishini bildiradi. Ammo buning uchun pul bankda to'planishi yoki qimmatli qog'ozlarga aylanishi kerak. Shundagina xonardon xo'jaliklaridagi kichik miqdordagi pullar bir joyda to'planib, katta miqdordagi pulga aylanadi, shundagina uni iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflash mumkin bo'ladi.

Xonardon xo'jaligidida jamg'arishni aniqlash uchun, uning yalpi daromadidan ( $D_i$ ) majburiy va ixtiyoriy to'lovlari ( $T_m$ ) va iste'mol sarflarini ( $Y_s$ ) ayirib tashlanadi. Xonardon xo'jaligi jamg'armalari miqdori jamg'arishga moyillik koeffitsiyentining katta yoki kichik bo'lishi bilan belgilanadi. Shu sababli jamg'arish dinamikasi turlicha bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim tamoyillaridan biri hisoblangan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirilishi aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1990–2010-yillarda O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholi yalpi daromadlarining o'sishi bilan birga, uning pul omonatlari va jamg'arma mablag'larini barkaror o'sib horishini ta'minladi. Aholi pul omonatlari va jamg'arma mablag'larining xarajatlar tarkibidagi ulushi 1990 yildagi 11,8 foizdan 2010 yilda 15,4 foizga yetdi va 3,6 punktga ko'paydi (5.1.3-jadval).

5.1.3-jadval pul jamg'armalari ulushining o'sishini ko'rsatadi. Biroq, bu kechiktirilgan talab hisobidan ham amalga oshirilgan. Ushbu talabni qondirish uchun pul yetarli miqdorda to'plangach, u jamg'armadan chi-

## 5.1.2-jadval.

Xonardon xo'jaligi jamg'armasining tanlov jadvali

Jamg'arishning qulayligi	Jamg'arish usullari				
	Pulni uyda saqlash	Pulni bankga qo'yish	Pulga qimmatli qog'oz olish	Pulga ko'chmas mulk olish	Pulga qimmatbaho buyum olish
1. Saqlashning xavfli (-) yoki xavfsiz (+) bo'lishi	-	+	+	+	-
2. Daromad keltirmaslik (-) yoki keltirish (+)	-	+	+	-	-
3. Likvidlik (pulga aylantirish)ning oson (+) yoki qiyinligi (-)	+	+	-	-	-
4. O'z qadr qimmatini yo'qotishi (-) yoki oshirishi (+)	-	+	+	+	+

qib, iste'mol sarfiga qo'shiladi. Shu sababli, jamg'armaning hammasi xonardon xo'jaligi uchun moliyaviy aktiv bo'la olmaydi. U shunday bo'lishi uchun jamg'arma barqaror darajada saqlanib o'z egasiga daromad keltirib turishi zarur.

## 5.1.3-jadval.

1990–2010-yillarda aholi yalpi xarajatlarining tarkibi (foizda)<sup>24</sup>

	1990-yil	2000-yil	2009-yil	2010-yil
Jami xarajatlar tarkibi	100,0	100,0	100,0	100,0
ulardan:				
iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	78,5	78,4
iste'moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, chiqimlar, badallar va boshqa to'lovlar)	7,1	6,9	6,3	6,2
pul omonatlari va jamg'armalar	11,8	8,8	15,2	15,4

24 Ўзбекистон Республикаси иктисадий-ижтимоий тараккиётининг мустакиллик йилларида (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари хамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлар: статистик тўплам. –Т.: “Ўзбекистон”, 2011. 84 бет.


Jamg'armaning hosil bo'lishi uni ishlatalish imkoniyatiga ham bog'liq. Shunday imkon bo'lganda, jamg'arma moliyaviy aktivga aylanadi, aksincha u iste'molga sarflanib yuboriladi. Xonodon xo'jaligi jamg'armasi daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga aylanadi.

Aholining jamg'arma mablag'lari iste'mol budgetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. 1995–2010-yillarda mamlakatimizda aholi omonatlari hajmi barqaror oshib bordi.

#### 5.1.1-rasm.

Aholi jamg'armalarining 1995-yilga nisbatan o'sishi<sup>25</sup>

marta



Aholi jamg'armalari 2000–2010-yillarda barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lib va ushbu ko'rsatkich 28,6 barobarga o'sdi. Hozirgi vaqtida, sorov natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi qariyb barcha xonodon sohiblari banklarda o'z jamg'arma mablag'lari — omonatlariga ega.

Bozor munosabatlari chuqurlashib, kichik biznes va xususiy tadbirdkorlik rivojlanib borgani sayin, aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo'naliш — tadbirdkorlik faoliyati uchun investitsiya yo'naliши paydo bo'ldi. Ularning ulushi hozirgi paytda 8,5 foizni tashkil etmoqda. O'z mohiyatiga ko'ra, ushbu usul xonodon xo'jaligining asosiy kapital uchun mablag' jamg'arishning samarali shakli bo'lib, xususiy mulk asosida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirish imkonini beradi.

25 Ўзбекистон Республикаси иктисодий-ижтимоий тараккиётининг мустакиллик йиллари-даги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлар: статистик тўплам. –Т.: “Ўзбекистон”, 2011. 92 бет.

## 5.2. Investitsiyalash tamoyillari va turlari

Moliyaviy institutlarning rivojlanishi bilan ularda aholi qo'lidagi pul mablag'larining bir qismi jamg'ariladi va investitsiyalarga aylantiriladi. Ushbu transformatsiya jarayonida vositachilar investitsion risklarni o'zlariga olishadi. Bunda aholi o'z jamg'armalarini bilvosita qarz oluvchiga berishdan olinadigan daromadga qaraganda, kamroq daromad olishlari mumkin. Shuningdek mablag'larining muayyan qismini moliyaviy vositachilar xizmatiga haq to'lash (hisob raqami ochish va o'tkazmalar o'tkazish) tufayli ham yo'qotishlari mumkin.

Iste'molchilar odatda, joriy daromadlari tovarlar va xizmatlar sotib olishga yetmagan hollarda, qarzga bankdan kreditlar olishadi. Kredit xarajatlar uchun sarflanishi zarur bo'lgan mablag'larni vaqt bo'yicha qayta taqsimlashda jamg'armalar muqobil manba hisoblanadi. Kredit olish xonardon xo'jaliklarida tovarlarni hozir sotib olish va xarid qilish uchun to'lovlarni biron-bir muddatda to'lash imkonini yaratadi. Tabiiyki, bunday sharoitda bo'lg'usi daromadlarning kreditni to'lash uchun yetmasligi riski paydo bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, kreditlar ni osonlik bilan olish, kishilarda o'z daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nisbatni to'g'ri baholay olmaslik, pirovard natijada esa shaxsiy bankrotlikka uchrashlariga olib keladi.

Xonodon xo'jaliklari iste'mol va jamg'armalar o'rtasida tanlovni amalga oshirish bilan birga jamg'arish yoki kredit olishning turli dastaklari o'rta-sida ham tanlovni amalga oshirishlariga to'g'ri keladi.

Xonodon xo'jaligi qo'lida yirik hajmdagi pul mablag'larining mavjudligi moliyaviy muvafaqqiyat garovi hisoblanmaydi. Quyidagi uch muhim omil — aql, harakat va pul — bir joyga yig'ilganda investitsiyalar muvafaqqiyatli amalga oshiriladigan bo'ladi.

Shaxsiy moliyani rejalashtirish maqsadlarni shakllantirishdan boshlanadi. Ushbu holatda xonodon xo'jaligi ularga erishish uchun qancha miqdorda mablag' talab qilinishini aniqlab olishi lozim. Maqsadlar uzoq muddatli bo'llishi mumkin, jumladan qarilikda munosib pensiyani ta'minlash.

Moliyaviy rejalashtirishdagi keyingi qadam — talab qilinadigan mablag'lar manbaini aniqlash hisoblanadi. Buning uchun xonodon xo'jaligi o'z aktivlari va passivlarini bilishi lozim. Aktivlar — bu xonodon xo'jaligi egalik qiladigan bank depozitlari, qimmatbaho buyumlar, kvartira,

avtomashina, dala hovli, mualliflik huquqi va hokazolardir. Passivlar — bu xonodon xo'jaligining bank kreditlari, qarzlari, alimentlar, kvartira haqi va boshqalar bo'yicha majburiyatlaridir. Xonodon xo'jaligi yilda kamida bir marta o'z kapitalining tarkibi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida aktivlar va passivlar balansini tekshirib ko'rishi lozim. Bu xonodon xo'jaligi oldiga qo'ygan maqsadiga qanchalik darajada erisha olishi mumkinligini tekshirib ko'rish imkonini beradi. Misol uchun, uzoq muddatda qarilikda munosib pensiya bilan ta'minlash maqsadini xavf ostiga qo'ymasdan, yangi televizor sotib olish imkoniga egasizmi yoki yo'qmi?

Aktivlar iste'mol yoki investitsiya xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Isste'mol aktivining asosiy maqsadi turmush darajasini saqlab turish hisoblanadi. Bu telefon, televizor, avtomashina va boshqalarni iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lган xarajatlar hisoblanadi. Ushbu aktivlar kundalik hayotda zarur bo'ladi, ammo bir qismi qisqa muddatda o'z qiymatini yo'qotadi. Misol uchun, avtosalonдан sotib olingan avtomashina o'z qiymatining kamida 10 foizini, ekspluatatsiyaning birinchi yilidan keyin esa kamida 20 foizini yo'qotadi.

Investitsion aktivlar boshqa joriy daromad yoki keyinchalik qayta sotishda tovar qiymatining o'sishi hisobiga daromad olish maqsadlariga ega bo'ladi. Ushbu kategoriya depozitlar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk kiradi. Ba'zi aktivlar bir vaqtning o'zida ham iste'mol ham investitsion aktivlar bo'lishi mumkin. Masalan, siz yashayotgan kvartira bir tomonidan saqlash, sug'ortalash, ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni talab qilsa, ikkinchi tomondan sotilishi va daromad keltirishi mumkin.

Har qanday aktiv likvidlik, daromadlilik va ishonchlilik xususiyatlari ega bo'ladi.

**Likvidlik** — bu har qanday aktivning pulga oson aylanishidir.

**Ishonchlilik** — bu aktivning risklarga qarshi tura olishidir. Aktiv qanchalik ishonchli bolsa, ushbu aktivni sotib olishda siz kutayotgan daromadni ololmaslik riski shunchalik past bo'ladi.

**Daromadlilik** — bu aktivning o'z qiymatini vaqt ichida o'zgartira olish xususiyatidir. Daromadlilik joriy daromad va aktiv qiymatining o'sishida namoyon bo'ladi. Daromadlilik aktivning likvidligi va ishonchligiga bevosita bog'liqidir. Past likvidlik va yuqori riskli aktivlar katta daromad keltirishi zarur, aks holda ularni hech kim sotib olmaydi. Aksincha, kam daromad keltiruvchi, ammo likvidli va ishonchli aktivlar investorlarda qiziqish uyg'otadi.

Shaxsiy moliya modeli joriy, zaxira va investitsion kapitalga asoslanadi.

Joriy kapital nima? Bu biz ertalabki nonushtaga, yangi poyafzalga, kina, muhim to'lanishi zarur bo'lgan kvartira haqi, telefonda so'zlashish, benzin sotib olish uchun sarflanadigan pullardir.

Xonodon xo'jaligi turmush farovonligini moliyaviy himoya qiluvchi zaxira kapitali — bu qora kunga zaxira to'plashdir. Moliyaviy zaxira miqdori odatda, xonodon turmush farovonligi darajasini pasaytirmsdan, ikki yil ta'minlash uchun yetarli darajada bo'lishi lozim.

Zaxira kapitali tarkibiga kiruvchi aktivlarga qo'yiladigan asosiy talab ishonchilik talabidir. Aktivlar daromadliligi odatda, minimal xavf-xatarlar sharoitida xarid qobiliyatini saqlab qolishi zarur. Bunda zaxira kapitalining sezilarli qismi likvid bo'lishi zarur, chunki istalgan vaqtda pul zarur bo'lib qolishi mumkin.

Xonodon xo'jaligi bir turdag'i daromaddan, ish haqi yoki oilaviy biznes daromadidan istalgan vaqtda ajrab qolishi mumkin. Ushbu holat xonodon xo'jaligini qo'shimcha daromad manbalarini izlashga majbur qiladi. Moliyaviy aktivlarga (bank mahsulotlari va qimmatli qog'ozlar) yoki real aktivlarga (ko'chmas mulk, o'z biznesi va b.) sarflangan investitsiyalar, investitsion kapital qo'shimcha daromad manbalari bo'lishi mumkin. Investitsion kapitalning maqsadi kapitalni ko'paytirish, ya'nii daromad olishdir. Yuqorida qayd etilgan uch turdag'i kapital tarkibida investitsion kapital eng past likvidlikka ega hisoblanadi.

Uch turdag'i kapital modeli asosida aktivlar tarkibini oqilona taqsimlash ishonchlilik, likvidlik va daromadlilik o'rtaqidagi optimal balansni to'pish imkonini beradi. Qadimgi sharq maqolida: «O'z boyligingni teng uch qismiga ajrat. Birinchi qismiga oltin, ikkinchi qismiga yer sotib ol, uchinchi qismiga esa o'z ishingni och», deyilgan. Oltin tangalar yoki pul kapitalning likvid qismi hisoblanib, joriy ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Yer yoki ko'chmas mulk zaxira kapitali hisoblanib, kutilmagan holatlarda xavfsizlik yostig'i vazifasini bajaradi. Shaxsiy biznesingiz esa asosiy daromadni ko'paytirish imkonini beradi. Ushbu maqol ikki ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, hozirgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Hozirda xonodon xo'jaliklarida kapitalni boshqarish dastaklarini tanlashda keng imkoniyatlar bo'lsa-da, shaxsiy kapitalni boshqarish mohiyati o'zgarmasdan qolmoqda.

Xonodon xo'jaligini daromadlarini boshqarish va investitsiyalashni qoidalari:

- daromad bilan investitsiya riskini qiyosiy taqqoslash lozim, daromad miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, risk ham shunchalik yuqori bo'ladi,

«ko'rpa tagida pul saqlash» uni inflyatsiya tufayli qadrsizlanish riskini vujudga keltiradi;

- investitsiyalash oilani asosiy hayotiy ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatmasligi lozim, chunki oxirgi pulni joylashtirish va risk qilish mumkin emas;
- oilaviy biznesga bo'lsa ham o'zgalar pulini joylashtirish juda xavf-xatarli hisoblanadi;
- hech qachon hamma mablag'larni bir yo'nalishga joylashtirish kerak emas, chunki risklar va uni diversifikatsiya qilishni esdan chiqarish kerak emas;
- tez va o'ta yuqori daromad va'da qiluvchi investitsiyalash variantlari ga ishonish kerak emas, odatda bunday joylashtirish aksariyat hollar da moliyaviy piramidalar bilan bog'liq bo'ladi;
- yuqori noaniqlilik sharoitida uzoq muddatli investitsiyalarni sarflash qisqa muddatliga nisbatan riskli hisoblanadi, chunki kelajakdagi pul lar odatda hozirgi naqd pulga nisbatan arzon bo'ladi;
- qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar uchun o'z javobgarligini his qilinishi lozim, chunki oddiy bank depoziti bo'lsa ham o'z qarorini moliyaviy hujjatlarni har tomonlama va chuqur o'rganish asosida asoslash zarur.

Investitsion dastaklarning turlariga: bank depozitlari, sug'urta kompaniyalari, qimmatli qog'ozlar, pay investitsion fondlar, ETF, xedj-fondlar, qimmat baho metallar, ko'chmas mulk, bank mahsulotlari, muqobil investitsiyalar kiradi.

**Bank depoziti** — shaxsiy jamg'armalarni saqlashning oddiy va hamma uchun qulay bo'lgan shakli hisoblanadi. Odatda, bank depoziti bo'yicha foizlar inflyatsiya darajasini qoplaydi. Tijorat banklarida pulni depozit ko'rinishda saqlash pulni tumbochkada, yostiq tagida saqlashga nisbatan foydali hisoblanadi. Bank depoziti quyidagi maqsadlarda qo'llanilishi mumkin:

- qisqa muddatli investitsiyalash uchun dastak. Agar pullaringizni ikki yildan ortiq muddatga investitsiya maqsadi uchun yo'naltirmoqchi bo'lsangiz, unda yaxshisi boshqa dastaklardan, xususan qimmatli qog'ozlar, pay investitsiya fondlari, o'zaro fondlar, xedj-fondlardan foydalaningiz ma'qul. Uzoq muddatda ular bank depozitlariga nisbatan yuqori daromad keltiradi. Agar siz pulingizni bir oydan ikki yilgacha muddatda kafolat bilan saqlamoqchi va o'rtacha daromad olmoqchi bo'lsangiz, bank depozitidan boshqa yaxshi dastak yo'q;
- zaxira jamg'armasini saqlash uchun dastak. Zaxira jamg'armasining (zaxira kapitali) mavjudligi moliyaviy himoya rejasining bir qismi hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mezonlar asosi-

da depozit turini tanlash mumkin. Banklarda depozit jamg'armalarni bir emas, bir necha bankga joylashtirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun depozit turi va bankni tanlash oson ish bo'lmasdan yuqori daromad olish va kerakli bo'limgan turli moliyaviy risklardan o'zini sug'ortalash imkonini beradi.

**Sug'urta kompaniyalarining jamg'arib boriladigan sug'urta das-turlari** ham mablag'larni investitsiya qilish dastaklaridan biri bo'lib, bank depozitiga nisbatan birmuncha murakkabroq investitsion mahsulot hisoblanadi. Biz sug'urta kompaniyasi investitsion mahsulotini investitsion dastak sifatida hayotni jamg'ariladigan sug'ortalash misolida ko'rib o'tamiz. Jamg'arib boriladigan sug'urta dasturi — bu investitsion dastak bo'lib ushbu, turdag'i dasturlar jamg'arib borish (mijozlarning mablag'larini sug'urta kompaniyasiga investitsiyalash) va sug'ortalash (mijoz hayoti va sog'lig'i ni sug'ortalash) elementlarini qamrab oladi. Risklarni sug'ortalashda mijoz kompaniyaga sug'urta mukofotini to'laydi va u mijozga hech qachon qaytarilmaydi. Jamg'arib boriladigan sug'ortalashda mijoz dastur tugashi bilan sarflangan mablag'lar bilan bir qatorda jamg'arilgan foizlarni ham oladi. Jamg'arib boriladigan sug'urta dasturlari o'ta konservativ dastak hisoblanib, hech qachon yuqori daromad keltirmaydi. Jamg'arib boriladi-gan sug'urta dasturi moliyaviy himoyalanishning oddiy rejasি hisoblanadi.

**Qimmatli qog'ozlar — obligatsiyalar va aksiyalar.** Sug'urta kompaniyalari kapitalining asosiy qismini (60% dan ortig'ini) investorga daromad olish kafolatini beruvchi qimmatli qog'oz — obligatsiyalarga sarflaydi.

Uzoq muddatli investitsiyalashni amalga oshiruvchi investorlar aksiyalarni ma'qul ko'rishadi, chunki ushbu investitsiyalash dasturi inflyatsiyaga nisbatan sezilarli darajada yuqori daromad olish imkonini beradi. O'ta aggressiv turdag'i chayqovchilar esa hosila qimmatli qog'ozlar — fyucher-slar va opsiyonlar bilan ishlashadi.

**Obligatsiyalar.** Obligatsiyalar eng ishonchli qimmatli qog'ozlardan biri hisoblanadi. Obligatsiyalar ko'pincha qayd qilingan daromadga ega qimmatli qog'ozlar deb ham yuritiladi. Bu esa xaridor obligatsiyani muddati tugagunga qadar ushlab tursa, qancha daromad olishi mumkinligini oldindan bili-shini anglatadi. Ushbu daromad emitent tomonidan kafolatlangan bo'ladi. Masalan, muddati tugaganda yiliga 3% daromad keltiruvchi AQSH g'azna-chilik obligatsiyasini sotib olgan mijoz investitsiyaga sarflagan mablag'lar yiliga 3% daromad keltirishini aniq biladi. Mijoz obligatsiyani bozor kur-si bo'yicha xohlagan vaqtida sotishi mumkin. Biroq bunday holatda daro-

mad kafolatlanmaydi, chunki obligatsiyani sotilayotgan vaqt dagi bozor kursi u sotib olingan vaqtiga nisbatan past bo'lishi mumkin. Demak, kafolat investor uni so'ndirilgunga qadar ushlab turgan vaqt-gacha kuchga ega bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarning emissiyasi yagona, qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish maqsadida amalga oshiriladi. Korporatsiya, hukumat yoki mahalliy hukumat obligatsiyalarini chiqaradi va ushbu qimmatli qog'ozlarni istiqbolda muayyan daromad va'da qilish evaziga mijozlar puliga ayrboshlaydi.

**Aksiyalar.** Ushbu qimmatli qog'ozlar obligatsiyalar singari kompaniyalar tomonidan o'z biznesini moliyalashtirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb etish maqsadida emissiya qilinadi. Aksiya — bu o'z egasiga aksioner jamiyat mulkining bir qismiga egalik qilish, uni boshqarishda qatnashish va aksioner jamiyati foydasida muayyan ulushga ega bo'lish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Obligatsiyadan farqli o'laroq aksiyalar investorga hech qanday daromadni kafolatlamaydi — ularni bahosi o'zgarishi mumkin, ulardan majburiy kupon to'lovlari yo'q hamda so'ndirish muddati ham ko'rsatilmagan. Demak siz hech kim hech narsani kafolatlamaydigan qimmatli qog'ozni sotib olasiz.

Shunga qaramasdan, aksiyalar investorlarni moliyaviy dastaklarni boshqa turlari hisoblangan obligatsiya va depozitlarga nisbatan katta daromad olish imkonini berishi tufayli qiziqtiradi. Aksiyalarga mablag' sarflarsansiz, quyidagi ikki turdag'i daromadga ega bo'lisingiz mumkin:

1. **Qiymatning o'sishidan olinadigan daromad** — bu investorni aksiya bahosining o'sishi natijasida oladigan daromadidir. Masalan, siz bahosi 10000 so'm bo'lgan aksiya sotib olgansiz, bir yildan keyin uning bahosi 15000 so'mga oshsa, unda sizning daromadingiz 50% ni tashkil etadi.
2. **Dividendlar** — bu kompaniya tomonidan o'z aksionerlariga to'laydigan foydaning qismidir. Bunda kompaniya dividendlar to'lash bo'yicha hech qanday majburiyat olmaydi, ya'ni dividend to'lash yoki to'lamaslik, olingan foydaning qancha qismini dividendlar ko'rinishida to'lash kompaniya huquqi hisoblanadi. Ammo kompaniya o'z aksionerlariga olingan foydaning 25% miqdorida dividend to'lash bo'yicha qaror qabul qilsa, unda ular sizning brokerlik schetingizga o'tkaziladi.

Dividendlar ko'rinishidagi daromad, odatda, yuqori bo'lmaydi va ularni hisoblash juda oson. Masalan, siz qandaydir «X» kompaniyasining bir dona aksiyasini 50 dollardan sotib oldingiz. Faraz qilaylik, ushbu kompaniya aksionerlar yig'ilishida o'z aksionerlariga har bir aksiya uchun 1 dollardan dividend to'lashi to'g'risida e'lon qildi. Demak, sizning ushbu

aksiyalarga sarflagan mablag'laringizning dividend ko'rinishidagi daromadliligi 2% ni (1 dollar/50 dollar×100%) tashkil etadi.

**Investitsion fondlar.** Madaniylashgan qimmatli qog'ozlar bozori bir necha asr-dan beri samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Jahonning yetakchi banklari va sug'urta kompaniyalari undan samarali foydalanib, foya olmoqdalar. Moliya institutlari o'zlarining faoliyatlarida samarali foydalanadigan moliyaviy mahsulotlardan biri investitsion fondlar hisoblanadi. Investitsion fondlar investitsiya kompaniyalari tomonidan boshqariladi va unda ko'p sonli yirik, o'rta va mayda investorlarning kapitali yig'iladi. Mazkur kapital turli xil qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilinadi. Fondda ulushga ega bo'lgan har bir kapital egasi professional boshqariladigan, diversifikatsiyalashgan portfelning bir qismiga egalik qilish huquqiga ega bo'ladi.

Quyidagi sabablarga ko'ra, o'zaro va pay investitsiya fondlariga investitsiyalanadi:

- siz o'zingizga mos keladigan foya bilan risk o'rtaсидаги nisbatni aniqlay olasiz;
- sizdan katta miqdordagi dastlabki jamg'armalar talab etilmaydi;
- fondlarni shu jumladan sizni aktivlaringizni boshqarish tajribali menjerlar tomonidan amalga oshiriladi;
- minimal risk bo'lgan holda ham sizni fondlardan oлган foydangiz depozit hisoblarni foiziga nisbatan katta bo'ladi;
- fondlarga investitsiyalash investitsiya portfelini turli qimmatli qog'ozlar va mamlakatlar bo'yicha keng diversifikatsiyalash imkonini beradi;
- fondlarning paylarini xohlagan ish kunida har kunlik e'lon qilinadigan kurs bo'yicha xarid qilinishi va sotilishi mumkin;
- xususiy investorlar uchun odatda yopiq bo'ladigan moliya bozorlari siz uchun qulay bo'ladi.

Pay investitsiya fondlarini tanlashda quyidagi uch oddiy mezonlarga qarab tanlash lozim:

1. kompaniya boshqaruvchisini ishslash muddati;
2. nisbiy daromadliligi;
3. kompaniya boshqaruvchisi tomonidan olinadigan komission to'lovlar.

**Exchange Traded Funds (ETFs)** — bu birjalarda aksiyalar singari erkin savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar bo'lib, boshqa investitsiya dastaklaridan soddaligi, qulayligi va arzonligi bilan ajralib turadi va sizga passiv, aktiv yoki spekulyativ investor o'rnida bo'lish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlarning ushbu yangi turini aksiyalar portfelida depozitar sertifikat

sifatida qabul qilish mumkin. Chunki ushbu qimmatli qog'ozga egalik qilish aksiyalar portfeliga egalik qilish bilan baravar. Hozirgi vaqtida bu tangan qimmatli qog'ozlar portfeliga mos ravishda daromad olishning eng arzon, samarali va ishonchli usuli hisoblanadi.

**Xedj-fondlar.** Xedj-fondlarga investitsiya sarflash fond bozorining o'sishi va pasayishi davrlarida ham daromad keltirishi mumkin. Xedj-fondlar — bu xususiy investitsion hamkorlikdir. Bunda ochiq savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar yoki hosila moliya dastaklariga investitsiya qilinadi. An'anaviy ravishda odatda xedj-fondlariga investitsiyalashdagi yagona risksiz dastak bu AQSH g'aznachiligini qisqa muddatli obligatsiyalari hisoblanadi. Qolgan hamma investitsiyalar amalda riskli hisoblanadi, chunki ushbu risklar investitsiya summasiga va undan olinadigan daromadga ta'lulqidir. Agar siz risksiz investitsiyalashtirishni xohlasangiz, unda siz inflyatsiyani quvib o'tishingiz kerak. Eng yaxshi investitsiya mavjud risk sharoitida eng ko'p daromad olish imkonini beradigan investitsiya hisoblanadi.

**Oltin va boshqa qimmatbaho metallar.** Oltin va boshqa qimmatbaho metallar ham mablag'lardan investitsiya maqsadida foydalanish dastaklaridan biri hisoblanadi. Qimmathaho metallarni, jumladan oltinni, investitsiyalashtirishda eng qiyin narsa uni qiymatini chuqur, aniq baholashning imkonini yo'qligidir. Qimmatbaho metallar moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida investitsiyalarni himoya qilishning eng muhim shakli hisoblanadi. Quyidagi afzalliklarga ko'ra investitsiyaning bir qismi oltin va boshqa qismi qimmatbaho metallarga yo'naltiriladi:

1. Qimmatbaho metallar, xususan oltin — bu sizning investitsiya portfelingizni iqtisodiy va geosiyosiy beqarorlikdan sug'urtalashdir. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk bahosi arzonlashadi va investorlar o'z mablag'larini sug'urtalash maqsadida qimmatbaho metallarni sotib ola boshlaydilar.
2. Jahondagi 1970-yillarda sodir bo'lgan iqtisodiy inqirozda qimmatbaho metallar moliyaviy aktivlarga nisbatan yaxshi natijalar ko'rsatdi.
3. 2008-yilda AQSHda va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bozorga pullarning chiqarilishi natijasida pul massasi ortib ketib, inflyatsiya jadal sur'atlarda o'sa boshladi. Bunday murakkab sharoitda qimmatbaho metallar, jumladan oltin sug'urta vazifasini bajardi.
4. Qimmatbaho metallar boshqa aktivlar (aksiyalar, ko'chmas mulk) bilan bevosita bog'liq emasligi sababli, investitsiya portfelingizda ular-

ning mavjudligi fond bozorlari ko'rsatkichlarining pasayishi davrida ham kapitalingiz qiymatining saqlanib qolishini kafolatlaydi.

**Ko'chmas mulk** — investitsiyalashni eng jozibador dastaklaridan biri sifatida hisoblanib kelingan, chunki ko'chmas mulk tarixan doimo o'sib boradi. Odamlar ko'chmas mulkni quyidagi maqsadlarda sotib olishadi:

- o'zlarini yashash uchun;
- ijara qilish uchun;
- farzandlarining kelajagini ta'minlash uchun;
- investitsiyalash uchun (ko'chmas mulk bahosi oshadi degan maqsadda).

Ko'chmas mulkni investitsiyalash maqsadida sotib olayotgan vaqtida ushbu bozorni baholash lozim, aks holda investitsiyalash samarasiz bo'lishi mumkin.

**Muqobil investitsiyalash** — bu juda qiziq, biroq tor va yuqori riskli hisoblanadi. Muqobil investitsiyalash turlari xilma xil bo'lib ularga quyida gilarni kiritish mumkin:

- brilliantlar sotib olish;
- san'at asarlarini yig'ish;
- qadimiy tangalarni yig'ish;
- antikvariatlar (qadimiy buyumlar) sotib olish;
- qimmatbaho vinolarni kolleksiya qilish.

**Investitsiyalashning tamoyillari.** Xohlagan ishni boshlashda kishi o'zi quyidagi to'rt savolga javob berishi kerak: nima? qayerda? qachon? bu menga nima uchun kerak?

Investitsiya faoliyatini boshlayotgan vaqtida ushbu savollarga teskari tartibda javob berish kerak. Bosh savol — bu menga nima uchun kerak? Ya'ni, investitsiyalashning maqsadini aniq belgilab olish kerak. Misol uchun siz uy qurmoqchisiz, yoki avtomobil xarid qilmoqchisiz, yoki xorijagi yetakchi olyi o'quv yurtida ta'limga pul jamg'armoqchisiz. Qisqacha aytganda siz ko'p pul topishni xohlaysiz. Bunday holda javob mutanosib ravishda pul topishni xohlasangiz — investitsiyalash bilan shug'ullanish kerak. Bu borada aniq maqsadga ega kishigina investitsion faoliyatga jiddiy yondashadi va quyidagi bosqichlardan o'tishga tayyor bo'ladi.

**Birinchi bosqich** investitsiyani ixtisoslashtirish. Ushbu bosqichda investitsiyalashni maqsadi va investitsiya faoliyatining ustuvor yo'naliishlarini aniq belgilab olishingiz zarur. Chunki investitsiyalash strategiyasi bu risklarni taqsimlashdir. Risklarni tushunish investitsiyalashda muhim hisoblanadi.

1. **Shaxsiy maqsadni aniq ifodalash.** Siz bu maqsadni qanchalik to'g'ri aniqlasangiz, moliyaviy dastaklarni ham shunchalik to'g'ri tanlay ola-siz, strategiyani aniqlab risklar ta'sirini qisqartirasiz;
2. **O'z tajribasini baholash.** Siz investitsion faoliyat bilan shug'ullanma-gan bo'lsangiz, bu sohadagi tajribangizni oddiylikdan murakkablikga qarab harakat qilib, bosqichma-bosqich tajribangizni orttirib borga-ningiz ma'qul. Siz o'z pulingiz bilan tavakkal qadam tashlaysiz, shun-ning uchun siz o'zingizni tajribangizga asoslanishingiz lozim. Misol uchun, dastlab depozitlarni o'zlashtirishingiz zarur, keyin pay investi-tsiya fondlari orqali indeks fondlariga alohida e'tibor bergan holda fond bozoriga chiqish mumkin. Yetarlicha bilim va tajribaga ega bo'lganin-gizdan keyingina to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, aksiyalar va obli-gatsiyalarni xarid qilishga o'tishingiz mumkin;
3. **Investitsiyalash vaqtini aniqlash.** Investitsiyalash vaqt — bu tajribangizdan kelib chiqqan holda ko'zlagan daromadni olish uchun ketadigan vaqtidir. Ushbu vaqtidan kelib chiqqan holda moliyaviy dastakning turi tanlanadi. Agar investitsiyalash vaqt qisqa bo'lsa, ya'ni bir yilgacha bo'lgan muddatni tashkil qilsa, unda depozitlar, veksellar va qisqa muddatli obligatsiyalardan foydalanganingiz ma'qul. Agar investitsiyalash vaqtি bir yildan ortiq bo'lsa, unda uzoq muddatli obligatsiyalardan foydalanganingiz maqsadga muvofiqdır. Agar siz ikki yil va undan ortiq muddatni kutishga tayyor bo'lsangiz investitsiya portfelingizni aksiyalar bilan to'ldirishingiz mumkin. Hammasi sizning xohishingizga bog'liq bo'ladi. Agar likvidlikka ko'proq e'tibor qaratsangiz unda qisqa muddatli, ris-ki past, shu bilan birga kam daromadli dastaklardan foydalanasisiz. Agar asosiy e'tiborni daromadlilikka qaratadigan bo'lsangiz, unda uzoq mud-datli va yuqori riskli investitsiyalarni amalga oshirishingiz mumkin.
4. **Riskka bo'lgan munosabatni baholash.** Risk — bu siz yo'l qo'yishingiz mumkin bo'lgan yo'qotishlar darajasidir. Aytaylik, joylashtirilgan investitsiyangizni qancha foizini yo'qotishga tayyorsiz? Yiliga 20 foizli daro-mad olish uchun investitsiyangizning 1/5 qismini yo'qotishga tayyormisiz? Agar bu holatga tayyor bo'imasangiz, kamroq daromad keltiruvchi qim-matli qog'ozlarni xarid qilishga investitsiyalashni amalga oshiring.
5. **O'z kapitalingizdagи investitsiyalar ulushini aniqlash.** Dastlab, birinchi navbatda shaxsiy kapitalingiz miqdoridan yashayotgan ko'chmas mulk qiymatini chegirib tashlash kerak. Kapitalning qolgan qismini aktivlar tarkibiga kiriting va unda investitsiyalar qanday ulushni tashkil etishi

to'g'risida qarorga kelish lozim. Agar kapitalingizni to'laligicha investitsiyaga sarflasangiz, yuqori darajadagi riskni o'z zimmangizga olgan bo'lasiz. Shuning uchun mutaxassislar tavsiya etganidek, ikki yillik likvid zaxiralarga — naqd pullar, depozit omonatlar va boshqalarga ega bo'lish lozim. Ushbu mustahkam moliyaviy zaxira sizga moliya bozoridagi har qanday noqulay holatlarda ham oilangizning farovonligini, turmush darajasi sifatini yo'qotmagan holda ta'minlash imkoniyatini beradi.

6. **O'z yoshingizni hisobga oling.** Investitsiyalash doirasi va risklarga munosabatingiz sizning yoshingizga bog'liq bo'lib, o'ttiz yoshli kishi katta risklarni o'z zimmasiga olishi mumkin. Chunki u istiqbol uchun investitsiyalarni amalga oshiradi va zarar olingen holatlarda ularni ke'lajakdagagi oladigan ish haqidan qoplashi mumkin.
7. **Investitsiyalash valutasini aniqlang.** Ishlab topilgan daromadingizni qaysi valutada sarflashingizni aniqlab olishingiz lozim. Bu birinchi navbatda depozitlar va obligatsiyalarga tegishlidir. Ma'lumki, aksiyalarni millati bo'lmaydi. Shu sababli kapitalingizning aksariyat qismini qaysi valutada sarflashni rejalashtirayotganingizni hisobga olib investitsiyalashtirganingiz ma'qul.

Siz o'zingiz uchun yetti masala xususida aniqlashtirib olgan bo'lsangiz, siz investitsiyalash uchun shaxsiy strategiyangizni tanlashga tayyorsiz. Tanlab olish tarkibi nisbatan keng hisoblanadi. Investitsiyalash strategiyasining quyidagi turlari mavjud:

- **himoya** — mablag'larni depozitlar hamda yuqori likvidli veksellar va qisqa muddatli obligatsiyalarga joylashtirish. Maqsad: likvidlilikni ta'minlash, minimal risk asosida katta bo'lmagan joriy daromad olish;
- **konservativ** — mablag'larni yuqori dividend keltiruvchi aksiyalarning uncha katta bo'lmagan qismini qo'shish asosida davlat va korporativ obligatsiyalarga investitsiyalashdir. Portfeli qandaydir qismini yuqori likvidli qo'zg'almas mulkka investitsiyalash orqali barqaror daromad olish maqsadida ijara beriladi. Portfeli qimmatbaho metallarga sarflangan investitsiyalar orqali to'ldirish mumkin. Maqsad: chegaralangan risk sharoitida barqaror daromadga ega bo'lish;
- **muvozanatlashgan** — himoya va aggressiv strategiya o'rta sidagi oraliq strategiya hisoblanib, mablag'larni aksiya, obligatsiya va ko'chmas mulk pay fondlari portfeli shaklida sarflashdir. Aksiya va obligatsiya o'rta sidagi munosabatlar o'zgarmas (masalan, 50:50) yoki vaqt o'tgan sari o'zgarishi mumkin;

- **agressiv** — investitsiyalarni yuqori daromadga ega bo'lish maqsadida uzoq muddatda aksiyalarni sotib olishga sarflashdir. Bunga masalan, developer va qurilish fondlari orqali ko'chmas mulkka investitsiyalashni kiritish mumkin. Ushbu strategiyaning maqsadi maksimal risk sharoitida yuqori darajada daromad olish hisoblanadi.

Uch ko'rinishdagi kapitalni boshqarish uchun ushbu strategiyalarni qanday qo'llash mumkin? Joriy kapital uchun himoya strategiyasi juda mos keladi, chunki yuqori likvidlik ushbu kapitalning asosiy vazifasi hisoblanadi. Zaxira kapitalining bosh maqsadi — ishonchlilik (mablag'larni infliyatsiyadan tez sur'atlar bilan himoyalash). Ushbu maqsadga konservativ strategiya juda mos keladi. Investitsiya qilinayotgan kapital muvozanatlashgan yoki agressiv strategiyalardan foydalangan holda shakllanadi. Siz maqsadingiz va riskka bo'lgan munosabatingizga bog'liq ravishda siz u yoki bu aktivlar nisbatini tanlab olasiz.

**Ikkinch bosqich** — investitsiya portfelin shakllantirish bosqichi. Ushbu bosqichda investitsiya portfeli shakllantiriladi. Portfeli shakllantirish ko'pincha aktivlarni taqsimlash deb ataladi (asset allocation). Bu investitsiya portfelingizni qaysi dastaklar bilan to'ldirishingiz va har bir dastakka qancha mablag' sarflashingizni aniqlab olishingiz zarurligini bildiradi. Iqtisodiyotda amal qiladigan «muvozanatlashgan portfel» nazariyasiga muvofiq, uzoq muddatga joylashtiriladigan investitsiyalar muvaffaqiyati 90% aktivlarni to'g'ri joylashtirish tomonidan belgilanadi<sup>26</sup>.

Investitsiyalar bilan muvaffaqiyatl shug'ullanadigan oilalarda aktivlarni joylashtirishning murakkab va chuqr ishlab chiqilgan rejali bo'ladi. Bunda siz aktiv yoki passiv investor ekanligingizni tushunib olishingiz zarur. **Aktiv investor** o'z portfelin mustaqil broker orqali shakllantirib, ularni doimo kuzatib borishi (portfel va brokerni) va o'zining roziligidiz biron-bir qarorni qabul qilishga ruxsat bermaydigan investordir. Boshqa investorlar **passiv investorlar** hisoblanadi. Passiv investor o'z investitsiyalarini professional boshqaruvchilarga ishonib topshiradi va ular faoliyati sifati ustidan nazorat qiladi. Bunda sizga belgilangan investitsiya strategiyasini amalga oshirishda yordam beruvchi moliyaviy vositachilarни to'g'ri tanlay olish zarur.

Investitsiya portfelin shakllantirishdagi bosh tamoyil — bu portfelin **diversifikatsiyalash** tamoyilidir. Diversifikatsiyalash lotincha «diversus»

26 Хьюз-младший Джеймс И. Благатство семьи. Как сохранить в семье человеческий, интеллектуальный и финансовый капиталы / [Пер. с англ. У. Сапциной]. М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2012. С. 88–89.

so'zidan olingen bo'lib, turli, boshqa tomonga yo'naltirilgan, turli yo'nalishlarda yetuvchi va hatto, qarama-qarshi degan ma'nolarni anglatadi. Demak, hamma kapitalni bir turdag'i qimmatli qog'ozga joylashtirish kerak emas, aks holda unga yuz foizlik bog'liqlik vujudga keladi. Aktivlarni bir nechta moliyaviy dastaklar bo'yicha taqsimlab chiqish biridan kutilayotgan zararни ikkinchisining foydasi hisobidan qoplash mumkin bo'ladi. Aksiyalar portfelini tarmoqlar, geografik hududlar bo'yicha diversifikatsiyalash mumkin.

Agar pay investitsiya fondlariga mablag' joylashtirsangiz diversifikatsiyalash masalasi o'z-o'zidan hal bo'ladi. Har qanday pay investitsiya fondlari diversifikatsiyalashgan portfelga ega bo'ladi va unda har bir qimmatli qog'oz ulushi 10 foizdan oshiq bo'lmaydi.

Investor uchun bozorga chiqish vaqtini tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Investor uchun bozorga kirish va undan chiqish vaqtini tanlash **tayming** deb yuritiladi. Bu borada qulay vaqtini qo'ldan chiqardin-gizmi, demak foya olish imkoniyatidan mahrum bo'lasiz. Investor uchun eng muhim narsa o'zining uzoq investitsion qarashiga ega bo'lishi hisoblanadi. Investitsion qarash chuqur o'ylangan va hisoblangan bo'lishi lozim, chunki u uzoq istiqbol uchun qabul qilinadi. Aks holda investitsiyalash strategiyasini mutnazam ravishda o'zgartirib siz brokerga kompaniya bosh-qaruvchisi yoki boshqa xohlagan moliyaviy vositachi komissiyasi hisobidan ko'p yo'qotishingiz mumkin. Investitsiyalar uzoq muddatli davrda daromad keltiradi, qisqa muddatda esa yuqori va pastga keskin chayqalishi mumkin. Shuning uchun muhim investitsion qarorlarni ehtiroslar, tek-shirilmagan yangiliklar, mish-mishlar va bozor chayqalishlariga yuzaki baho berish asosida qabul qilib bo'lmaydi.

**Uchinchi bosqich** — investitsion portfeli qayta qo'rib chiqish bosqichi.

Oldingi ikki bosqichni tugatgandan so'nggina uchinchi bosqichga o'tish mumkin. U mantiqan investitsiya faoliyatining yakuniy bo'Imagan oxirgi bosqichi hisoblanadi. Siz undan investitsion faoliyatizingizni umuman to'xtatish to'g'risida qaror qilgandagina butunlay chiqishingiz mumkin.

Investitsiya portfelini bir yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqish lozim. Bir yil davomida sizning investitsion maqsadingiz, investitsiya muddati, risklarga bo'lgan munosabatingiz o'zgarishi mumkin.

Investitsiya portfeliga yil davomida bir necha marta o'zgartirishlar kiritilsa ham bo'ladi. Ularga bo'lgan ehtiyoj sizning investitsiya maqsadiningiz va bozorning rivojlanish tendensiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda

har bir kiritilgan o'zgartirish qo'shimcha to'lovlarni talab qilishini unutmashlik zarur. Statistika manbalariga ko'ra brokerlar orqali amalga oshirilgan investitsiyalarda ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq daromad olishar ekan. Chunki, ayollar investitsiya portfeliiga kam o'zgartirishlar kiritishadi va shu sababli tranzaksion xarajatlarni kamaytirishadi.

Investitsiya portfelida konservativ, mo'tadil va agressiv aktivlar o'rtasidagi muntazam aniq nisbatni ushlab bo'lmaydi. Har kuni qimmatli qog'ozlar kotirovkalari o'zgaradi, shuning uchun sizning investitsiya portfelingizda sodir bo'ladigan o'zgarishlar jiddiy bo'lishi mumkin. Investitsiyalarni shunday rejalashtirish lozimki, ular muntazam har oy, kvartal va yilda amalga oshirilishi lozim. Ushbu faoliyatni amalga oshirish investorga sotib olinadigan aksiyalarni o'rtacha bahosini aniqlab olish imkonini beradi. Muntazam ravishda rejali investitsiyalash sizni xavf-xatar va noaniqlikdan holi qoldiradi. Natijada siz yuqori natijalarga va qo'yilgan maqsadga erishish imkoniga ega bo'lasiz. Investitsiyalash uchun qarz mablag'lardan foydalanish kerak emas. Gap birinchi navbatda qimmatli iste'mol kreditlari va bankdan olingan kreditlar to'g'risida ketmoqda, chunki qarz olingan mablag'larni investitsiyalash orqali siz bankdan olgan kreditingiz uchun to'laydigan foizga nisbatan yuqoriq foizni olishga harakat qilasiz.

Har bir investor o'z mablag'ini qanchalik muvaffaqiyatli joylashtirganini baholay olishi zarur. Investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- yil yakuniga ko'ra investitsion faoliyat natijasi — daromad olgani yoki zarar ko'rGANINI bilish;
- o'z portfelining daromadlilagini maqsadli indeks bilan taqqoslash;
- o'z portfelining daromadlilagini boshqa portfellar bilan solishtirish.

Bir yil yakuni bo'yicha olingan baho doimo tahlil uchun yetarli bo'lmaydi, tasodifni roli juda yuqori bo'ladi, shu sababli investitsion faoliyatning bir necha yillik natijalarini baholash lozim. Masalan, investitsion faoliyatning uch yillik natijalarini baholash kerak.

Shu bilan bir qatorda investitsiyalash amaliyotida turli xil **xatoliklarga yo'l qo'yilishi** mumkin. Investitsiyalash amaliyotida eng ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- investitsiyalash borasida tajribasiz kishilar maslahati bo'yicha investitsiyalarni amalga oshirish katta xato hisoblanadi;
- ehtiroslar asosida investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilib bo'lmaydi. Ehtiroslar asosida investitsiyalash ruletka o'ynash demakdir.

O'yindan rohat olish mumkin, pul ishlash mumkin emas. Ehtiroslar investitsiyalarni amalga oshirishda yomon maslahatchi hisoblanadi;

- bozorning qisqa muddatli pasayishlarida investitsiyalarni amalga oshirishda pulni barqaror aktivdan olmang, yaxshisi aktivlarni diversifikatsiyalashgan portfeliga ega bo'ling. Trayderlarda shunday maqol bor «Tushib ketayotgan pichoqni ushlab olishga harakat qilmaslik kerak»;
- investitsiyalarni qisqa muddatli qadam sifatida qabul qilishda investitsiya portfelini nazorat qilib vaqtı-vaqtı bilan unga tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim;
- xonodon xo'jaligi aktivlari bitta a'zo tomonidan boshqarilishi maqsadga muvofiqdir;
- kim investitsiya portfeliga ko'p sonli aktivlarni kiritsa, ular ustidan nazorat qilish riskiga duch keladi. «Har bir ishlab chiqarilgan aktivlarni taqsimlash dasturi turli darajadagi riskli investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Investitsiyalarni taqsimlashdagi asosiy vazifa ayrim oila a'zolarning investitsiya portfelidagi risklarni muvozanatlashtirish va yalpi oila kapitalini maksimal o'sishiga erishishdan iborat»<sup>27</sup>. Tabiiy savol tug'iladi, investitsiya portfelida nechta aktivlar bo'lishi lozim? Investitsiya portfelidagi aktivlar soni siz ularni nazorat qila oladigan darajada bo'lishi zarur. Amaliyot tahlilidan kelib chiqqan holda investitsiya portfelidagi aktivlar soni kapital hajmiga bog'liq ravishda 5 tadan 20 tagacha bo'lishi tavsiya etiladi, chunki bu sizni portfelingiz yaxshi muvozanatlashgan bo'lishi uchun yetarlidir.

### **5.3. Investitsiya portfelini shakllanishi va diversifikatsiyalashuvi**

Investitsiya portfelining samaradorligi kapitalni turli aktivlar bo'yicha qanday taqsimlappingizga bog'liq. Misol uchun mablag'larni reytingi yuqori bo'limgan mamlakatda turli aktivlar bo'yicha taqsimlash samarasiz hisoblanadi. Mablag'larni samarali taqsimlash deyilganda ularni turli aktivlar bo'yicha ishonchlilik reytingi turlicha bo'lgan mamlakatlar o'rtasida oqilona taqsimlash tushuniladi.

<sup>27</sup> Хьюз-младший Джеймс И. Богатство семьи. Как сохранить в семье человеческий, интеллектуальный и финансовый капиталы / [Пер. с англ. У. Сапциной]. М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2012. С. 91.

Mablag'larni turli aktivlarga investitsiyalashda xavf-xatarlarni baholay olish juda muhim. Buning uchun avvalo, aktivlar va ular bilan bog'liq risklar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, aktivlar risklarini baholash nuqtai nazardan konservativ, mo'tadil va aggressiv aktivlarga bo'linadi.

**Konservativ aktivlar.** Konservativ aktivlar deyilganda kapitalning saqlanishini kafolatlovchi yoki minimal yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan risklarga ega investitsiyalar tushuniladi. Odatda, konservativ aktivlarga mablag' sarflashda kapital asta-sekinlik bilan, muntazam ko'payib boradi. Shu bilan bir vaqtida konservativ aktivlarning bahosi pasayishi ham mumkin (masalan, yuqori reytingga ega obligatsiyalar fondi paylari). Investitsiya portfelini ishlab chiqish va moliyaviy rejalarini tuzishda konservativ aktivlar bo'yicha daromadlilik darajasi minimum 3% atrofida bo'ladi deb, faraz qilinadi. Haqiqatda esa daromadlilikning yillik darajasini 5–7% gacha qabul qilish mumkin.

**Mo'tadil aktivlar.** Mo'tadil aktivlar — bu uzoq muddatda yuqori daromad olish imkonini beruvchi, ammo vaqt o'tishi bilan bahosi pasayib ketishi mumkin bo'lgan aktivlardir. Mablag'laringizni bu turdag'i aktivlarga investitsiyalashingizda daromadlar va kapitalingizni saqlanishi bo'yicha hech qanday kafolatga ega bo'lmasiz. Mo'tadil riskga ega aktivlarga mablag' sarflashda odatda, daromadlilikning yillik darajasi 10% deb, qabul qilinadi.

**Agressiv aktivlar.** Agressiv aktivlar — bu bahosi sezilarli darajada o'zgarib turadigan aktivlardir. Bu turdag'i aktivlar yiliga 100% gacha daromad keltirishi bilan bir qatorda 50% gacha zarar ham keltirishi mumkin. Agressiv aktivlarga mablag' sarflashda yillik daromadlilik darajasini 15–20% gacha qabul qilish mumkin.

**Bozor riskini baholash.** Bozor riski — bu aktivlar qiymatini bozor bahosi tebranishiga bog'liq ravishda o'zgarish riskidir. Boshqacha so'z bilan aytganda, baholar qanchalik kuchli tebransa, bozor riski shunchalik yuqori bo'ladi.

Mamlakatlar, kompaniyalar va banklarga reyting bahosini beruvchi maxsus reyting agentliklari mavjud. Jahon amaliyotida investorlar ushbu agentliklar tomonidan beriladigan reytinglarga qarab qarorlar qabul qildilar. Reytingning o'zgarishi tegishli aktivlar qiymatining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keladi. Masalan, mamlakat reytingining ortishi davlat obligatsiyalari daromadliligining pasayishiga olib keladi va mazkur mamlakat hukumatiga bozordan pullarni o'tgan davrga nisbatan arzonroq qarzga olish imkonini beradi.

Investorlar tomonidan axborotlardan samarali foydalanadigan reyting agentliklari quyidagilardan iborat:

- Standart & Poor's (Standart va Puurs);
- Moody's Investors Service (Muuds investors servis);
- Fitch Rating (Fitch reyting).

Ushbu reyting agentliklari tomonidan beriladigan reytinglar bir-biridan farq qilsa-da ular bir-biriga juda o'xshash va bir xil harflar bilan belgilanadi. Ularni investitsion va chayqovchilik reytinglariga bo'lish mumkin.

### **1. Investitsion reytinglar:**

AAA — qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq bajarishning eng yuqori qobiliyatini aks ettiradi;

AA — qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq bajarishning yuqori qobiliyatini anglatadi;

A — qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishning nisbatan yuqori qobiliyatiga egaligi, ammo tijorat, moliya va iqtisodiy sharoitlarda salbiy o'zgarishlar ta'sirini ifodalaydi;

BBB — qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishning yetarli darajadagi qobiliyati bo'lib, tijorat, moliya va iqtisodiy sharoitlarda salbiy o'zgarishlar ta'sirining yuqori darajada ekanligini ifodalaydi.

### **2. Chayqovchilik reytinglari:**

BB — qisqa muddatda riskdan holi, ammo tijorat, moliya va iqtisodiy sharoitlarda salbiy o'zgarishlar ta'sirining yuqori darajada ekanligini ifodalaydi;

B — tijorat, moliya va iqtisodiy sharoitlarda salbiy o'zgarishlar ta'sirining keskin ekanligi hamda qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq bajarish imkonining mavjudligini bildiradi;

CCC — emitentning qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolining mavjudligi bo'lib, qarz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi esa qulay tijorat, moliya va iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi;

CC — hozirgi davrda emitentning qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolining yuqori ekanligini ifodalaydi;

C — emitentga nisbatan bankrotlik protsedurasi qo'zg'atilgan holda to'lovlari yoki qarz majburiyatlarining bajarilishi davom etayotganligini bildiradi.

Siz mablag'laringizga turli aktivlar sotib olayotganingizda investitsion riskka duch kelishingiz mumkin. **Investitsion risk** deganda investitsion mablag'larning bir qismi yoki barchasini yo'qotish holati yuzaga kelishi mumkinligi tushuniladi.

Investitsion risk o'zida moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini va investitsiyalardan daromadlarni to'liq ololmaslik yoki qo'shimcha investitsion xarajatlarning paydo bo'lismisini ifodalaydi.

Moliya bozorida investor faoliyat yuritayotganda turli risklarga uchrashti mumkinligini hisobga olish zarur. Masalan, aniq kompaniyaning qimmatli qog'ozlariga xos bo'lgan risklarga quyidagilar kiradi:

- narx riski — narxlarning noqulay o'zgarishi natijasida vujudga keldigan risklar;
- likvidlik riski — ma'lum vaqtida kutilgan narxda aktivlarni sotish yoki sotib olishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar;
- emitentning bankrotligi riski — qimmatli qog'oz emitentining to'lovga qodir emasligining boshlanish riski. Ushbu holat bunday qimmatli qog'oz (aksiya) narxining keskin tushishiga yoki uning (obligatsiya va boshqa qarz qog'ozlari) qarzini to'lashga imkon bo'lmasligiga olib keladi.

**Valuta riski** — bu aktivlaringizning valuta kursi tebranishiga bog'liq holda qiymatining o'zgarishi riskidir. Har qanday investitsiya portfelida turli valutalardagi aktivlar bo'lishi lozim. Mablag'larni qaysi valutaga investitsiyalash zarur? Yaxshisi eng ommalashgan va likvid valutani, AQSH dollari va yevroni tanlash lozim. Portfelning bir qismi milliy valutada bo'lishi lozim.

## TAYANCH ATAMALAR

**Xonodon xo'jaligida iqtisodiy tanlov qoidasi** — bu xonodon xo'jaligining daromadlar miqdori cheklangan sharoitda tovarlar va xizmatlarni muqobil tanlab olish qoidasiga amal qilishdir.

**Jamg'arma** — xonodon xo'jaligi daromadlarining moliyaviy to'lovlarini va iste'mol xarajatlaridan ortib qolgan qismidir.

**Jamg'arish koefitsiyenti** — jamg'arish miqdorini daromad miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich.

**Jamg'arishga moyillik koefitsiyenti** — bu jamg'armaning jami xarajatlardagi hissasini bildiruvchi ko'rsatkich bo'lib, jamg'armalarni xarajatlar (yoki daromadlar) miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

**Xonodon xo'jaligida jamg'armani tanlash qoidasi** — bu xonodon xo'jaligi uchun eng qulay va foydali bo'lgan jamg'arish shakllaridan birini muqobil tanlab olishlik qoidasiga amal qilishdir.

**Xonodon xo'jaligida jamg'arish** — xonodon xo'jaligi yalpi daromadidan, majburiy va ixtiyoriy to'lovlar hamda iste'mol sarflari ayirib tashlangan qismidir.

**Aktivlar** — xonodon xo'jaligi egalik qiladigan bank depozitlari, qimmatba-ho buyumlar, kvartira, avtomashina, dala hovli, mualliflik huquqi va hokazolardir.

**Passivlar** — xonodon xo'jaligining bank kreditlari, qarzlari, alimentlar, kvartira haqi va boshqalar bo'yicha majburiyatlaridir.

**Likvidlik** — har qanday aktivning pulga oson aylanishidir.

**Ishonchlilik** — aktivning xavf-xatarlarga qarshi tura olishidir.

**Daromadlilik** — aktivning o'z qiymatini vaqt ichida o'zgartira olish xususiyatidir.

**Investitsiya dastaklari** — bank depozitlari, jamg'arib boriladigan sug'urta dasturlari, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar, obligatsiyalar, ko'chmas multk, qimmatbaho metallar va toshlar, antikvariatlar, kolleksiya predmetlari va boshqalardan iborat.

**Bank depoziti** — shaxsiy jamg'armalarni saqlashning hamma uchun mumkin bo'lgan oddiy shakli.

**Jamg'arib boriladigan sug'urta dasturlari** — investitsion dastak hisoblanib, bu turdag'i dasturlar jamg'arib borish va sug'urtaelementlarini o'z ichiga oladi.

**Obligatsiyalar** — eng ishonchli qimmatli qog'ozlardan biri bo'lib o'z egasiga qayd qilingan daromadni keltiruvchi qimmatli qog'ozlardir.

**Aksiya** — o'z egasiga aksioner jamiyat mulkining bir qismiga egalik qiliш, uni boshqarishda qatnashish va aksioner jamiyati foydasida muayyan ulushga ega bo'lish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

**Investitsion fondlar** — investitsiya kompaniyalari tomonidan boshqariladigan ko'p sonli yirik, o'rta va mayda investorlarning kapitali yig'indisi.

**Exchange Traded Funds (ETFs)** — birjalarda aksiyalar kabi erkin savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar bo'lib, boshqa investitsiya dastaklaridan soddaligi, qulayligi va arzonligi bilan ajralib turadi va sizga passiv, aktiv yoki spekulyativ investor o'rnidagi bo'lish imkonini beradi.

**Xedj-fondlar** — xususiy investitsion hamkorlik bo'lib ochiq savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar yoki hosilaviy moliya dastaklariga investitsiya qilish imkonini beradi.

**Ko'chmas multk** — kishilarning o'zlarini yashashi, ijara berishi, farzandlarining kelajagini ta'minlashlari va investitsiyalash uchun zarur bo'lgan multk.

**Muqobil investitsiyalash** — o'ta jozibador, biroq tor va yuqori riskli investitsiyalashdir.

**Himoya strategiyasi** — mablag'larni depozitlar, yuqori likvidli veksellar va qisqa muddatli obligatsiyalarga joylashtirish.

**Konservativ strategiya** — mablag'larni yuqori dividend keltiruvchi aksiyalarning uncha katta bo'lмаган qismini qo'shish asosida davlat va korporativ obligatsiyalarga investitsiyalashdir.

**Muvozanatlashgan strategiya** — himoya va agressiv strategiyalar o'rta-sidagi oraliq strategiya hisoblanib, mablag'larni aksiya, obligatsiya, ko'chmas mulk, pay fondlari portfeli shaklida sarflashdir.

**Agressiv strategiya** — investitsiyalarni yuqori daromadga uzoq muddatda ega bo'lish maqsadida aksiyalarni sotib olishga sarflashdir.

**Aktiv investor** — o'z portfelini mustaqil broker orqali shakllantirib, ularni doimo kuzatib borishi (portfel va brokerni) va o'zining roziligidisiz bironbir qarorni qabul qilishga ruxsat bermaydigan investordir.

**Passiv investor** — o'z investitsiyalarini professional boshqaruvchilarga ishonib topshiruvchi va ular faoliyati sifati ustidan nazorat qiluvchi investor.

**Tayming** — investor uchun bozorga kirish va undan chiqish vaqtini tanlash.

**Investitsiya portfeli** — qo'yilgan maqsadlarga erishish imkonini beruvchi investitsion dastaklar yig'indisidan iborat.

**Mablag'larni samarali taqsimlash** — mablag'larni turli aktivlar bo'yicha ishonchilik reytingi turlicha bo'lgan mamlakatlar o'rtasida oqilona taqsimlashdir.

**Konservativ aktivlar** — kapitalning saqlanishini kafolatlovchi yoki minimal yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga ega bo'lgan investitsiyalardir.

**Mo'tadir aktivlar** — uzoq muddatda yuqori daromad olish imkonini beruvchi, ammo vaqt o'tishi bilan bahosi pasayib borishi mumkin bo'lgan aktivlardir.

**Agressiv aktivlar** — bahosi sezilarli darajada o'zgarib turadigan aktivlardir.

**Bozor riski** — aktivlar qiymatini bozor bahosining tebranishiga bog'liq ravishda o'zgarish riskidir.

**Investitsion risk** — investitsion mablag'larning bir qismi yoki barchasini yo'qotish holati yuzaga kelishining mumkinligi.

**Narx riski** — narxlarning noqulay o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan risklar.

**Likvidlik riski** — ma'lum vaqtda kutilgan narxda aktivlarni sotish yoki sotib olishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar;

**Emitentning bankrotligi riski** — qimmatli qog'oz emitentining to'lov qobiliyatiga ega emasligining boshlanish riski.

**Valuta riski** — aktivlarni valuta kursi tebranishiga bog'liq holda qiymatining o'zgarishi riskidir.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Xonodon xo'jaligi jamg'armasini vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlang?
2. Jamg'arishga moyillik qonuni va uni namoyon bo'lish shakllarini tushuntirib bering?
3. Xonodon xo'jaligida jamg'arishga moyillik koeffitsiyentini aniqlang va unga ta'sir etuvchi omillarini tushuntirib bering?
4. Xonodon xo'jaligi xarajatlarida jamg'armalarining ulushini aniqlang va tendensiylarini belgilang?
5. Xonodon xo'jaligi jamg'armasi bilan investitsiyalash o'rtaсидаги о'заро bog'liqlik va nisbat?
6. Xonodon xo'jaligi jamg'armalarining yo'nalishlari va shakllarini tushuntirib bering?
7. Xonodon xo'jaligi jamg'armasini investitsiyaga aylanishi qanday sodir bo'ladi?
8. Xonodon xo'jaligida investitsiyalashning mohiyati va tamoyillarini tushuntirib bering?
9. Xonodon xo'jaligida investitsiyalash bosqichlari nimalardan iborat?
10. Xonodon xo'jaligini investitsion strategiyasi va uni moliya bozoridagi o'rni?
11. Investitsiyalashni asosiy turlari va ularni turli mezonlar asosida guruhlashtiring?
12. Investitsiya portfelining shakllanishi va uni boshqarilishini tushuntirib bering?
13. Investitsiya dastaklari mohiyatini ochib bering va turlarini sanab o'ting?
14. Investitsiya portfeli tarkibi va uni diversifikatsiyalash yo'llari nimalaridan iborat?
15. Investitsiyalashda risklarni baholash va boshqarishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni sanab o'ting?

## TESTLAR

1. Xonadon xo'jaligining daromadlar miqdori cheklangan sharoitda tovarlar va xizmatlarni muqobil tanlab olish qoidasiga amal qilishi — bu:
  - a) xonadon xo'jaligida iqtisodiy tanlov qoidasi;
  - b) xonadon xo'jaligida jamg'armani tanlash qoidasi;
  - v) xonadon xo'jaligida investitsiyalarni tanlash qoidasi;
  - g) xonadon xo'jaligida aktivlarni tanlash qoidasi.
2. Xonadon xo'jaligi uchun qulay va foydali jamg'arish shakllaridan birini muqobil tanlab olish qoidasi — bu:
  - a) xonadon xo'jaligida iqtisodiy tanlov qoidasi;
  - b) xonadon xo'jaligida jamg'armani tanlash qoidasi;
  - v) xonadon xo'jaligida investitsiyalarni tanlash qoidasi;
  - g) xonadon xo'jaligida aktivlarni tanlash qoidasi.
3. Xonadon xo'jaligi daromadlarining moliyaviy to'lovlar va iste'mol xarajatlaridan ortib qolgan qismi nima deb ataladi?
  - a) jamg'arma;
  - b) investitsiya;
  - v) daromad;
  - g) qarz.
4. Quyidagilarning qaysi biri jamg'arish miqdorini daromad miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkichni to'g'ri aks ettiradi?
  - a) investitsiya koeffitsiyenti;
  - b) daromad koeffitsiyenti;
  - v) jamg'arish koeffitsiyenti;
  - g) jamg'arishga moyillik koeffitsiyenti.
5. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi biri jamg'armaning jami xarajatlar-dagi (yoki daromadlardagi) ulushini katta yoki kichik bo'lishini ifodalaydi?
  - a) investitsiya koeffitsiyenti;
  - b) daromad koeffitsiyenti;
  - v) jamg'arish koeffitsiyenti;
  - g) jamg'arishga moyillik koeffitsiyenti.
6. Xonadon xo'jaligi egalik qiladigan bank depozitlari, qimmatbaho bulyumlar, kvartira, avtomashina, dala hovli, mualliflik huquqi va bosh-qalar nima deb nomlanadi?
  - a) aktivlar;

- b) passivlar;
  - v) xatarlar;
  - g) jamg'armalar.
7. Xonodon xo'jaligining bank kreditlari, qarzlari, alimentlar, kvartira haqi va boshqalar bo'yicha majburiyatları nima deb nomlanadi?
- a) aktivlar;
  - b) passivlar;
  - v) xatarlar;
  - g) jamg'armalar.
8. Har qanday aktivning pulga oson aylanishi — bu:
- a) likvidlik;
  - b) ishonchlilik;
  - v) daromadlilik;
  - g) ishonchsizlik.
9. Aktivning xavf-xatarlarga qarshi tura olishi — bu:
- a) likvidlik;
  - b) ishonchlilik;
  - v) daromadlilik;
  - g) ishonchsizlik.
10. Aktivning o'z qiymatini ma'lum vaqt mobaynida o'zgartira olish xussiyati — bu:
- a) likvidlik;
  - b) ishonchlilik;
  - v) daromadlilik;
  - g) ishonchsizlik.
11. Investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:
- a) yil yakuniga ko'ra investitsion faoliyat natijasi — daromad olgani yoki zarar ko'rganini bilish;
  - b) o'z portfelining daromadliligin maqsadli indeks bilan taqqoslash;
  - v) o'z portfelining daromadliligin boshqa portfellar bilan solishtirish;
  - g) hamma javob to'g'ri.
12. Mablag'larni depozitlar hamda yuqori likvidli veksellar va qisqa muddatli obligatsiyalarga joylashtirish — bu:
- a) konservativ strategiya;
  - b) himoya strategiyasi;

- v) muvozanatlashgan strategiya;
  - g) aggressiv strategiya.
13. Xususiy investitsion hamkorlik sifatida ochiq savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar yoki hosilaviy moliya dastaklariga investitsiya qilish — bu:
- a) investitsion fondlar;
  - b) xedj-fondlar;
  - v) ko'chmas multk;
  - g) muqobil investitsiyalash.
14. Kapitalning saqlanishini kafolatlovchi yoki minimal yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga ega bo'lgan investitsiyalar qanday nomlanadi?
- a) mo'tadil aktivlar;
  - b) aggressiv aktivlar;
  - v) konservativ aktivlar;
  - g) mablag'larni samarali taqsimlash.
15. Ma'lum vaqtida kutilgan narxda aktivlarni sotish yoki sotib olishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar:
- a) bozor riski;
  - b) investitsion risk;
  - v) narx riski;
  - g) likvidlik riski.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Андрианов А. Ю. и др. Инвестиции: учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Проспект, 2011. — 592 с.
2. Вилкова Т. Б. Брокерская деятельность на рынке ценных бумаг: Учебное пособие. — М.: Финакадемия. М., 2008. 92 с.
3. Горяев А., Чумаченко В. Финансовая грамота. — М., 2009.
4. Гусева И. А. Введение в финансовые рынки: Практикум. — М.: Финакадемия, 2008. — 192 с.
5. Гусева И. А. Рынок ценных бумаг. Сборник тестовых заданий: учебное пособие / И. А. Гусева. — М.: КНОРУС, 2013. — 406 с.
6. Зелизер В. Социальное значение денег: деньги на булавки, чеки, пособия по бедности и другие единицы; перевод с англ. А. В. Смирнова и М. С. Добряковой; под науч. ред. В. В. Радаев-

- ва; М.: Дом интеллектуальных книг; Издательский дом ГУВШЭ, 2004. 284.
7. Зубец А. Н. Инвестиционное поведение населения в 2006–2011 годах // Финансы. № 11, 2012. — С. 66–69.
  8. Инвестиции в вопросах и ответах: учебное пособие / А. Ю. Адрианов, С. В. Валдайцев, П. В. Воробьев; авторы-составители И. А. Дарушин, Н. А. Львова; отв. ред. В. В. Ковалев, В. В. Иванов, В. А. Ляпин. — М.: Проспект, 2013. — 376 с.
  9. Инвестиции: учебник/колл. авторов; под. ред. Г. П. Подшиваленко. 2-е изд., стер. М.: КНОРУС, 2009. 496 с.
  10. Котлер Ф. Прилечение инвесторов: Маркетинговый подход к поиску источников финансирования / Пер. с англ. М.: Альпина Бизнес Букс, 2009. 194 с.
  11. Марголин А. М. Инвестиции: Учебник. М.: Изд-во РАГС, 2006. 464 с.
  12. Молокович А. Д. Финансы и финансовый рынок: учеб. пособие / А. Д. Молокович, А. В. Егоров. Минск: Издательство Гревцова, 2012. 256 с.
  13. Нешитой А. С. Инвестиции: Учебник. 7-е изд., перераб. и испр. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашко и К», 2008. 372 с.
  14. Основы банковского дела: учебное пособие / коллектив авторов; Щ-75 под. ред. О. И. Лаврушина. 4-е изд., перераб. и доп. М.: КНОРУС, 2013. 392 с.
  15. Павлов П. В. Финансовое право: учеб. пособие для студентов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит», «Мировая экономика», «Налоги и налогообложение» / П. В. Павлов. 6-е изд., испр. и доп. М.: «Омега-Л», 2012. 302 с.
  16. Савенок В. С. Инвестировать — это просто. Руководство по эффективному управлению капиталом. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2012. 216 с.
  17. Суслова Ю. А. Индивидуальный предприниматель. 5 в 1: налогообложение и налоговая отчетность; взносы во внебюджетные фонды; документооборот; трудовые отношения; применение ККМ / Ю. А. Суслова. М.: Рид Групп, 2011. 256 с. (Школа малого бизнеса).
  18. Хоукинс Э., Тернер К. Управление движением денежной наличности. Карманный справочник: пер. с англ. сМ.: HIPPO, 2004. 112 с.

19. Хьюз-младший Джеймс И. Богатство семьи. Как сохранить в семье человеческий, интеллектуальный и финансовый капиталы/ (Пер. с англ. У. Сапциной). М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2012. 288 с.
20. Экономическая теория: Учебник. Изд. испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. М.: ИНФРА-М, 2007. 672 с. (100 лет РЭА им. Г. В. Плеханова).
21. Ўзбекистон Республикаси иктисадий-ижтимоий тараккиётининг мустакиллик йилларидағи (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган проғнозлар: статистик тўплам. Т.: «Ўзбекистон», 2011.
22. Үлмасов А. Иктисадий билим асослари: Коллеж ўқитувчилари ҳамда иктидорли ўкувчилари учун услубий кўлланма. Т.: Ф. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003. 184 б.

## BANKLAR VA BANK TIZIMI

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### Reja:

- 6.1. Bank faoliyatining paydo bo'lishi, rivojlanishi va iqtisodiyotda tutgan o'rni.
- 6.2. Bank tizimi va uning tarkibi.
- 6.3. Markaziy bank va uning pul muomalasini tartibga solish siyosati.
- 6.4. Pul tizimining mazmuni va milliy xususiyatlari.
- 6.5. Tijorat banklarining turlari va ularning faoliyatini tashkil etish shakllari.
- 6.6. Bank tizimida nobank kredit muassasalari va mikrokredit tashkilotlari.

### 6.1. Bank faoliyatining paydo bo'lishi, rivojlanishi va iqtisodiyotda tutgan o'rni

#### Bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj

Mamlakatning rivojlanishida va aholining turmush darajasini oshirishda banklarning roli beqiyosdir. Kundalik hayotimizda o'zimiz sezmagan holda bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni his etamiz. Masalan, ixtiyorimizda 5 mln. so'm bo'lib, yaqin vaqlarda (aytaylik, bir yil) uni ishlatalishga zaruriyat yo'q. Bu pullarni shunchaki turishini emas, balki uni daromad keltirishini xohlaymiz. Yoki oilaning kengayishi natijasida bizning ehtiyojimizda uy xarid qilish zaruriyati paydo bo'ldi va buning uchun bizda yetarli mablag' mavjud emas.

Albatta yakka holda 5 mln. so'mni bizdan vaqtincha foydalanish uchun qarz-ga olmoqchi bo'lgan, yoki uyni xarid qilish uchun 50 mln. so'mni 15 yilgacha berib turishi mumkin bo'lgan shaxslarni topish mushkul, ayrim hollarda esa umuman amalgalarga oshirib bo'lmaydi. Shu yerda banklar o'z vazifasini bajaradilar.

Banklar turli xildagi vazifalarni bajarsalarda, ularning asosiy faoliyati — ortiqcha pulga ega bo'lganlardan mablag'larni qabul qilish (omo-

nat yoki depozit shaklida) va ularni umumiy jamg'armaga yig'ib, pulga zarurati bo'lganlarga berish (kreditlash)dan iborat. Banklar omonat-chilar (bankka qarz beruvchilar) va qarz oluvchilar (bank kreditlovchi shaxslar) o'rtaida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Omonatlar bo'yicha banklar to'laydigan va bank tomonidan berilgan kredit xizmatlari uchun amalga oshiradigan to'lovlardan foizlari deb nomlanadi. Odatda, banklar ning omonatlar bo'yicha to'laydigan foizlari berilgan kreditlar bo'yicha oladigan foizlaridan past bo'ladi va bu farq bank daromadini shakllantiradi.

Omonat muddati tugagach bank topshirilgan pullarni va shartnomaga muvofiq foiz to'lovlarni qaytaradi. Ba'zan omonatlar bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun yetarli bo'lmaydi. Shunda banklar qimmatli qog'ozlarni chiqaradilar yoki ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni sotadilar. Shuningdek, zamonaviy bank xizmatlari bozorida banklar kreditlarni rasmiylashtirib ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirishlari ham mumkin, bunda ular kreditning ikkilamchi bozorini tashkil etadilar va qayta kreditlash uchun zarur mablag'larni jalb etadilar.

#### **Banklarning vujudga kelishi**

Banklarning vujudga kelishi va rivojlanishi xususida turli qarashlar mavjud. Shu sababli bank-larning qanday shakllanganini va paydo bo'lish sanasi to'g'risida aniq fikrni aytish qiyin. Lekin zamonaviy banklar shug'ullanadigan faoliyatlarning ayrimlari juda qadimiyligi ma'lum. Jumladan, foiz ustamasi bilan qarz beruvchi sudxo'rlar eramizdan avval V asrlarda mavjud bo'lganligi, yoki bozorlarga kirishda joylashgan pul birlıklarini almashtiruvchi do'konlarning bo'lgani, zamonaviy pullarning asosini qimmatbaho metallni jalb etish evaziga chiqarilgan tilxat (banknota) larning bo'lgani ma'lum.

Banklarning kelib chiqishi tovar-pul munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'lanadi. Bank faoliyatining turli belgilari bir vaqtida eramizdan avval Italiya, Misr, Gretsiya, Bobil va boshqa qadimiy mamlakatlarda qayd etilgan. Qadimgi Gretsianing hudудida kohinlarning ayrim faoliyatini bank operatsiyalariga tenglashtirish mumkin. Keyinchalik mablag'lar to'play olgan ayrim feodallar omonatlarni qabul qilish va savdogarlarga qarz berish bilan shug'ullanishgan va amalga oshirilgan operatsiyalarni maxsus savdo kitobiga qayd etib borishgan.

Banklarning paydo bo'lishi qadimgi Rim bilan bog'lanadi. Bu yerga bank faoliyati boshqa udum va an'analar kabi Gretsiyadan kirib kelgan. Ayniqsa Rim Imperiyasi davrida bank faoliyati sezilarli rivojlangan va soliq undirish hamda davlat mulkini boshqarish bilan yaqindan bog'liq bo'lgan.

Ammo banklarning vujudga kelishini birgina Gretsiya va Rim bilan bog'-lab bo'lmaydi. Jumladan, qadimgi qo'lyozmalardan eramizdan avval VIII asrlarda Bobilda foiz ustamasi evaziga qarz beradigan sudxo'rlar tavsiflangan.

Shunday qilib banklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi ikki yarim ming yillik davr oralig'ida hisoblanadi. Banklarning kelib chiqish tarixini o'r ganish asosida olimlar quyidagi fikrga kelishgan «Banklarga doir masalaning mohiyati ko'pchilikka ma'qul bo'ladigan tarixiy sanani aniqlashda emas, balki turli davrlarda bank deb qanday faoliyat nazarda tutilganidadir»<sup>28</sup>.

Qarz oluvchi va qarz beruvchining mavjudligi yoki omonatni qabul qiluvchi shaxsning majburiyatini aks etuvchi qog'ozlarning muomalada bo'lishini bank-ning paydo bo'lishi deb hisoblab bo'lmaydi. Bu banklarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratgan deyish mumkin.

#### **Banklarning iqtisodiyotda tutgan o'rni**

Bank iqtisodiyotdagi bo'sh turgan pullarni jamlaydi va ularni moliyaviy mablag'larga ehtiyoji bo'lganlarga yo'naltiradi. Qarz be-

ruvchi va qarz oluvchining o'rtaida vositachilik qilish banklarning asosiy vazifasi bo'lishi bilan, birga ular ichki va tashqi to'lov tizimining muhim bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Bu bilan pullarni yaratuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Iqtisodiy subyektlar — jismoniy shaxslar, korxona va tashkilotlar hamda davlatlar pul mablag'larini saqlash yoki qarzga olish ehtiyoji dan tashqari ularni boshqa subyektlarga ma'lum tovar va xizmat evaziga to'lov sifatida o'tkazish zaruratiga ega bo'ladi. Masalan, xaridor va sotuvchi o'rtaida olingan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat haqini to'lash, ish be-ruvchi tomonidan xodimlariga maosh berish yoki soliq to'lovchilarni davlatga fuqarolik majburiyatlarini bajarish va boshqalar.

Bu yerda banklar markaziy o'rinni egallab, kichik hajmdagi chakana to'lovlardan tortib, banklar o'rtaida kechadigan katta miqdordagi elektron to'lovlarni qayta ishlaydilar. To'lov tizimi mahalliy, milliy va xalqaro banklarning murakkab tarmog'i bo'lib, davlatning markaziy banklar va kliring mexanizmlari (bank-larning o'zaro qarzlarini hisobga oluvchi tuzilmalar)

28 Деньги, кредит, банки: Учебник / Под ред. О. А. Лаврушина. М.: Финансы и статистика, 1998. С. 281.

orqali birlashtiriladi. Ko‘p hollarda to‘lovlar deyarli bir zumda qayta ishlaniadi. To‘lov tizimi kredit va debet kartochkalarini ham o‘z ichiga oladi.

Mukammal ishlaydigan to‘lov tizimi iqtisodiyotni samarali ishlashining zaruriy sharti hisoblanib, to‘lov tizimida ro‘y beradigan buzilishlar savdo va boshqa iqtisodiy munosabatlarning izdan chiqishi, pirovardida iqtisodiyotning zaiflashuviga ta’sir etadi.

Banklar pullarni chiqarmasdan ularni yaratish xususiyatiga ega. Bu jarayon banklarni kreditlash amaliyoti orqali ta’milanadi. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda 1000 so‘m bo‘lsin. Tabiiyki bu pullar banklar tomonidan muomalaqa chiqariladi va banklar tomonidan qabul qilinadi. Demakki bu pullar ham qaysidir bank-ka kelib tushadi va ushbu bank uni kreditga beradi. Natijada iqtisodiyotda endi 2000 so‘m paydo bo‘ldi. Berilgan kreditning ma’lum maqsadda ishlatilishi natijasida pullar boshqa bankga kelib tushadi va navbatdagi kredit uchun resurs bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayon **multiplikator ta’siri** deb nomlanib, uning cheksiz kechishi iqtisodiyot uchun dastlab chiqarilgan pul miqdoridan ko‘ra behisob pullarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur jarayonni jilovlash va banklarni pul yaratuvchanligini tartibga solish maqsadida yuqori pog‘onadagi banklar (Markaziy banklar) tomonidan pullarni zaxiralash tartibi qo‘llaniladi. Ushbu tartib banklarda jalb etilgan mablag‘larning ma’lum qismini Markaziy banklarda zaxira sifatida saqlashni talab etadi va barcha banklar uchun majburiy hisoblanadi. Ammo ushbu zaxiralar endi Markaziy banklarga resurs bo‘lib xizmat qiladi va ularni boshqa banklarga kredit sifatida berilishi pullarni yana iqtisodiyotga kelib tushishini ta’minlaydi.

**Diqqat!!! Tijorat banklari iqtisodiyotdagи vaqtincha bo‘sh turgan pullarni jamlaydi va ularni moliyaviy mablag‘larga ehtiyoji bo‘lganlarga kredit berish orqali ehtiyojini qondiradi.**

## 6.2. Bank tizimi va uning tarkibi

### Bank tizimining tarkibi

Bank tizimi tushunchasi iqtisodiy tizimni o‘rganishda muhim bo‘lib, bir bankni yakka holda ishlay olmasligi va banklarni o‘zaro ishslash zarurati bilan belgilanadi. Bank tizimining yaxlitligi banklarni to‘lovlarda vositachilik qilish va hi-

### Bank tizimi tushunchasi iqtisodiy tizimni o‘rganishda muhim bo‘lib, bir bankni yakka

sob kassa xizmatlarini ko'rsatishda yaqqol ko'rindi. Bunda banklar mijozning to'lovni o'tkazish topshirig'ini ijro etishi uchun:

- Markaziy bank to'lov tarmog'iga ulanishi;
- o'zaro hamkorlik shartnomasi asosida vakil-banklar bilan birlashishi;
- ma'lum hisob va to'lovlarni amalga oshirish vakolati bo'lgan banklar bilan hamkorlik qilishi;
- nobank kredit tashkiloti bo'lgan kliring markazlari a'zosi bo'lishi lozim.

Bank tizimi mazmuni va mohiyati uning xususiyatlarda aks etadi:

- ko'p pog'onali bo'lishi;
- yaxlit tizimni ifodalovchi munosabatlarning mavjudligi;
- uning elementlari, o'zaro munosabatlari va aloqalarining tartiblashgani;
- tizimning o'ziga xosligini ifodalovchi iqtisodiy muhitga ta'sirchanligi;
- boshqaruv jarayonining mavjudligi.

Zamonaviy bank tizimi iyerarxiyasi ikki va uch pog'onali kredit tashkilotlaridan iborat bo'ladi. Tizimning bosh bo'g'inda Markaziy banklar va ularga teng-lashtirilgan davlatning vakolati organlari, keyingi bo'g'inalrida banklar, nobank kredit muassasalari va assotsiatsiya, ixtisoslashgan uyushmalar kiradi.

O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'onadan iborat bo'lib, ularning faliyati tegishli qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Ikki pog'onali bank tizimida banklar — emission bank (Markaziy bank) va emission bo'limgan (tijorat banklari, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlar, lombardlar) banklardan tashkil topadi.

Bank tizimining yaxlitligi tadbirdorlik faoliyatining ayrim turlari faqat bank va kredit muassasalariga ruxsat berilganligi bilan asoslanadi. Ushbu faoliyat turlariga:

- omonatlarni jalb etish;
- kredit berish;
- mijoz hisob raqamlarini yuritish va uning topshirig'i bilan to'lovni amalga oshirish;
- kapital qo'yilmalarni mijoz topshirig'iga va o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;
- to'lov hujjatlarini chiqarish;
- xorijiy valutalarni ayirboshlash;
- trast operatsiyalarini amalga oshirish;
- davlat budgetining kassa ijrosini amalga oshirish.

Qonun hujjatlari ushbu operatsiyalarni amalga oshirishni faqat banklarga nisbatan belgilashi va boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirishini taqiqlashi ushbu faoliyatni amalga oshirishda banklarni o'zaro birdamligi va o'rnatilgan munosabatlarning yaxlit bo'lishini ta'minlaydi.

Bank tizimi elementlari, o'zaro munosabatlari va aloqalarining tartiblashgani uni quyi tizimlarning yaxlit tizim xususiyatlarini hisobga olgan holda amal qilishida aks etadi. Masalan, yaxlit holda O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari va boshqa nobank kredit muassasalarini tartibga solsa, viloyat darajasidagi quyi tizimlarda Markaziy bankning hududiy boshqarmalari ushbu hududda ro'yxatga olingan banklar va banklarning filiallarini tartibga solib boradi.

Quyi tizimlar turli xususiyatlari bilan bir necha ko'rinishlarda aks etishi mumkin, jumladan:

- bankning tashkiliy-huquqiy shakli (davlat, aksiyadorlik, xususiy va boshqalar);
- bank tomonidan alohida bank operatsiyalarini amalga oshirilishi (investitsion faoliyat, eksport-import operatsiyalari va hokazolar);
- bank ixtisoslashgan tarmoq yoki sohalar;
- bank mezoni (yirik, o'rtta va kichik);
- bankning ijtimoiy-iqtisodiy roli (Xalq banki, Qishloq taraqqiyot banki, Agrobank, Mikrokreditbank);
- banklarning reyting va boshqa sh. k..

Bank tizimi iqtisodiy-ijtimoiy muhitga mos ravishda rivojlanadi va o'zgarib boradi. Iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bank tizimida ham o'z aksini topadi. Jumladan:

- O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrida tarmoqlarning rivojanishi banklarning universallashuviga zamin yaratib berdi;
- mamlakatdagi xususiylashtirish jarayonlari bilan uyg'unlikda turli xildagi mulkchilik shakliga asoslangan banklar vujudga keldi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi vakolatli banklar sonini ortishiga ta'sir etdi;
- moliyaviy inqiroz sharoitida real sektor korxonalarini sog'lomlashtirishda banklarning roli noan'anaviy tarzda kuchaytirildi.

Bank faoliyati bir tomondan, qonun hujjatlari belgilanganidek, Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi, ikkinchi tomonidan, kredit muassasalari ishtirokida tashkil etilgan assotsiatsiyalar orqali boshqa-

rib turiladi. Bu esa bank tizimini yaxlit shaklda amal qilishini belgilab beradi.

### **6.3. Markaziy bank va uning pul muomalasini tartibga solish siyosati**

Mamlakat bank tizimining asosiy bo'g'ini Markaziy bank hisoblanadi. Markaziy bank bevosita mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatmaydi, ayrim davlat tashkilotlari bundan mustasno. Barcha mamlakatlarda Markaziy banklarning bajaradigan vazifalari va funksiyalari deyarli bir xil bo'lib, ular turli mamlakatlarda turli nomda yuritilishi mumkin. Xususan, hozirgi kunda, bizga ma'lumki, dunyoning turli mamlakatlarida ushbu banklar «markaziy bank», «xalq banki», «emission banki», «milliy banki», «zaxira banki», «davlat banki» tarzida yuritiladi.

#### **Markaziy bankning faoliyati**

Masalan, AQSHda Federal zaxira tizimi, Buxuk Britaniyada Angliya banki, Yevropada Yevropa Markaziy banki, O'zbekistonda Markaziy bank, Qozog'istonda Milliy bank va hokazo. Markaziy banklarning vujudga kelish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turuvchi moliyaviy muassasa sifatida vujudga keldi.

Dastlab barcha banklar mustaqil ravishda qog'oz pullarni emissiya qilgan va ular hozirgi nom bilan banknotalar deb nomlangan. Albatta, bu ma'lum davr davomida mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va muomala jarayonini tashkil etishda o'zining ijobiylasini berib kelgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qog'oz pullarning hajmi va turi juda ko'payib borgan. Bu o'z navbatida pullarning qadrsizlanishini, ayrim hollarda tijorat banklarning bankrot holatiga tushib qolishi iqtisodiyotda pul muomalasini buzilishiga va boshqa qator salbiy holatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Masalan, AQSHda 1836 va 1860-yillarda 2500 dan ortiq banklari tashkil etilib, ularning 100 dan ortiq'i birinchi o'n yil ichida yopilib ketgan. Shu davrda banklar mustaqil ravishda muomalaga pul chiqarish huquqiga ega bo'lib, muomalada ularning 5500 dan ortiq turli pul belgilaringan amal qil.

Bularning barchasi mamlakatda pul emissiyasini markazlashgan holda amalga oshirish va pul muomalasini tartibga solish zaruriyatini keltirib

chiqardi. Shunday qilib tijorat banklari bazasida Markaziy banklar vujudga kela boshladи. Bu esa davlatga pul emissiyasini markazlashgan holda amalga oshirish va pul muomalasini tartibga solish imkonini berdi.

Dastlabki Markaziy bank 1650-yilda Shvetsiyaning Stokgolm shahrida tashkil etilganligi qayd qilingan. Ushbu bank oltin tangalar asosida banknotalarni muomalaga chiqargan. Mazkur banknotalar mamlakat hududida to'lov vositasini bajargan. Ushbu banknotalarni bankga olib kelgan shaxsga ko'rsatilgan hajm-dagi oltinga almashtirib berish tartibi joriy etilgan.

Keyinchalik Angliyada 1694-yilda emission bank tashkil etilgan. Ushbu bank muomalaga pullarni emissiya qilish va banklar tomonidan chiqarilgan tijorat vekselarini ro'yxatga olish bilan shug'ullangan.<sup>29</sup>

Markaziy banklar davlat kapitali asosida tashkil topgan markaziy banklar (Buyuk Britaniya, Yevropa ittifoqi, Rossiya), aksiyadorlik shaklida gi markaziy banklar (AQSH, Italiya), aralash kapital ishtirokida markaziy banklar (Yaponiya, Belgiya) ko'rinishida vujudga kelgan.

Ayrim markaziy banklar dastlab aksiyadorlik shaklida tashkil etilib, keyinchalik davlat tomonidan milliylashtirilgan. Ta'kidlash joizki, markaziy banklar qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qat'i nazar, ular o'z vazifalarini davlat bilan o'zaro kelishuv va uning siyosatiga hamohang tarzda olib boradi. Ayniqsa, ularning o'zaro yaqinligi dunyo iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichida juda chuqurlashdi.

**Markaziy bankning asosiy maqsadi  
mamlakat milliy valyutasining barqa-  
rorigini ta'minlashdan iborat**

qil bo'lishi muhim hisoblanadi. Agar davlat Markaziy banklarning pul-kredit siyosatiga bevosita aralashsa, ularga pul-kredit siyosatini amalga oshirish bo'yicha zarur darajadagi mustaqillikni bermasa mamlakat milliy valutasi va pul muomalasi barqarorligini ta'minlashda qator muammo-  
lar vujudga keladi. Shu jihatdan, Markaziy banklar iqtisodiy va huquqiy  
jihatdan mustaqil hisoblanadi, ularning davlatga bog'liqligi yoki mustaqil-  
ligi turli mamlakatlarda turlichadir. Odatda mamlakat parlamentiga hiso-  
bot beruvchi Markaziy banklar ko'proq mustaqil hisoblanadi (AQSH,  
Rossiya, O'zbekiston), mamlakat Moliya vazirligiga hisobot beruvchi Mar-

**Markaziy bank davlat bilan juda  
yaqin aloqada faoliyat yuritsa-da,  
mamlakatda pul-kredit siyosatini  
amalga oshirishda davlatdan musta-**

29 Деньги, кредит, банки: учебник. /кол. авт.: под ред. засл. деят. науки РФ, д. э. н. проф. О. И. Лаврушина. 5-е изд., стер. М.: КНОРУС, 2007. С. 403.

kaziy banklar mustaqilligi nisbatan pastroq hisoblanadi, dunyoda bunday banklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda u yoki bu darajada davlatdan mustaqil bo'lgani bilan o'zining pul-kredit siyosati orqali hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini qo'llab-quvvatlashga bevosita va bilvosita mas'ul hisoblanadi. Shunday ekan, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati hukumatning makroiqtisodiy darajadagi siyosatini amalga oshirish nuqtai nazardan ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim bo'ladi.

Markaziy banklarning paydo bo'lishi zamonaviy pullarning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq. Dastlab an'anaviy bank shaklida amal qilgan hozirgi Markaziy banklar qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni omonatga qabul qilish asosida istalgan vaqtida belgilangan metall miqdoriga almashtirish majburiyati aks ettirilgan banknotalarini chiqarishdan shakllanib kelishgan. Ushbu faoliyat Markaziy bankning pul emissiyasi deb nomlanadi va iqtisodiyotni zarur bo'lgan pul miqdori bilan ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy subyektlar o'rtaida pul orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar pul muomalasi deyiladi. Pul muomalasi naqd pullar va naqdsiz shakl-dagi pullar muomalasidan iborat bo'ladi.

Pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan pulning harakati ikkita pul oqimlaridan iborat, bular:

- Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga naqd pullarni yetkazib berish va tijorat banklaridan ortiqcha va muomalaga yaroqsiz naqd pullarni qabul qilish bilan bog'liq pul oqimi;
- tijorat banklari tomonidan mijozlarni naqd pulga bo'lgan talabini qondirish uchun naqd pul berish va naqd pul tushumiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarning naqd pul tushumlarini qabul qilish (inkassatsiya) bilan bog'liq pul oqimi.

Ma'lumki, naqd pullar kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlar uchun to'lovlarda qo'llaniladi.

Demak, naqd puľga bo'lgan talab umumiy pul massasiga bo'lgan talabning bir qismidir. Pul massasi — muomaladagi naqd pullar va naqd pulsiz aylanmadagi pullarning yig'indisidir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning pul aylanmasida faqat banknota va tanga ko'rinishda emas, balki kredit, chek va elektronoyozuvlar ko'rinishida ishtirok etayapti. Shuning uchun iqtisodchilar ushbu pullar ni pul massasi deb yuritishadi. Pul massasi mamlakatda muhim iqtisodiy

ko'rsatkich bo'lib, uning hajmi ijtimoiy mahsulotning hajmi bilan muvozanatda (pulning aylanish tezligini inobatga olgan holda) bo'lishi zarur.

Davlat tomonidan pul muomalasini amalga oshirish tartibini belgilashda mamlakat tarixi, siyosiy holati, milliy an'analarini hamda uning iqtisodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

## 6.4. Pul tizimining mazmuni va milliy xususiyatlari

### Pul tizimi

**Pul tizimi** — bu mamlakatda pul muomalasini tashkil etish va tartibga solish shakli hisoblanadi.

Pul tizimi quydagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Pul tizimini tashkil etish tamoyillari.** Pul tizimini tashkil etishda davlat tomonidan pul tizimini tashkil etishning tartib va qoidalari nazarida tutiladi. Bozor iqtisodiyotida muomalaga pul belgilarini emissiya qilish tartibi va bank tizimining tarkibi o'xhash bo'lsada har bir mamlakatda pul muomalasini tartibga solish va moliya siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos tamoyillari mavjud.

2. **Pul birligi.** Pul birligi va uning nomi hukumatning tegishli qonun va me'yoriy hujjatlari asosida belgilanadi. Qonun va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida belgilab qo'yilgan pul mamlakatda yagona to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Pul birligining nomi barcha mamlakatlarda turlicha nomda yuritiladi. Masalan, AQSHda dollar, Buyuk Britaniyada funt sterling, Xitoyda yuan va boshqalar.

3. **Baho mashtabi.** Bu tovar va xizmatlar qiymatining pul birligida aks ettirish vositasi hisoblanadi. Muomalada oltin va kumush tangalar pul vazifasini bajargan vaqtida baho mashtabi, ya'ni pul birligining bahosi, bevosita oltin va kumush tangalar orqali aniqlangan.

4. **Pul shakllari.** Hozirgi paytda hech qanday mamlakatda metall pul tizimi amal qilmaydi. Pulning asosiy turlari sifatida kredit biletleri (banknota), shuningdek, davlatning xazina biletleri va tangalar to'lov vositasi ni bajaradi.

5. **Pul birliklarini emissiya qilish tartibi va ularning ta'minlanganligi.** Har bir mamlakat o'z pul birligini emissiya qilish tartibi va qoidalari mustaqil ravishda amalga oshiradi. Mamlakatda pul birligini emissiya qilish, muomalaga pullarni chiqarish va muomaladan qaytarib olish tartibini Markaziy bank amalga oshiradi. Muomaladagi pul birlikla-

ri Markaziy bankning barcha aktivlari va mamlakatdagi moddiy tovarlar qimmatliklari bilan ta'minlanadi.

**6. Pul muomalasini tartibga solishning usullari.** Ushbu usullardan Markaziy bank uning zimmasiga yuklatilgan bosh maqsad — pul birligi barqarorligini ta'minlashda foydalilanadi. Ularga majburiy zaxiralash, qayta moliyalash siyosati, ochiq bozordagi operatsiyalari, almashuv kursini boshqarish kiradi.

**7. Pul aylanmasi tarkibi.** Pul aylanmasi tarkibiga naqd pulli va naqd pulsiz hisob-kitoblar kiradi. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan pul aylanmasining asosiy qismini naqd pulsiz hisob-kitob tashkil etadi.

O'zbekistonda pul tizimining tashkil topishi milliy valuta so'mning muomalaga joriy etilishi bilan belgilanadi. So'mning muomalaga joriy etilishini shartli ravishda uchta bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich — 1991-yil sentabrdan 1993-yil noyabr oyigacha. Ushbu davrda O'zbekiston pul tizimi Rossiya pul tizimiga bevosita bog'liq edi. Hisob-kitoblar Sobiq Ittifoq va Rossiya rubli orqali amalga oshirilgan. 1992-yildan Sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalar ketma-ket ravishda o'z milliy valutasini joriy qilishdi. Qiymati toboro yo'qolib borayotgan rublning mamlakatga kirib kelishidan himoyalanish maqsadida aholini tovar sotib olishi va depozit operatsiyalari bo'yicha pasport va ko'pon tizimi joriy etildi.

#### **Milliy valyuta va uning joriy etilishi**

Ikkinci bosqich — 1993-yil noyabrdan 1994-yil iyungacha. Ushbu davrda, ya'ni 1993-yil 15-noyabrdan muomalaga oraliq «so'm-ko'pon»lar kiritildi. Shu tarzda, 1993-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi uch turdag'i pul birligi muomalada bo'ldi: so'm-kuponlar, Ittifoq SSSR Davlat bankining qiymati 100 rublgacha bo'lgan kupyuralari va Rossiya Davlat bankining 1993-yil namunasidagi kupyuralari. 1994-yil 15-apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida Rossiya banki banknotlarining muomalada bo'lishi hamda yuridik va jismoni shaxslar tomonidan turli to'lov larga qabul qilinishi taqiqlab qo'yildi.

Uchinchi bosqich — 1994-iyuldan to hozirgi qadar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122 moddasi va «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi qonunning 11 moddasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 3-sentabrdagi 952 XI sonli qaroriga muvofiq 1994-yil 1 iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi bo'lgan milliy valuta «So'm» muomalaga kiritildi.

Banklar tomonidan 1994-yil 1 iyul holatiga ko'ra, barcha hisob-kitoblar, shuningdek, mol-mulk va boshqalarning bahosi 1000 so'm-kupon = 1 so'm darajasida qayta hisoblandi. 1994-yil iyul oyi davomida respublika hududida milliy valuta «so'm» va «so'm-kupon»lar parallel ravishda muomalada bo'ldi. Aholiga pulli to'lovlar sifatida banklardan yangi pul belgilarini berish hamda so'm-kuponlarni bir oy mobaynida chakana savdo, xizmat ko'rsatish sohasi orqali va omonatlarga jalb etib muomaladan chiqarildi.

Shu tarzda mamlakatimiz pul tizimining asosi bo'lib hisoblanadigan milliy valuta barcha hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha yagona to'lov vositasi sifatida amal qila boshladi. Bu o'z navbatida, Markaziy bank va tijorat banklariga pul tizimini nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy jihatdan ham to'liq mustaqil boshqarish imkoniyatini vujudga keltirdi.

Mamlakatda pul muomalasini tartibga soluvchi organ bo'lib Markaziy bank hisoblanadi. Markaziy bank pul muomalasini tashkil etish orqali davlatning iqtisodiyotini tartibga solish manfaatlarini ko'zlaydi.

**Diqqat!!! 1994-yil iyul oyidan boshlab respublikamizda milliy valuta «so'm» joriy etildi.**

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar ichida eng muhimlaridan biri uning monetar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi.

Markaziy bank pul muomalasini quyidagi usullar orqali tartibga so-lib turadi:

- qayta moliyalashtirish stavkasini belgilash;
- majburiy zaxiralash tartibini belgilash;
- ochiq bozordagi operatsiyalarni amalga oshirish;
- almashuv kursini boshqarish.

#### **Qayta moliyalashtirish stavkasi**

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasini belgilash orqali mamlakatdagi foiz stavkalar darajasiga ta'sir etadi. Qayta moliyalashtirish deganda, jamlangan pullarni iqtisodiyotga qayta taqsimlash tushuniladi. Masalan, Markaziy bank tizimidagi ortiqcha pullarni jamlaydi va pul mablag'lariga zarurat yuzaga kelganida banklarni qayta kreditlaydi. Bunda Markaziy bank tomonidan jalb etiladigan mablag'lar hamda banklar-qa beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilaydi. Markaziy bank

banklarning banki sifatida «so‘nggi instansiyadagi kreditor» bo‘lgani uchun iqtisodiyotdagи eng arzon pullarni kredit siyosatida taklif etuvchi monopol muassasa hisoblanadi. Bu o‘z navbatida kredit bozorida hech bir foiz stavka Markaziy bank foiz stavkasidan past bo‘lmasligini asoslaydi.

Markaziy bank foiz stavkalari mamlakat pul bozoridagi asosiy stavka hisoblangani uchun, uning o‘zgartirilishi resurs jalb qiluvchi va joylashtiruvchi kredit muassasalarining foiz stavkalarini o‘zgarishiga ta’sir etadi. Markaziy bank tijorat banklariga arzon moliyaviy resurslarini berishi orqali iqtisodiyotda pul massasi va tovarlar hajmi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Markaziy bank qayta moliyalashtirish siyosati orqali mamlakatdagi pul resurslari bozoridagi foiz stavkasiga ta’sir etib, milliy valutaning barqarorligini mustahkamlaydi. Chunki qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi iqtisodiyotda pul massasining ortishiga, aksincha uning oshirilishi esa tijorat banklarining pul resurslariga bo‘lgan talabini kamayishi natijasida iqtisodiyotda pul massasining pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali faqat pul bozoriga emas, balki mamlakat fond bozoriga ham ta’sir o‘tkazadi. Qayta moliyalash stavkasining ortishi pul bozoridagi depozit mablag‘larning foizini va bank krediti foizining oshishiga olib keladi. Pul bozorida depozit mablag‘larning va bank krediti foizining ortishi o‘z navbatida fond bozorida qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talabning pasayishiga va ularning taklifini ortishiga olib keladi. Chunki pul bozorida depozit mablag‘larga to‘lanadigan foizlar miqdorining ortishi pul bozori ishtirokchilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishga bo‘lgan manfaatdorligini oshiradi.

### *Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati tarixidan*

*Markaziy bank mustaqillikning dastlabki yillarda o‘zining qayta moliyalash stavkasidan inflyatsiyaga qarshi kurashda asosiy qurollardan biri sifatida foydalandi. Milliy valuta muomalaga kiritilgan vaqtida qayta moliyalash stavkasi yiliga 150 foizni tashkil etar edi. Ammo milliy valutani muomalaga kiritilgungacha bo‘lgan davrda inflyatsiyaning inersiya kuchi shu darajada katta ediki, tezda qayta moliyalash stavkasining bu darajada yetarli emasligi ma’lum bo‘lib qoldi. Inflyatsiyani kamaytirish borasida yanada qat‘iroq siyosat yuritish maqsadida Markaziy bank 1994-yil oktabr oyidan boshlab qayta moliyalash stavkasini 150 foizdan 225 foizgacha ko’tardi. 1995-yil fevral oyida 250 foizgacha oshirilgan bo‘lsa, mart oyidan boshlab 300 foiz etib belgilandi\*.*

*Inflyatsiya darajasining anchagini kamaytirilishi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini ham asta-sekin tushirib borishi uchun zamin yaratdi. 1996-yilda qayta moliyalash stavkasi 50 foizni tashkil etgan bo'lib, keyinchalik pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2003-yil 16-iyulda 24%, 2003-yil 10-sentabrda 20%, 2004-yil 5-iyulda 18%, 2004-yilda 12-yanvarda 16%, 2006-yil 15-iyulda 14%, 2011-yil 1-yanvarda 12% belgilandi\*\*.*

\* Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Ф. Муллажонов таҳрири остида. Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2001. 59–60 бетлар.

Markaziy bankning pul muomalasini tartibga solishning asosiy usul-laridan biri bo'lib, tijorat banklariga nisbatan qo'llaydigan majburiy zaxiralash tartibi hisoblanadi. Bunda Markaziy bank tijorat banklaridan ularda jalb etilgan mablag'lardan shakllantirilgan depozitlardan belgilangan miqdorini Markaziy bankning maxsus fondiga (majburiy zaxiralash fondi) o'tkazish talab etildi.

Markaziy bank ushbu siyosati orqali quyidagilarga erishishni ko'zda tutadi:

Birinchidan, bank resurslarini chegaralashi orqali iqtisodiyotda pul massasini tartibga soladi. Bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar kredit sifatida iqtisodiyotga yo'naltiriladi. Ammo jalb etilgan mablag'larning bir qismi (markaziy bank belgilagan majburiy zaxiralash me'yori) markaziy bankga ko'chirib berilgani sababli mablag'lar to'liq kreditga berilmaslik holati yuzaga keladi va bank-ning kreditlash imkoniyati cheklanadi. Majburiy zaxiralash me'yori qanchalik past bo'lsa, banklarning kreditlash imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi va mamlakatda pul hajmi ortadi.

Ikkinchidan, bank iqtisodiy jihatdan to'lovga layoqatsiz holatiga tushib qolgan paytda, qisman bo'lsada uning mijozlarining manfaatlarining himoya qiladi. Bank aholi omonatlarini jalb etgan muassasa sifatida ularni o'z vaqtida, to'liq va foiz to'lovlari bilan qaytarish majburiyatiga ega bo'ladi. Bank faoliyati birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyati bo'lgani sababli, turli omillar ta'sirida to'lovga layyoqtligilini pasayishi va majburiyatlarni bajara olmaslik holati yuzaga keladi. Bunday sharoitda Markaziy bank majburiy zaxira fondiga ajratilgan pullardan omonatchilarga qaytarib beradi. Omonatchilar manfaati himoyalanish tartibini yanada

mustahkamlash maqsadida mamlakatda omonatlarni kafolatlash bo'yicha maxsus fond ham tashkil etiladi.

Uchinchidan, jamlangan pul mablag'laridan banklarni qayta moliyalashtirishda resurs bazasi sifatida foydalaniladi. Ortiqcha emissiya yaga yo'l qo'ymaslik maqsadida, Markaziy bank tomonidan banklarni kreditlash amaliyoti uchun manba bo'lib majburiy zaxiralash fondidan foydalaniladi.

Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari davlatning obligatsiyalari, xazina veksellari va boshqa qimmatli qog'ozlarini yuridik va jismoniy shaxslarga sotish va sotib olishi bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi. Markaziy bank davlatning va o'zining qimmatli qog'ozlarini sotish orqali iqtisodiyotda pul massasini pasaytiradi. Bu o'z navbatida milliy valutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlash va infliyatsiya darajasining pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank sotilgan qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish orqali muomaladagi pul massasining oshishiga va tijorat banklarining qo'shimcha pul resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga zamin yaratadi. Markaziy bank hozirgi kunda Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini va o'zining obligatsiyalarini muomalaga chiqarish orqali ochiq bozordagi operatsiyalarini amalga oshiradi. Markaziy bank ushbu operatsiya orqali tijorat banklarining likvidliligi va qimmatli qog'ozlarning foiz stavkasiga ta'sir qiladi. Markaziy bank obligatsiyalari va davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish iqtisodiyotda pul massasini kamaytiradi, ularni muomaladan qaytarib sotib olish esa teskari natiyani beradi.

Almashuv kursini boshqarish orqali Markaziy bank tashqi iqtisodiy faliyatga ta'sir etadi. Davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish talab etilsa, Markaziy bank milliy valutani qadrsizlantiradi va xorijiy valuta kursi ko'tariladi. Natijada eksport qiluvchi mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni amalga oshirgandan boshlab, mahsulot sotganidan olin-gan valuta tushumiga ega bo'lganida milliy valuta qadrsizlansa, eksport qiluvchi qo'shimcha ravishda ko'proq miqdorda milliy valutaga ega bo'лади. Davlat tomonidan mamlakatda islohotlarni amalga oshirish uchun jalb etgan investitsiya va kreditlarni kamaytirish bo'yicha to'lovlarni bajarishni yengillashtirish talab etiladigan bo'lsa, aksincha, milliy valuta qadrini xorijiy valutaga nisbatan oshirish va kamroq milliy valutaga, ko'proq xorijiy valuta olishga harakat qilinadi.

## 6.5. Tijorat banklarining turlari va ularning faoliyatini tashkil etish shakllari

### Banklarning turlari

Zamonaviy bank tizimida kredit muassasalarining turli xildagi shakllari amal qilishi bilan birga banklarning o'zları ham turli xilda mavjud bo'ladi. Bu o'z navbatida banklarning mulkiy, huquqiy funksiyalari, tabiatи va boshqa qator mezonlari bo'yicha tavsiflanishiga sabab bo'ldi.

1. Mulkiy jihatdan — davlat banki, aksiyadorlik banki, kooperativ banki, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma banklariga bo'linadi. Banklarni ustav kapitali tarkibida 51 foizdan yuqori ulushga egalik qilish bankning mulkiy tegishlilikini belgilaydi.

Bank kapitalining asosiy ulushi davlatga tegishli bo'lsa, bu davlat banklari deb yuritiladi. Markaziy banklar davlat banklari hisoblanadi. O'zbekistonda davlat banklari bo'lib, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat tijorat Xalq banki, «Asaka» davlat aksiyadorlik-tijorat banki (ochiq aksiyadorlik jamiyati) hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida banklar soni bo'yicha yetakchilik korporativ mulk-chilikka asoslangan banklarga tegishli. Korporativ mulkchilikka asoslangan banklarni o'zi ham ochiq va yopiq turdag'i aksiyadorlik banklariga bo'linadi.

Bankning ochiq yoki yopiq aksiyadorlik jamiyati bo'lishi aksiyalarini erkin sotilishi va sotib olish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Qatnashchilarri o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligidan boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Aksiyalari faqat o'z muassisleri yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida korporativ mulkchilikka asoslangan banklar sifatida «Agrobank» ochiq aksiyadorlik tijorat banki, Ochiq aksiyadorlik-tijorat «Aloqabank», Ochiq aksiyadorlik tijorat «Turon bank» va boshqalarni keltirish mumkin. Shuningdek yopik shakldagi aksiyadorlik kapitali asosida tashkil etilgan «Orient finans» xususiy yopiq aksiyadorlik tijorat bankini keltirish mumkin.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan qo'shma banklar ham bo'lib ularga xorij kapitali ishtirokidagi «Savdogar» ochiq aksiyadorlik tijorat banki, «Royal Bank of Scotland O'zbekiston MB» yopiq

aksiyadorlik jamiyat, Eron «Soderot» Bankining O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahridagi sho'ba banki, «O'T-Bank» O'zbek-Turk yopiq aksiyadorlik jamiyat, «O'zKDB-Bank» yopiq aksiyadorlik jamiyatlari kirdi.

2. Banklar bajaradigan funksiyasi (operatsiyalari) jihatidan — emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg'arma banklar sifatida tasniflanadi.

Emission banklar mamlakat iqtisodiyotiga pullarni emissiya qilish bilan shug'ullanadi va bu vazifani hozirgi paytda Markaziy banklar bajaradi.

Tijorat banklari an'aviy banklar bajarishi mumkin bo'lgan barcha operatsiyalarini bajaradi.

Investitsion banklarning faoliyati bank mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish va investitsion portfeli boshqarishdan iborat bo'ladi.

Ipoteka banklari jamg'arma mablag'lar asosida uy-joy qurish yoki xarid qilish uchun uzoq muddatli kreditlarni berish bilan shug'ullanadi.

Jamg'arma banklari asosan aholi bilan ishlaydi va muddatli hamda jamg'arma omonatlarni qabul qilib, ularni uzoq muddatli kreditlashga ixtisoslashgan moliyaviy muassasalarga kredit yoki investitsiya tarzida ajratadi.

3. Bajaradigan operatsiyalariga ko'ra banklar — universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi.

Universal banklar barcha turdag'i bank operatsiyalarini bajarib, mijozlar ko'lami ham cheklanmagan va barcha tarmoqlardan bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashgan banklar ma'lum bank operatsiyasiga yoki mijozlar tutriga yoki tarmoqqa ixtisoslashgan bo'ladi.

4. Bank faoliyatining ko'lamiga ko'ra, vakolatli banklar ajratiladi. Ushbu banklar xorijiy valuta bilan operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha Markaziy bankning ruxsatiga ega bo'ladilar. 2012-yil dekabr holatiga O'zbekistonda 30-tijorat banklaridan 24 tasi vakolatli bank maqomiga ega.

O'zbekistonda ikki pog'onali bank tiziminining quyi darajasidagi banklarini tashkil etish mustaqillik yillarda sodir bo'ldi. Mustaqillikka erishgunga qadar «bank tiziminida faqatgina bir necha banklar, ya'ni Ittifoq Davlat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Qurilish banki va Davlat mehnat omonat jamg'armalari kassalari mavjud bo'lib, ittifoqdosh respublikalarda ushbu banklarning respublika, viloyat idoralari va tuman bo'limlari faoliyat ko'rsatar edi»<sup>30</sup>.

30 Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Ф. Муллажонов таҳрири остида. Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2001. 73 бет.

O'zbekistonda tashkil etilgan birinchi banklar bo'lib, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki hisoblanadi. Keyingi 1994–1995-yillarda ixtisoslashtirilgan «Asaka» bank (avtomobil sanoatini qo'llab-quvvatlash uchun), «G'allabank» (g'alla yetishtirishni moliyalashtirish uchun), «Paxtabank» (qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun) yakka xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash uchun «Tadbirkor» tijorat banki tashkil etildi<sup>31</sup>.

Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash, ularni nazorat qilish va tugatish Markaziy bank vakolatiga kiradi. Banklarni tashkil etishda va ularga litsenziya berishdagi Markaziy bank tomonidan belgilangan birinchi talab — ularning barqaror faoliyatini ta'minlashga qaratilgan yetarli darajada ustav kapitalini shakl-lantirish hisoblanadi.

Bozor munosabatlarning rivojlanishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi va modernizatsiya jarayonlari ayrim banklar maqomi o'zgartirilishi, boshqalarini qo'shilib yoki umuman faoliyatini to'xtatilishiga ta'sir etgan.

**Diqqat!!!** 2011-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda jami 31 ta tijorat banklari tashkil etilgan bo'lib, ularning 3 tasi davlat banki, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma banklar, 14 tasi xususiy banklar, qolganlari aksiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi.

#### **Bank bo'linmalarining shakllari**

Dastlab faoliyatini bitta binodan boshlagan bank, keyinchali o'z faoliyatini turli shakldagi bo'linmalar — vakolatxona, filial, sho'ba va boshqa shu kabi tuzilmalari orqali kengaytirishi mumkin. Bunda bank xizmatlari mijozlarga asosan filiallari va bosh bank huzuridagi Bosh amaliyotlar bo'limi orqali ko'rsatiladi. Bosh bankning asosiy faoliyati bank bo'linmalarini faoliyatini muvofiqlashtirish, tartibga solishga yo'naltirilgan.

Ushbu bo'linmalar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish ularga murojaat qilishni osonlashtiradi, mijoz va bank o'rtaSIDA talab va majburiyatlarining bajarilmasligi natijasida nizolarning oldi olinadi.

**Bank vakolatxonasi** — bank faoliyatini amalga oshirmaydigan hududiy jihatdan alohida faoliyat olib boradigan tashkiliy tuzilma. Bank vakolatxonalarining vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

31 Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан колсин. Тўплами 2. — Т.: Ўзбекистон, 1996. 16–17 бетлар.

- amalga oshirilayotgan operatsiyalar filial yoki sho'ba tuzilmalarini tashkil etish uchun yetarli bo'limganida moliyaviy xizmatlarda ishtirok etish;
- mijozlarga bosh ofisga bog'lanish orqali tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish;
- joylashgan hudud to'g'risidagi moliyaviy-iqtisodiy axborotlar to'plash (ishni boshlash uchun zarur bo'lgan tartibga solish va bozor shart-sharoitlari).

Xorijiy bank vakolatxonasining muhim vazifasi bo'lib, axborot ta'minlash bilan bog'liq faoliyatni olib borish va qabul qiluvchi mamlakatdagi mahalliy mijozlar bilan tadbirkorlik aloqalarini o'rnatishdan iborat. Ko'p hollarda vakolatxonalar asosida kelgusida to'laqonli bank ofislari tashkil etiladi.

**Bank filiali va sho'ba banklar** — Markaziy bank tomonidan berilgan lit-senziyaga muvofiq bank xizmatlarini ko'rsatadigan bu to'laqonli bank muassasalarini. Filiallar mahalliy mijoyosda xizmat ko'rsatish, shu bilan birga mahalliy mijozlar bilan ishlashda vakillik munosabatlari bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish maqsadida tashkil etiladi. Banklarning filiallari bank tuzilmasida muhim rol o'yaydi va:

- birinchidan, ular pul va bank xizmatlari bozorida kuchli raqobat omili sifatida amal qiladilar. Aynan ushbu omil ta'sirida London va Singapur bozorlarida tubdan o'zgarishlar sodir bo'lgan;
- ikkinchidan, kapital harakatini faollashtiruvchi muhim omili bo'lib hisoblanadi;
- uchinchidan, ular istalgan joydagi mijozni bosh bank bilan amalga oshiradigan operatsiyalarini osonlashtirib beradilar va shu orqali moliya bozorlarini o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi integratsion mexanizmni kasb etadilar.

## 6.6. Bank tizimida nobank kredit muassasalarini va mikrokredit tashkilotlari

### Nobank kredit va mikro-kredit tashkilotlari

Jahon tajribasidan ma'lumki, tadbirkorlik subyektlarining kreditlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun tijorat banklariga muqobil ravishda nobank kredit muassasalarining ham ahamiyati katta bo'ladi.

Shu munosabat bilan respublikamizda tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari orqali moliyaviy ko'mak berish bilan bir qatorda, nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, nobank kredit muassasalarining (mikrokredit tashkilotlari va lombardlar) qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlari natijasida nobank kredit muassasalari tarmog'i kengayib, bank-lar va nobank kredit muassasalarini o'rtasidagi raqobat muhitini kuchayishiga zamin yaratgan.

Mikrokredit tashkilotlari mikromoliyaviy xizmatlar bozorining eng yosh ishtirokchilordan biridir. Ular respublikamizda 2006-yil 20-sentabrda № O'RQ-53 sonli «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunni qabul qilingandan so'ng faoliyat yuritmoqdalar.

#### **Lombard tashkilotlari va ularning vazifalari**

yoki tanazzul yoqasiga kelganda, oxirgi zaxirasini garovga qo'yishga tayyor bo'lganlarga boshqa moliyaviy muassasalarga qaraganda aynan lombardlarga murojaat etishadi. Bu esa lombardlarni moliyaviy mablag'larni samarali boshqara oladigan kredit tashkiloti sifatida gavdalantiradi. Ushbu tashkilotlar kichik miqdordagi pullarni qarzga berishda banklarga jiddiy raqobat tug'diradi. Qarz olishdagi rasmiyatlichkeitning minimalligi, qarzni turli shakkarda olish imkoniyati lombardlarni mikromoliyaviy xizmatlar bozorida asosiy ishtirokchilarga aylantiradi.

Lombardlardan qarz olish uchun qimmatroq bo'lgan buyum hamda shaxsni tasdiqlovchi pasport bo'lishini o'zi kifoya. Shaxsiy buyumlarni garovga qo'yish asosida qarzga olingan pul kelishilgan muddatda to'lab berilsagina, garovga qo'yilgan shaxsiy buyum egasiga qaytarilishi mumkin.

Lombadlarning barchasi bir xil tartibda faoliyat yuritishadi: olib kelin-gan buyumlar baholanadi va unga muvofiq ma'lum miqdordagi pul mablag'i beriladi, Qarzga olingan pullar berilgach, buyum egasiga qaytariladi va hisoblangan foizlar undiriladi.

Lombard xizmatidan foydalanishda boshqa moliyaviy xizmatlar kabibi eng muhimmi lombardni to'g'ri tanlash hisoblanadi. Birinchi navbatda, lombarddan ushbu xizmatlarni ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziyasi ning horligini aniqlash lozim. Shu bilan birga buyumlar saqlanadigan

Odatda aholi o'rtaida lombardlarga qarz olishning eng so'nggi imkoniyati sifatida qaraladi. Pul mablag'lari o'ta zarur sharoitda

sharoit: qo'riqlash, signalizatsiya, maxsus xonaning mavjudligi bilan tanishish zarur.

Har kuni poytaxt va shaharlardagi lombardlarda o'rta hisobda 30 dan 100 tagacha buyum garov sifatida qoldirilib, ularning aksariyatini baho si qimmat bo'lмаган yuvelir mahsulotlar tashkil etadi. Asosan mijozlar bayram oldi kunlarda ko'payadi va bir marta lombard xizmatidan foydalanganlar ularning doimiy mijozlariga aylanishadi.

Lombardlarga asosan qimmatbaho metallardan yasalgan uzuk, sirg'a, xojlar, zanjir va boshqa buyumlar qoldiriladi. Shu bilan birga antikvariat, soatlar, gilamlar, audio, video va boshqa maishiy texnika, kompyuter, mobil telefon, fotoapparatlar va boshqa qoldirilishi mumkin.

Lombardda garov qabul qilingach, agar u qimmatbaho metalldan tayyorlangan bo'lsa, uning probasi tekshiriladi va vazni aniqlanadi, ko'r-satkichlarning nisbati baholar jadvaliga muvofiq hisoblanadi. Bunda topshirilgan buyumning oltin yoki kumushdagi sof metall vazni hisobga olinadi, qimmatbaho toshlar esa hisobga olinmaydi. Buyumning zargarlik naqshlari ham hisobga olinmaydi.

Audio, video va maishiy texnikani baholashda uning markasini mashhurligi, texnik holati, chiqarilgan vaqt, kafolatning mavjudligi va hokazolar hisobga olinadi.

Lombardda garovga berilgan buyumlar doim bozor qiymatidan past darajada baholanadi.

Garovga qo'yilgan buyum faqat uning pasporti mavjudligidagina qabul qilinadi. Lombard mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlanishi ni kafolatlaydi.

Buyumlar 1 kundan 1 yilgacha muddatga qoldirilishi mumkin.

Lombard xodimi tomonidan beriladigan garov chiptasida buyumni qaytarish sanasi ko'rsatilishi lozim. Olingan qarzning muddati tugagach, foizlar to'langanidan so'ng buyum qayta topshirilishi mumkin.

Odatda lombard xizmatlaridan foydalanish uchun olingan qarz mablag'lar bo'yicha kunlik 0,6-dan 1%gacha va har oylik 18-25% gacha bo'lgan foiz to'lovlari belgilanadi. Qarzning vaqtida qaytarilmaganida buyumni qaytarib olish uchun qarzdan foydalanish haqi ikki barobar miqdorida ko'paytiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 3-5% mijozlar lombardlarga topshirilgan buyumlarni qayta olib ketishmaydi. Bunda lombard, garovga qoldirilgan buyumni qarzining muddati o'tgach, mijoz tomonidan qayta sotib olinmasa, uni sotish huquqiga ega.

**Mikrokredit tashkilotlari**

Mikrokredit tashkiloti — mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir.

Kredit muassasalari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish darajasi



Rasmdan ko'rindiki, kichik biznes subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlarni asosan tijorat banklari ko'rsatadi. Chunki, ularni birinchi navbatda kichik biznes subyektlarining to'lovga qobilligi qiziqtiradi. Aholining kam ta'minlangan qatlamiga mikromoliyaviy xizmatlarni asosan mikrokredit tashkilotlari ko'rsatadi. Shu jihatdan olganda, mikrokredit tashkilotlarning faoliyati ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy mazmun kasb etadi. Shuningdek, ushbu rasmdan ko'rindiki, aholining nochor qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar davlat yoki boshqa homiylar tomonidan ajratilgan grant mablag'lari hisobidan ko'rsatiladi.

Mikrokredit tashkilotlari mikrokredit yoki mikroqarz berish, qarz majburiyatini sotish yoki sotib olish (faktoring), mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasи) va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagи mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kredit berish bilan shug'ullanmoqdalar. Mikrokredit tashkilotlari kredit siyosatiga muvofiq o'rtacha yillik 60 foizgacha mikrokreditlar bermoqdalar. Garov, ta'minot sifatida mikrokredit tashkilotlari

tomonidan tilla taqinchoqlar, texnika asbob-uskunalar va boshqa buyumlar qabul qilinmoqda.

Mikrokredit tashkilotlari birinchi marta mamlakatimizda 1998-yilda Birlashgan millatlar tashkilotining rivojlantirish dasturiga muvofiq tashkil etildi. Keyinchalik boshqa moliyaviy qo'llabg'uvvvatlovchi tashkilotlarning yordami evaziga yana bir qancha mikrokredit tashkilotlari tashkil topgan.

«Daulet» va «Barokot» (Gollandiyaning «Mercy Corp» dasturi asosida) birinchilar qatorida tashkil etilgan mikrokredit tashkilotlari bo'lib hisoblanadi. 2006-yilda «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingandan so'ng ular qayta ro'yxatdan o'tkazildi.

**Diqqat!!! 2006-yil 20-sentabrda O'zbekiston Respublikasining №O'RQ-53-sonli «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilingan.**

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Banklar qanday vujudga kelgan va ularning asosiy faoliyati nimadan iborat?
2. «Bank» so'zining iqtisodiy ma'nosi nimadan iborat?
3. Emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg'arma banklar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
4. Pul muomalasi va aylanmasi deganda niman tushunasiz?
5. Naqd pul aylanmasi va naqdsiz pul aylanmalarining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
6. O'zbekiston pul tizimini tashkil topishi qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?
7. Milliy valuta «so'm» muomalaga qachon va qanday tartibda kiritildi?
8. Mikromoliyaviy tashkilotlar nima bilan shug'ullanadi va ularni banklardan farqi nimada?
9. Lombard xizmatlariga zarurat nimadan kelib chiqadi va lombardlarning afzalliklari nimalardan iborat?
10. Lombardlarning kredit operatsiyalarining o'ziga xosligi nimadan iborat?

## TAYANCH ATAMALAR

**Bank vakolatxonasi** — bank faoliyatini amalga oshirmaydigan hududiy jihatdan alohida faoliyat olib boradigan tashkiliy tuzilma.

**Bank krediti** — banklar pulni sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'llarida jamlaydilar va o'z nomlaridan qarzga berib, foiz olish jarayonidir.

**Bank likvidliliqi** — banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

**Bank tizimi** — bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shaklidir.

**Bank filiali va sho'ba banklar** — markaziy bank tomonidan berilgan litsenziyaga muvofiq bank xizmatlarini ko'rsatadigan bu to'laqonli bank muassasalari.

**Bankning aktiv operatsiyalari** — banklarning kelajakda daromad olish maqsadida jamgarilgan kredit mablag'larini kreditlarga va investitsiyalarga joylashtirilishi va boshqa maqsadli operatsiyalaridir.

**Bankning passiv operatsiyalari** — bankning mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalaridir. Banklarning passiv operatsiyalari — banklar kredit va boshqa aktiv amaliyotlarni bajarish uchun zarur resurslarni shakllantirish operatsiyalaridir.

**Valuta kursi** — turli mamlakatlar pul birliklarining o'zaro nisbati orqali aks etgan ularning bahosi.

**Ikki pog'onali bank tizimi** — bank tizimining zamonaviy shakli bo'lib, yuqori pog'onada markaziy bank quyi pog'onada bank va nobank kredit tashkilotlaridan iborat tizim hisoblanadi.

**Libor** — Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida yetakchi erkin almashtirilgan valutalar-AQSH dollari, Germaniya markasi, Yaponiya iyenasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi kabi valutalardagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasidir.

**Majburiy zaxiralash** — tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir.

**Mikrokredit** — yosh oilalarga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun beriladigan pul mablag'lari.

**Monetar siyosat** — pul muomalasini tartibga solish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

**Pul birligi** — nomi hukumatning tegishli qonun va me'yoriy hujjatlari asosida belgilangan to'lov vositasi.

**Pul massasi** — har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladigan naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuidir.

**Pul tizimi** — davlat qonunlari asosida pul muomalasini tashkil qilish shakli hisoblanadi.

**Tijorat banklarining kredit siyosati** — banklarning kredit risklarini kamaytirish va kredit operatsiyalarining daromadligini ko'paytirish maqsadida amalga oshiradigan kompleks tadbirlari majmuasi.

**To'lov balansi** — mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valuta tushumlari va to'lovlarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Aktiv to'lov balansi — to'lov balansida tushumlar summasi to'lovlarning summasidan ortiq bo'ladi.

**Emissiya** — muomalaga pul yoki qimmatli qog'ozlarni chiqarish. Pul emissiyasi-bu muomaladagi pul massasini ortishiga olib keluvchi pullar ni chiqarishdir.

## TEST SAVOLLARI

1. Mikromoliyalash tashkilotlari bank tizimining qanday bo'g'iniga kiradi?
  - a) Birinchi bo'g'iniga;
  - b) Ikkinci bo'g'iniga;
  - v) Uchinchi bo'g'iniga;
  - g) To'rtinchi bo'g'iniga.
2. O'zbekiston qonunchilik hujjatlari asosida mikromoliyalash tashkilotlari tarkibi qanday javobda to'liq keltirilgan?
  - a) Banklar, kredit uyushmalari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.
  - b) Banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.
  - v) Kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.
  - g) Banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.
3. Lombardlar qanday moliya muassasa hisoblanadi?
  - a) Tijorat-moliyaviy muassasa;
  - b) Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tashkilot;
  - v) Vositachi-moliyaviy muassasa hisoblanadi;
  - g) Ixtisoslashgan tijorat tashkiloti.
4. Iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklarning vujudga kelishi:

- a) miloddan ilgarigi III asrga to‘g‘ri kelishi ta‘kidlanadi;
- b) aniq ma‘lumotlar mavjud emas;
- v) Angliya sanoat to‘ntarishidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi;
- g) buyuk inqirozdan keyingi davrga to‘g‘ri keladi.
5. Tarixiy manbalarga ko‘ra, dastlabki banklar qayerda tashkil topgan?
- a) Angliyada;
- b) Rimda;
- v) Gretsiyada;
- g) Stokgolmda.
6. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklar:
- a) karvon saroyda tashkil etilganligi qayd etiladi;
- b) ibodatxonalarda tashkil etilganligi qayd etiladi;
- v) korxonalarda tashkil etilganligi qayd etiladi;
- g) uylarda tashkil etilganligi qayd etiladi.
7. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan banklarning dastlabki ko‘rinishlari qayerda va qachon vujudga kelgan?
- a) Angliyada, XVI asrda.
- b) Rimda, XV asrda.
- v) Gretsiyada, XIX asrda.
- g) Italiyada, XVIII asrda.
8. «Bank» so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
- a) Qadimgi nemischa «banque» va italyancha «banca» so‘zlaridan paydo bo‘lgan bo‘lib, «almashtirish stoli» ma’nosini anglatadi.
- b) Qadimgi fransuzcha «banque» va italiyancha «banca» so‘zlaridan paydo bo‘lgan bo‘lib, «almashtirish stoli» ma’nosini anglatadi.
- v) Qadimgi lotincha «banque» va nemischa «banca» so‘zlaridan paydo bo‘lgan bo‘lib, «almashtirish stoli» ma’nosini anglatadi.
- g) Qadimgi italyancha «banque» va fransuzcha «banca» so‘zlaridan paydo bo‘lgan bo‘lib, «almashtirish stoli» ma’nosini anglatadi.
9. Mulkiy jihatdan banklar tasniflanishi qanday javobda to‘liq va to‘g‘ri keltirilgan?
- a) Davlat banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma bank.
- b) Davlat banki, aksiyadorlik banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma bank.
- v) Davlat banki, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma bank.

- g) Davlat banki, investitsion bank, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma bank.
10. Mamlakatda pul tizimining asosini nima tashkil etadi?
- Markaziy bank.
  - Tijorat banklari.
  - v) Milliy valuta.
  - Kredit muassasalari.
11. Nima uchun O'zbekistonda 1991–1993-yillarda mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirishning imkoniy yo'q edi?
- Bank tizimi rivojlanmagan edi.
  - Muomalada sobiq itifoq va Rossiya rublliari yetishmaganligi sababli.
  - v) Milliy valuta joriy etilmaganligi tufayli.
  - Pul-kredit siyosati ishlab chiqilmagan edi.
12. Muomalaga pullarni emissiya qilish qanday bank zimmasiga yuklatilgan?
- Tijorat bankiga;
  - Moliya Vazirligiga;
  - Xalq bankiga;
  - g) Markaziy bankiga.
13. Muomaladan ortiqcha pullarni qaytarib olishni qanday bank amalga oshiradi?
- Tijorat banki;
  - Moliya Vazirligi;
  - Xalq banki;
  - g) Markaziy bank.
14. Markaziy bankning asosiy maqsadi qanday javobda to'g'ri keltirilgan?
- Tijorat banklariga kredit berish va ularning faoliyatini nazorat qilishdan iborat.
  - Muomalaga pul birliklarini emissiya qilish va ularni muomaladan qaytarib olishdan iborat.
  - v) Milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.
  - Hukumatning oltin — valuta zaxiralalarini saqlaydi.
15. Naqd pullarni muomalada mavjudligiga qanday omillar xizmat qiladi?
- Naqd pulsiz hisob-kitoblar darajasining pastligi omili.
  - b) Aholi o'rtaсиda kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlarning mavjudligi omili.

- v) Banklar va aholi o'rtaida hisob-kitoblarni amalga oshirishda quylaylik omili
- g) Iqtisodiyotda pul massasi hajmining yuqoriligi omili
16. Pul massasi bu:
- a) muomaladagi naqd pullar yig'indisi;
  - b) muomaladagi naqdsiz pullar yig'indisi;
  - v) muomaladagi naqd va naqd pulsiz oborotidagi pullarning yig'indisi;
  - g) muomaladagi tanga pullarning yig'indisi.
17. Vaqtinchalik foydalanimayotgan pullar qanday vazifani bajardi?
- a) To'lov vositasi funksiyasini.
  - b) Muomala vositasi funksiyasini.
  - v) Jamg'arma vositasi funksiyasini.
  - g) Qiymat o'chov funksiyasini.
18. Lombardlar qanday garov ta'minoti asosida kredit beradi?
- a) qimmatbaho buyumlar;
  - b) ko'chmas mulk;
  - v) avtomobil;
  - g) meros.
19. Quyida keltirilgan bankning qanday shaklida bank ta'sischilari bo'lib, bank tomonidan chiqarilgan ulushni anglatuvchi qimmatli qog'ozlarni ushlovchilar hisoblanadi?
- a) aksiyadorlik banklari;
  - b) davlat banklari;
  - v) xorijiy banklar;
  - g) xususiy banklar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 21.12.1995 й. № 154-І.
2. «Банклар ва банк фаолияти тўғрисидаги» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 25.04.1996 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон акциядорлик тижорат саноат-курилиш банкининг капиталлашув даржасини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. 2008 йил 13 август № ПК-944.

4. Каримов И. 2012 йил Ватанимиз тараккиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. — Т.: Халк сўзи. № 14 (5434) 2012 йил 20 январ.
5. Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди. — Т.: Ўзбекистон, 2011. — 48 б.
6. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2010. — 56 б.
7. Каримов И. А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий баркарорлик тўғрисида. — Т. Ўзбекистон, 2005. — 16–27 б.
8. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан колсин. Тўплами 2. — Т.: Ўзбекистон, 1996. 16–17-б.
9. Абдуллаева Ш. З. Пул, кредит ва банклар. — Т.: Иктисад-молия, 2007.
10. Абдуллаева Ш. З. Банк иши. Дарслик. — Т.: Молия, 2005. — 320 б.
11. Абдуллаева Ш. З. Банк рисклари ва кредитлаш. — Т.: Молия, 2002 й. — 304 б.
12. Банковское дело: учебник. / Е. Ф. Жукова, Н. Д. Эриашвили. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. 575 с.
13. Банковское дело: учебник. / Г. Г. Коробова. Москва: Экономист, 2005. 751 с.
14. Волкова З. Н. Банковское дело и финансы: Учеб. пособие по английскому языку. Москва: УРАО, 2000. 104 с.
15. Горяев А., Чумаченко В. Финансовая грамота. Спецпроект Российской экономической школы по личным финансам. Москва, 2009.
16. Деньги, кредит, банки: Учеб. 2-е изд., перераб. и доп. /под ред. В. В. Иванова, Б. И. Соколова. М.: ТК Велби, изд-во Проспект, 2008. С. 410.
17. Жарковская Е. П. Банковское дело: учебник./Е. П. Жарковская. М.: Омега-Л, 2006. — 452 с.
18. Жуков Е. Ф. Общая теория денег и кредита. М.: ЮНИТИ, 1995. 304 с.
19. Захаров В. С., Дробозина Л. А., Красавина Л. Н. и др. Финансово-кредитный словарь. Том I. М.: МиФ. 1984. С. 477.

20. Лаврушин О. И. Банковское дело: учебник. 2-е изд. Перераб. и доп. / О. И. Лаврушина. Москва: КноРус, 2008. 768 с.
21. Лаврушин О. И. Банковское дело: современная система кредитования. 4-е изд., стереотип. М.: КноРус, 2008. 264 с.
22. Муллажонов Ф. М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими. — Т.: Ўзбекистон, 2001.
23. Рашидов О. Ю. ва бошқалар. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. — Т.: ТДИУ, 2007. — 24–49 б.
24. Тоймухamedов И. Р. Банк иши://Ўқув кўлланма. — Т.: ТДИУ, 2009. — 239 б.
25. Хонназаров К. Х. ва бошқалар. Ўзбекистон совет энциклопедияси. Энциклопедик лугат. I-том. — Тошкент, 1988. — 323 б.
26. Rashidov O. Yu., Tojiev R. R. Markaziy bankning monetary siyosati. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDIU, 2010 yil, 192 bet.
27. Tojiyev R. R. Xalqaro valyuta-kredirt munosabatlari. O'quv qo'llanma. Т.: TDIU. 2009. 310 bet.
28. Namozov O. Influence of Money Supply on the Innflation Process in Uzbekistan //Econometric Anlysis Uzbek Economic Trends Joural, Jan–March 2000. p. 38–47.
29. Dornbusch R., Fischer S. «Macroeconomics» International edition, McGraw-Hill, Inc. 1994. 635 p.
30. Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Microeconomics-Principles, Problems, and Policies. 15<sup>th</sup> ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill/Irwin, 2002. 514 б.
31. Szepo G. Financial regulation and multitier Financial intermediation system in Eastern Europe. Introduction journal of Banking and finance, 2000. 410 p.

## PULNING MOHIYATI VA SHAKLLARI. ELEKTRON TO'LOVLAR

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruba, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### Reja:

- 7.1. Pulning kelib chiqishi.
- 7.2. Pulning shakllari.
- 7.3. Elektron to'lovlar, bankomat va terminallardan foydalanish.

### 7.1. Pulning kelib chiqishi

Tarixdan bizga ma'lumki, pul insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlardan biri hisoblanadi. Pul iqtisodiyot fanining eng qiziqarli sohalaridan birini tashkil etadi va insonlarni o'z sehri domiga tortib kelgan.

Tarixiy kategoriya sifatida pul iqtisodiy taraqqiyot mahsuli sanaladi. Pul tovar ayriboshlash bilan birga, ayriboshlashning bir hosilasi sifatida vujudga kelgan edi. Pulning roli ayriboshlash vositasi, funksiyasiga borib taqaladi. Tarixan pul alohi-da turdag'i bir tovar, tovar-ayriboshlash vositasi, tovar-qiymat o'chovi hisoblanadi.

*Pulning roli qadimdan, ishlab chiqarish rivojlanishi davrida olimlar e'tiborini o'ziga jalg etib kelgan. O'sha zamonalarda Rim va o'rta asrlar ularmolari tomonidan yaratilgan pul davlat hokimiyyati mahsuli sanaladi deb hisoblovchi konsepsiya hukmronlik qilar edi.*

Pul vujudga kelishiga sabab bo'lgan jihatlarga quyidagilar kiradi:

- natural xo'jalikdan tovar ishlab chiqarishga o'tilishi;
- xususiy mulk paydo bo'lishi;
- milliy iqtisodiyotni shakllantiruvchi institutsional qurilma asosi sifatida davlatning vujudga kelishi.

Iqtisodchilar pulni ishlab chiqarish kuchlari va tovar munosabatlari rivojlanishi natijasida vujudga kelgan iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqadilar.

Tovar munosabatlari xususiy mulkdan paydo bo'ladi va rivojlanib boradi. Xususiy mulk ibtidoiy jamiyatda vujudga keldi va uning bo'linish sababiga aylanadi. Tovarlarning keragidan ortiqcha bo'lishi jamoat uchun ular ayirboshlanganda xususiy mulk bo'ladi, ayni mahalda jamoat ichida ijtimoiy mulk bo'lib qolaverdi.

Xususiy mulk tufayli dunyoga keluvchi shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar, tovar munosabatlarini rivojlantirish yo'li bilan ana shu munosabatlarning obyekti sifatida tovarga aylanib ketadi. Tovarda ana shu ziddiyatlar xususiy va ijtimoiy mehnat o'rtasida namoyon bo'ladi.

Tovarning qimmati (nafliligi), ya'ni tovar ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xarajat va unda sarflangan ijtimoiy mehnat asos sanaladi.

Ayirboshlash qiymati — bu tovarning muayyan taqsimotlarda boshqa tovarlarga almashinish xususiyatidir. Natural xo'jalikda mahsulot faqat ishlab chiqaruvchining ehtiyojlarini qanoatlantirgan, ya'ni iste'mol qiymatiga ega bo'lgan. Tovarni sotganda tovar ishlab chiqaruvchini eng avvalo, tovarning ayirboshlash qiymati qiziqtiradi.

Tovar qiymatining ana shu ikki jihat qarama-qarshiliklar birligini o'zida ifoda etadi. Har ikkala qiymat bitta tovarga xos ekanligi bilan, qarama-qarshilik esa, bitta va aynan o'sha tovar bitta odam uchun bir vaqtning o'zida ham ayirboshlash, ham iste'mol qiymatiga ega bo'la olmasligi bilan belgilanadi.

Pul mavjud bo'lishini nafaqat sarflangan mehnat miqdoriga qarab, qolaversa, sifatiga qarab mehnatga haq to'lanishi zaruratini keltirib chiqaruvchi mehnatdagi farqlar bilan bog'lash lozim.

Bundan tashqari, pulni mavjud bo'lishi quyidagi zaruriyat va munosabatlardan kelib chiqqan:

- xo'jalik yuritish faoliyati natijalarini nafaqat natural ko'rsatkichlarda, balki qiymat ko'rsatkichlarida hisoblash zarurati tufayli;
- mulkning turli shakllari namoyon bo'lishi bilan.

Iqtisodiy kategoriya sifatida pulning mazmuni pulning iqtisodiyotda bajaradigan funksiyalarida namoyon bo'ladi.

### Pulning funksiyalari

<b>Qiymat o'chovi</b> Tovar bahosi pul bilan hisoblanadi va o'chanadi	<b>Muomala vositasи</b> Tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun pul bilan haq to'lanadi	<b>Jamg'arish vositasи</b> Pul yordamida jamg'armalar shakllantiriladi	<b>To'lov vositasи</b> Kreditga tovar xarid qilishadi, ish haqi va boshqa to'lovlар amalga oshiriladi
--	--	---	--

Pul o'z funksiyalarini faqat insonlar ishtirokida bajara olishi mumkin. Aynan pulning imkoniyatlaridan foydalanilgan holda tovarlar bahosi shakllantiriladi, ulardan jamg'arma sifatida foydalaniladi.

*Pulning qiymat o'lchovi funksiyasi.* Pulning qiymat o'lchovi sifatida funk-siyasining bajarilishi baholar shakllanish bilan tovarlar qiymatini baholashdan iborat bo'ladi. Qiymat sifatida puldan tovarlar va xizmatlar qiymatini solishtirish va o'lhash uchun foydalaniladi. Pulning qiymat o'lchov funksiyasi hisob-kitob vositasi ham deb yuritiladi. Pulning qiymat o'lchov funksiyasi tovar va xizmatlarning qiymatini belgilashda, tovarlarning mavjudligini hamda kredit va qarz-larni hisoblashda qo'llaniladi. Shunga ko'ra puł mavjud bo'lмаган holda yagona hisob tizimi ham amal qilmaydi.

*Pulning muomala vositasi funksiyasi.* Muomala jarayonida puldan sotib olinayotgan tovarning qiymatini to'lash uchun foydalaniladi. Bu funksianing o'ziga xos xususiyati shundaki, tovarning xaridorga berilishi va unga haq to'lanishi bir vaqtda sodir bo'ladi. Ana shu funksiyada naqd pul belgilardan foydalaniladi.

Muomala vositasida pul haq to'lash amalga oshirilishi yo'li bilan tovarlar, xizmatlar, aktivlar, ishlab chiqarish omillarini ayrboshlash jarayonida ishtirok etadi va shu tariqa, tovar muomalasi tovarlar va pullar harakati birligini o'zida ifoda etadi. Pul ayrboshlash vositasi funksiyasini bajarishda ikkita tovar o'rtaсиda joy olmoqda, ya'ni:

«T—P—T».

Bugungi kunda metall pullar, qog'oz pullar va talab qilib olgunga qadar depozitlar, asosan ayrboshlash funksiyasini amalga oshiruvchi pul sifatida foydalanilmoqda. Ammo chek o'z-o'zidan ayrbosh funksiyasini bajara olmaydi. Chunki chek bilan to'lovlarda banklarning majburiyati birlamchi o'rinda turadi.

*Pulning to'lov vositasi funksiyasi.* Tovarlar va pul harakati jarayoni «T—P—T» muayyan sharoitlarda buzilishi mumkin: tovarlar yetkazib beriladi, puldag'i ekvivalent esa keyinroq yetkazib beriladi. Pulning ana shunday harakati to'lov deb ataladi. To'lov vositasi sifatida pulning vazifasi shundaki, bunda pul turli xildagi qarz majburiyatlarini to'liq usish vositasi sanaladi:

$(M-T) - (T-P) - (P-M)$ ,

Bunda: M — Qarzdorlik majburiyatidir.

*Pulning jamg'arish funksiyasi.* Pul kutilmagan noxush holatlar uchun lozim bo'ladigan narsa sifatida saqlanishi mumkin. Bugungi kunda ayrim kishilar avtomobil kabi uzoq muddatga mo'ljallangan iste'mol tovarlarni qimmatli boylik sifatida tutib turibdi. Faqat avtomobilni boylik sifatida qo'lda tutib turishning asosiy sababi, u ko'rsatadigan xizmatga talabning mavjudligidadir. Shunga ko'ra, avtomobilga talab kamayishi bilan uni boylik sifatida saqlab turishi ham kamayadi.

Jamg'arish funksiyasini to'liq qiymatli va naqd pul bajaradi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadi ko'zlanganda, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlarini sotib olish uchun pul mablag'lari zarur. Pul eng likvidli bo'lgani tufayli, boylikni saqlab turishning eng qulay shakli sanaladi. Pul naqd shaklda (alohida fuqarolarda saqlanadi) yoki banklar-dagi hisob raqamlarida jamg'arilishi mumkin. Pul mablag'larni jamg'arish funksiyasini bajarishi kredit munosabatlarni rivojlantirishga zamin yaratadi, kredit munosabatlari yordamida vaqtincha bo'sh turgan mablag'lardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Kredit berish uchun avvalo qarz beradigan mablag' bo'lishi kerak. Bu mablag'lar qayerdan olinadi, manbai nima?, degan savol tug'iladi.

*Birinchidan, korxonalarining vaqtincha bo'sh pul mablag'idir.* Bu mablag'lar kapitalning doiraviy aylanishi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum muddat uning bir qismi bo'sh bo'ladi. Mahsulot sotishdan keladigan pul tushumlari. Bu pul ham xomashyo, materiallar sotib olish, xodimlar mehnatiga haq to'lash, vaqt kelguncha bo'sh turadi. Korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari ham asta jamg'arib borib, belgilangan maqsad bo'yicha ishlatilguncha bo'sh turadi. Korxonalar foydasi davlat budgeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek foydalanguncha bankdagi hisoblarda saqlanadi. Ish haqi ham har 15 kunda berilar ekan, ungacha bu pul yig'ila boradi, hamda ishlatilguncha bo'sh bo'ladi.

*Ikkinchidan, moliya-kredit muassasalarining pul mablag'lari.* Ular-ning daromadlari bilan xarajatlari o'rtaсидаги farq bo'sh pul mablag'larni tashkil etadi. Tijorat banklari va moliya-kredit muassasalarining minimal pul rezervlari ham ssuda fondi manbai bo'ladi.

*Uchinchidan, davlat ixtiyoridagi pul.* Davlatning zaxiradagi pul mablag'lari, markaziy va mahalliy hokimiyatlarning xarajatlari bilan soliq tu-shumlari o'rtaсидаги farq tarzida bo'sh pullar mavjud bo'ladi. Budget tizimi mablag'lari harakati natijasida ma'lum miqdorda bo'sh pullar hosil bo'ladi.

*To'rtinchidan, aholi pul daromadlari va jamg'armalari.* Fuqarolarning iste'molchi sifatida qimmatbaho tovarlar sotib olish, uy qurish, sotib olish, marosimlar o'tkazish uchun jamg'arilgan pullari ishlataligunga qadar bo'sh bo'ladi.

*Beshinchidan, tadbirkorlar, investorlar ixtiyoridagi pullar.*

Ma'lum vaqt mobaynida bo'sh pullar uning egalariga hech qanday daromad keltirmaydilar, shuning uchun oz miqdordagi foiz bilan ham qarz berish foydali bo'lib qoladi. Natijada ana shu bo'sh pullar ssuda kapitaliga aylantiriladi. Bunda banklar muhim rol o'ynaydi. Ular yuqori foiz bilan pulga muhtoj bo'lgan investorlar, tadbirkorlar va boshqalarga o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun qarz beradi.

Jamg'arish va investitsiyalarning umumiyligi va farqlanishi. Jamg'arma — bu mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to'lovlari chegirib tashlangandan keyin qolgan daromadning bir qismi. Jamg'arma iste'mol maqsadida ishlatalmaydigan daromaddir. Jamg'arma funksiyasi daromadlar bilan jamg'arma xarajatlarning uzviy bog'iqliagini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklarida shaxsiy daromadlar miqdorida turli xil soliqlarni to'lagandan so'ng o'z ixtiyoridagi daromad qoladi. Uning hajmi uy xo'jaliklari daromadidan iste'molchilik sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Jamg'arish deb, milliy daromadning bir qismini asosiy va aylanma kapitallarni, ehtiyyot zaxiralarini ko'paytirish uchun sarflanishiga aytildi.

Amalda jamg'arish kapital mablag'lar investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi. «Jamg'arish», «kapital mablag'», «investitsion sarflar» tushunchalari bir xil mazmunga ega emas.

Bir tomonidan, kapital mablag' yoki investitsiyalarning chegaralari jamg'arish fondiga qaraganda kengroq, chunki renovatsiyaga (ya'ni eskirgan obyektlarni batamom almashtirishga) sarflanadigan amortizatsiya fondining bir qismi ham ularning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi tomonidan, «jamg'arish» tushunchasi investitsion sarflar doirasidan chiqib ketadi, chunki u faqat asosiy kapitalning emas, balki aylanma kapitalning, ehtiyyot zaxiralarining kengayishini ham anglatadi.

Investitsiyalar sarflarning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalar darajasi jamiyat milliy daromadi hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish obyektlari qurish, stanok, uskuna va shu kabi uzoq mudatli foydalilaniladigan asosiy kapitallarni sotib olish, ishga tushirish bilan bog'liq sarflarni bildiradi.

Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishda amalga oshiriladi.

Investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar — investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs-investor deyiladi.

## 7.2. Pulning shakllari

O'z rivojlanish yo'lida pul ikki ko'rinishda namoyon bo'lgan: haqiqiy pul va qiymat belgisi. Metall pul eng qadimiy pul turi sanaladi. Metall pullar uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.

Dastavval pul turli metallardan (mis, kumush va hokazo) zarb etilgan, keyinchalik esa barcha mamlakatlar oltin muomalasiga o'tgan. Oltin muomalasi esa to'liq qiymatli yoki haqiqiy pullar bilan ta'minlangan edi. Hozirgi vaqtida barcha mamlakatlar pul tarkibida oltin bo'lishidan voz kechdi va pul belgilariiga o'tildi. Qiymat belgilari mayda tangalarga, qog'oz va kredit pullarga (bank-notalar) bo'linadi.

### Qiymat belgilari (haqiqiy pullarning o'rnnini bosuvchilar)

#### Mayda tanga (tanga pul)

Nominal qiymati uning tarkibidagi metall qiymatidan yuqori bo'ladi

#### Qog'oz pullar

O'z xarajatlarini qoplash uchun davlat tomonidan chiqariladigan pul belgilari. (G'azna biletleri)

#### Kredit pullar

Muomalada to'liq qiymatli pul o'rnnini bosadigan va kredit belgisi sifatida namoyon bo'ladigan pul belgilari (banknotalar)

Qog'oz pullar to'liq qiymatli pullarning vakillari sanaladi. Qog'oz pullar metallga asoslangan muomalala natijasida vujudga keldi va muomalada


esa kumush yoki oltin monetalar o'rnnini bosuvchilar sifatida paydo bo'ldi. Metall puldan qog'oz pulga o'tish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzoq davom etgan tarixiy jarayon hisoblanadi.

Qog'oz pul tizimida Markaziy banklar tomonidan muomalaga chiqarilgan pul birligining oltinga almashtirilish imkoniyati yo'q. Faqat qog'oz pul tizimida pulning oltinga almashtirilish imkoniyatining yo'qligi tufayli pul miqdorining cheksiz ortishi muammosi yuzaga kelmoqda. Ammo agar bir tovar ayriboshlash vositasi sifatida qabul qilinsa, uning miqdorida turli o'zgarishlar qilib bahosini belgilash mumkin. Agar biror kishi avtomobil sotib olmoqchi bo'lsa, uning qo'lidagi pulning 100 foizi oltin bo'lishi yoki 50 foizi kumush, 50 foizi boshqa metall bo'lishining ahamiyati yo'q. Qo'lida pul ushlab turgan kishilarni qiziqtiradigan narsa — bu pulning bir birligi hisobiga kelajakda yuz beradigan o'zgarishdir.

Qog'oz pullar xazina funksiyasini bajarishga yaroqli emas, ularning ortiqchasi o'zi muomaladan chiqib keta olmaydi. Muomalaga tushib qolgan qog'oz pullar muomala kanallariga tiqilib qoladi, ularni to'ldirib yuboradi va qadrsizlanadi. Shunday qilib, beqarorlik va nomo'tadillik qog'oz pullarga xos ularning tabiatidan kelib chiqadigan xususiyatdir.

Haddan tashqari emissiya qilingan qog'oz pullarning infliyatsion qadrsizlanishi eng tipik hodisa sanaladi, ammo boshqa sabablar ham istisno etilmaydi. Qog'oz pullarga xos bo'lgan kamchiliklar kredit pullarini qo'lplash tufayli sezilarli darajada bartaraf etilishi mumkin.

Kredit pullar quyidagi rivojlanish yo'lini bosib o'tgan:



Kredit pullar o'z qiymatiga ega emas, ular tovar ekvivalentida mujas-samlashgan qiymatning ramziy ifodasi sanaladi. Kredit pullar muomalaga vaqtincha, qaytarma, qoida tariqasida, pullik asosida chiqariladi. Ular to'lov vositasi funksiyasini bajaradi. Kredit pullar — pul kapitali shakli bo'lib, o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning chiqarilishi aylanmaning

haqiqiy ehtiyojlariga chambarchas bog'liq bo'ladi, chunki ssuda ta'minot sharti bilan beriladi. Aylanma ehtiyojlari bilan aloqalar va bog'liqlik izdan chiqqanda, kredit pullar o'z afzalliklarini yo'qotadi va qog'oz pul belgilariga aylanib qoladi. Kredit pullarning birlamchi shakli veksel hisoblanadi.

Pul operatsiyalarida ixtisoslashtirilgan tashkilotlar: banklar, hisob-kitob, kassa markazlari va boshqa vositachilarning ishtirok etishi naqdsiz pul aylanmasi mavjud bo'lishini taqozo etadi.

**Naqd pulsiz aylanma — bu kredit muassasalari hisob raqamlari bo'yicha, o'zaro talablar hisobiga pul mablag'larini hisoblab o'tkazish vositasida naqd pullar ishtirokisiz qiymatning harakatlanshidir.**

Hisob-kitoblarning mavjud bo'lib turgan shakllari tarkibida hisob-kitoblarning naqdsiz shakli eng katta solishtirma nisbatga ega. Hisob-kitoblar mazkur shakli ulushining ortishi barcha hisob-kitoblarning umumiy yakunida mamlakatdagi tovar munosabatlari darajasini ifoda etadi.

Naqd pulsiz aylanma O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan shakllarda amalga oshiriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy ahamiyati mablag'lar aylanmasi va to'lovlar amalga oshirilishini jadallashtirish, muomala uchun zarur bo'lgan naqd pullar hajmini qisqartirish, muomala xarajatlarini kamaytirishda mujassamlashgan.

O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2002-yilda 15-yanvarda tasdiqlangan 1122-sonli Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi banklari naqd pulsiz hisob-kitoblarni quyidagi shakllarda tashkil etadilar va amalga oshiradilar:

- 1) to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
- 2) to'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar;
- 3) akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar;
- 4) inkasso bo'yicha hisob-kitoblar;
- 5) memorial orderlar bilan hisob-kitoblar;
- 6) plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar;
- 7) cheklar bilan hisob-kitoblar.

Tijorat banklari amaldagi qonunchilikka muvofiq, «Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ko'rashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq mijozlarning hisob varag'lari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki ularni bajarishni rad etishga haqlidir.

O'zaro naqd pulsiz hisob-kitoblar jarayonida mablag'lar to'lovchining hisob varag'idan o'chirilgandan so'ng, oluvchining hisob varag'iga o'tkaziladi. Mijozlarning hisob varag'ida pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun yetarli bo'limgan taqdirda, pul mablag'larini hisob varag'lardan chiqarish «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisob varag'laridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida»gi 615-sonli tartibiga muvofiq, belgilangan navbat tartibida amalga oshiriladi.

Mijozning topshirig'iga ko'ra, mablag'lar oluvchining talab qilib olin-guncha depozit hisob varag'idan o'tmagan holda, mablag'lar oluvchining bu haqida roziligi bo'lishidan qat'i nazar, to'lovlarni uchinchi shaxsga o'tkazishni amalga oshirishga ruxsat etilmaydi.

### **7.3. Elektron to'lovlar, bankomat va terminallardan foydalanish.**

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishi bilan bank tizimida bir qator o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Ikki pog'onali bank tizimi paydo bo'ldi. Tijorat banklarining shaxobchalari kengaytirildi. Bundan tashqari turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi banklar o'rtasidagi munosabatlarning ko'payishiga olib keldi. Shu munosabatlar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida tezkorlik bilan amalga oshirish uchun, yangi avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish zarurati tug'ilди.

Ilgari pochta, yoki telegraf orqali to'lov hujjatlari bir bankdan ikkinchi bankga jo'natilganda to'lovlar bir necha kunga, hatto 15–20 kuniga cho'zilib ketar edi. Bundan tashqari, noqonuniy avizolarni jo'natish hollari ham kuzatilgan edi. Yuqorida kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, yangi to'lovlar tizimini joriy etish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yilning 18-martidagi 146-sonli «Bank tizimini rivojlantirish va pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlari» haqidagi qarorida banklararo hisob-kitoblarni yax-

shilash bilan bog'liq bo'lgan bir qator vazifalar belgilab berilgan edi. Ular quyidagilardir:

1. Kompyuter markazlarini joriy etish;
2. Elektron pochta tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
3. Hisob ishlarini avtomatlashtirish;
4. Noqonuniy hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazishning oldini olish;
5. Noqonuniy avizo (ogohnoma)larni rasmiylashtirishga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiyotda hisob-kitoblarni tezlashtirish maqsadida 1995-yil boshidan boshlab har bir viloyat Markaziy bank qoshida hududiy hisob markazlarini tashkil etishga qaror qilindi. Har bir tumandagi ilgari faoliyat ko'rsatib kelgan, kliring markazlari yopilib, ularning faoliyati to'xtatildi. Shu munosabat bilan oddiy pochta avizolari bekor qilindi. Respublika ichidagi barcha hisob-kitoblar uzog'i bilan ikki kun ichida o'tkazilishi belgilab berildi. Shu tariqa elektron to'lovlar tizimi joriy etildi.

Elektron to'lovlar tizimi bu — umum davlat tizimi bo'lib, banklara ro to'lovlarini tashkil etadi va u qog'ozsiz texnologiyalarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki elektron pochta vositalari orqali o'tkazilishiiga asoslangandir. Hozirgi kunda elektron to'lovlar tizimi yuqori darajada o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lib, to'lovlarining respublika miqyosida 15–20 daqiqa mobaynida o'tishini ta'minlaydi. Bir hudud, ya'ni viloyat ichida esa, to'lovlar 3–5 daqiqa ichida yakunlanadi.

Elektron to'lovlarini o'tkazishda initsiator va benifitsiar banklar ishtirok etadi.

Initsiator bank — to'lov operatsiyalarini boshlovchi bank, benifitsiar bank esa, to'lov operatsiyalarini yakunlovchi bankdir. Banklar o'rta sidagi hisob-kitoblar elektron to'lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Elektron to'lov tizimi quyidagi prinsiplar asosida faoliyat ko'rsatadi:

1. To'lovlar bo'yicha transaksiyani o'tkazish tashabbusi initsiator-bankga tegishli bo'ladi;
2. To'lovni amalga oshirishdan oldin operatsion kunning boshida tijorat banklarining ichki va tashqi vakillik hisob varaqlaridagi oborotlar va qoldiq mablag'lari bir-biriga muvofiqligi tekshiriladi;
3. Amalga oshirilgan transaksiya qaytarilmaydi;
4. To'lovlarining eng yuqori summasi cheklanmagan;
5. To'lovlar initsiator — bank tomonidan vakillik hisob varaqidagi mablag' qoldig'i chegarasida to'lanadi. Undan ortiqcha mablag' sarflash overdraft summasi miqdorida amalga oshirilishi mumkin.

Elektron to'lovlar ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking Axborotlash markazlari va hisob-kitob markazlaridir. Elektron to'lovlar tizimidan foydalanuvchilar hisob-kitob kassa markazlari va tijorat banklaridir. Elektron to'lovlar tizimi ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlarini tijorat banklari, axborotlash markazlari va hisob-kitob markazlari o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinib turiladi.

### 7.3.1-jadval.

#### Elektron to'lovlar tizimining ijobjiy tomonlari

Nº	Asosiy ko'rsatkichlar	Elektron to'lov tizimi	Pochta-telegraf tizimi
1	To'lov muddati	Bir necha daqiqa	2-7 kun (ba'zan undan ko'proq)
2	Ishlovchilar soni. Toshkent shahar HKM.	7	20
3	Yillik balansning yopilishi	Joriy yilning 31-dekabr kuni	Kelasi yilning mart-aprel oylari
4	Noqonuniy o'zlashtirishdan himoya	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tarmoq protokol himoyasi;</li> <li>• parol himoyasi;</li> <li>• uzatiladigan fayllarning shifrlanishi;</li> <li>• ishlovchi xodimlar malakasi.</li> </ul>	Xodimlar malakasi
5	Arxivlashdirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• elektron arxivlashdirish.</li> </ul>	Papkadagi qog'oz hujjatlar ko'rinishidagi arxiv

Shunday qilib, elektron to'lov tizimi oddiy pochta-telegraf tizimidan butunlay farq qiladi. Buni elektron to'lov tizimining qator afzalliklari orqali yaqqolroq ko'rish mumkin.

Elektron to'lov tizimining kamchiliklari ham mayjud bo'lib, ularga kompyuter texnologiyasi va telekommunikatsiyalarni sotib olish uchun katta miqdordagi moliyaviy qo'yilmalar talab etilishi va turli texnik muammolarning kelib chiqishini keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida plastik kartochkalar bozori rivojlanib, plastik kartochkalarning yangi turlari joriy etilmoqda.

Moliya bozorining rivojlanishi, bank xizmatlari sifatining yaxshilanishi va moliya institutlari o'rjasida raqobatning kuchayishi plastik mahsulotlarning optimal shaklini tanlash, plastik kartochka harakati dasturi orqali ijobjiy hal etilmoqda.

Plastik kartochkalar biznesi asta-sekin rivojlanib bormoqda, har bir barqaror ishlaydigan bank keyinchalik ro'y berishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xaoslarni oldini olish uchun, bu operatsiyalardan iloji boricha ko'proq daromad olishga intiladi.

Plastik kartochka tegishli bankda kartochka egasining hisob varaqi mayjudligini tasdiqlovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shaxsi belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to'lov vositasini o'zida ifoda etadi.

Plastik kartochkada, albatta bir xil ma'noli identifikatsiya qiladigan emitentning nomi va logotipi qayd qilinishi shart.

Plastik kartochkalar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar, bir tomondan, mahsulotni sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar (keyingi matnda — savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalari), ikkinchi tomondan, ular o'rtaсидagi bo'ladijan naqd pulsiz hisob-kitoblarda, hamda, naqd pul berish punktlari va bankomatlardan naqd pul olishda qo'llaniladi.

Vakolatli banklar xalqaro plastik kartochkalar chiqarishi va ular bo'yicha xizmat ko'rsatishi mumkin, bunda ular xalqaro to'lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarga va amaldagi qonunchilikka muvofiq, bajariladigan operatsiyalar qoidalariga amal qilishlari shart.

Plastik kartochkada bir necha hamyonlar mavjud bo'lganda, identifikatsiya belgilari har bir hamyonni bir xil ma'noli identifikatsiyalashi lozim. Ko'rsatilgan rekvizitlardan tashqari, kartochkaga operatsiyalarni amalga oshirish va ular hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha belgililar kiritilishi mumkin.

Plastik kartochkalardan foydalangan holda, operatsiyalarni amalga oshirishda tuzilgan hujjalarning rekvizitlari, plastik kartochkalar rekvizitlari bilan kartochka egalarining bank hisob varaqlari, shuningdek, korxona identifikatorlari, naqd pul berish punktlari, bankomatlar va tashkilotlarning bank hisob varaqlari o'rtaсидagi muvofiqlikni haqqoniy belgilashga imkon beruvchi tomonlar o'rtaсиda kelishib olinagan belgilarni o'z ichiga olishi kerak.

*Shuni unutmaslik joizki, plastik kartochkalar naqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshiruvchi vositagina bo'lib qolmay, mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish, moliyaviy tizimni mustahkamlash, infliyatsiyaning oldini olish, naqd pul muomalasining bank orqali aylanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.*

Respublikamiz banklari ichida O'zbekiston sanoat-qurilish banki plastik kartochka orqali to'lov tizimini 2000-yilda birinchilardan bo'lib joriy qilgan. Ayni vaqtga kelib ushbu bankning muomalaga chiqargan plastik kartochkalari soni 834 mingdan oshib ketdi. Terminallari soni esa 4200 dan ortiq. Bu borada yetakchilik qilayotgan «Asaka» bank tomonidan 487 mingga yaqin plastik kartochka chiqarilgan. Terminallari soni esa 4658 ta. 2012-yilda mazkur bankning plastik kartochka orqali amalga oshirgan pul aylanmasi 68,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimi yildan yilga rivojlanib borayotganini, muomaladagi plastik kartochkalar hamda savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga o'rnatilgan terminallar soni keskin o'sib borishidan ham anglash mumkin.

Plastik kartochka xarid qilingan tovar va ko'rsatilgan xizmat uchun naqd pulsiz hisob-kitob qilishning zamonaviy, ishonchli va qulay vositasidir.

O'z navbatida, tijorat banklari tomonidan hozirgi kundagi savdo va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarning terminallarga bo'lgan ehtiyojlarni bosqichma-bosqich to'liq qondirish yuzasidan kerakli ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, plastik kartochkalar yordamida to'lovlarni qabul qiluvchi terminallar bilan ta'minlanishi kerak bo'lgan chakana savdo va pullik xizmatlar sohasi obyektlari ro'yxatini kengaytirish va ularni bosqichma-bosqich to'lov terminallari bilan jihozlash choralarini ko'rilishi ko'zda tutilmoqda.

*Plastik kartochkalar hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalaniладиган ахборотни о'зіда сағлаб қолади. Барча xаридлар ва ко'rsatilgan xizmatлар үчун amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotлarni yodda tutishга zarurat qolmaydi. Chunki maxsus uskuna yordamida plastik kartochka-dagi pulning harakati to'g'risida hir necha soniyada ma'lumot olish mumkin.*

Shuni ham qayd etish lozimki, plastik kartochka, berilgan hudud va tijorat bankidan qat'i nazar, respublikamizning barcha hududlari va tijorat banklarida amal qiladi, eng muhimmi, oylik ish haqini plastik kartochkada olayotgan fuqaro mehnat ta'tilda yoki xizmat safarida bo'lsa ham, o'z vaqtida ish haqini istalgan tijorat bankida o'rnatilgan kassa terminallari orqali olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Plastik kartochka egalari mazkur plastik kartochkalardagi mablag'lardan:

1. Tijorat banki va uning filiallari (mini-bank, kassa)dan yoki bankomatlardan naqd pul mablag'larini olishlari uchun;
2. Savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida xarid qilingan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lashda yoki plastik kartochkanini jamg'arma sifatida o'z mablag'larini ko'paytirish vositasi sifatida foydalanshlari mumkin.

*1-holatda*, kartochka egalari hisobidan pul mablag'larini yechish operatsiyasi, bank kassalarida cassir-terminali yordamida yoki bankomat orqali bajarilishi mumkin.

Plastik kartochka egasi hisobidan pul mablag'larini yechish bank kasasida quyidagi harakatlar ketma-ketligini nazarda tutadi:

- kartochka egasi bank xodimiga plastik kartochkani taqdim yetib, o'zi uchun zarur bo'lgan summani aytadi;
- dastavval bank xodimi plastik kartochkaning tashqi ko'rinishini, uning raqamini, amal qilish muddatini, egasining ismi va sharifini, imzosi mavjudligini tekshiradi.

Bankomatlardan foydalangan holda naqd pul olinishida esa quyidagi amaliyotlar bajariladi.

Avvalombor, plastik kartochka egasi plastik kartochkasini bankomatning axborotlarni o'qiydigan qurilmasiga kiritadi. Shundan so'ng bankomat monitorida operatsiyalar menyusi paydo bo'ladi va unda kartochka egasi ga quyidagi operatsiyalardan birini tanlash taklif etiladi:

- naqd pul berish;
- kartochkaga mablag'larni o'tkazish;
- kartochka parolini o'zgartirish;
- kartochka balansini olish;
- kartochka orqali amalga oshirilgan operatsiyalar tarixi; — pul mablag'larini kartochkaning yopiq hisobidan ochiq hisobiga o'tkazish.

Plastik kartochka egasi «Naqd pul berish» operatsiyasini tanlaydi va bankomatning tegishli funksional klavishasini bosadi.

*2-holatda*, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida xarid qilingan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun plastik kartochka orqali haq to'lashda mas'ul xodim (sotuvchi) terminal yordamida plastik kartochkadan olinishi zarur bo'lgan pullarni yechish operatsiyasini amalga oshiradi (bunda plastik kartochka egasi mustaqil ravishda cassir terminalning PIN-klavishasida pul mablag'larini yechish uchun o'zining maxfiy kodini kiritadi),

so'ngra plastik kartochka egasiga terminaldan olingan operatsiyaning to'g'-riligini tasdiqlovchi qog'oz cheki beriladi.

2011-yil yanvardan Respublika aholisiga O'zbekiston Respublikasi Savdo-Sanoat palatasi hamda «SSP Maroqand» unitar korxonasi bilan hamkorlikda joriy etilayotgan «SMS-To'lov» — elektron to'lov tizimi xizmat ko'rsata boshladi. Bu tizimni Savdo-Sanoat palatasi mutaxassislari Germaniya va Yaponiya mutaxassislарини jalb qilgan holda ishlаб chiqdi.

«SMS-To'lov» — mijoz bilan to'lovlarni qabul qiladigan kompaniya o'rta-sidagi munosabatlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan, bank tizimiga ulangan to'lov tizimidir. Undan foydalanuvchilar to'lov punktlari va banklarga bormasdan, sanoqli daqiqalar ichida istalgan modeldagи mobil telefon yoki internet tarmog'i orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniga ega.

Xizmatdan hafta davomida har kuni 24 soat foydalanish mumkin. Bundan tashqari, «SMS-To'lov» tizimi orqali mobil va shahar telefon aloqa xizmati, provayderlar, kommunal xo'jalik xizmatlarini, soliqlar va sug'urta badallarini to'lash, avia hamda temir yo'l chiptalarini band qilib qo'yish, sotib olish va boshqa servis xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

SMS-banking — bu bank mijozlarga ularning depozit hisob varaqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisob varaqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisob varaqidan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisob varaqiga kelib tushgan mablag'lar;
- hisob varaqidan qilingan xarajatlar;
- hisob varaq balansi;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

Bugun biz barcha to'lovlarni faqat o'z joyida (masalan mobil aloqa uchun kompaniyaning o'zida) shuncha joyga borib, yana navbat kutib to'lash imkoniyatiga ega bo'lганmиз. Chunki to'lovlarni paynetdan amalga oshirish ancha oson.

MChJ UZPAYNET QK o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 21-aprelda 2099-son bilan ro'yxatga olingan «To'lov agentlik tarmog'i orqali jismoniy shaxslarning to'lovlarini qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan olib boradi.

«UZPAYNET» qo'shma korxonasining faoliyatida olinadigan foizlar, ya'ni mukofot puli O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 21-aprelda 2099-son bilan ro'yxatga olingan «To'lov agentlik tarmog'i orqali jismoniy shaxslarning to'lovlarini qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom»ning (2010-yil 21-apreldan 2099-son) IV-bobining 20-bandida ko'zda tutilgan bo'lib, unda «To'lovni qabul qilish xizmatini ko'rsatishda to'lovchidan bosh agent yoki to'lov agenti tomonidan belgilangan tariflarga muvofiq mukofot puli olinishi mumkin»ligi ta'kidlangan. Shunga muvofiq Bosh agent, ya'ni MChJ «UZPAYNET» QK to'lovchilarga ko'rsatgan xizmatlari evaziga mobil aloqa operatorlaridan har bir to'langan to'lov summasidan 2% miqdorida, to'lov agentlari 0%dan 4%gacha bo'lgan miqdorda mukofot puli olinishi belgilangan.

Elektron tijorat faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi 2004-yil 29-apreldagi 613-II son qonuni bilan belgilanadi va amalga oshiriladi

#### Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi

Xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega;
Savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati;
Ko'p sonli xaridolarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojat qila olish imkoniyati;
Kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va ushbu mahsulotlar mavjud bo'lgan korxonalarga murojat qilishda, texnika va transport vositalaridan samarali foydalanish imkoniyati;
Xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'i nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati;
Hozirgi kundagi mavjud jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati;
Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish korxonalarining raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi.

Bank-Mijoz — bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarini saqlaydi (asosan to'lov hujjalari va hisob varaqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rta-sida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking — bu mijozlarning depozit hisob varaqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisob varaqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverda joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisob varaqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiга ularib, o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi, pul o'tkazmalarini tayyorlab, bankga uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

## TAYANCH ATAMALAR

**Debitor** — korxona, tashkilot, muassasaga pul qarzi mavjud bo'lgan qarzdor yuridik va jismoniy shaxs;

**Valuta bozori** — chet el valutasi va chet el valutasidagi to'lov hujjatlarning oldi-sotdi savdosidagi ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar majmuasi;

**Kafolatchi** — ma'lum bir majburiyatlar bo'yicha kafolat beruvchi davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Ipoteka** — ko'chmas mulk garoviga beriladigan kredit. Garovga olinadigan ko'chmas mulk kreditorga berilmasdan, qarzdor tasarrufida qoldiriladi;

**Ssuda kapital** — qaytarish va foiz shaklida to'lov to'lash sharti bilan ssudaga berilgan pul shaklidagi kapital;

**Pul birligi** — barcha tovarlar bahosini o'lhash va o'zida aks ettirish uchun xizmat qiluvchi pul tizimining bir elementi bo'lib, qonun bilan qabul qilingan pul belgisidir;

**Pul** — ayirboshlash jarayonida umumiyl ekvivalent rolini bajaruvchi, oldi-sotdi jarayonida qiymat o'lchovchi hisoblanuvchi qog'oz yoki metall belgilar;

**Pul muomalasi** — mehnatga haq to'lash, tovar ayirboshlanishi, xizmatlar uchun hisob kitoblarni va boshqa to'lovlarni amalga oshirish jarayonida pul mablag'larining doimiy harakati;

**Qog'oz pullar** — davlat tomonidan o'zining xarajatlarini qoplash maqsadida muomalaga chiqarilgan, qimmatbaho metallarga almashinmaydigan, nominal qiymatga ega bo'lgan pul belgilari;

**Valuta kursi** — bir mamlakat pul birligi bahosining boshqa mamlakatlar pul birliklariga nisbati;

**Pul o'tkazuvchi** — to'lov topshiriqnomasida ko'rsatiladigan to'lov manbalari;

**Kredit muddati** — kredit uchun ajratilgan muddat;

**Kreditorlik qarzi** — korxona, tashkilot va muassasalarning tegishli yuridik va jismoniy shaxslarga to'lashi lozim bo'lgan pul mablag'lari;

**Pul o'tkazish** — banklar o'rtasida mablag' o'tkazish, buxgalteriyaning hisob varaqlari o'rtasida mablag'lar harakati.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pul tovar sifatida qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
2. Pulning paydo bo'lishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatdi?
3. Pulning obyektiv zarurligini asoslang?
4. Qog'oz pullar tanga pullarga nisbatan qanday afzalliliklarga ega?
5. Pulning qanday funksiyalari mavjud va ular bir-biridan qanday farqlanadi?
6. Elektron to'lovlarning qog'oz pul to'lovlari nisbatan qanday afzalliliklari mavjud?
7. Qanday banklar plastik kartochkalarni muomalaga chiqarishi mumkin?
8. Plastik kartochkalarning naqd pullarga nisbatan afzalliliklari va kamchiliklari nimadan iborat?
9. Bankomat va terminallardan qanday foydalanish mumkin?

## TESTLAR

1. Pulning funsiyasini aniqlang?
  - a) nazorat funksiyasi;
  - b) taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi;

- v) muomala vositasi funksiyasi;  
g) boshqaruv funsiyasi.
2. Pul vujudga kelishiga sabab bo'lgan jihatlardan birini ko'rsating?  
a) marketing va menejmentning paydo bo'lishi;  
b) soliqlarning paydo bo'lishi;
- v) natural xo'jalikdan tovar ishlab chiqarishga o'tilishi;  
g) to'g'ri javob yo'q.
3. Qanday pullar davlat ixtiyoridagi pullar tarkibiga kiradi?  
 a) mamlakatning zaxiradagi pul mablag'lari;  
b) qo'shma korxonalar ixtiyoridagi pul mablag'lari;  
v) aholi ixtiyoridagi pul mablag'lari;  
g) xususiy tadbirkorlar ixtiyoridagi pul mablag'lari.
4. Dastlab pullar qanday metallardan zarb etilgan?  
a) temir va po'latdan;  
b) oltin va platinadan;  
 v) mis va kumushdan;  
g) alyumin va qo'rg'oshindan.
5. Hozir muomalada qanday ko'rinishdag'i qog'oz pul birliklari mavjud?  
a) 1; 3; 5; 10; 20; 25; 50; 100; 200; 500; 1000; 5000; 10000 so'mda;  
 b) 1; 3; 5; 10; 20; 25; 50; 100; 200; 500; 1000; 5000 so'mda;  
v) 1; 3; 5; 10; 25; 50; 100; 200; 500; 1000 so'mda;  
g) 1; 3; 5; 10; 20; 25; 50; 100; 200; 500 so'mda.
6. Haddan tashqari emissiya qilingan qog'oz pullarning infliyatsion qadrsizlanishidan birinchi navbatda kim jabr ko'radi?  
a) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;  
b) xususiy tadbirkorlar;  
v) elchixona xodimlari;  
 g) pensionerlar, o'qituvchilar, vrachlar va talabalar.
7. Kredit pullar muomalaga qanday asosda chiqariladi?  
 a) vaqtincha, qaytarma, qoida va pullik asosda chiqariladi;  
b) kredit pullar muomalaga umuman chiqarilmaydi;  
v) kredit pullar muddatsiz, qaytarmaslik sharti asosida chiqariladi;  
g) to'g'ri javob yo'q.
8. Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda qanday imkoniyatlarga ega?  
a) to'lovlarни o'tkazishi;  
b) to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatishi;

- v) barcha hisobotlarni olish kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanishi;
- g) barcha javob to'g'ri
- 9. Milliy valutaning ichki va tashqi konvertatsiyasi ta'minlanishining fuqarolar uchun qanday imkoniyatlarni beradi?
  - a) fuqaro uchun hech qanday qulaylik yo'q;
  - b) fuqaro milliy valutani o'z mamlakatida boshqa valutaga almashtirib o'tirmaydi va o'z milliy valutasini olib boshqa davlatga ketaveradi;
  - v) fuqaro o'z milliy valutasini plastik kartochkaga o'tkazib olishi zarur;
  - g) fuqaro uchun faqat ichki konvertatsiya qulaylik yaratadi.
- 10. O'zbekistonda qog'oz va tanga pullarni muomalaga qanday bank chiqarish huquqiga ega?
  - a) Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki;
  - b) Xalq banki;
  - v) Agrobank;
  - g) Markaziy bank;

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. «Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида»ги Конун. — Т.: Ўзбекистон, 1995.
2. Ўзбекистон Республикаси «Банклар ва банк фаолияти ҳакида»ги Конуни. — Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Банк сири тўғрисида»ги Конуни. — Т.: Адолат, 2003.
4. «Фуқароларнинг банклардаги омонатларини ҳимоялаш кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 2002 йил 5 апрел.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2006 йил 15 сентябр 50-сонли «Микромoliaлаш тўғрисида»ги Конуни.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Инвестиция фаолияти тўғрисида»ги Конуни 24.12.1998 й. № 719-I.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимини яна-да rivojlanтириш ва бўш пул мабlag'larinini bank aylanmasiga jalb этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори//«Халқ сўзи» газетаси. 2007 йил 8 ноябр.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларидағи омонатларини химоялаш кафолатларини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони //«Халқ сўзи» газетаси 2008 йил 29 ноябр.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк пластик карточкаларидан фойдаланилган ҳолда ҳисоб-китоб тизимини ривожлантиришни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи» газетаси. 2008 йил 9 октябр.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва эркинлаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи» 2005 йил 15 апрел.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банклардаги депозит ҳисоб-вараклардан нақд пул тўловларини ўзлуксиз таъминлаш кафолатлари тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи» газетаси. 2005 йил 06 август.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банкларнинг капиталлашувини янада ошириш ва иктисадиётни модернизациялашдаги инвестиция жараёнларида уларнинг иштирокини фаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи» газетаси. 2007 йил 13 июль.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимининг молиявий баркарорлигини янада ошириш ва инвестициявий фаллигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2010 йил 6 апрелдаги 1317-сонли Қарори.
14. Каримов И. А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий баркарорлик тўғрисида. Тўзувлчি Ф. М. Муллажанов. — Т.: Ўзбекистон, 2011.
15. Абдуллаева Ш. З. Банк иши. Ўқув кўлланма. — Т.: Iqtisod-Moliya, 2010.
16. Абдуллаев Ё. А., Коралиев Т. М. ва бошқалар. Банк иши. Ўқув кўлланма. — Т.: Iqtisod-Moliya, 2009. — 576 б.
17. Омонов А. А. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. Монография. — Т.: Фан ва технология, 2008.
18. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
19. [www.finance.uz](http://www.finance.uz)
20. [www.bank.uz](http://www.bank.uz)
21. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

## DEPOZIT VA KREDIT XIZMATLARI

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### Reja:

- 8.1. Jamg'arishning zaruriyati va bank depozitlarining afzalliklari.
- 8.2. Bank depozitlarining turlari va ular bo'yicha foizlarni hisoblash.
- 8.3. Aholi omonatlarini kafolatlash mazmuni va zarurati.
- 8.4. Kreditning mazmuni va unga bo'lgan zarurat.
- 8.5. Kredit bo'yicha foizlarni belgilash va kreditni qaytarish shakllari.
- 8.6. Kredit shartnomasi va kredit oluvchi majburiyatining bajarilishini kafolatlash.
- 8.7. Aholiga beriladigan kreditlarning asosiy shakllari va ulardan foydalanish.

### 8.1. Jamg'arishning zarurati va bank depozitlarining afzalliklari

#### Depozit, jamg'arma va omonat tushunchalari

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni pullarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Atrofimizni o'rab turgan barcha narsalar va kundalik ehtiyojar —

yegulik uchun taom, kiyim-kechak, dori-darmon, o'yin-kulgu — bularning barchasidan foydalanish uchun pul kerak. Bu esa kim uchundir baxtning boshi bo'lsa, boshqalar uchun bu hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Shunisi ajablanalik, pulning ko'pi bo'lmaydi — u doim kerak. Besh yuz ming so'mlik maosh kam bo'lganida besh million so'mlik daromad to'g'risida o'ylanadi. Ammo bu ham doimiy tushumga aylanishi bilan u ham yetarli emasligi anglanadi.

Bugungi kun bilan yashaydigan odamlar oxir-oqibatda hech narsasiz qolib ketishi muqarrar. Inson uchun kuch-quvvat, sihat-salomatlik cheksiz berilmagan. Shu sababli daromad manbai salomatlik yo'qolishida shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash uchun daromadning bir qismini iste'moldan tejash va jamg'arib borish zarur. Ammo bu ham yetarli emas.

Inson ehtiyojlarining eng muhim va dastlabki qismini iste'mol tashkil etadi. 2011-yilda O'zbekistonda inson ehtiyojlari piramidasida birinchi zaruriy iste'mol jami ehtiyojlarning 34%ni tashkil etadi. Ushbu ehtiyojlarga ochlik, chanqollikni qondirish, dam olish va boshqalar kiradi. Insonni faga iste'mol ehtiyojini qondirish bilan cheklanishi mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra eng past tabaqada ko'rildi. Bu asosan kam-bag'al va qashshoq mamlakatlardagi aholiga xos bo'lgan holat hisoblandi.

Iste'mol ehtiyoji qondirilgach, inson xavfsizlikni ta'minlashga harakat qiladi va o'zini ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy omillarning salbiy ta'siridan himoyalash, turmush darajasining barqarorligini ta'minlash, erkinlikka intilish, atrofmuhitni o'rganish va axborot yig'ish bilan shug'ullanadi. Bu holat daromadni iste'molga sarflanganidan ortgan mablag'lari evaziga amalga oshiriladi. Shu tartibda iste'moldan so'ng daromadning ortgan qismi das-tlab pul shaklida jamlanib, jamg'armani hosil qiladi.

Jamg'arish jarayoni moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning muhim bo'-g'ini hisoblanadi. Jamg'arma turli iqtisodiy va ijtimoiy omillar, jumladan, madaniy, tarixiy, an'anaviy, urf-odat va jamg'armadan olinadigan daro-mad ta'sirida o'zgaradi.

Taniqli olim britaniyalik iqtisodchi Djon Meynard Keyns tomonidan jamg'armaning shakllanishini belgilovchi omillar ko'rsatib berilgan va in-soniy omillar, boshqa subyektiv sabablar jamg'arma yuzaga kelishida us-tuvor rol o'ynaydi degan g'oya olg'a surilgan.

Uning fikricha jamg'armaning shakllanishida quyidagilar muhim rol o'ynaydi:

Ehtiyotkorlik — kelgusidagi noxush o'zgarishlardan o'zini himoyalash-da aks etib, mavsumiy o'zgarishlar natijasida kutilgan hosilni yig'a olmaslik, yoki doimiy ish joyidan vaqtincha bo'shash, qarovchisi bo'lмагanlarning vafot etganda iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun zarur mablag'larni jamg'arish.

Oldindan ko'ra bilish — ma'lum o'zgarishlar to'g'risida oldindan axborot-ga ega bo'lish natijasida kelgusidagi harakatini moliyaviy ta'minlash maqsadida jamg'armani hosil qilish. Masalan, jahon bozorlaridagi beqarorlik yoki inqiroz holatini oldindan ko'ra bilganlar, ushbu sharoitda daromad manbaidan uzilish sodir bo'lganida iste'mol ehtiyojlarini qondirish, zamonaviy va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'nga qo'yish uchun zarur mablag' to'playdilar.

Hisob-kitob qila bilish — moliyaviy savodxonlikning zaruriy shartti hisoblanib, ushbu bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlar xarajatlar-

ni rejalashtirish natijasida olgan daromadning to'liq ishlatilmasligiga erishadilar.

Yaxshilikka intilish — turmush darajasini yaxshilash, uy anjomlari ni xarid qilish, yashash joyini ta'mirlash va boshqa shu kabilarni amalga oshirishi uchun zarur mablag' to'plash natijasida jamg'arma hosil bo'ladi.

Mustaqillik — aniqrog'i moliyaviy mustaqillik, kelgusida ishga layoqatini yo'qolishi, pensiyaga chiqishi, yoki barvaqt ish bilan shug'ullanmaslik uchun pulga bo'lgan ehtiyojini avvaldan jamg'arib kelish orqali qondiriladi.

Tadbirkorlik — hisob-kitob ko'nikmalarini talab etgan holda, daromad manbaini oshirish maqsadida ma'lum faoliyatni boshlash uchun zarur mablag' jamlanadi.

Mag'rurlik — boshqalarga qaram bo'lmaslik, yordam so'rashni or deb, bilganlar turmush tarzining noxush o'zgarishlarida ehtiyojlarini qondirish uchun jamg'armaga ega bo'ladi.

Ziqnalik — birlamchi iste'mol ehtiyojlarini to'la qondirmaslik, olin-gan daromadni barcha ehtiyojlarini qondirishga yetmasligidan xavfsirash, haddan tashqari ehtiyyotkorlik natijasida jamg'armalar hosil qilish.

Yuqoridagi omillarning mavjudligida jamg'armaning hosil bo'lishiga salbiy ta'sir etuvchi holatlar jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Jumladan:

Davlatning siyosiy-iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning olib borilishi jamg'armalarni kamayishiga olib kelishi mumkin. Davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarning yuqori darajada belgilanishi (yuqori ish haqi, nafaqa, pensiya to'lovları, tibbiy sug'urta va boshqalar) «qora kunlar»ga yig'ib saqlanadigan jamg'armalarga zaruratni qoldirmaydi va olingen daromad to'laligicha iste'molga sarflanadi.

Mamlakatda moliyaviy barqarorlikning ta'minlanishi, jamg'armalarni bank-lardagi depozitlar, qimmatli qog'ozlar, xorijiy valuta shakldagi investitsiyalarga o'zgarishi, ya'ni trasformatsiyalashuviga sabab bo'ladi, natijada milliy iqtisodiyotdagagi jamg'arma kamayadi.

Bozor infrastrukturasing yaxshilanishi, iste'mol imkoniyatlarining kengayishi va ortishi jamg'armalarning qisqarishini belgilab beradi. Masa-lan, tovarlar va xizmatlar soni va sifatining yaxshilanishi, mahsulot va xiz-matlar reklamasining rivojlanishi, moliyaviy instrumentlar (kredit, ipoteka) dan foydalanish, aholining milliy mentaliteti, dam olish, to'y-marosim, da-la-hovli, uy-joy qurish va h. k. ham jamg'armalar talab qiladi.

**Diqqat!!! Jamg'armaning vaqtinchalik saqlashga berilishi omonatni hosil qiladi.**

Omonatning asosiy vazifasi omonat egasi pul mablag'larini zarur bo'lgan paytda, omonatga berilgan pullarni to'liq qaytarib olishi hisoblanadi. Hozirgi kunda bunday xizmatlar banklar, depozitariylar, lombardlar va alohida ajratilgan bo'limlarga ega maxsus seyfga ega bo'lgan shaxslar tomonidan taklif etiladi. Bunda omonat nafaqat pul shaklida, balki turli xil buyumlar ko'rishida ham saqlanishi mumkin. Uni saqlab berish uchun to'lanadigan haq maxsus seyfdan ajratilgan bo'limga qarab hisoblanadi.

Omonatning foyda keltiruvchi shakli bank depozitlari hisoblanadi. Shu bilan birga depozit bo'yicha bank jalb etilgan mablag'larni qaytarish majburiyatiga ega bo'lgani sababli omonatning xususiyatini aks etadi. Depozit jamg'armani investitsiyaga transformatsiyalashishning shakli hisoblanadi.

Investitsiyalarning boshqa shakllariga qaraganda depozit ishonchli, riskliligi past bo'lgani sababli ular bo'yicha daromadililik boshqa shakllardan kamroq bo'ladi. Jamg'armalarni investitsiyaga aylantirishda ham muhim jihat risk va daromad mutanosibiligini to'g'ri tanlashdan iborat.

## **8.2. Bank depozitlarining turlari va ular bo'yicha foizlarni hisoblash**

### **Bank depozitlari va ularning turlari**

**Bank hisob raqami** — bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga ochiladigan va:

- ularda mablag'lar harakati aks etadigan. Bank hisob raqami pullarni to'lovni olish va o'tkazish shakli hisoblanadi.
- bankning har bir mijoziga pul mablag'lari hisoblanadi, bank hisob raqamlarida mijozlarning moliyaviy operatsiyalari aks etadi.

Bank hisob raqamlari «hisob varaq», bank majburiyatini ifodalasa «depozit» deb ham nomlanishi mumkin.

Bank hisob raqamlarining quyidagi shakllari aholi o'rtasida keng tarqalgan:

- ta'lab qilib olinguncha depozit hisob raqamlari;
- jamg'arma depozit hisob raqamlari;
- muddatli depozit hisob raqamlari;
- kredit hisob raqamlari.

Bank depozit hisob raqamlari omonatchilar kategoriyasiga ko'ra yuridik shaxslar (korxona, tashkilot va boshqa banklar) depozitlari va jismoniy shaxslar (shu jumladan chet el fuqarosi) depozitlariga bo'linadi.

**Talab qilib olinguncha depozitlar** mijoz tomonidan birinchi marta ochilganida uning asosiy hisob raqami hisoblanadi. Ushbu depozitlar mijozlarning joriy hisob raqamlari yoki tranzakzion depozitlar deb ham nomlanib, ularda omonatchining pul mablag‘lari saqlanadi va kundalik ehtiyojlari uchun sarflanishi mumkin.

Talab qilinguncha depozitlardan omonatchining majburiyatlarini bajariladi va unga nisbatan majburiyatlarga ega bo‘lgan boshqa shaxslar tomonidan pul mablag‘lari kelib tushadi. Shu sababli talab qilib olinguncha depozitlardagi pul mablag‘lari uning egasi tomonidan istalgan vaqtida ishlatalishi mumkin.

Mijozning talabi berilishi bilan zudlik bilan, bir kundan kechikmagan holda (depozit to‘g‘risidagi shartnomada boshqa shartlar ko‘rilmagan bo‘lsa) bank to‘lov bo‘yicha topshiriqni ijro etishi yoki bank kassasidan o‘rnatilgan tartibda naqd pul berishi lozim.

Talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlari ochilishida banklar ma’lum miqdorda komissiya to‘lovini olishlari mumkin. Ushbu hisob raqamlardan foydalanish uchun banklar qat‘i belgilangan abonentlik to‘lovini olishlari, mijoz topshirig‘ini ijro etish bo‘yicha hisob raqam orqali aylanadigan pul mablag‘lari hajmiga foiz nisbatida komissiya to‘lovini olishlari mumkin.

Bir mijoz tomonidan ochilishi mumkin bo‘lgan talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlari cheklanmagan. Ushbu hisob raqamlar bir bankda yoki bir nechta banklarda ochilishi va ularga mijozning boshqa shaxslarga nisbatan majburiyatlarini bo‘yicha pul mablag‘lari chiqib ketishi yoki talabiga ko‘ra kelib tushishi mumkin.

#### **Talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlarini ochish tartibi**

Talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlari asosan korxona, tashkilot, tadbirkorlik subyektlari va boshqa yuridik shaxslar tomonidan ochilib, ular to‘lovlarini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlari va yuridik shaxslar tomonidan milliy va xorijiy valutada talab qilib olinguncha (asosiy va ikkilamchi) depozit hisob raqamlarini ochish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- hisob raqam ochish bo‘yicha belgilangan namunadagi **ariza**;
- davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi **guvohnoma** nusxasi;
- imzolar namunasi va muhrning namunasi tushirilgan **varaqasi**.

Shuningdek, milliy va xorijiy valutadagi talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlari korxonani tashkil etishda ta’sischilar uchun uning ustav kapi-

talini shakllantirish uchun vaqtinchaga ochilishi ham mumkin. Vaqtinchalik hisob raqamni ochish uchun vakolatl shaxs (korxona ta'sischisi) tomonidan hisob raqamni ochish to'g'risidagi ariza berilishi kifoya. Ustav kapitali to'liq shakllanib, davlat ro'yxatidan o'tgach, asosiy hisob raqam ochiladi.

Chet el fuqarolari va korxonalar (nerezidentlar) uchun milliy va xorijiy valutadagi talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlarini ochish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisob raqam ochish bo'yicha belgilangan namunadagi **ariza**;
- soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsion raqami berilganligi to'g'risidagi **guvohnoma nusxasi**;
- imzolar namunasi va muhrning namunasi tushirilgan **varaqasi**.

Jismoniy shaxslar tomonidan milliy va xorijiy valutadagi talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlarini ochish uchun namuna bo'yicha ariza hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport va unga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar) taqdim etiladi.

### **Yituqli depozitlar**

Shuningdek, jismoniy shaxslar uchun taqdim etuvchiga ochiladigan xorijiy valutadagi hisob raqamlar ham bo'lib, ular banklarda omonat egasi ko'rsatilmagan arizani rasmiylashtirish va omonat daftarchasi berilishi mumkin. Bunda hisob raqamdag'i mablag'lar omonat daftarchasini taqdim etilishi bilan boshqarilishi mumkin.

Bunday depozitlar mamlakatimizda 1996-yildan boshlab joriy qilin-gan. Ushbu omonat talab qilib olinguncha ochiladigan depozitlarning turri bo'lib, foiz to'lovlari ham shu tartibda belgilanadi. Yituqli depozitlar ma'lum davrlarda bo'lib o'tadigan o'yinlarda ishtirok etadi. Bunda depozit bo'yicha yillik daromadda hisoblangan foizlar bilan birga depozit hajmiga nisbatan yituqli to'lovlari bajariladi. Shuningdek, yituqli depozitlar sovrинга qarab eng kam miqdori belgilanadi.

Jamg'arma depozitlar aholiga ko'rsatiladigan muhim moliyaviy xizmatlar hisoblanadi va belgilangan maqsadga sarflash uchun ma'lum miqdordagi pul mablag'larini doimiy to'plab borish uchun ochiladi. Jamg'arma depozit hisob raqamlarning shakllari quyidagicha bo'ladi:

- nomi ko'rsatilgan (jamg'arma daftarchasida omonat egasining ismi-sharifi ko'rsatiladi);
- taqdim etuvchiga (jamg'armaga egalik huquqi omonat daftarchasini taqdim etish bilan belgilanadi);

- hisob raqam holati bo'yicha ko'chirma bilan (hisob raqamdan ko'chirma omonat egasi ko'rsatgan manzilga jo'natiladi. Ushbu xizmat bank bilan bevosita muloqotda bo'lmasdan pochta orqali bog'lanish imkonini beradi. Bunda bank ma'lumotlarni pochta orqali jo'natish bilan bog'liq xaratjatlar mijozning hisob raqamidagi mablag'lar evaziga amalga oshiriladi);
- xabar yetkazish bilan (hisob raqamdan to'lovni amalga oshirish dastlab xabar yetkazilgandan keyin bajariladi. Xabar yetkazish muddati to'-lov muddatidan uzoqligiga qarab komissiya haqi ham baland bo'ladi). Jamg'arma depozit hisob raqam ochilganda bank mijozga uning barcha operatsiyalari qayd etib boriladigan jamg'arma daftarchasini beradi. Hisob raqam yopilganida kitobcha bankga qaytarilishi lozim. Omonat egasi hech bir sharoitda jamg'arma daftarchasiga qaydlar qilishi mumkin emas. Omonat daftarchasi bankning mulki hisoblanadi.

Hisob raqamdagagi mablag' larning harakati bo'yicha ko'chirmalar omonat egasi tomonidan o'rganilishi va har qanday nomuvofiqlik aniqlanishi bilan bank xodimlarini xabardor qilishi lozim. Aniqlangan xatolar bank tomonidan birlamchi hujjatlar asosida bartaraf etiladi.

Jamg'arma depozitlar uzoq muddatli resurs bo'lib xizmat qilgani sababli ulardan foydalanish istagida bo'lган ko'plab banklar ushbu xizmatlarni taqdim etishga harakat qiladi. Jamg'arma depozitlar nisbatan uzoq muddatga ochilgani sababli ham bank barqarorligini talab etadi, aks holda aholining banklarga ishonchi yo'qoladi va bu nafaqat bitta bank balki butun bank tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli jamg'arma depozitlar asosan davlatning ixtisoslashgan banklari orqali ko'rsatiladi va davlat ushbu depozitlarni qo'shimcha kafili bo'lib keladi. Masalan, Italiyada Cassa di risparmio, Germaniyada Stadtsparkasse, Rossiyada Sberbank, O'zbekistonda esa Xalq banki.

Jamg'arma depozit ma'lum maqsadga bog'langan bo'lishi lozim. Masalan, farzandning kamolga yetishida to'y, o'qish, uy-joy bilan ta'minlash yoki ma'lum mulkni xarid qilish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun zarur mablag' to'plab borish mumkin. Shu bilan birga hozirgi kunda ko'pingina mamlakatlar ushbu depozitlardan uzoq muddatli kreditlashda foydalanish uchun majburiy jamg'arma pensiyalarni joriy qilishgan.

Germaniyada uzoq muddatli kreditlashga ixtisoslashgan ipoteka banklari jamg'arma banklari bilan yaqindan hamkorlik qiladilar. Shu tarzda Bausparkassen uy-joy jamg'arma banki ipoteka kreditidan foydalanuvchilar navbatini tuzish bilan aholidan jamg'armalarni qabul qiladi.

Ushbu depozitlar katta mablag' talab etadigan iste'mol mahsulotlarini xarid qilish uchun qulay hisoblanadi. Masalan, avtomashina xarid qilish uchun Xalq bankida «Avtokredit» jamg'arma depozitidan foydalinish mumkin. Ushbu hisob varaqda mablag'lar avtomashina bahosining 50% to'plangucha jamg'arib boriladi va belgilangan muddatdagi qoldiq qiyamatga yillik 9% miqdorida foiz hisoblab boriladi. Bunda, «General Motors Uzbekistan» QK dan umumiy bahosi 25,6 mln. so'mdagi Spark DLX rusumidagi avtomashinani xarid qilish uchun zarrur mablag' toplash maqsadida jamg'arma hisob varaq ochiladi. Hisob varaqda oylik maoshning (har yili 15% oshirilishini hisobga olgan holda) 45% o'tkazilishi hisobiga to'ldirib borish rejalashtirilgan deb hisoblansa barcha jarayonlar quyidagi jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

#### 8.1-jadval.

«Avtokredit» jamg'arma depozitida o'rtacha oylik operatsiyalar

Muddat	Oylik maosh	Har oy depo-zitga o'tkazila-digan summa	Depozitdagi qoldiq	O'rtacha oylik foiz to'lovi
1 yilda	603 750	271 688	3 398 329	14 725
2 yilda	694 313	312 441	7 625 192	42 490
3 yilda	798 460	359 307	12 834 777	78 144


Jadval ma'lumotlarida oylik maosh dastlab 603 750 so'mni tashkil etganida har oy depozitga o'tkaziladigan summa, yil yakunidagi depozitdagi qoldiq, o'r-tacha oylik foiz to'lovi aks ettirilgan. Bunda har yilning boshida oylik 15%ga ortishi hisobga olingan. Ushbu holatlarda jamg'arma depozit hisob varaqqa 1 yil mobaynida har oyning boshida 271 688 so'm o'tgan bo'lsa, oylik maosh oshishi natijasida 2 yil davomida har oy boshida 312 441 so'm va 3 yilda esa har oy boshida 359 307 so'm o'tkazilgan. Hisob varaqning oy boshidagi qoldig'iga hisoblangan foizlar ham jamg'armaning ortishiga xizmat qilgan. Natijada avtomashina bahosining 50% ya'ni 12,8 mln. so'm 3 yilda to'planadi. Mazkur jarayonlarni aniqroq tasvirlash uchun quyidagi rasmni keltiramiz. (8.1-rasm).

#### Muddatli depozitlar

Muddatli depozit hisob raqamlari yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini shar-tnomada ko'rsatilgan muddat va foiz to'lovi bo'yicha qat'i shartlar asosida jalb etishga qaratiladi. Muddatli depozit hisob raqami jismoniy shaxs uchun ochilsa, unga omonat daftarchasi beriladi.

### 8.1-rasm.

«Avtokredit» jamg'arma depoziti bo'yicha amalga oshirilgan oylik operatsiyalar (depozitdag'i o'zgarishlar o'ng shkalada, qolgan operatsiyalar chap shkala bo'yicha aks ettirilgan)



Omonat egasi va bank o'rtaida muddatli depozit bo'yicha shartnomaga tuzilganidan so'ng, mijoz belgilangan miqdordagi mablag'larni depozitga qo'yishi lozim. Banklar omonatchilarga depozitdag'i mablag'larni muddatdan avval olishlariga ruxsat berishlari ham mumkin, bunda omonatchi bankni muddatli depozit yechilishi to'g'risida oldindan xabardor qilishi lozim. Odatda muddatli depozitlar muddatdan avval yechilsa, ularga talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha belgilangan foiz miqdorida to'lab berilishi, yoki umuman foiz to'lovi berilmasligi ham mumkin.

Agar depozit belgilangan muddatda yechilmasa, keyingi ish kunidan talab qilib olinguncha depozit hisob raqamiga o'tkaziladi.

#### Omonatlar bo'yicha foizlar - ni hisoblash

Omonatlar bo'yicha bank tomonidan to'lanadigan foizlar bankning foizli xarajatlari ning asosiy qismini tashkil etadi. Bank amaliyotida quyidagi foiz turlari farqlanadi:

- bank passivlari bo'yicha hisoblangan (to'plangan) foizlar — mablag'larni jaib qilish bilan bog'liq bo'lib, bankni mijozlar oldidagi to'lov majburiyatini aks etadi.
- qo'shilgan foizlar (kapitalizatsiya) — bank tomonidan depozitga hisoblangan foizlarni depozit summasiga qo'shilgan qismi hisoblanadi.

Ushbu foizlar depozit shartlarida ko'rsatilishi va belgilangan muddatda (odatda har oyda) asosiy summaga qo'shib boriladi. Bundan tashqari depozit muddati kelganida omonatchi tomonidan mablag'larning qabul qilinmasligi uni talab qilib olinguncha depozitlarga o'tishi va qo'shimcha foiz to'lanishiga sabab bo'ladi.

- passiv operatsiyalar bo'yicha to'langan foizlar — jismoniy shaxslar hisob raqamiga o'tkazilgan yoki bank cassalari orqali amalga oshirilgan to'lovlar;
- foiz to'lovi bo'yicha bankning muddati o'tgan majburiyatları — omonatni qabul qilgan bank tomonidan depozit bo'yicha hisoblangan amma shartnomada belgilangan muddatda to'lab berilmagan foizlari.

Omonatlar bo'yicha foiz to'lovleri kirim (chiqim) kassa orderlarini rasmiylashtirish asosida pul shaklida amalga oshiriladi: yuridik shaxslarga — naqd-siz shaklda, jismoniy shaxslarga naqd va naqdsiz shaklda.

Omonat bo'yicha foizlarning miqdori depozit miqdori, uning muddati va belgilangan foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi. Foizlar to'lovleri hisoblanadigan davr oralig'i hisoblash davri bo'lib, foizlar ushbu davrda to'lab berilish yoki asosiy mablag'ga qo'shib borilishi mumkin.

Foizlar sodda va murakkab formulalar bo'yicha hisoblanishi mumkin. Shartnomada foizni hisoblash usuli ko'rsatilmagan bo'lsa, foiz to'lovleri qat'i belgilangan foiz stavkasini qo'llash bilan sodda foizlar formulasiga ko'ra hisoblanadi.

Murakkab foiz stavkalari qo'llanilganida hisoblangan foizlar asosiy summaga qo'shilib, «foiz ustiga foiz» hisoblab boriladi va depozit muddatida yaxlit tarz-da bank tomonidan to'lab beriladi. Foizlarning ushbu shakli omonatchi uchun foydaliligi ko'proq bo'ladi.

Sodda foizlarning hisoblanishi. Foiz to'lovleri bir yillik depozit uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$I_r = i \times P,$$

bunda,

$i$  — yillik oddiy foiz stavka,

$R$  — depozitning dastlabki miqdori.

Depozit muddati bir necha  $n$  yilni tashkil etsa, jami foiz to'lovleri quyidagicha aniqlanadi:

$$I_r = n \times i \times P.$$

Masalan, 10 mln. so'm 5 yil muddatga 30% bilan bankga joylashtirildi. Bunda jami foiz to'lovi miqdori quyidagicha bo'ladi:

$$I_r = 10 \times 0,3 \times 5 = 15 \text{ mln. so'm}$$

Ushbu misolda omonatga pul qo'ygan fuqaro har yili 3,0 mln so'mdan yoki har oyda 250 ming so'mdan foiz oladilar va jami omonatga pul qo'yilgan 5 yillik davrda 15 mln so'm foiz oladilar.

Murakkab foizlarning hisoblanishida har yili fuqaro tomonidan foiz olinmaydi, jami 5 yildan keyin ham omonatga qo'ygan mablag'lari va foizlari birgalikda olinadi. Bir hisoblash davri uchun foiz to'lovi quyidagi gicha aniqlanadi:

$$S_1 = P(1 + i_n).$$

Foizlarni hisoblashning ikkinchi davri avvalgisiga teng bo'lsa, ushbu davr uchun foizlar quyidagi gicha aniqlanadi:

$$S_2 = S_1(1 + i_n) = P(1 + i_n)^2.$$

Depozit muddati yakunida murakkab foiz stavkasi bo'yicha bank tomonidan jami to'lab beriladigan miqdor (hisoblash davrlarning teng oraliqda olingan holda) quyidagi gicha bo'ladi:

$$S = P(1 + in)^N.$$

Masalan, yuqorida misol holatida murakkab foiz stavkalarini qo'lashni ko'ramiz.

$$S = 10 \times (1 + 0,3)^5 = 37,1293 \text{ mln. so'm}$$

Ushbu murakkab usulda foiz hisoblanganda, fuqaro omonatining 5 yillik muddati tugagandan so'ng jami 37,1293 mln so'm mablag' oлади, бuning ichida dastlab omonatga qo'yilgan 10 mln so'm mablag' ham kiritilgan.

**Diqqat!!! Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarning jahb etiladigan muddatli omonatlari (depozitlari) bo'yicha Markaziy bankning qayta moliyalash bo'yicha amaldagi stavkasining kamida 75 foizi miqdorida foiz stavkalari belgilanishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.03.2000-yildagi 2564-PF-soni Farmoni).**

### **8.3. Aholi omonatlarini kafolatlash mazmuni va zarurati**

#### **Aholi omonatlarini davlat tomonidan kafolatlanishi**

Banklar iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan sababli, ularning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi butun tizimning samaradorligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga banklar tijorat tashkilotlari ekanligi va ularning asosiy maqsadi foyda olishdan iborat ekanligini ham yodda tutish lozim. Foyda ilinjida banklar turli xildagi operatsiyalarni amalga oshirishadi. Har qanday tadbirkorlik faoliyatidagi kabi banklarda ham ayrim faoliyat kutilgan foydani keltirsa, boshqalarini zarar bilan yakunlanadi.

Bank faoliyatida zararlarning ortishi nafaqat bankning o‘zi balki uning muvaffaqiyatli ishlashiga ishonch bildirgan omonatchilarga ham ta’sir etadi. Bank-ning omonatchilar oldidagi majburiyatini bajara olmasligi boshqa banklardagi omonatchilarni ham ehtiyojkorligini ortishiga ta’sir etadi. Natiyada aholi o‘rtasida bo‘sh turgan mablag‘larni banklarga emas, investitsiyaning boshqa shakllarga yo‘naltirilish yoki eng yomoni — hech narsaga sarflanmasligi banklarni asosiy funksiyasi (qarz oluvchi va qarz beruvchi o‘rtasidagi vositachilik qilish)ni bajarilmasligi va tizimni izdan chiqishini tezlashuviga olib keladi.

Shu sababli aholini banklarga bo‘lgan ishonchini oshirish va ta‘minlashdek muhim va o‘ta mushkul vazifani davlat amalga oshiradi. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, majburiy zaxiralash tartibi banklar jalb qilgan omonatlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga ko‘maklashadi. Ammo bu ham yetarli hisoblanmaydi. Shu sababli, davlatlar tomonidan va omonatlarni strategik operatsiya sifatida qaraydigan banklar ishtirokida aholi omonatlarini kafolatlash yoki sug‘urtalash fond-lari tashkil etiladi.

Bank omonatlarni jalb etishida ushbu fondlarga a’zoligi yoki a’zo emasligi to‘g‘risida mijozni xabardor qilishi lozim. Omonatlar bo‘yicha sug‘urtalash fondining mavjudligida esa, sug‘urtalash shartlarini tushuntirib berishi lozim.

O‘zbekistonda aholining banklardagi depozitlarini himoyalash maqsadida 2002-yil 5-aprelda «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatları to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunga ko‘ra kafolatlash aholining bankdagi depozitlariga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda quyidagilar kafolatlash obyekti bo‘la olmaydi:

- banklarga ishonchli boshqaruvga topshirilgan mablag‘lari;
- istalgan shaxs tomonidan olinishi mumkinligi belgilangan omonat turlari;
- aholining banklardagi tadbirkorlik maqsadida ochilgan hisob-varaqalari;

- qarz olishda yoki boshqa majburiyatlarni bajarishda garov sifatida olin-gan depozitlar;
- fuqarolarning chet eldag'i banklarda ochilgan depozitlari.

Mazkur qonunga muvofiq 2002-yil 19-sentabrda Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash Fondi tashkil etildi. Fond banklar tomonidan bir yo'la to'langan majburiy badallar hisobiga shakllantirildi.

Depozitlarni tasarruf etayotgan bank yopilishi natijasida fuqarolarning barcha talablari ushbu Fond tomonidan qondiriladi. Bunda fuqarolarning omonatlari bo'yicha bajarilgan barcha to'lovlar bank tomonidan Fondga o'tkazilgan majburiy to'lovlaridan chegirib olinadi. Fond o'z mablag'lari hisobiga fuqarolarning talablarini bajarish uchun sarflagan mablag'lari bankning majburiy badallaridan ko'p bo'lsa, bankni tugatish komissiyasi ushbu mablag'larni undirib berishga mas'ul bo'ladilar.

**Diqqat!!! Mamlakatimizda aholining banklardagi depozitlarini kafolatlash maqsadida 2002-yil 5-aprelda «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan.**

#### **8.4. Kreditning mazmuni va unga bo'lgan zarurat**

**Kreditning mohiyati va zarurati** Bizga ma'lumki, pul mablag'lari deganda asosan: kredit, investitsiya, korxonalarining hisob-varaqlaridagi mablag'lar va naqd pullar kiradi. Ushbu tushunchalar mazmunan bir ma'noni bersa-da, ularning ichki xususiyati keskin farqlanadi.

Jumladan, kredit — bu ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olingan pul mablag'lari hisoblanadi. Investitsiya esa ma'lum faoliyatdan foyda olish maqsadida qo'yilgan mablag'lar tushuniladi. Korxonani hisob-varaqlaridagi pullar bo'lib, istalgan vaqtida ehtiyojni qondirish uchun sarflanishi mumkin bo'lgan ixtiyoridagi mablag'lari hisoblanadi.

Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, zebu-ziynat mahsulotlari, iste'mol tovarlari, uy-joy, ko'char va ko'chmas mol-mulk sotib olinadi. Ush-

bu mahsulotlarni sotib olish uchun iste'molchida ixtiyoridagi pul mablag'larini yetarli bo'limganida kredit olish uchun murojaat qilinadi.

«Kredit» so'zi lotincha «creditum» — ssuda, qarz so'zidan paydo bo'l-ganligi qayd etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar «credo», ya'ni «ishonaman» degan ma'noni anglatishini qayd etadi<sup>32</sup>.

Albatta, kredit munosabatlarda ishtirok etayotgan subyektlarning bir-biriga bo'lgan ishonchi asosiy omil hisoblanadi. Bu yerda kreditor, kreditni berishda asosiy masala kredit oluvchiga nisbatan «ishonchi» muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi uchun birgina ishonchning o'zi yetarli bo'lmaydi. Kredit va kredit munosabatlari ning vujudga kelishida ishonch bilan birgalikda shunday bir kategoriya mavjudki, bu kreditor va kredit oluvchini o'rtasida o'zar oqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga undaydi. Buni kreditor va qarz oluvchini nuqtai nazaridan ko'radigan bo'lsak, kreditorni ushbu munosabatlarni rivojlantirishiga asosiy omil bu — iqtisodiy manfaatdorlik, ya'ni kredit foizi hisoblanadi. Qarz oluvchi uchun esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash orqali tegishli iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir.

Kredit oluvchi — kredit munosabatlarda qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi. Kredit oluvchi subyektlar sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi, davlat, banklar va boshqa shaxslar maydonga chiqadi.

Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida tegishli ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar va tamoyillar asosida amal qiladi. Kredit munosabatlarda ishtirok etuvchi har ikkala tomonning iqtisodiy manfaatlari mavjud bo'lib, ushbu manfaatlар o'zar o'mujassamlashganda kredit munosabatlari ro'y beradi.

Kreditor berilgan kredit uchun iqtisodiy manfaatdorlik (foyda) ni foiz ko'rinishida undirsa, kredit oluvchi kredit yordamida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kredit munosabatlarda kreditor uchun kredit oluvchi shaxsning qanday shaxs ekanligi, qanday faoliyat bilan shug'ullanishi judayam muhim emas, asosiysi berilgan kredit o'z vaqtida va tegishli foiz to'lovi bilan to'liq qaytishi muhim hisoblanadi.

32 Деньги, кредит, банки: Учеб. 2-е изд., перераб. и доп. /под ред. В. В. Иванова, Б. И. Соколова. М.: ТК Велби, изд-во Проспект, 2008. С. 410.

## **8.5. Kredit bo'yicha foizlarni belgilash va kreditni qaytarish shakllari**

Kreditning ikki xildagi foiz stavkalari ajratiladi: qat'i belgilangan va o'zgarib turuvchi.

### **Kreditda foiz stavkalari- ning turlari va hisoblanishi**

Qat'iy belgilangan foiz stavkalari kredit shartnomasi tuzilganida belgilangan foiz stavkasi kreditni amal qilishning to'liq davar mobaynida o'zgarishsiz saqlanib turadi. Masalan, 20 mln. so'm kredit 5 yil muddatga yillik 18% bilan berildi. Kredit berilgan paytda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 12%ni tashkil etdi. Kreditning 2 yilda Markaziy bank pul-kredit siyosatini erkinlashtirish va foiz stavkasini pasaytirishni rejalashtirdi va qayta moliyalashtirish stavkasi ni 10% gacha kamaytirdi. Natijada mamlakat kredit bozorida ham foiz stavkalari tushishi kerak, ammo misolimizda olingan kredit bo'yicha foiz o'zgarishsiz qoladi.

### **Kreditni to'lash va qayta- rish shartlari: anuitet, teng miqdordagi to'lovlar**

O'zgarib turuvchi kredit foiz stavkasi muayyan davrlarda o'zgartirib boriladi. Bunday kreditlar ma'lum foiz stavkalarga bog'lanadi va ularning o'zgarishi asosiy foiz stavkasining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Foiz stavkalarining ushbu shakli asosan xalqaro kreditlarda qo'llaniladi va London banklararo kredit bozorida doimiy o'zgarib turuvchi foiz stavkasiga (LIBOR — London InterBank Offer Rate) bog'lanadi.

Masalan, yosh oilaga beriladigan ipoteka kreditlari Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasiga teng miqdorda belgilangan. 2011-yilgacha ushbu kreditlar bo'yicha foiz stavkasi 14% darajasida edi. 2011-yildan Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasini 12% ga o'zgartirishi natijasida yosh oila uchun berilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkasi ham tushdi. Foiz stavkasining tushishi kredit olganlariga yengillik berishi aniq, lekin foiz stavkasini ko'tarilishi kreditni to'lashni qiyinlashtiradi. Xuddi shu vaziyat AQSH da ipoteka kreditlari bozorida inqirozni boshlanishiga sabab bo'lgan. Dastlab 2000-yilda AQSH Federal rezerv tizimi (AQSH Markaziy bank funksiyasini bajaruvchi tashkilot) foiz stavkasi 1–2% edi, 2004-yildan foiz stavkasi

ko'tarilishni boshladi, bu esa qarz olgan shaxslarni kredit to'lovlарини ortishi va natijada ketma-ket kredit defoltlari (kreditni qaytarilmaslik holatlari) sodir bo'la boshladi va bu oxir-oqibat ipoteka bozorida inqiroz bo'lishiga olib keldi.

Kredit munosabatlarining muhim jihatlaridan biri foiz stavkasini tanslash hisoblanadi. Har bir foiz stavkasining har ikkala tomon (qarz oluvchi va kreditor)ga ijobiy va salbiy tomonlari bor.

Qat'iy belgilangan foiz stavkasi:

- ijobiy tomoni — foiz to'lovlарining barqaror bo'lishida aks etadi. Bu esa qarz oluvchi va kreditorga kelgusi ishlарini rejalashtirish imkonini beradi;
- salbiy tomoni — foiz stavkasining bozor darajasini o'zgarishi, jumladan, kreditni qaytarmaslik havfi vujudga keladi. Foiz stavkasining bozor darajasini kredit shartnomasida belgilangan stavkadan pasayishi, kredit olgan shaxsnı kreditni to'lamaslik xohishini kuchayishiga ta'sir etadi. O'zgarib turuvchi foiz stavkasi:
- ijobiy tomoni — foiz stavkalarini bozor darajasida bo'lishi ta'minlanadi;
- salbiy tomoni — beqarorlik tufayli kelgusi ishlарni rejalashtirish qiyinlashadi.

Kreditni qaytarishda uni to'lash shartlari muhim hisoblanadi. Bunda kreditni to'lash va qaytarish tushunchalarini ajratish zarur. Kreditni qaytarish summasi ikki qismidan iborat bo'ladi: kreditning asosiy qismi va kreditga hisoblangan foiz qismi. Kreditni to'lash deganda kredit bo'yicha belgilangan foiz to'lovlарini bajarish tushuniladi. Kreditni qaytarish deganda kreditning asosiy summasi bo'yicha to'lovlarni bajarish tushuniladi.

Bunda kreditni to'lash va qaytarish shakli qarz oluvchining imkoniyatiga mos tarzda tanlanishi kreditni o'z vaqtida qaytishini ta'minlab beradi. Amalda kreditni to'lash va qaytirishning bir qancha shakllari mavjud.

Qarz oluvchi tomonidan kreditni to'lash va qaytarish bilan bog'liq hisob-kitoblarni murakkab jarayondek qabul qilinsa, kredit anuitet usulini tanlashlari mumkin. Ushbu usulda kredit foizi va asosiy qarzi bo'yicha to'lovlar teng miqdordorda amalga oshiriladi.


Masalan, 1 yil muddatga 5 mln. so'm miqdorida yillik 15 foizga kredit olingan bo'lsin. Bunda yil mobaynida amalga oshiriladigan oylik to'lovlar quyidagicha aks ettiriladi.

8.2-jadval

Oylar	qoldiq summa	asosiy arzga to'lovlar	foiz to'lovlari	to'lanadigan summa
Yanvar	4611	389	62	451
Fevral	4217	394	57	451
Mart	3818	399	52	451
Aprel	3414	404	47	451
May	3005	409	42	451
Iyun	2591	414	37	451
Iyul	2172	419	32	451
Avgust	1748	424	27	451
Sentabr	1319	429	22	451
Oktabr	885	434	17	451
Noyabr	445	440	11	451
Dekabr	-	445	6	451

Ushbu jadvaldagи holatni aniqroq ko'rsatish uchun quyidagi rasmni keltiramiz:

8.2-rasm.



Rasm va jadvaldagи ma'lumotlардан kreditni qaytarish bo'yicha bajarilayotgan to'lovlar o'zgarmas miqdorlarni tashkil etmoqda. To'lovlarning

tarkibida esa foiz va asosiy qarzga yo'naltirilayotgan to'lovlar ulushi o'zgarishi kuzatilmogda.


Hisob-kitoblar bo'yicha maksimal aniqlikni ta'minlash uchun asosiy summa bo'yicha teng miqdordagi to'lovlardaga belgilanishi mumkin. Ushbu usulda kreditning asosiy qismi kredit muddati bo'yicha teng miqdorda belgilanadi, foizlar esa kreditning qoldiq qiymatiga nisbatan hisoblab boriladi. Masalan, 1 yil muddatga 6 mln. so'm miqdorida yillik 15 foizga kredit olingan bo'lсин. Asosiy qarzni so'ndirish bo'yicha har oylik to'lov  $6\,000\,000/12=500$  ming so'mni tashkil etadi. Asosiy qarz bo'yicha hajarilgan har bir to'lov natijasida kreditning qoldiq qismi ham kamayib boradi, ya'ni birinchi oyda foiz to'lovi 75 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, asosiy qarzni 500 ming so'mga kamayganidan so'ng, ikkinchi oyda foiz to'lovi 68,7 ming so'm bo'ladi. Shu tarzda foiz to'lovlar kreditning so'nggi davrda kamayib boradi. Jadvalda mazkur jarayon batatsil ko'rsatilgan.

### 8.3-jadval

Oylar	Qoldiq summa	Asosiy qarzga to'lovlar	Foiz to'lovlar	Jami to'lanadigan summa
Yanvar	5500	500	75,0	575,0
Fevral	5000	500	68,7	568,7
Mart	4500	500	62,5	562,5
Aprel	4000	500	56,3	556,3
May	3500	500	50,0	550
Iyun	3000	500	43,7	543,7
Iyul	2500	500	37,5	537,5
Avgust	2000	500	31,3	531,3
Sentabr	1500	500	25,0	525,0
Oktabr	1000	500	18,7	518,7
Noyabr	500	500	12,5	512,5
Dekabr	-	500	6,3	506,3

Ushbu jadvaldagi holatni aniqroq ko'rsatish uchun quyidagi rasmni keltiramiz:

## 8.3-rasm.



Qarz oluvchi uchun kredit davrining dastlabki vaqtlarida qulay bo'lgan, ammo bank uchun kreditni qaytmaslik ehtimolini oshiruvchi usul bo'lib, asosiy qarzni yakuniy to'lov bilan so'ndirish hisoblanadi. Bunda kredit muddati mobaynida faqat foiz to'lovlarini bajarilib, kreditning asosiy qismi yakuniy sanada bitta to'lov bilan to'lab beriladi.

Kredit olishda odatda quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- kredit arizasi;
- davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzları yoyilmasi hamda 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklari uchun solishtirma dalolatnomalar, foya va zararlar haqidagi hisobot;
- olinadigan kreditning samaradorligi, qaytarishliligi, to'lanishi va ta'minlanishi hamda pul oqimining tahlili ko'rsatilgan biznes reja.

Kredit xodimi yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha hujjatlarni olgach quyidagilarni aniqlaydi:

- qarz oluvchining to'lovga layyoqatliligi va kreditga qobilligi bo'icha ko'rsatkichlar;
- uning reyting bahosini;
- pul mablag'larini qoplanganligi, alohida ishlatalishi, jalg etilishi darajasini;
- aylanma mablag'larning foya keltirishi va aylanish tezligini;
- kreditning maqsadi, ustav faoliyatiga mos kelishini.

Bank bo'limlarida mijozlarning bankdagi kredit arizalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun maxsus daftar yuritiladi va bu daftar raqamlanadi, tijildi, rahbar, bosh buxgalter va bank kredit bo'limining boshlig'i imzo chekiib, dumaloq muhr qo'yish bilan tasdiqlanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda banklar va nobank kredit tashkilotlari domiy tarzda qarz oluvchi shaxslarning to'lovga layyoqatliligi bo'yicha axborotlarni almashinib turishadi. Ushbu jarayonni amalga oshirish kredit byurolari orqali bajariladi. Kredit byurolarining amal qilishi qator afzalliklarga ega:

Birinchidan, kredit byurolari banklarni qarz oluvchi bo'yicha ma'lumotlарини to'liq va aniq olish va qarz oluvchining kreditga layyoqatliligini aniq baholash imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, kredit byurolari banklarga mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashda sarflaydigan xarajatlарини tejas imkonini beradi.

Uchinchidan, kredit byurolari qarz oluvchilarни tartibga soluvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Har bir kredit oлган shaxs bank oldida majburiyatlarni bajarmagan holda, kelgusida kredit olish imkoniyatini pasaytirishini anglaydi.

Eng birinchi kredit byurolari iste'mol kreditlari bozorida paydo bo'lган. Ushbu bozorning o'ziga xosligi — unda kichik summadagi kreditlarni olishga harakat qilayotgan qarz oluvchilar sonining ko'п bo'lishida namoyon bo'ladi. Shu sababli qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash katta xarajatlarga olib keladi.

Hozirda O'zbekistonda qarz oluvchilarning kredit tarixini kuzatish uchun maxsus tashkilot — «Kredit-axborot tahliliy markazi» MChJ ta'sis etilgan.

## **8.6. Kredit shartnomasi va kredit oluvchi majburiyatining bajarilishini kafolatlash**

**Kredit munosabatlariда kredit shartnomasining ahamiyati va uni tuzish tartibi**

Kredit munosabatlarda tomonlarning (kredit oluvchi va kreditor) majburiyati o'zarо tuzilgan va imzolangan kredit shartnomasi orqali belgilanadi.

Kredit shartnomasi — bu bir tomonдан bankni (yoki nobank kredit tashkilotni) ma'lum shartlar asosida belgilangan miqdordagi pul mablag'larini berishni, ikkinchi tomonidan kredit oluv-

chini belgilangan shartlar asosida kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatini aks etuvchi hujjat hisoblanadi.

Kredit shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u qarz shartnomasidan farq qiladi. Kredit shartnomasida kredit beruvchi bo'lib, maxsus vakolatli organning ruxsati (litsenziyasi) asosida faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan maxsus kredit tashkiloti hisoblanadi va qarz munosabatlari pul mablag'lar harakatida ifodalanadi.

Kredit shartnomasi kreditning barcha tamoyillarini aks etgan holda yozma shaklda tuziladi. Shu jihatdan:

- kreditni qaytarish tartibi bilan birga uni to'liq qaytarishning eng so'ngi muddati belgilanadi;
- kreditdan foydalanilganlik haqi — foiz stavkasining shakli va darajasi belgilanadi;
- kreditni olishda garov sifatida qo'yiladigan obyekt aniq ko'rsatiladi;
- kreditdan nima maqsadda foydalanish aniq aks ettiriladi;
- kredit qaytarilmaganda yoki kredit bo'yicha to'lovlardan kechikkanida, tomonlar roziligi bilan qabul qilinadigan choralar qayd etiladi.

Yozma shaklda tuzilmagan kredit shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi, qarz oluvchi va kreditor o'rtafigi o'zaro talab va majburiyatlarning bajarilishi tartibga solinmaydi.

Kredit shartnomasining muhim jihat bo'lib, kredit qaytarilmaganida garov ta'minotini undirish tartibini to'liq va aniq aks etish hisoblanadi. Mulkka bo'lgan egalik huquqini boshqa shaxsga o'tkazilishi qonunchilikda juda murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni osonlashtirishning zaruriy sharti bo'lib, kredit shartnomasida barcha munosabatlarni to'liq aks ettirish hisoblanadi.

Mol-mulk garovi kredit ta'minotining asosiy shakli bo'lib, qarz oluvchining mulki hisoblangan har qanday mol-mulk hamda O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi qonuniga muvofiq garov obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan, oborotdan olib qo'yilgan buyumlardan tashqari, qimmatbaho boyliklar, zargarlik buyumlari, erkin almashtiriladigan valutalar, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar) garov obyekti bo'lishi mumkin.

Qarz oluvchining majburiyatlарини ta'minoti sifatida qabul qilingan mol-mulk va ta'minotning boshqa shakllari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- boshqa garovdan holi bo'lishi;
- yuqori likvidlikka ega bo'lishi, bunda aktivlarning pul mablag'lariga konvertatsiyalash qobiliyati tushuniladi;

- uzoq vaqt saqlanish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Bank bo'limi mol-mulk garovi asosida kreditni rasmiylashtirishda kredit oluvchi bilan garov haqidagi yozma shartnomani tuzadi (kredit shartnomasi loyihasi asosida). Garov shartnomasida garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati, bahosi va manzili, garov bilan ta'minlanadigan majburiyatlarni bajarishning mohiyati, miqdori va muddati ko'rsatiladi.

Mol-mulk garovi qarz oluvchi hisobidan bank foydasiga sug'urtalaniishi hamda notarial jihatdan tasdiqlanishi kerak. Berilayotgan kreditning miqdori garovga qo'yilgan mulk sug'urta bahosidagi qiymatining 80 foizidan oshmasligi kerak. Bunda noturarjoy bino va inshootlari Davlat kadastri organlari tomonidan baholanadi.

Mol-mulk garovining barcha turlari bo'yicha bank kredit oluvchi bilan o'zaro baholash dalolatnomasini tuzadi. Agarda garovga bir necha shaxsning tasarruffida bo'lган mol-mulk rasmiylashtirilayotgan bo'lsa, bunday holda mulkga egalik qiluvchi barcha shaxslarning yozma ravishdagi roziligi bilangina ushbu mol-mulk garovga berilishi mumkin. Garovga qo'yilgan mol-mulk tomonlarning kelishuviga asosan to'laligicha qarz oluvchining tasarrufida qoladi, yoki bank ixtiyoriga beriladi.

Garovga qo'yilgan mulkning saqlanishi bo'yicha bank kredit shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda joyida tekshiruv o'tkazishi mumkin.

Noturar joy binolar va inshootlar garovi bo'yicha shartnomalar Davlat kadast-ri tuman va shahar xizmatlari organlari tomonidan qayd etilishi lozim.

Turar joy binolari ba'zi banklar kredit komiteti tomonidan garov obyekti sifatida qabul qilinmaydi.

Yuqori likvidlikka ega bo'lган davlatning qisqa muddatli obligatsiyaları (DQMO) ham garov obyekti bo'lishi mumkin va ularni garovga qo'yish alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Garovga qo'yilgan mulk kredit davri mobaynida sotilishiga yo'l qo'yilmaydi. Aksincha holatlar oldini olish uchun garovlarni ro'yxatga oluvchi garov reyestri tashkil etiladi. Garov mulkini ro'yxatga olish tizimi garov reyestri tashkil etilishi va unda garovga olingan mulk va uning egalari to'g'risidagi ma'lumot yig'ilishi orqali tashkil etiladi.

Garov reyestri — mulkning garovda yoki garovda emasligi hamda konkret shaxs-ning mulki garovda yoki garovda emasligi to'g'risidagi elektron axborot bazasidir.

Garovga qo'yilgan mulkni garov reyestrda ro'yxatga olish — garova oluvchining talabini qondirishda boshqa kreditorlarga nisbatan ustun-

likka ega bo'lish huquqini olish maqsadida garovga olingan mulkni garov reyestriga axborot yuborishdan iborat.

Garovga olingan mulkni reyestrda ro'yxatga olishning ikki shakli mavjud:

- reyestrga belgilangan kreditorlar (registratorlar) doirasigina axborot yuboradi. Bunda tartib va mas'uliyat kuchayadi. Biroq, reyestrda axborot to'liq bo'lmaydi. Shuningdek, bu tartib xalqaro tashkilotlarning e'tiroziga ham sabab bo'lishi mumkin
- reyestrga barcha yuridik va jismoniy shaxslar (kreditorlar) axborot yuborish huquqiga ega. Bu tajriba ancha keng tarqalgan, axborot ko'proq yig'iladi.

#### **Kredit berishda kafillik berish amaliyotidan foyda- lanish**

Garov ta'minoti kredit oluvchini to'lovga layyoqatlilagini yo'qolishi natijasida bank tomonidan zararlarni qoplashga yo'naltiradigan kafillik hisoblanadi. Odatda garov ta'minoti olinayotgan kredit miqdoridan 20% ko'p bo'lishi talab etiladi. Yoki kredit oluvchi garov qiyamatining 85%gacha kredit olishi mumkin.

Garov ta'minoti doirasida olingan kredit ko'zda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirishga yetmasa, bank garovga qo'shimcha ravishda biron shaxsnинг kafilligi ostida kredit hajmini oshirishi mumkin.

Bunda kafillik berayotgan shaxsning to'lovga layyoqatligi ham baholanishi lozim. Kafillik berayotgan shaxsning yozma roziligi asosida bank kredit ajratishi mumkin. Kredit qaytarilmaganida kafillik bergen shaxs kreditning to'lanmagan qismi bo'yicha majburiyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli, odatda, kafillikni qarz oluvchiga yaqin bo'lgan yoki uning to'lov qobiliyatiga asosli ishongan shaxslar tomonidan berilishi mumkin.

## **8.7. Aholiga beriladigan kreditlarning asosiy shakllari va ulardan foydalanish**

#### **Iste'mol krediti**

Iste'mol krediti aholining iste'mol mahsulotlari, maishiy texnika, avtomobil kabilarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun beriladi. Ko'p hollarda iste'mol kreditida garov ta'minoti bo'lib, xarid qilingan tovar hisoblanadi. Ammo olingan kredit to'laligicha tovari xarid qilish uchun sarflangani sababli, kreditni garov bilan ta'minlash yetarli bo'lmaydi. Shu sababli, banklar is-

te'mol kreditini berishda dastlabki to'lov sifatida tovar bahosining 25–35%gacha to'lab berishni talab etadir.

Iste'mol kredit mamlakatda ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va aholi ehtiyojlarini qondirish orqali turmush darajasini oshirish maqsadida rivojlantiriladi. O'zbekistonda iste'mol kredit hisobiga milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini xarid qilishga ruxsat berilgan. Shu jihatdan iste'mol krediti ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Iste'mol krediti naqd va naqdsiz shaklda berilishi mumkin. Kredit asosan qisqa muddatlarga beriladi va 3–5 yilgacha bo'lган muddatlargacha cho'zilishi mumkin.

Ba'zan tovar ishlab chiqaruvchi va iste'mol kreditini beruvchi bank o'rtaida kelishuv imzolangan bo'lishi va tovarlar ushbu bankdan olingan kredit hisobiga xarid qilinsa, ma'lum miqdordagi chegirmalarga ham ega bo'lish mumkin.

Iste'mol krediti ikki shaklda berilishi mumkin:

Moliyaviy iste'mol krediti — bu sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun iste'molchiga pul mablag'lari tarzida beriladigan kreditdir. Moliyaviy iste'mol krediti berish O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarini (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxona yoki sotuvchi tashkilotning bankdagi hisob-varaqiga bank yoxud boshqa kredit tashkiloti tomonidan pul mablag'lari o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovar iste'mol krediti — hu sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini bo'lib-bo'lib to'lash tarzida iste'molchiga beriladigan kreditdir.

Iste'mol krediti olish uchun kredit buyurtmasi va o'z daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan boshqa hujjatlar taqdim etiladi. Iste'molchining daromadlari tomonidan taqdim etilgan garov ta'minoti iste'mol krediti summasini qaytarish va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Kredit arizasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- iste'molchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasportni (yoki passport o'rnnini bosuvchi hujjatni) seriyasi va raqami hamda yashash joyi;
- iste'mol kreditining obyekti;
- iste'mol kreditining muddati;
- iste'molchining faoliyat turi va daromadlari;
- iste'molchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usuli.

Kredit buyurtmasi berilgan sana ko'rsatilgan holda iste'molchi tomonidan imzolanadi.

Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

- iste'mol krediti berish qoidalari bilan tanishib chiqish;
- o'z huquq va majburiyatlar to'g'risida, shu jumladan iste'mol krediti berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;
- sharhnomalarining belgilangan tartibda va muddatlarda bajarlilishini talab qilish;
- tegishli darajada sifatli bo'limgan sotib olingan tovarning (ishning, xizmatning) almashtirilishini talab qilish yoki uni sifati tegishli darajada bo'lgan boshqa shunga o'xshash tovarga (ishga, xizmatga) almashtirish imkoniyati bo'limganida sharhnomani bekor qilish;
- iste'mol krediti beruvchi tashkilotdan sharhnomalar bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o'rni ni qoplashni talab qilish.

#### **Ipoteka krediti va undan foydalanish imkoniyati**

O'zbekistonda keyingi yillarda iste'mol krediti hisoblangan ipoteka krediti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ipoteka krediti iq-tisodiyotning markazlashgan tuzumi sharoitida mavjud bo'limgan.

Iqtisodiy adabiyotda ipoteka atamasi ko'chmas mulklarni garovga qo'yish natijasida vujudga keladigan moliyaviy munosabat bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri garovga qo'yilgan ko'chmas mulk kredit (qarz) oluvchining tasarrufida qolishi ma'lum bo'ladi. Ipoteka atamasi va ipoteka krediti haqida so'z yuritganda, ularning iqtisodiy mohiyatini to'liq aniqlash maqsadida, quyidagi ikkita holatga e'tiborimizni qaratamiz.

Birinchi xolat, ipoteka — bu garov. Garov mavjud ekan — ipoteka mavjud bo'ladi, garov mavjud bo'lmasa ipoteka ham bo'lmaydi, bu kredit ipoteka krediti hisoblanmaydi. Ushbu holatni yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bank qarzdorga uy-joyni yer, kvartira yoki uchastkani garovga qo'yish orqali kredit berdi. Ushbu kredit qarz oluvchi tomonidan qanday maqsadga ishlatsa ham, bu kredit ipoteka krediti hisoblanadi. Demak, kreditni olishga garov sifatida ko'chmas mulk qo'yildimi, ushbu kredit qanday maqsadga ishlatalishidan qa'tiy nazar bu ipoteka hisoblanadi.

Ikkinchi xolat, bank qarz oluvchiga uy-joy olish uchun ta'minlanmagan kredit berdi, ya'ni garov sifatida kredit oluvchi tomonidan hech qanday nar-

sa qo'yilmadi. Vaholanki, bankdan olingen kredit mablag'i uy-joy (kvertira) sotib olish uchun foydalanilsada, ushbu kredit ipoteka krediti hisoblanmaydi. Chunki, garov mavjud bo'lmasa, ipoteka ham mavjud bo'lmaydi.

O'zbekistonda ipoteka krediti hisobiga quyidagilar amalga oshirilishi mumkin:

- qurilayotgan uy-joyni u bilan birga joylashgan yer uchastkasi;
- ipoteka krediti hisobiga sotib olinadigan va belgilangan tartibda qarz oluvchi mulkiga o'tadigan yakka tartibdagi uy-joy yoki ko'p kvartirali uydagi kvartira;
- qarz oluvchining mulki bo'lgan va ipoteka krediti hisobiga rekonstruksiya qilinayotgan yakka tartibdagi uy-joy.

Ipoteka kreditini olish uchun kredit ta'minoti sifatida quriladigan, sotib olinadigan uy-joy yoki ko'p kvartirali uydagi kvartira qiymati hamda uning 25% miqdoridagi o'z mablag'i olinadi. Garova qo'yilgan mulknii baholash qarz oluvchi va bank o'rtaсидаги bitimga ko'ra bozor qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yosh oilalarни moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2007-yil 18-maydagi PF-3878-son Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashga katta e'tibor berildi.

Yosh oila deganda, oiladagi har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tganlar tushuniladi.

Tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan yosh oilalarga kreditlar quyidagi imtiyozli shartlar asosida beriladi:

- oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lмаган miqdorda o'rnatiladi;
- yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlari uch yillik imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lмаган miqdorda belgilanadi;
- yosh oilalarga beriladigan moliyaviy iste'mol kreditlari olti oylik imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lмаган miqdorda belgilanadi.

Ipoteka kreditlari yosh oilalarga 15 yildan kam bo'lмаган muddatiga beriladi. Bunda, yosh oilalar vositachilik haqini to'lamasdan kreditni muddatidan oldin qaytarishi hamda unga hisoblangan foizlar to'lovini muddatidan oldin amalga oshirishi mumkin. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga beriladigan ipoteka krediti, kredit resurslari manbasidan qat'i nazar, quyidagi miqdorlarda beriladi:

- yakka tartibdag'i uy-joyni qurilishi va sotib olish uchun — qonun hujjalarda belgilangan eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha;
- yakka tartibdag'i uy-joyni rekonstruksiya qilish, shuningdek ko'p kvar-tirali uydagi kvartirani sotib olish uchun — qonun hujjalarda belgilangan eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha.

Yosh oilaga berilgan ipoteka kreditining muhim afzalliklari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib soliq imtiyozi hisoblanadi. Bunda kreditni qoplash va foizini to'lash uchun yo'naltirilgan mablag'lar ularning soliq solinadigan daromadlaridan chegirib tashlanadi. Masalan, yosh oila 12,0 mln so'm yillik 12 foizli ipoteka kreditini 15 yilga oldi. Har oyda ipoteka kreditini qaytarish uchun ish haqidan o'tkazilgan mablag' miqdori chegirilib, qolgan daromadidan soliq hisoblanadi, ya'ni ipoteka kreditini qoplashga yo'naltirilgan ish haqidan soliq ushlanmaydi. Kreditni to'lash jarayonlarini aks ettiruvchi quyidagi jadvalni keltiramiz.

#### 8.4-jadval

	qoldik summa	asosiy qarzga to'lovlar	foiz to'-lovlar	to'lanadi-gan summa	oylik ma-osh	ixtiyori-dagi mablag'	sh. j. so- liq im- tiyozi hisobiga
	A	B	V	G	D	E	J
Yanvar	12000	-	122	122	400	245	16
Imtiyozli 3 yillik davr mobaynida barcha to'lovlar shu tarzda bajariladi							
hisoblanishi	<i>A-B</i>	<i>A/(12*m)</i>	<i>A * 12% * n</i>	<i>B+V</i>		<i>D-G</i>	<i>D*t-E*t</i>
Yanvar	11916,7	83,3	122,3	205,6	450	244,4	16,4
Fevral	11833,4	83,3	109,7	193,0	450	257,0	15,4
Mart	11750,1	83,3	120,6	203,9	450	246,1	16,3
Aprel	11666,8	83,3	115,9	199,2	450	250,8	15,9
May	11583,5	83,3	118,9	202,2	450	247,8	16,2
Iyun	11500,2	83,3	114,2	197,5	450	252,5	15,8
Iyul	11416,9	83,3	117,2	200,5	450	249,5	16,0
Avgust	11333,6	83,3	116,4	199,7	450	250,3	16,0
Sentabr	11250,3	83,3	111,8	195,1	518	322,4	15,6
Oktabr	11167,0	83,3	114,7	198,0	518	319,5	15,8
Noyabr	11083,7	83,3	110,1	193,4	518	324,1	15,5
Dekabr	11000,4	83,3	113,0	196,3	518	321,2	15,7
Kreditning qolgan davridagi to'lovlar shu tarzda hisoblanadi							

A.<sub>1</sub> — avvalgi oydag'i qoldiq summa

m — kredit muddatidan imtiyozli davr chegirib tashlangan qismi  
(15 yil kredit muddati — 3 yillik imtiyozli davr = 12 yil)

n — oydagи kunlarning (mos oydagи kunлar soni) yildagi kunlarga  
(365 kunga) nisbati

t — daromad solig‘ining joriy davrdagi darajasi

**Diqqat!!!** Respublikamizda yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadi-da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2007-yil 18-mayda PF-3878-sonli Farmon qabul qilingan.

**Ta'lif krediti va uni rasmiylashtirish**

Ta'lif krediti — bu bakalavriatga o'qishga qabul qilingan talabalar uchun 10 yilgacha, magistraturaga o'qishga qabul qilingan talabalar uchun 5 yilgacha bo'lgan muddatga to'lov-shartnoma asosida beriladigan kredit.

Ta'lif krediti chin yetimlarga, «Mehribonlik uylari»da tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga nol foiz stavkasi (foizzisiz kredit) da beriladi.

Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi tuman Bandlikka ko'maklashish va aholi ni ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi (keyingi o'rinnarda «Jamg'arma» deb ataladi) mablag'laridan to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan imtiyozdan foydalanishi mumkin bo'lgan oilalar kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish va ularga moddiy yordam tayinlash va berishning amaldagi tartibiga muvofiq (Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 434-sun qaroriga ilova) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla fuqarolari yig'ini) tomonidan aniqlanadi.

Ta'lif kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to'lash ta'lif muassasasi-ga o'tkazilgan summa berilgan vaqt dan, asosiy qarzni qaytarish esa talaba tomonidan oliv ta'lif muassasasida o'qishning ta'lifning ushbu turi uchun rasmiy belgilangan muddati tugallangandan so'ng, ayrim kurslarda takroran o'qish muddati hisobga olinmasdan, uch oy o'tgandan so'ng boshlanadi.

Ta'lif kreditini olish uchun qarz oluvchi tijorat bankiga quyidagi hujjalarni taqdim etadi:

- ta'lif krediti berish to'g'risidagi ariza;

- talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtaqidagi to'lov-shartnoma asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt). Shart-noma asosida o'qishning belgilangan muddati va bir yil uchun to'lov miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim. O'qish uchun to'lov miqdori keyingi yillarda o'zgargan hollarda shartnomalarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi, bu haqda oliy ta'lim muassasasi o'n kun muddatda bankga yozma ravishda ma'lum qiladi, so'ngra qarz oluvchi, bank va oliy ta'lim muassasasi o'rtaqidagi kredit shartnomasiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan qarz oluvchining yashash joyi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;
- kreditni qaytarishning ta'minlanishi to'g'risida hujjat;
- imtiyozli ta'lim kreditlari olish huquqiga ega bo'lgan chin yetimlar, «Mehribonlik uylari»da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogaaronlari, kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar tegishli tasdiqlovchi hujjalarni taqdim etadilar.

Tijorat banklari tomonidan berilgan ta'lim kreditlarini olganlarga soliq imtiyozlar ham ko'zda tutilgan. Bunda ikkita holat mavjud. Birinchi holatda ta'lim kreditini olgan shaxs, ya'ni ta'lim krediti rasmiylashtirilgan shaxs talabaning o'zi bo'lsa, ushbu kreditni qoplashga yo'naltirilgan mablag'lari; ikkinchi holatda yigirma olti yoshga to'lmagan farzandi uchun ota-onalar tomonidan ta'lim kreditlarini qoplashga yo'naltirilgan mablag'larga daromad solig'iidan imtiyoz tatbiq etiladi. Masalan, oliy o'quv yurtiga shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan talaba o'zining nomiga ta'lim kreditini 10 yil muddatga oldi, o'qish davrida kredit uchun to'lagan foizlari miqdoriga, agar uning soliq solinadigan daromadi mavjud bo'lsa, soliq solinadigan daromaddan chegirib tashlanaadi, shuningdek olgan krediti bo'yicha asosiy qarzni o'qishni bitirgandan keyin uch oy o'tganidan so'ng qoplay boshlaganda, kreditning har oyda qaytarilgan miqdori ish haqidan chegirilib qolgan qismidan daromad solig'i hisoblanadi.

Ta'lim krediti yigirma olti yoshga to'lmagan talabaning otasi yoki onasining nomiga rasmiylashtirilganda, otasi yoki onasi tomonidan ta'lim kreditini qoplashga yo'naltirilgan mablag'larga soliq solinadigan daromadi kamaytiriladi. Masalan, farzandi oliy o'quv yurtiga shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan ota-ona o'zining nomiga kredit bo'yicha asosiy qarzni o'qish tuga-gandan so'ng to'lash sharti bilan yillik 12 foizli ta'lim kreditini rasmiylash-tirdi va shartnoma miqdoridan kelib chiqib birinchi yili jami 6,0 mln so'm (1-oktyabrga qadar 3,0 mln so'm, 15 martga qadar 3,0 mln so'm) tijorat banki

tomonidan oliv o'quv yurtiga to'lov amalga oshirildi. Bunda oktabr oyiga uchun hisoblangan 30575,34 so'm ((3,0 mln. So'm×12/100)/365)\*31 kun) ta'lif krediti foizini talabaning otasi yoki onasining ish haqidagi chegirib tashlanib, qolgan qismidan daromad solig'i hisoblanadi.

Olingen kredit qaytarilishini ta'minlash uchun har qanday kredit kabi garov ta'minoti yoki uchinchi shaxsning kafilligi talab etiladi. Garov sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar qo'yilishi mumkin. Kafillik sifatida bank kafolati, yaqin qarindoshlar kafilligi, sug'urta polisi olinishi mumkin. Shuningdek, chin yetimlar va «Mehribonlik uylari»da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari va kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kafilligi taqdim etilishi mumkin.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Jamg'arishning zarurati nimadan iborat?
2. Jamg'arma depozitdan qanday farqlanadi?
3. Aholi omonatlari va korxona hisob raqamlari o'rta sidagi farq nimadan iborat?
4. Muddatli depozitlarning talab qilib olguncha depozitlardan qanday farqlanadi?
5. Bank depozitlari bo'yicha foizlarning qanday turlari mavjud va ular qanday hisoblanadi?
6. Aholi omonatlari qanday kafolatlanishi mumkin?
7. Kredit nima va uni qarzdan qanday farqi bor?
8. Kreditning zarurati nimadan iborat?
9. Kredit oluvchi uchun foiz stavkalarning qanday shakllari afzal?
10. Kreditni qaytarishning qanday shakllari mavjud, ular bir-biridan nimasid bilan farq qiladi?
11. Kreditning qanday turlari mavjud?
12. Iste'mol krediti va uning maqsadi nimadan iborat?
13. Ipoteka krediti va uning o'ziga xos jihatlari?

## **TAYANCH ATAMALAR**

**Depozit** — lotincha so'zdan olingen bo'lib, lug'aviy ma'nosi-saqlash uchun topshirilgan buyumni bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'i-

ni vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi.

**Yosh oila** — har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan yoshlar.

**Kredit bo'yicha imtiyozli davr** — kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddatini kechiktirilgan davri.

**Iste'mol krediti** — tijorat banklari iste'molchilarga tovar sotib olish uchun bergen qarzi.

**Kredit axboroti almashinuvi** — kredit byurosi, kredit axboroti subyekti, kredit axborotini yetkazib beruvchi va kredit axborotidan foydalanuvchining kredit tarixini shakllantirish hamda kredit hisobotini taqdim etish maqsadida kredit axborotini yig'ish, unga ishlov berish, uni tahlil qilish, saqlash, taqdim etish, undan foydalanish va kredit axborotini himoya qilish borasidagi hamkorlik.

**Kredit axboroti subyekti** — kredit bitimi bo'yicha tegishinchha qarz oluvchi (qarz-dor), lizing oluvchi, kafil, kafolat beruvchi, garovga qo'yuvchi, shuningdek sug'urtalovchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Kredit axborotidan foydalanuvchi** — kredit bitimi bo'yicha tegishinchha kreditor, lizing beruvchi, garovga oluvchi, shuningdek sug'urta qildiruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Kredit axborotini yetkazib beruvchi** — kredit axborotini kredit byurosiga taqdim etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Ipoteka krediti** — sotib olinayotgan ko'chmas mulkni garovga olish orqali uy-joy qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun beriladigan kredit.

**Kredit bitimi** — kredit, qarz, lizing, faktoring, sug'urta shartnomasi hamda pul mablag'lari va boshqa mol-mulkni qarzga berishni, shu jumladan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovni bo'nak (oldindan to'lash), kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash tarzida berishni nazarda tutuvchi boshqa shartnomalar.

**Kredit ekspansiysi** — mamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi va buning oqibatida, kredit qo'yilmalari hajmining keskin ko'payishidir.

**Kredit** — o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari ni boshqalar tomonidan ma'lum muddatga xaq to'lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.

**Ta'llim krediti** — oliy o'quv yurtiga bakalavriat va magistraturaga o'qisiga shartnoma asosida qabul qilingan talabalar uchun belgilangan muddatga beriladigan kredit.

**Foiz stavkasi** — qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to'laydi-gan to'lov.

**Foiz to'lovlar** — har qanday turdag'i qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

## TEST SAVOLLARI

1. Qaysi depozitda belgilangan sanadan avval olinishi foizlarning yo'qo-tilishiga sabab bo'ladi?
  - a) Talab qilib olinguncha
  - b) Jamg'arma
  - v) Muddatli
  - g) Yutuqli
2. Depozitlarning qayday turi korxonalar mablag'ini aks etadi?
  - a) Talab qilib olinguncha
  - b) Jamg'arma
  - v) Muddatli
  - g) Yutuqli
3. Qanday depozitlar bo'yicha odatda foiz stavkalari eng yuqori bo'ladi?
  - a) Talab qilib olinguncha
  - b) Jamg'arma
  - v) Muddatli
  - g) Yutuqli
4. Yutuqli depozitlar qanday depozitlarning turi hisoblanadi
  - a) Talab qilib olinguncha
  - b) Jamg'arma
  - v) Muddatli
  - g) Yuqoridagilarning barchasi
5. Aholi omonatlari bo'yicha eng past foiz stavkasi qanchagacha bo'lishi mumkin?
  - a) Qayta moliyalashtirish stavkasi
  - b) Qayta moliyalashtirish stavkasidan ikki barobar ko'p
  - v) Qayta moliyalashtirish stavkasining 75%gacha
  - g) Qayta moliyalashtirish stavkasining yarmi
6. Bankning jalb etilgan mablag'larini nimalar tashkil etadi?
  - a) Boshqa banklarga qo'yilgan omonatlari

- b) Aholidan qabul qilingan omonatlar  
v) Garovga qo'yilgan obyektni sotilishidan olingan pullar  
g) Bank ochilganida ta'sischilarning pullari
7. Kreditda garovning zarurati nimada aks etadi?  
a) Uchinchi shaxs kafolatini talab qilinganida taqdim etiladi  
b) Kredit oluvchining to'lovga layoqatini oshirib beradi  
 v) Kredit qaytarilmaganida garovga qo'yilgan buyum sotilishi hisobiga yopiladi  
g) Kredit bo'yicha belgilangan foiz stavkasi qayta ko'riganida yetmagan summa garov hisobiga qoplanadi
8. Kredit byurosi nima?  
a) Kreditlar past foiz stavkalarda beriladigan tashkilot  
b) Kreditlar minimal talablar bilan beriladigan tashkilot  
 v) Kredit oluvchilar to'g'risida axborotlarni to'plovchi tashkilot  
g) Banklar tomonidan taklif etilayotgan kredit turlari bo'yicha axborot to'plovchi tashkilot
9. Kredit olishda qarz oluvchining to'lovga layyoqtligi past bo'lsa, qanday ish tutadi?  
 a) Uchinchi shaxs kafilagini aks etadi  
b) Bank ishonchiga kiradi  
v) Qo'shimcha kredit oladi  
g) Kredit olishdan voz kechadi
10. Kreditni qaytarishning qanday shaklida teng miqdordagi to'lovlar o'tkaziladi?  
 a) Anuitet  
b) Foizlarni qoldiq summaga nisbatan hisoblanashi  
v) Yakuniy bir martalik to'lov  
g) Qat'iy belgilangan foiz stavkali
11. Quyidagi holatlarning qaysi birida o'zgarib turuvchi foiz stavkalar belgilangan  
a) Iste'mol krediti yillik 18% bilan berildi  
b) Mikrokredit tashkiloti tadbirkorga 6 oy muddatga 20 mln. so'mni 18% bo'yicha kredit berdi  
 v) Yosh oila uchun berilgan ipoteka krediti foiz stavkasi qayta moliyalashtirish stavkasi darajasida belgilandi  
g) To'y marosimini o'tkazish uchun lombarddan kredit olindi.
12. Qat'iy belgilangan foiz stavkasi qanday muddat davomida o'zgarmaydi?

- a) Har olti oyda  
 b) Imtiyozli davr mobaynida  
 v) Kredit davri mobaynida  
 g) Har bir yilda
13. Libor nima?  
 a) Londondagi banklararo bozorda kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi  
 b) Londondagi Bor institutining reyting darajasi  
 v) Liverpul tovar-xomashyo birjasi indeksi  
 g) Londondagi fond birja indeksi
14. Imtiyozli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi qanday darajada belgilanadi?  
 a) Qayta moliyalashtirish stavkasidan 50% ko'p bo'limgan  
 b) Qayta moliyalashtirish stavkasidan ko'p bo'limgan  
 v) Banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkasidan 50% ko'p bo'limgan  
 g) Banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkasi darajasida
15. Kredit qanday munosabatlar asosida tashkil topdi?  
 a) Tovar-kredit munosabatida.  
 b) Pul-kreditlar munosabatida.  
 v) Tovar-pul munosabatlarida.  
 g) Davlat krediti munosabatlarida.
16. Kreditor va kredit oluvchi o'rtasida asosiy omil nima hisoblanadi?  
 a) Mablag'lardan samarali foydalanish  
 b) Iqtisodiy manfaatdorlik  
 v) O'zaro yaqinlik.  
 g) Iqtisodiy hamkorlik.
17. Kreditning zarurligi qanday javobda noto'g'ri keltirilgan?  
 a) Kredit munosabatlarida ishtiroy etuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlanishi.  
 b) Iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lar ssuda kapitali si-fatida jamg'arilib, tegishli maqsadlarga yo'naltiriladi.  
 v) Banklarni moliyaviy muassasa ekanligi.  
 g) Iqtisodiyotda ishlab chiqarish siklining davriyiligi.
18. Bank krediti muddatiga ko'ra qanday kreditlarga bo'linadi?  
 a) Qisqa, o'rta va uzoq muddatli.  
 b) O'rta va uzoq muddatli.  
 v) Qisqa va uzoq muddatli.

- g) Yaqin va uzoq muddatli.
19. Iste'mol krediti qanday maqsadlarga beriladi?
- Yuridik va jismoniy shaxslarga kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan tovar va buyumlarni sotib olishga.
  - Asosan jismoniy shaxslarga kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan tovar va buyumlarni sotib olishga.
  - Asosan jismoniy shaxslarga ishlab-chiqarishni rivojlantirishga.
  - Asosan yuridik shaxslarga ishlab-chiqarishni rivojlantirishga.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида» Қонуни 25.04.1996 й.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимини янада эркинлаштириш ва ислоҳ қилиш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисидаги» Фармони, 21.03.2000 й. № ПФ-2564.
- Ўзбекистон Республикасининг «Истеъмол кредити тўғрисида» Қонуни 06.05.2006 й. № ЎРҚ-33.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Аҳолининг омонатларини жалб қилиш бўйича республика тижорат банклари ўтасида танлов ўtkазиш тўғрисида»ги Қарори. 31.10.2008 й. № ПҚ- 991.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари омонатларини ҳимоялаш кафолатларини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони. 28.11.2008 й. № ПФ- 4057.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тижорат банклари депозитларига ахоли ва хўжалик субъектлари бўш пул маблағларини жалб этишни янада рағбатлантириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори, 06.04.2009 й. № ПҚ- 1090.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажкамасининг 2001 йил 26 июлдаги 318-сон қарорига илова «Олий ўкув юртларида тўлов-контракт асосида ўкиш учун таълим кредитлари бериш тўғрисидаги» Низом.
- «Тижорат банклари томонидан ёш оилаларга имтиёзли асосда кредитлар бериш тартиби тўғрисидаги» Низом//«Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами», 2007 йил, 29–30-сон, 308-модда.
- Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз тараккиётини янги боскичга кўтарадиган йил бўлади. — Т.: Халқ сўзи. № 14 (5434), 20.01.2012 й.

10. Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тарақкиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. — Т.: Ўзбекистон, 2011. — 48 б.
11. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2010. — 56 б.
12. Каримов И. А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий баркарорлик тўғрисида. — Т.: Ўзбекистон, 2005. — 16–27 б.
13. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-том. — Т.: Ўзбекистон, 1996. — 16–17-бетлар.
14. Абдуллаева Ш. З. Пул, кредит ва банклар. — Т.: Иқтисод-молия, 2007.
15. Абдуллаева Ш. З. Банк рисклари ва кредитлаш. — Т.: Молия, 2002 й. — 304 б.
16. Белоглазова Г. Н. Деньги, кредит, банки: Учебник. Москва: Юрайт, 2006.
17. Волкова З. Н. Банковское дело и финансы: Учебник. Москва: УРАО, 2000.
18. Горяев А., Чумаченко В. Финансовая грамота. Специальный проект Российской экономической школы по личным финансам. Москва, 2009.
19. Деньги, кредит, банки: Учеб. 2-е изд., перераб. и доп./под ред. Жарковской Е. П. — Москва: Омега-Л, 2006. — 452 с.
20. Наврӯзова К. Н., Сайдов Д. А., Омонов Х. Н. Жамгарма иши: Ўкув кўлланмаси. — Т.: ТМИ, 2004. — 207 б.
21. Захаров В. С., Дробозина Л. А., Красавина Л. Н. и др. Финансово-кредитный словарь. Том 1. — М.: МиФ, 1984. — С. 477.
22. Лаврушин О. И. Банковское дело: современная система кредитования. 4-е изд., стереотип. — М.: КноРус, 2008. — 264 с.
23. Рашидов О. Ю. ва бошқалар. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. — Т.: ТДИУ: 2007. — 24–49 б.
24. Ҳонназаров К. Ҳ. ва бошқалар. Ўзбекистон совет энциклопедияси. Энциклопедик луғат. 1-том. — Тошкент, 1988. — 323 б.
25. Dornbusch R., Fischer S. «Macroeconomics» International edition, McGraw-Hill, Inc. 1994. 635 p.
26. Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Microeconomics-Principles, Problems, and Policies. 15<sup>th</sup> ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill/Irwin, 2002. 514 p.
27. Szepo G. Financial regulation and multitier Financial intermediation system in Eastern Europe. Introduction journal of Banking and finance, 2000. 410 p.

## **BANK MIJOZLARI VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH**

(jami: 4 soat: 2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### **Reja:**

- 9.1. Shartnoma: bank va mijoz o'rtaida tuziladigan shartnomalar.
- 9.2. Bank va mijozlar huquqlarini himoya qilish.
- 9.3. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishni obyektiv zarurati.

### **9.1. Shartnoma: bank va mijoz o'rtaida tuziladigan shartnomalar**

Har bir o'zaro kelishuvda bo'lgani kabi, shartnoma tadbirkorlik subyektlari o'rtaсидаги о'заро муносабатлarning huquqiy asosi hisobланади. Odатда, тadbirkorlik faoliyati sohasida tuzilayotgan shartnomalar xo'jalik shartnomalari deb ataladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni qabul qilingan.

Shartnoma bitim ko'rinishlaridan biri hisobланади. Shartnoma tuzish uchun ikkita yoki ko'p taraflarning kelishilgan xohish-irodasi ifoda topmoqligi shart. Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari aytildi.

Bitimlar shakli jihatdan og'zaki yoki yozma (oddiy yokida notarial tasdiqlangan) shaklda bo'ladi.

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyladi.

Shartnoma quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

- huquqiy munosabat sifatida;

- majburiyatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik fakt sifatida;
- ishtirokchilarning xohish-irodasi bilan majburiyatning yuzaga kelishi ni qayd etuvchi hujjat sifatida.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning quyidagi tamoyillari mavjud:

- xo'jalik shartnomalari tuzishning erkinligi;
- taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya etish;
- taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.

Muhim shartlar shartnoma tuzish uchun asos bo'ladi va uning mohiyatini ochib beradi. Muhim shartlar deganda, shartnomani tuzish uchun zarur va yetarli bo'lgan shartlar tushuniladi, ya'ni agar ana shunday shartlardan loaqal bittaginasi kelishilgan bo'lmasa, shartnoma tuzilgan deb hisoblanmaydi.

Muhim shartlarga birinchi navbatda shartnomaning predmeti to'g'risidagi shartlar kiritiladi. Shartnomalar aynan narsasiga ko'ra bir-biridan ajratiladi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi, ayirboshlash shartnomasi, mulk ijarasi shartnomasi, pudrat shartnomasi va h. k. Shu tariqa shartnomaning predmeti bir shartnomani boshqasidan ajratib olishda yengillik yaratadi, shartnoma doirasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlarning xususiyatiga qarab, ularni ajratib olish ayrim qiyin-chiliklar tug'diradi. Bundan tashqari, u yoki bu shartnomaning muhim va zarur shartlari qonunchilik bilan belgilab qo'yilishi mumkin.

Shartnoma taraflarning kelishuvi hisoblangani uchun, taraflar yoki ulardan birontasi u, yoki bu masalada kelishuvga erishish zarurligini talab qilsa, bu ham shartnomaning muhim shartini tashkil etadi. Bunda taraflarning bayon qilish shakli og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin.

Shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishish — shart-noma tuzishning muhim zarur sharti, ammo asosiy sharti emas. Shartnoma tegishli holatda talab etiladigan shaklda rasmiylashtirilgandagina tuzilgan deb hisoblanadi. Qonunning shakl borasidagi talablariga rioya etmaslik shartnoma majburiyatlarining haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Taraflar kelishib olingen shaklga rioya etmasdan rasmiylashtirilsa, shartnoma tuzilmagan deb e'tirof etiladi.

**Shartnoma taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi.**

Bir yoki bir necha muayyan shaxsga yuborilgan, yetarli darajada aniq bo'lган va taklifni kiritgan shaxsning o'zini taklif yo'llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnomalar tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif oferta hisoblanadi. Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo'lishi kerak. Oferta uni yo'llagan shaxsni oferta yo'llangan shaxs bilan u olgan vaqtdan boshlab bog'laydi. Agar ofertani chaqirib olish to'g'risidagi bildirish ofertaning o'zidan oldin yoki u bilan bir vaqtida kelgan bo'lsa, oferta olinmagan hisoblanadi.

Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi. Aksept to'liq va pisandasiz bo'lishi kerak. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo'yicha avvalgi munosabatlardan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo'lmaydi. Ofertani akseptlash uchun belgilangan muddatda olgan shaxsning unda ko'rsatilgan shartnomalar shartlarini bajarish yuzasidan qilgan harakatlari (tovarlarni jo'natish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish, tegishli summani to'lash va h. k.), agar qonun hujjatlarida yoki ofertada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoki ko'rsatilmagan bo'lsa, aksept hisoblanadi.

Mijozning moliyaviy holati va faoliyatidan kelib chiqqan holda tuzilgan shart-noma o'zgartirilishi mumkin. Bunda shartnomaning ayrim shartlari va to'liq o'zgartirishni ko'zda tutadi.

**Shartnomani o'zgartirish deb, uning shartlariga o'zgartirishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish hisoblanadi. Bekor qilish — mudatidan oldin, ya'ni shartnomani amal qilishining belgilangan muddatdan oldin tugashidir.**

*Tomonlarning kelishuvi bo'yicha shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish.* Umumiy qoida bo'yicha shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuvi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday kelishuv — huddi shartnomalar singari, chunki fuqarolik huquqlar va majburiyatlarni o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'nalgan bo'lib, shunga muvofiq ravishda, unga nisbatan shartnomani to'g'risidagi barcha talablar joriy etiladi.

*Tomonlardan birining talabiga ko'ra sud tartibida shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish.* Shartnomaning bunday tarzda o'zgartirish va bekor qilish, faqat boshqa tomonning shartnomani jiddiy ravishda buzgan hollarda va qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshirilishi mumkin.

*Shartnomani ijro etishni bir tomonlama rad qilish.* Bunday rad qilishga, faqat qonun yoki tomonlarning kelishuvi bo'yicha ruxsat etilgan bo'lsha, yo'l qo'yiladi.

Shuningdek, shartnomani bajarishdan bosh tortish to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. Shartnomani bajarishdan to'liq bosh tortish — shartnomani bekor qilish hisoblanadi, qisman bosh tortish esa — shartnomani o'zgartirish hisoblanadi.

Mijozning moliyaviy ahvoli, bozor kon'yunkturasi o'zgarishi va har ikki tomon yoki bir tomonning (bank yoki mijoz) vaziyat jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomani o'zgartirish va bekor qilishi mumkin.

Shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo'lgan vaziyatning jiddiy o'zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Voqeanning jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomaning o'zgartirishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid bo'lgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan o'zgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Banklar va ularning mijozlari o'rtaсидаги munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Mijozlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zлари tanlagan bir yoki bir nechta bankda milliy valutada va xorij valutasida talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisob varaqlar ochishiga haqli. Mijozlar mustaqil tarzda birlamchi va ikkilamchi hisob varaqlar ochishi va bunda bankni erkin tanlashi mumkin. Banklar mijozlarga hisob varaqlar ochishning Markaziy bank belgilagan tartibiga rioya qilishlari shart. Bankning barcha xizmatlari bank aksiyadorlari va boshqa mijozlarga teng shartlar asosida ko'rsatiladi.

Banklarning o'z mijozlari oldidagi majburiyatlar bo'yicha javobgarligi muhim hisoblanadi. Bunda banklar mablag'larining saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, shu jumladan to'lovlar bir bankdan boshqa bankga o'z vaqtida o'tishi hamda mablag'larning korxonalar va tashkilotlar hisob-kitob varaqlariga kiritilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgardir.

Bank tugatilganda uning jismoniy shaxs bo'lgan omonatchilari bankni tugatishdan keladigan tushumlar hisobidan o'z omonatlarini olishda imtiyoza egadirlar. Banklar depozit va kredit operatsiyalariga doir muddat

va shartlar, shu jumladan Markaziy bank chiqargan qoidalarga muvofiq, hisoblab chiqilgan yillik foiz stavkalari, mukofotlar va yig‘imlar to‘g‘risida o‘z mijozlariga muntazam ravishda axborot berib turishlari shart.

Banklar o‘z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisob varaqlari hamda jamg‘armalariga doir ma‘lumotlar sir saqlanishiga kafolat bera-di. Bankning barcha xizmatchilari bank, uning mijozlari va vakillarining bank operatsiyalari, hisob varaqlari va jamg‘armalariga doir ma‘lumotlar-ni sir saqlashlari alohida qayd etiladi.

Yuridik shaxslar va boshqa xo‘jalik subyektlarning operatsiyalari hamda hisob varaqlariga doir ma‘lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o‘ziga jinoiy ish qo‘zg‘utilgan bo‘lsa, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Hisob varaqlar va omonatning egalari vafot etganda, ushbu hisob varaqlar hamda omonatga doir ma‘lumotnomalar mazkur hisob varaq yoki omonat egasi bankga topshirgan vasiyatnomasida ko‘rsatgan shaxslarga, vafot etgan omonatchilarning jamg‘armalariga doir meros ishlarini yuri-tayotgan davlat notarial idoralariga, chet el fuqarolarining hisob varaqlari-ga doir ma‘lumotnomalar esa — chet el konsullik muassasalariga beriladi.

Shuni unutmaslik kerakki, xizmat burchi yuzasidan bank axborotidan xabardor bo‘lgan shaxslar xizmat sirini oshkor qilganlik uchun qonun huj-jatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Banklar o‘z mijozlari bo‘lgan xo‘jalik subyektlarining operatsiyala-ri to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni, ular soliq to‘lovlarini to‘liq va to‘g‘ri to‘layotganliklarini nazorat qilish uchun, soliq organlarining so‘roviga bi-noan taqdim etadilar.

Bank va mijoz o‘rtasida bo‘ladigan har qanday iqtisodiy aloqalar ma‘lum bir shartnomaga asosida olib boriladi. Shartnomaga subyekti bo‘lib mijoz va bank hisoblanadi. Mijozning tarkibi va operatsiya ko‘lamidan kelib chiqqan hol-da shartnomaga shartlari turlicha bo‘ladi va umumiy me’yor asosida tuziladi.

Lekin bank xizmati turi bo‘yicha shartnomalar tarkibi o‘zgarishi mum-kin. Masalan, lizing xizmatlari bo‘yicha shartnomaga elementlari aniqlikni talab etadi va ularning tarkibi kengayadi. Unda shartnomaga predmeti, li-zing obyekti va uning ta‘rifi, summasi, shartnomaga va lizing muddati, lizing obyektini yetkazib berish va ekspluatatsiya qilish, lizing obyektiga egalik huquqi, lizing obyektidan foydalanish shartlari va uni joylashgan joyi, li-zing obyektidagi o‘zgarishlar, lizing bo‘yicha ma‘lumotlarni taqdim etish, shartnomaga bo‘yicha huquq va majburiyatlarining uchinchi shaxsga o‘tishi, lizing obyekti bo‘yicha ko‘riladigan zararlar xavfi, lizing obyektini sug‘ur-

talash, lizing oluvchining majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash, lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchining shartnomalarini bajarishini nazoratini amalga oshirish tartibi, lizing to'lovlari, tomonlarning majburiyatlarini, lizing obyekti qaytarish shartlari va tartibi, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish, shartnomani bekor qilishda lizing obyekting holati, qo'shimcha shartlar va yuridik rekvizitlar ko'rsatiladi.

Banklarda amalga oshiriladigan shartnomalarning aksariyat qismi kredit shartnomalariga to'g'ri keladi.

Kredit shartnomalari asosan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Shartnoma mazmuni.
2. Shartnoma bahosi.
3. Tomonlar majburiyatlar.
4. Tomonlar huquqlari.
5. Shartnomaning amal qilish muddati.
6. Fors-major holatlar.
7. Alovida shartlar.
8. Nizolarni hal qilish tartibi
9. Tomonlarning yuridik manzillari

Kredit shartnomasining tarkibiy qismini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda shartnoma mazmuni qismida kredit ajratishining maqsadi, muddati, fizi va kredit mablag'larining qanday shaklda berilishi o'z aksini topadi.

Tomonlarning majburiyatları ikki qismdan, ya'ni dastlab mijoz (qarz oluvchi)ning majburiyatları aks etadi. Bunda kreditdan kelishilgan maqsadda foydalanish, kredit ta'minoti, sug'urtasi, kreditning qaytarishi, kreditni sundirish shartlari, kechiktirilgan kredit to'lovi uchun penya, kredit uchun majburiy bo'lgan hujjatlar va boshqa tegishli ko'rsatkichlar aks etadi.

Bank majburiyatları qismida esa bankning kredit operatsiyalarini o'z vaqtida olib borishligi, shartnomada ko'rsatilgan kredit miqdori ajratishi, shartnomadagi o'zgarishlar bo'yicha mijozni doimiy tarzda xabar-dor qilib borishlari yoriladi.

Majburiyatlarga mos ravishda tomonlarning huquqlari ham aks etgan bo'lishi kerak. Bunda mijozning huquqlari shartnomada kelishilgan miqdorda kredit ajratishni talab qilish, bankdan tegishli maslahat olish, huquqiy o'zgarishlar bo'yicha o'z vaqtida to'liq ma'lumotlarni olish, kreditni mudatidan oldin so'ndirish, kreditni qaytarish shakllari tanlash va boshqalar.

Bankning huquqlari esa kreditdan maqsadli foydalanganlikni tekshirish, kredit ta'minoti saqlab turishga talab qo'yish, kredit bo'yicha jarima

undirish va muddatidan oldin qaytarib olish, majburiy komission to'lov-larni undirish, ustama foi z belgilash va boshqalardan iborat.

Shartnomaning amal qilish muddati qismida esa shartnomaning kuchga kirish muddati, kredit qarzi, hisoblangan ustama foizlar, jarimalar va peñyalar to'liq to'langunga qadar amal qilishi yoritiladi.

Fors-major holatlarda tomonlarga tegishli bo'limgan holatlar bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarishga oydinlik kiritib olinadi.

Alovida shartlarda esa kredit bo'yicha qo'shimcha shartlar ko'rsatiladi.

Nizolarni tegishli qonun-qoidalar asosida hal etilishi nizolarni hal qilish tartibida belgilanadi.

Tomonlarning yuridik manzillari qismida bank va mijozning barcha rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lishi va muhr bilan tasdiqlanishi talab etiladi.

## 9.2. Bank va mijozlar huquqlarini himoya qilish

Bank va mijoz o'rtaida vujudga kelgan nizolar tomonlarning o'zaro keli-shuviga yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan hal qilinadi.

Banklarda mijozlar bilan ishlash madaniyati va unga rioya etilishi us-tidan doimiy tarzda nazorat olib boriladi va uning shartlari «Bank xodimi-ning kasb odob-axloqi» Kodeksida to'liq bayon etilgan. Unga ko'ra banklar mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatishda quyidagilarga majburdirlar:

- banklarning mijozlar bilan munosabatlari o'zaro ishonchga asoslangan shartnomalar asosida tuziladi. Shu bilan birga, bank xodimlari mijoz-larga nisbatan iltifotli, xayrixoh va e'tiborli bo'lishlari;
- umumqabul qilingan yagona mazmundagi ibora va so'zlarni ishlatish-lari va o'zaro munosabatlarni vijdonan hamjihatlik asosida qurishlari;
- bank tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar va mahsulotlar O'zbekis-ton Respublikasining amaldaqi qonunchiligiga va talab etiladigan tex-nik talablarga mos kelishi;
- ko'rsatiladigan xizmatlar va bank mahsulotlari to'g'risida to'liq ma'lumatlar taqdim etishda, mijozlarda qiyinchilik tug'dirgan masalalarning yechimini topishda ko'mak ko'rsatish;
- mijozlarning murojaatlarini o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqishlari;
- bank xodimlari tartib-qoidalarga qat'i rioya qilishlari;
- bank xodimlari tomonidan tegishli tartib-qoidalarga zid harakatlarni amal-ga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik borasida tegishli choralarini qabul qilish.

Bank tizimi xodimlarining xizmatdagi odob-axloq qoidalari esa quyidagilardan iborat:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bank tizimining roli va o'rnini chuqur anglashi;
- qonunchilik va bank faoliyati tamoyillariga qat'i rioya qilishi;
- bank xodimlari turli holatlarda o'z harakatlarda, qabul qilgan qarorlarida odob-axloq talablariga rioya etgan holda yuqori darajada o'zini boshqarishi va tutishi;
- bank yoki uning mijozlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan axborotning tarqatilishiga yo'l qo'ymasligi, bank va tijorat sirini saqlashi;
- shaxsiy manfaat yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy manfaatlari ni qondirish uchun xizmat mavqeidan foydalanmasligi;
- xizmat mavqeい va o'zining shaxsiy xatti-harkati bilan qonunga va odob-axloq qoidalari xilof harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'ymasligi, bank xodimi o'zining rostgo'ylik, insofililik va pok vijdonlilik fazilatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi zarur.

Bank tizimi xodimlarining ishga doir madaniyati qoidalari esa quyidagilardan iborat:

- o'zlarining ishga doir madaniyatlarini namoyon qiluvchi tashqi kiyim va ko'rinishlarini doimiy ravishda kuzatib boradilar va odma ko'rinishdagi uslubga, tajribaga, xushmuomalalik va odoblilik qoidalari ga rioya qiladilar;
- hamkasblar bilan o'zaro munosabatlarda xushfe'llik va xayrixohlikni namoyon qiladilar, ish yuzasidan munosabatlarda subordinatsiyaga rioya qiladilar;
- boshqa tashkilotlar xodimlari va mijozlar bilan munosabatlarda ishchanlik uslubiga va xayrixohlikka rioya qilgan holda, professionallik va bosiqlikni namoyon qiladilar;
- rasmiy uchrashuvlarda ish tartibiga rioya qiladilar;
- o'zlarining va boshqalarning vaqtini qadrlaydilar. Og'zaki va yozma ravishda tushunarli, aniq va lo'nda fikr bildiradilar;
- tijorat banklari xodimlari uchun kiyim va tashqi ko'rinishga oid talablar bo'yicha o'zlarining tashqi ko'rinishlariga mos holda ishbilarmon va ozoda ko'rinishda bo'ladilar.

Mazkur qoidalarga rioya qilish bo'yicha nazorat tizimi hamda xodimlarining mas'uliyati darajasi har bir bank tomonidan mustaqil tarzda belgilanadi.

Banklar uchun mijoz manfaatlari doimo ustuvor hisoblanadi. Hozirda banklar «**Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun**» shiori ostida ishlamoqda.

Ushbu huquqiy bazaning barchasi iste'molchilar huquqlarini bevosita va bi'lvosita himoya qilishga qaratilgan.

Endi akademik litsey va kasb-ta'lim kollejlarida tahsil olish bepul va majburiyligini barchamiz bilamiz. Uni muvoaffaqiyatli tugatgan har bir o'quvchi ta'lim tizimizning keyingi bosqichi bo'lgan bakalavr bo'lishni xohlamaydiganlari kamdan-kam bo'lsa kerak.

**Diqqat!** *Ta'lim tizimining keyingi bosqichi bo'lgan hakalavriat yo'nalishi va mafistratura mutaxassisliklarida o'qish majburiy emas va qariyb 60–70 foizi to'lov-shartnoma asosida o'qishni davom ettirishi mumkin. Albatta, qolgan bitiruvchilarni 40–30 foizi kvotasi cheklangan davlat granti asosida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar.*

To'lov-shartnoma asosida o'qiydiganlar uchun davlatimizda qator imtiyozlar jumladan, tijorat banklaridan ta'lim krediti olish imkoniyati mavjud. Endigi masalamiz tijorat banklaridan ta'lim kreditlarini olish va uni vaqt tugagandan keyin qanday so'ndirish haqida qisqacha ma'lumot keltiramiz.

Ta'lim kreditlarining huquqiy asoslari quyidagilardan iborat bo'ladi. O'tgan yillar mobaynida davlatimiz rahbari va hukumatimizning doimiy diqqat-e'tiborida turgan dolzarb masalalardan biri — bu ta'lim sohasida qabul qilingan umummiliy Davlat dasturining bajarilishi, shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarini izchil amalga oshirish, yoshlarimizni zamon talablariga mos ravishda ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratish bo'ldi. Shuningdek, oliy ma'lumotga ega bo'layotgan yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyulda «Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risida»gi Qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga asosan «Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risida»gi Nizom ham tasdiqlandi. Unga muvofiq, respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari tomonidan mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotganlarga ta'lim kreditlari berish belgilab qo'yilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim krediti oluvchi doimiy yashaydigan aholi maskanida joylashgan qaysi bank bo'lishidan qat'i nazar ular tomonidan berilishi belgilanib qo'yilgan. Shuningdek, mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, ta'lim krediti olish uchun qarz oluvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- ta'lim krediti berish to'g'risidagi ariza;
- talaba va oliy talim muassasasi o'rtaida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan qarz oluvchining yashash joyi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;
- kreditni qaytarishning ta'minlanishi to'g'risida hujjat;
- shuningdek, imtiyozli ta'lim kreditlari olish huquqiga ega bo'lgan haqiqiy yetimlar, Mehribonlik uylarida tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari, kam ta'minlangan oila farzandlari tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari lozim.

Qarz oluvchilar yuqorida hujjatlarni bankga taqdim etish bilan bir qatorda, fuqarolik pasportini ko'rsatadilar.

Olingan kredit qaytarilmasligi xavfining oldini olish maqsadida qarz oluvchi quyidagilardan birini bankga taqdim etishi kerak:

- mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish;
- bankning kafolati;
- uchinchi shaxsning kafilligi;
- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi kreditni qaytara olmasligi xavfi sug'urta qilinganligi to'g'risidagi polisi.

Agar taqdim etilgan hujjatlar bank talablariga javob bersa, bank, kredit oluvchi va oliy ta'lim muassasasi o'rtaida kredit shartnomasi tuziladi.

**Shuni alohida zikr etish joizki,** tijorat banklari tomonidan muasssalarga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun beriladigan kredit **o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga beriladi.**

Yana bir xususiyatli tomoni, ularga beriladigan kreditlar imtiyozlidir. Uning imtiyozga egaligi, birinchidan, yuqorida tilga olingan qarorning 3-bandida ko'rsatilganidek, haqiqiy yetimlar, Mehribonlik uylarida tarbiyalanganlar hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga foizsiz ta'lim kreditlari beriladi. Kam ta'minlangan oila farzandlari esa kredit uchun Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'l-

magan foizda hisoblangan summaning faqat 50 foizini to'laydilar. Qolgan 50 foizi esa Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan davlat jamg'armasi mablag'laridan to'lanadi.

Ta'lif krediti uchun to'lanadigan foiz stavkasi yuqori darajasi chegaralanadi. Ya'ni, bunday holatda tijorat banklari juda past foizlarda, hatto foizsiz kredit berishlari ham mumkin. Shu bilan birga, shartnoma summasining ikkiga bo'lib to'lanishi natijasida to'lanadigan foizlar summasi ancha pasayadi.

Ushbu kreditlarni qaytarishda imtiyozli davr mavjud. Ta'lif kreditlarni qaytarish o'qishni tugallanganidan so'ng uch oy o'tganidan so'ng boshlanadi. Ushbu imtiyozning ahamiyati shundan iboratki, to'lov-shartnoma asosida oliy ta'lif muassasasiga o'qishga qabul qilingan talaba, yoki uning ota-onasi, to'rt yildan ortiqroq muddatga olingan kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarishdan ozod bo'ladilar. Mazkur kreditlarning uzoq muddatlari ekanligi Oliy ta'lif muassasasiga, bakalavriatga qabul qilingan talabalarga ta'lif kreditlari 10 yil muddatga, magistraturaga qabul qilingan talabalarga 5 yil muddatga beriladi. Ma'lumki, ushbu muddatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi turmush darajasining oshishi natijasida olingan kreditlarning qaytarilishi oila budgetiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmaydi va talabaning o'zi daromadi asosida kreditni qaytarish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, talaba muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan davrda olinigan ta'lif kreditlaridan foydalangani uchun foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi. Bu ham ta'lif kreditlari bo'yicha yoshlarimiz uchun yaratilgan imtiyoz bo'lib, olingan kreditlar uchun to'lanadigan foizlar summasini kamaytirishga qaratilgan. Qolaversa, yoshlarga va ularning ota-onalariga yanada ijtimoiy-iqtisodiy yengilliklar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasi 31-bandiga muvofiq, fuqarolarning mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lif olishga yo'naltirilgan summalariga daromad solig'i solinmaydi.

Tijorat banklari qarz oluvchi tomonidan ta'lif krediti berishni so'rab bankga taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan to'la hujjatlar to'plamini 10 kun mobaynida ko'rib chiqib kredit shartnomasi imzolangandan keyin, ta'lif krediti qarz oluvchining ssuda hisob raqamida uning shaxsiy yozma topshirig'i asosida oliy ta'lif muassasasining talab qilib olinadigan depozit hisob-raqamiga mablag' o'tkazish yo'li bilan beriladi.

Mablag'lar kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda, yillik to'lovning to'liq miqdorini ikki qismga bo'lish yo'li bilan o'tkaziladi. Bundan

yangidan qabul qilingan talabalar uchun boshlang'ich to'lov ushbu yilning 1 oktabrigacha, ikkinchi yarim yillik uchun keyingi yilning 15-martigacha to'lanadi. Qolaversa, o'qishning ikkinchi yilidan boshlab, kredit to'lovlar sentabr va mart oylarining 5-kunidan kechiktirilmay to'lanadi.

Agar talaba, o'qish davri tugamasdan, talabalar safidan chiqarilsa, ta'lif muassasasi rahbariyati, rektorning buyrug'i chiqqan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida bankga xabar berishi kerak. Qarz oluvchi esa, uch oy muddatda ta'lif krediti va unga qo'shilgan foizlarni to'liq qaytarishi talab etilishni e'tibordan chiqarmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **9.3. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishning obyektiv zarurati**

Iste'molchi deb foyda olish bilan bog'liq bo'limgan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yohud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs)ga aytildi.

Iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

- tovarlar haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;
- tovar, ish va xizmatlarni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;
- tovar, ish yoki xizmatning xavfsiz bo'lishi;
- hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar, shuningdek ishlab chiqaruvchining g'ayriqonuniy harakati yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararning to'liq hajmda qoplanishi;
- buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarri himoya qilinishini so'rab, sudga va boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;
- iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilar uchun ishlab chiqaruvchi, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari to'g'risidagi to'liq va aniq ma'lumotlar olishi muhim hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan manzili haqida iste'molchini xabardor qilishi, ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida ko'rsatilgan bo'lishi yohud boshqa usulda taqdim etilishi lozim. Sotuvchi o'z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan yuridik manzi-

li va ish tartibini iste'molchiga aniq va ravshan ma'lum qilishi va bunday ma'lumot lavhada aks ettirilishi lozim.

Bundan tashqari, savdo va xizmat ko'rsatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko'chma do'konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko'rsatish sotuvchining doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa hollarda ham iste'molchilar e'tiboriga yetkazilishi talab etiladi. Sotuvchi iste'molchiga taklif etayotgan tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdag'i xizmat ko'rsatishning qoidalari to'g'risida to'liq ma'lumot berishi majburiy hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi iste'molchiga o'zi sotayotgan tovarlar haqida vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishni o'z zimmasiga oladi.

Tovar haqidagi ma'lumotda quyidagilar batafsil ko'rsatilishi talab etiladi, ya'ni:

- tovar majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ huj-jatning nomi;
- tovarning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan, o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;
- bahosi va sotib olish shartlari;
- ayrim turdag'i tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;
- ishlab chiqaruvchining kafillik majburiyatlari;
- tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;
- tovarning xizmat muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ishlab chiqaruvchining nomi va mulkchilik shakli, ro'yhatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;
- ishlab chiqaruvchining iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergen, ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarining manzillari;
- tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari, qoidalari;
- teatr-konsert tadbirlari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalaniishi to'g'risidagi axborot.

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar haqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi. Tovar haqidagi zarur axborotning yo'qligi bunday tovari sotish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatib turilishi olib keladi.

Iste'molchiga tovar haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lma-gan ma'lumot berilgan taqdirda iste'molchi qator huquqlarga egadir. Ya'ni:

- zarur iste'mol xossalariiga ega bo'lmanan tovar sotib olinishiga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- sotib olingan tovardan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumotni oqilona qisqa (ko'pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yohud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Iste'molchining tovar haqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmanan ma'lumoti tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari sotib olingan tovarning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

**Bundan tashqari, noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.**

Iste'molchi shartnoma tuzish yo'li bilan tovarni erkin sotib olish huquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi iste'molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatlari tovarni mulk qilib topshirish majburiyatini, iste'molchi esa, shartlashilgan pulni to'lash majburiyatini o'z zimmalari-ga oladilar. Tomonlar o'rtasida shartnoma obyekti, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi o'rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi. Tuzilgan vaqt-dan boshqa paytda bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste'molchi sotib olingan tovar sifatini, butligini, vazni va narxini tek-shirish huquqiga ega bo'lsa, sotuvchi esa, nazorat-o'lchov asboblarini, nar-xga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko'rsatishi, undan xavfsiz va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi, zarurat bo'lsa, tovarni ekspertizaga ham yuborish majburiyatini oladi. Tovarlar uchun haq to'lash shakli hamda tartibi iste'molchi bilan sotuvchi o'rtasidagi erkin kelishuvga binoan belgilanadi.

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdag'i tovarlar va xizmatlar-ga ishlab chiqaruvchi kafolat muddati belgilaydi. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Agar tovar sotilgan kunni aniqlashning imkonи bo'lmasa, bu muddat tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kafolat muddati mobaynida tovarning, shu jumladan, butlovchi buyumlarning qo'llanilishini, ulardan foydalanilishini ta'minlab turadi. Butlovchi buyumlarning kafolat muddati odatda, asosiy buyumning kafolat muddatidan kam bo'lmasligi lozim. Kafolat muddati tovarning passportida yoki tovari so'tish yohud xizmat ko'rsatish vaqtida tovar bilan birgalikda iste'molchiga beriladigan boshqa hujjatda ko'rsatiladi.

Ishlab chiqaruvchi tovardan kafolat muddati va xizmat muddati mobaynida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi, tovarning ta'mirlanishini va unga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etadi, tovari ishlab chiqarish muddati mobaynida hamda u ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin tovarning xizmat muddati mobaynida, bunday muddat bo'lмаган taqdirda esa, tovar ishlab chiqarishdan olib tashlangan vaqtдан e'tiboran o'n yil mobaynida yetarli hajmda va turda ehtiyot qismlari ishlab chiqarishi hamda savdo va ta'mirlash tashkilotlariga yetkazib beradi.

Dori-darmon, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida esa ularning ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati hamda ularni saqlash shartlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi. Sotuvchilarga ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan yoki yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni qabul qilish va sotish man etiladi.

Iste'molchi sotib olgan tovarning o'z hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lismiga doir talablar tegishli qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ishlab chiqaruvchi tovarning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovar iste'molchiga sotilgan kundan e'tiboran o'n yil mobaynida uning xavfsiz bo'lismini ta'minlaydi.

Agar tovardan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo'lsa, ishlab chiqaruvchi bunday qoidalarni ishlab chiqadi, sotuvchi esa, ularni iste'molchilar e'tiboriga yetkazadi. Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish natijalarida iste'molchining hayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga yoki atrof-muhita zarar yetkazayotganligi yohud zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni darhol to'xtatadi, muomaladan chiqaradi va zuzlik bilan iste'molchilardan qaytarib olish choralarini ko'radi.

Agar zarar yetkazilishining sabablarini bartaraf etishning imkonи bo'lмагanda, ishlab chiqaruvchi bunday tovari ishlab chiqarishdan olib

tashlaydi, ishni bajarish va xizmat ko'rsatishni tugatadi, bunda davolashga, oziq-ovqatga mo'ljallangan tovarlar va maishiy kimyo tovarlari sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan yo'q qilinadi.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan tovarlarning partiyalarini muomaladan chiqarish, ishlarni bajarishni va xizmatlar ko'rsatishni taqiqlab qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi. Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni taqiqlab qo'yish munosabati bilan iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi tomonidan to'liq hajmda qoplanadi. Agar ishlab chiqaruvchi xavfli xossalarga ega bo'lgan tovarni qaytarib olish yuzasidan barcha zarur choralarни ko'rgan bo'lsa, u iste'molchi mazkur tovardan foydalanishni davom ettiraverishi tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda, o'z xohishiga qarab quyidagi lardan birini talab qilishga haqli:

- tovarni ayni shunday markali maqbul sifatli tovarga almashtirib berish;
- tovarni boshqa markali shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishlichqa qayta hisob-kitob qilish;
- tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yohud uchinchi shaxsnинг nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash;
- xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;
- shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

Iste'molchining talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, tegishlichqa rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgandagina ko'rib chiqiladi. Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o'zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda, sotuvchi uni ayni shunday markali tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart. Agar sotuvchida aynan shunday markali tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilinjan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak.

Tovarlar vaqtı-vaqtı bilan olib boriladigan olis joylarda iste'molchining bunday talabi navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim. Ana shu mudatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida penya to'laydi.

Nuqsoni mavjud tovar ayni shunday markali tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning narxi o'zgargan bo'lsa ham, lekin u qayta hisob-kitob qilinmaydi. Nuqsonli tovar boshqa markali tovarga almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniغا berilayotgan tovar narxidan past bo'lsa, iste'molchi narxlardagi farqni qo'shimcha ravishda to'lashi lozim; almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniغا berilayotgan tovar narxidan yuqori bo'lsa, iste'molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi oshgan taqdirda, uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi narxi qo'llaniladi.

Shartnoma bekor qilinayotganda tovar narxi oshgan bo'lsa, iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi. Agarda tovar iste'molchilarga kreditga sotilgan bo'lsa, shartnoma bekor qilingan taqdirda, pul summasi tovar qaytarilayotgan paytga qadar uzilgan kredit miqdorida qaytarib beriladi, shuningdek kredit bergenlik haqi ham qo'shib to'lanadi.

Iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kunidan e'tiboran o'n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagи sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lma-gan taqdirda esa, pulini qaytarib olish huquqiga ega. Ijrochi ayrim turdagи ishlarni bajarish qoidalarida yoki shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda ishni bajarishi majburiy hisoblanadi.

Ishni bajarish muddati ish bajarilishi lozim bo'lgan sanaga, shuningdek ijrochi ishni bajarishga kirishishi lozim bo'lgan sanaga qarab ham belgilaniishi mumkin. Agar ish bajarish, xizmat ko'rsatish shartnomaning amal qiliш muddati davomida qismlarga bo'lib-bo'lib amalga oshiriladigan bo'lsa, ishlar bajarishning bosqichma-bosqich muddatlari nazarda tutilishi kerak.

Mabodo ijrochi tomonidan shartnomani bajarishga o'z vaqtida kirishilmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo'lib

qolsa, iste'molchi ishni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomadan voz kechishga va yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga huquqiga egadir. Agar ijrochi shartnomada shartlarini ishni yomonlashtirgan darajada jiddiy buzgan bo'lsa yohud ishda, xizmatda boshqa jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'ygan bo'lsa, iste'molchi o'z xohishiga ko'ra nuqsonlar bepul bartaraf etilishini, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat bahosi nuqsonlarga mutanosib ravishda kamaytirilishini, xuddi shunday sifatli materialdan boshqa buyum bepul tayyorlab berilishini yohud ishning takroran bajarilishini shartnomani bekor qilinib, ko'rilgan zarar to'liq qoplanishini talab qilishga haqli.

Ish bajarish, xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari shartnomada belgilab qo'yiladi. Bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatdagi nuqsonlar, agar shartnomada birmuncha qisqaroq muddat belgilanmagan bo'lsa, iste'molchi talab qilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida ijrochi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Nuqsonlar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan, shuningdek ish bajarishni boshlash va tugallash kechiktirilgan taqdirda, ijrochi iste'molchiga har bir kechiktirilgan kun, soat uchun ish qiymatining yoki buyurtma qiymatining bir foizi miqdorida penya to'laydi.

Iste'molchi undirib olgan penya summasi ish bajarish, xizmat ko'rsatishning alohida turi bahosidan yoki buyurtmaning umumiyligi bahosidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bajarilgan ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish kechiktirilganligi uchun ijrochi to'lagan penya qoplanishi lozim bo'lgan zarar hisobiga kirmaydi. Ijrochining majburiyatni umuman yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun penya to'lashi va zararni qoplashi uni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

Iste'molchidan qabul qilib olingen ashyo yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda, iste'molchining materialidan foydalanimi bajarilgan ishda jiddiy nuqsonlar bo'lsa, u buzib bajarilgan taqdirda ijrochi iste'molchiga aynan o'xshash sifatli ashynoni qaytarishi, buning imkoniyati bo'limgan taqdirda esa, ashynoning talab qo'yilgan paytdagi qiymatini ikki baravar qilib to'lashi shart.

Ijrochi tomonidan ishlari bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun qabul qilib olinayotgan ashyo qiymati shartnomada tuzish vaqtida tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Ishda, xizmatda jiddiy nuqsonlar mavjud bo'lganida yoki shartnomada talablari jiddiy buzilganida, shuningdek ashyo yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda iste'molchi

bilan hisob-kitob ishning, xizmatning yoki materialning shartnomani bekor qilish paytidagi oshgan narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tovar, ish yoki xizmatning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik ham mavjud bo'lib, bunda tovarning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog'liq bo'lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi tomonidan qoplanadi. Sotuvchi bilan shartnoma munosabatlariiga kirishgan-kirishmaganidan qat'i nazar, har qanday iste'molchi tovarning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat yaroqlilik muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim. Sotuvchi zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs haq to'laydi. Ma'naviy zarar uchun to'ilanadigan haq miqdori sud tomonidan belgilanadi. Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rgan zararning o'rni qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

Davlat iste'molchilarning tovar, ish yoki xizmat sotib olish va undan foydalanish chog'idiagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Iste'molchilar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta'minlaydilar.

Moliyaviy xizmatlar sohasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan ijrochi o'zining tuga tilishi yoki bankrot bo'lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste'molchilarning talablarini qondirish maqsadida o'z javobgarligini sug'urta qildirishi, moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun o'zining javobgarligi to'g'risida sug'urta shartnomasi borligi haqida iste'molchiga axborot berishi shart hisoblanadi.

## TAYANCH ATAMALAR

**Shartnoma** — ikki yoki undan ortiq subyektlar (jismoniy va yuridik shaxslar) o'rtaсидаги о'заро yuridik bitim;

**Bank** — aholi, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning ortiqcha pul mablag'larini o'ziga jalb etib, pul mablag'lariga muhtoj bo'lgan aholi, jisomniy va yuridik shaxslarga vaqtinchalik to'lov tamoyili asosida taqdim etadi-gan yuridik muassasa;

**Mijoz** — tijorat banklari xizmatlaridan foydalanadigan, korxonalar ishlab chiqqagan mahsulotlarni xarid qiladigan va qurilish tashkilotlari qurib bittirgan uy-joylardan xarid qiladigan yoki vaqtincha foydalanadigan jisomniy va yuridik shaxslar;

**Tovar** — sotish uchun, foydalanish yoki ayrboshlash uchun ishlab chiqariladigan mehnat mahsuli;

**Sotuvchi** — o'zi ishlab chiqqan mahsulotlarni o'zi naf ko'rish uchun yoki boshqa biror bir yuridik yohud jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni bozorda iste'molchilarga qo'shimcha qiymat olish uchun sotayotgan shaxs;

**Ta'lif krediti** — talabalikka qabul qilingan bakalavr va magistrlarga kontrakt summalarini institutga to'lash uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli foizlarda beriladigan moliyaviy mablag'lar;

**Reklama** — ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar va bajarilayotgan ishlarning tezda o'z xaridorini topishi uchun keng ko'lamlı ommaviy telerolik va axborotlar majmuasi;

**Imtiyozli kredit** — tijorat banklari tomonidan mijozlarga umum belgilangan foiz stavkalaridan bir necha foiz past darajada beriladigan kredit resursları;

**Debitor qarzi** — asosan tovarlarni kreditga sotish evaziga hosil bo'lgan va undirilishi lozim bo'lgan qarzdorlik;

**Bank agentligi** — asosiy bank tomonidan berilgan vakolatga mos ravishda cheklangan tarzda bank operatsiyalarini amalga oshirish mumkinligi;

**Bank resurslari** — kreditlar va boshqa aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun bank tasarrufidagi mavjud mablag'lar to'plami. Bankning o'z va chetdan jalb etiladigan mablag'ları;

**Shartli majburiyat** — ma'lum shart-sharoitlar vujudga kelgan sharoitda bank bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlar;

**Kredit kelishuvı (bitim)** — kreditlarning miqdori, shakli va berish shartlarining aniqlovchi kelishuv (bitim);

**Pul belgilari** — muomalada oltin va kumush pullarining o'rnini bosuvchi muayyan miqdordagi oltin va kumush vakillari belgilari;

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Shartnomani tuzish va uni ikki yoki uch tomonlama imzolashning obyektiv zarurati nimadan iborat?
2. Shartnomalar tuzishning qanday shartlari mavjud?
3. Bank mijoz uchun ishlashi kerakmi yoki mijoz bank uchunmi va nima uchun aynan shunday bo'lishi kerak?
4. Mijozlar manfaatini qaysi tashkilot himoya qildi?
5. Tijorat banklarining mijozlar oldida qanday javobgarliklari mavjud?
6. Tovarlar sifati talabga javob bermaganda, ko'rilgan zararlar qanday qoplanadi yoki tovarlarni qanday almashtirish mumkin?
7. Ta'lif krediti nima uchun zarur va uni qanday olish mumkin?
8. Ta'lif krediti bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud va ular necha yilga beriladi?
9. Ta'lif kreditini qaysi tijorat banklari beradi va u qanday rasmiylashtiriladi?

## TESTLAR

1. Bitimlar shakli jihatdan qanday shaklda bo'ladi?
  - a) bitimlar shakli jihatdan og'zaki bo'ladi;
  - b) bitimlar shakli jihatdan og'zaki yoki yozma bo'ladi;
  - v) bitimlar shakli jihatdan yozma bo'ladi;
  - g) To'g'ri javob yo'q.
2. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning qanday tamoyillari mavjud?
  - a) xo'jalik shartnomalari tuzishning erkinligi;
  - b) taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
  - v) shartnoma intizomiga rioya etish va taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi;
  - g) yuqorida qayd etilgan javoblaring barchasi.
3. Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar qanday hujjat asosida amalga oshiriladi?

- a) Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi;
- b) Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro kelişuvlar asosida amalga oshiriladi;
- v) Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar hujjatsiz amalga oshiriladi;
- g) Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar tanish-bilishchilik asosida amalga oshiriladi.
4. Kredit shartnomalari asosan qanday qismlardan iborat bo'ladi?
- a) Shartnoma mazmuni;
- b) Shartnoma bahosi;
- v) Tomonlar majburiyatları;
- g) barcha javob to'g'ri.
5. Hozirgi kunda taxminan necha foiz talabalar to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda?
- a) 100 foiz talabalar to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda;
- b) 60–70 foiz talabalar to'lov-shartnoma asosida o'qishni davom ettirmoqda;
- v) 40–30 foiz talabalar to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda;
- g) 100 foiz talabalar davlat granti asosida tahsil olmoqda;
6. O'zbekiston Respublikasida talaba uchun ta'lim krediti kimlarga rasmiylashtirish mumkin?
- a) talabalarning o'zlariga;
- b) talabalarning ota-onalariga;
- v) talabalarning vasiylariga;
- g) yuqorida barcha javob to'g'ri.
7. Bakalavriatga qabul qilingan talabalarga ta'lim kreditlari necha yilga beriladi?
- a) 5 yil muddatga;
- b) 7 yil muddatga;
- v) 3 yil muddatga;
- g) 10 yil muddatga
8. Iste'molchilar qanday huquqlarga ega?
- a) tovarlar ishlab chiqaruvchi haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;
- b) tovar, ish va xizmatlarni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;
- v) tovar, ish yoki xizmatning xavfsiz bo'lishi;

- g) yuqoridagi barcha javob to'g'ri.
9. Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar qanday hajmda qoplanadi?
- a) ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim;
- b) iste'molchining malakasi kam bo'lgani uchun umuman qoplanmaydi;
- v) ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan qisman qoplanadi;
- g) davlat budjeti tomonidan qoplanadi.
10. Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda, o'z xohishiga qarab quyidagi lardan birini talab qilishga haqli?
- a) tovarni ayni shunday markali maqbul sifatli tovarga almashtirib berish;
- b) hech narsa talab qila olmaslik;
- v) tijorat bankidan shuncha summada imtiyozli kredit olish;
- g) sotuvchini korxona davlat budjetiga qo'shimcha soliq to'lashga majbur qilish.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Марказий банки тўғрисида»ги Конун. — Т.: Ўзбекистон, 1995.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти хакида»ги Конуни. — Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Банк сири тўғрисида»ги Конуни. — Т.: Адолат, 2003.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг банклардаги омонатларини ҳимоялаш кафолатлари тўғрисида»ги Конуни. 05.04.2002 й.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Микромолиялаш тўғрисида»ги Конуни 15.09.2006 й., 50-сон.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Инвестиция фаолияти тўғрисида»ги Конуни. 24.12.1998 й. № 719-І.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимини яна-да ривожлантириш ва бўш пул маблағларини банк айланмасига жалб этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори://«Халк сўзи», 08.11.2007 й.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларидағи омонатларини ҳимоялаш кафолатларини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони //«Халқ сўзи», 29.11.2008 й.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк пластик карточкаларидан фойдаланилган холда хисоб-китоб тизимини ривожлантиришни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи», 09.10.2008 й.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимини янада ислох килиш ва эркинлаштиришнинг чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи». 15.04.2005 й.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банклардаги депозит хисоб вараклардан нақд пул тўловларини узлуксиз таъминлаш кафолатлари тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи». 06.08.2005 й.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банкларнинг капиталлашувини янада ошириш ва иқтисодиётни модернизациялашдаги инвестиция жараёнларида уларнинг иштирокини фаоллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори //«Халқ сўзи». 13.07.2007 й.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банк тизимининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва инвестициявий фоллигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. 06.04.2010 й., 1317-сон.
14. Каримов И. А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида. Тузувчи Ф. М. Муллажанов. — Т.: Ўзбекистон, 2011.
15. Абдуллаева Ш. З. Банк иши. Ўқув қўлланма. — Т.: Iqtisod-Moliya, 2010.
16. Абдуллаев Ё. А., Қоралиев Т. М. ва бошқалар. Банк иши. Ўқув қўлланма. — Т.: Iqtisod-Moliya, 2009. — 576 б.
17. Омонов А. А. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. — Т.: Фан ва технология, Монография, 2008.
18. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
19. [www.finance.uz](http://www.finance.uz)
20. [www.bank.uz](http://www.bank.uz)
21. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

**Uy-joyni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun  
ipoteka krediti ajratish to'grisida  
—sonli KREDIT SHARTNOMASI**

shahar

«\_\_» \_\_\_\_ 200 \_\_\_\_ yil.

«BANK» Aksiyadorlik-tijorat banki \_\_\_\_\_ filiali (keyingi o'rinnarda «Bank») Nizom asosida ish olib boruvchi filial boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ orqali bir tomonidan va \_\_\_\_\_ manzilda istiqomat qiluvchi \_\_\_\_\_ (pasport seriya, raqami \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ tomonidan \_\_\_\_\_ da berilgan) keyingi o'rinnarda «qarz oluvchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagi haqida tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

- 1.1. Bank qarz oluvchiga manzilda joylashgan № \_\_\_\_\_ uy-joyni \_\_\_\_\_ uchun 200 \_\_\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_ dan, 20 \_\_\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_ gacha, ya'ni \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) oy muddatga, yillik \_\_\_\_\_ % ustama to'lash sharti bilan kredit mablag'i ajratadi. Ajratilayotgan kredit mablag'inining \_\_\_\_\_ %i hisob shartnoma (yoki pudrat shartnomasi) ga asosan pul o'tkazish yo'lli bilan qolgan \_\_\_\_\_ %i naqd pul shaklida beriladi.
- 1.2. Kredit ajratish uchun Bank qarz oluvchiga 12501 yoki 14901 balans hisobi bo'yicha kredit hisob raqami ochadi.

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

- 2.1. Tomonlar shartnoma bahosini \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so'm miqdorda belgiladilar.

**3. TOMONLAR MAJBURIYATLARI**

3.1. Qarz oluvchining majburiyatları

- 3.1.1. Rekonstruksiya qilinayotgan (yoki ta'mirlanayotgan) uy-joyni umumiy narnining 25% dan kam bo'limgan miqdorda boshlangich badal to'lovi sifatida bank filialiga naqd pulda topshiradi yoki shu miqdorda qurilish materiallari yoki bajarilgan ishlarni 25% lik to'lov tarzida hujjat asosida taqdim qiladi.

- 3.1.2. Kreditdan 1 (bir) yil mobaynida uy-joyni rekonstruksiya qilish (yoki ta'mirlash) maqsadida foydalananish.

3.1.3. Kredit ta'minotiga rekonstruksiya qilinayotgan (yoki ta'mirlanayotgan) uy-joyni o'zini bankga garovga qo'yadi.

3.1.4. Qarz oluvchi garovga qo'yiladigan uy-joyni, hayotini, mehnatga layoqatligini majburiy tarzda sug'urtalaydi.

Sug'urtalash qarz oluvchining xohishiga ko'ra bir yo'la kredit muddatiga yoki yillik muddatga qilinishi mumkin. Yillik sug'urtalashda sug'urta muddati tugashidan 30 ish kuni oldin keyingi yil to'lovi amalga oshiriladi, aks holda mijozga nisbatan kreditni muddatidan oldin qaytarish choralari ko'rildi.

3.1.5. Olingen kreditni va unga hisoblangan ustama foizlarni ko'r-satilgan muddatlarda belgilangan tartibda to'lab boradi.

3.1.6. Kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan ustama foizlar bo'yicha to'lovlarini har oyning 30 sanasigacha amalga oshiradi.

3.1.7. Qarz oluvchi Kredit ta'minotiga olingen uy-joyni but holda saqlanishini ta'minlaydi. Uy-joyning butligi saqlanmaganligi aniqlanganida yoki uy-joyga qasddan shikast yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zara miqdorini o'z hisobidan yoki garovga qoyilgan mulk hisobidan to'laydi.

3.1.8. Kredit ta'minotiga olingen uy-joyni qarz oluvchi bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar sotishi mumkin emas va bankning ruhsatsiz ijara berilmaydi.

3.1.9. Qarz oluvchi kredit, unga hisoblangan foizlar, penyalar va komission haqlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, garovga qoyilgan mulknini sotish huquqini belgilangan tartibda bankga taqdim etadi.

3.1.10. Qarz oluvchi bankga kreditdan maqsadli foydalanilganini tasdiqlovchi hujjatlarni nazorat uchun taqdim etadi.

3.1.11. Bank hisobotga ilova qilingan hujjatlarni tahlil etish jarayonida bank kredit kartochkasi vositasida hisob-kitob qilish vaqtida kreditdan boshqa maqsadlarda foydalanilganini aniqlangan taqdirda kredit kartochkasi to'g'risidagi shartnoma bekor qilinadi, kredit kartochkasi hisob raqami yopiladi va kredit kartochkasi olib qo'yiladi. Kreditning boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan qismi uchun kredit shartnomasida belgilangan miqdorda jarima solinadi va uni undirib olish choralarini ko'riliadi. Kreditdan maqsadsiz foydalanilganligi aniqlanganida, maqsadsiz foydalanilgan kredit miqdorining 25% hisobida Bankga jarima to'lash bilan birga maqsadsiz ishlataligan kredit mablag'ini qaytarilishi shart.

3.1.12. Kredit olgan sanadan boshlab, qisqa muddatli kredit bo'yicha kamida 6 oy, uzoq muddatli kredit bo'yicha kamida 12 oy muddat ichida kreditni oldindan sundirmaslik.

3.1.13. Kreditni o'z ixtiyoriga ko'ra 6 yoki 12 oydan so'ng belgilangan muddatdan avval sondirsa, kredit sondirilgan kundan boshlab kreditning muddatidan avval sondirgan qismiga nisbatan kredit shartnomaning amal qilish muddatiga qadar hisoblanadigan kredit foiziga teng miqdorda komission to'lov to'laydi, lekin undiriladigan komission to'lov kredit uchun foiz to'loving 6 oylik miqdoridan ortiq bo'lmasligi lozim.

3.1.14. Qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda to'lanmagan kredit yuzasidan muddati o'tgan qarzlar yuzaga kelgan hollarda qarz oluvchi to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan qarzga nisbatan bankga 0,1% miqdorida penya to'laydi. Hisoblangan kredit foizi belgilangan muddatda to'lanmagan va muddati o'tgan qarz yuzaga kelgan hollar da, qarz oluvchi to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan qarzga nisbatan Bankga 0,1% miqdorida penya to'laydi

3.1.15. Kreditni qaytarish shartnomada belgilangan oxirgi muddatdan kechikkanda, shartnomaning 1.1 bandiga binoan birinchi oy uchun 1,3 barobar, ikkinchi oy uchun 1,5 barobar oshirilgan miqdorda ustama foiz to'laydi.

3.1.16. Kredit hisobidan sotib olingen uy-joy qarz oluvchi tomonidan qarz oluvchi va uning oila a'zolari yashashi uchun foydalaniishi lozim. Sotib olingen uy-joyni ijara berish faqat bank roziligi bilan amalga oshirilishi shart.

Shartnoma shartlaridan biri bajarilmaganligi va hujjatlar taqdim etil maganligi oqibatida bitim buzilgan holda ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar, kredit mablag'larini akkreditiv hisob varag'a ga o'tkazish paytidan boshlab bitim buzilgan paytga qadar qarz oluvchidan undiriladi. Kredit mablag'larini akkreditiv hisob varag'idan qaytarish bo'yicha teskari buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi va hisoblangan foizlari qarz oluvchi boshlangich badali hisobidan qoplaydi.

3.1.17. Kredit shartnomasi imzolangandan keyin 30 kalender kuni davomida qarz oluvchi tomonidan majburiy ravishda taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati:

- ipoteka (garov) shartnomasining asl nusxasi, davlat ro'yxatidan o'tganlik belgisi bilan;
- bank krediti hisobidan sotib olingen yakka tartibdagi uy-joyni yoki ko'p kvartirali uy-joydan kvartirani oldi-sotdi shartnomasining asl nusxasi; Yergeodezkadastr davlat Qo'mitasi ofisi tomonidan ro'yxatga olingen haqida hujjat;
- Uy-joyga bo'lgan mulkchilik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma;

- Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi guvohnoma (yakka tartibdagi uy-joy sotib olinganda);
- Sug'urta to'lovini tasdiqlovchi hujjatlar hamda garovga qo'yilgan ko'chmas mulk qiymatini qisman yo'qotish holatidan ipoteka predmetini va kredit oluvchining hayoti va mehnatga layoqatliliginu sug'urta qilinganligini tasdiqlovchi sug'urta polisi va sug'urta shartnomasi.

Kredit hisobidan sotib olingan uy-joy qarz oluvchi tomonidan qarz oluvchi va uning oila a'zolari yashashi uchun foydalanilishi lozim. Sotib olin-gan uy-joyni ijaraga berish faqat Bank roziligi bilan amalga oshirilishi shart.

### 3.2. Bankning majburiyatları

- 3.2.1. Kredit shartnomasida ko'rsatilgan miqdorda kreditni ajratadi.
- 3.2.2. Kredit ajratilgan kundan boshlab, kredit qoldig'iga nisbatan yillik % ustama foiz kunlik hisoblab boradi.
- 3.2.3. Bank ushbu shartnomaga o'zgarish kiritilishiga taalluqli bo'lgan barcha yangi me'yoriy hujjatlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan qarz oluvchini xabardor qilib boradi

## 4. TOMONLAR HUQUQLARI

### 4.1. Qarz oluvchining huquqlari

- 4.1.1. Kredit shartnomasida ko'rsatilgan miqdorda kredit ajratishni talab qilish.
- 4.1.2. Qarz oluvchi ushbu kredit shartnomasiga taalluqli bo'lgan barcha masalalar bo'yicha bankdan maslahat oladi va shartnomaga o'zgarish kiritilishiga taalluqli bo'lgan barcha huquqiy o'zgarishlar bo'yicha o'z vaqtida ma'lumot olishi mumkin.

4.1.3. Qarz oluvchi kreditni shartnomaning 3.1.12 va 3.1.13 bandlarda belgilangan tartibda muddatidan oldin so'ndirishi mumkin. Yosh oila tarkibiga kiruvchi qarzdorlar toifasiga bu band taalluqli emas.

4.1.4. Qarz oluvchi tomonidan kreditni qaytarish quydagi shakllarda amalga oshiriladi:

- a) ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, gonoralar, dividendlar, foizlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan boshqa daromadlar hisobidan naqd pulsiz mablag' o'tkazish;
- b) naqd pul topshirish;
- v) Qarz oluvchining bankdagi omonatlar bo'yicha hisob raqamidan naqd pulsiz mablag' o'tkazish.

### 4.2. Bankning huquqlari

4.2.1. Qarz oluvchining kreditdan maqsadli foydalanganligini joyida tekshirish.

4.2.2. Qarz oluvchidan kredit ta'minotiga qo'yilgan uy-joyni bus-butun saqlanishini talab qilish, uy-joyga qasddan qisman zarar yetkazilganda, zarar miqdorini to'lash yoki uy-joyni belgilangan tartibda sotish hisobidan qoplash.

4.2.3. Kreditdan belgilangan maqsaddan boshqa maqsadlarda foydalanganligi aniqlanganda boshqa maqsadga foydalanilgan kredit miqdorining 25 foizida jarima undirish va kreditni muddatidan avval qaytarish choralarini ko'rish.

4.2.4. Qarz oluvchi kredit va unga hisoblangan foizlar to'lovi bo'yicha majburiyatlarini 90 kun mobaynida bajarmasa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 280 moddasiga asosan belgilangan tartibda undiruvni garov mulkiga qaratish.

4.2.5. Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashgan taqdirda, berilgan kredit mablag'ini muddatidan oldin qaytarilishini talab qilish.

4.2.6. Qarzdor o'z ixtiyoriga ko'ra, kreditni belgilangan muddatdan avval so'ndirsa, kredit so'ndirilgan kundan boshlab, kreditning muddatidan avval so'ndirgan qismiga nisbatan shartnomaning amal qilish muddatiga qadar hisoblanadigan kredit foiziga teng miqdorda, lekin kredit qoldig'i uchun 6 (olti) oylik foiz to'lovi miqdoridan ortmagan holda komission to'lov undirish.

4.2.7. Qarz oluvchi kreditni qaytarishni shartnomada belgilangan oxirgi muddatdan kechiktirganda, shartnomaning 1.1 bandida belgilanganidan birinchi oy uchun 1,3 barobar, ikkinchi oy uchun 1,5 barobar oshirilan miqdorda ustama foiz hisoblaydi.

## **5. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

5.1. Shartnomalar imzolaganidan va qarz oluvchi tomonidan garov shartnomasi rasmiylashtirgandan so'ng kuchga kiradi, kredit qarzi, hisoblangan ustama foizlar, jarimalar va penyalar to'liq to'langunga qadar amal qiladi.

## **6. FORS-MAJOR**

6.1. Tomonlarga tegishli bo'lmasagan Fors-major holatlari: qattik bo'ron, yer silkinishi, ko'p miqdorda qor yog'ishi va boshqa favqulodda holatlari sodir bo'lsa, shartnomalarini bajarilishi fors-major holatlari tugagunga qadar to'xtatiladi.

## 7. ALOHIDA SHARTLAR

- 7.1. Qarz oluvchi yashash manzili, ish joyi o'zgarsa va ushbu shartnomaga majburiyatlarini bajarishga ta'sir etishi mumkin bo'lgan barcha xolatlar yuz bergan taqdirda bankga 3 kun ichida xabar beradi.
- 7.2. Ushbu shartnomaga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning yozma keli-shuvlariga asosan amalga oshiriladi.
- 7.3. Qarz oluvchi bank oldidagi barcha majburiyatlarini bajargan taqdirda, bank notariusga va boshqa organlarga garov mulkiga solingan taqiqni bekor qilish uchun yozma xabar beradi.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu shartnomaga bo'yicha vujudga kelgan nizolar tomonlarning o'zaro kelishuviga yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan hal qilinadi.

### TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

BANK

QARZ OLUVCHI

---

(imzo)

---

(Imzo)

M. U.

Huquqshunos:

## **Iste'mol krediti ajratish to'grisida —sonli KREDIT SHARTNOMASI**

\_\_\_\_\_ shahar

«\_\_» \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil.

«bank» ochiq aksiyadorlik-tijorat banki \_\_\_\_\_ filiali Nizomi asosida ish olib boruvchi (keyingi o'rinnlarda «Bank») filial boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ orqali bir tomonidan va \_\_\_\_\_ manzilda istiqomat qiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_ (pasportni seriya va raqami \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ tomonidan \_\_\_\_\_ da berilgan) keyingi o'rinnlarda «Qarz oluvchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tudilar:

### **1. SHARTNOMA PREDMETI**

- 1.1. Bank Qarz oluvchiga \_\_\_\_\_ ni sotib olish uchun 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_ dan, 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_ gacha, ya'nı \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) oy muddatga, yillik \_\_\_\_\_ % ustama to'lash sharti bilan kredit mablag'i ajratadi.
- 1.2. Kredit ajratish uchun Bank Qarz oluvchiga muddatiga qarab 12501 yoki 14901 balans hisobi bo'yicha ssuda hisob raqami ochadi.

### **2. SHARTNOMA BAHOSI**

- 2.1. Tomonlar shartnoma bahosini \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) sum miqdorda belgiladilar.

### **3. TOMONLAR MAJBURIYATLARI**

#### **3.1. Qarz oluvchining majburiyatları**

3.1.1. Beriladigan kredit summasining **20%** dan kam bo'limgan miqdorda boshlang'ich badal to'lovi sifatida bank filialiga «Iste'mol talab qilib olgunga qadar» depozit hisob varag'iga naqd pulda topshiradi.

3.1.2. Kreditdan sotib olish maqsadida foydalanadi.

3.1.3. Qarz oluvchi garovga qo'yiladigan ko'char yoki ko'chmas mulklarni majburiy tarzda sug'urtalaydi. Mulklar bir yo'la kredit muddatiga sug'urtalanadi.

3.1.4. Olingan kreditni va unga hisoblangan ustama foizlarni to'lov jadvaliga asosan ko'rsatilgan muddatlarda belgilangan tartibda to'lab horadi.

3.1.5. Kredit ta'minotiga olingen mulkni but holda saqlaydi.

3.1.6. Kredit ta'minotiga olingen mulkni qarz oluvchi bank oldida-gi majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar sotmaydi yoki boshqa shaxsga hadyaga bermaydi.

3.1.7. Qarz oluvchi kredit, unga hisoblangan foizlar, penyalar va ko-mission xaqqlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyati bo'limgan taqdirda, garovga qo'yilgan mulkni sotish huquqini belgilangan tartibda bankga taqdim etadi.

3.1.8. Qarz oluvchi bankga kreditdan maqsadli foydalanilganini tas-diqlovchi hujjatlarni nazorat uchun taqdim etadi va kredit evaziga sotib olingen uy-ro'zg'or buyumini «Bank» vakiliga joyida ko'rsatadi.

3.1.9. Kreditdan maqsadsiz foydalanilganligi aniqlanganida, maqsadsiz foydalanilgan kredit miqdorining **25%** hisobida bankga jarima to'lash bilan birga maqsadsiz ishlataligan kredit mablag'ini Bankga qaytarishi shart.

3.1.10. Qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda to'lanmagan kredit yuzasidan muddati o'tgan qarzlar yuzaga kelgan hollarda qarz oluvchi to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun qarzga nisbatan bankga **0,4%** miqdorida penya to'laydi. Hisoblangan kredit foizi belgilangan muddatda to'lanmagan va muddati o'tgan qarz yuzaga kelgan hollarda qarz oluvchi to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun qarzga nisbatan bankga **0,1%** miqdorida penya to'laydi

3.1.11. Kreditni qaytarish shartnomada belgilangan oxirgi muddat-dan kechikkanda, shartnomaning 1.1 bandida belgilanganidan birinchi oy uchun 1,3 barobar, ikkinchi oy uchun 1,5 barobar oshirilgan miqdorda ustama foiz to'laydi.

3.1.12. Kreditning umumiyligi summasiga nisbatan **1%** miqdorida bir marotabalik komission haq to'laydi;

3.1.13. Yashash manzili yoki ish joyi o'zgarganda 3 kun ichida «Bank» ni xabardor qiladi.

### 3.2. Bankning majburiyatları

3.2.1. Kredit shartnomasida ko'rsatilgan miqdordagi kreditni mijoz tomonidan taqdim etilgan hisob-shartnomaga asosan pul o'tkazish yoli bilan ajratadi.

3.2.2. Kredit ajratilgan kundan boshlab, kredit qoldig'iga nisbatan yillik \_ % ustama foiz kunlik hisoblab boradi.

3.2.3. Bank ushbu shartnomaga o'zgartirish kiritilishiga taalluqli bo'lgan barcha yangi me'yoriy hujjatlari, qonunchilikdag'i o'zgartirishlar bilan qarz oluvchini xabardor qilib boradi.

#### **4. TOMONLAR HUQUQLARI.**

##### **4.1. Qarz oluvchining huquqlari**

4.1.1. Kredit shartnomasida ko'rsatilgan miqdorda kredit ajratishni talab qilish.

4.1.2. Qarz oluvchi ushbu kredit shartnomasiga taalluqli bo'lgan bar-cha masalalar bo'yicha bankdan maslahat oladi va shartnomaga o'zgarish kiritilishiga taalluqli bo'lgan barcha huquqiy o'zgarishlar bo'yicha o'z vaqtida ma'lumot olishi mumkin.

4.1.3. Qarz oluvchi o'z imkoniyatlardan kelib chiqib, kreditni muddatidan oldin so'ndirishi mumkin.

##### **4.2. Bankning huquqlari**

4.2.1. Qarz oluvchining kreditdan maqsadli foydalanganligini joyida tekshirish.

4.2.2. Qarz oluvchidan kredit ta'minotiga qo'yilgan mulkni bus-butun saqlanishini talab qilish

4.2.3. Kreditdan belgilangan maqsaddan boshqa maqsadlarda foydalanganligi aniqlanganda boshqa maqsadga foydalanilgan kredit miqdorining 25 foizida jarima undirish va kreditni muddatidan avval qaytarish choralarini ko'rish.

4.2.4. Qarz oluvchi kredit va unga hisoblangan foizlar to'lovi bo'yicha majburiyatlarini 90 kun mobaynida bajarmasa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 280 moddasiga asosan belgilangan tartibda undiruvni garov mulkiga qaratish.

4.2.5. Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashgan taqdirda, berilgan kredit mablag'ini muddatidan oldin qaytarilishini talab qilish

4.2.6. Qarz oluvchi kreditni qaytarishni shartnomada belgilangan ohirgi muddatdan kechiktirganda shartnomaning 1.1 bandiga asosan birinchi oy uchun 1,3 barobar, ikkinchi oy uchun 1,5 barobar oshirilgan miqdorda ustama foiz hisoblaydi.

#### **5. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

5.1. Shartnoma tomonlar imzolaganidan so'ng kuchga kiradi, kredit qarzi, hisoblangan ustama foizlar, jarimalar va penyalar to'liq tulangunga qadar amal qiladi.

## 6. FORS-MAJOR

6.2. Tomonlarga tegishli bo'lmagan Fors-major holatlari: qattiq bo'ron, yer silkinishi, ko'p miqdorda qor yog'ishi yoki texnik-elektron tizimning ishdan chiqishi va boshqa favqulodda holatlar sodir bo'lsa, shartnomaga majburiyatlarini bajarilishi fors-major holatlari tugagunga qadar to'xtatiladi.

## 7. ALOHIDA SHARTLAR

- 7.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning yozma keli-shuvlariga asosan amalga oshiriladi.
- 7.2. Qarz oluvchi Bank oldidagi barcha majburiyatlarni bajargan taqdirda, Bank notariusga va boshqa organlarga garov mulkiga solingan taqiqni bekor qilish uchun yozma xabar beradi.

## 8. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu shartnomaga bo'yicha vujudga kelgan nizolar tomonlarning o'zaro kelishuviga yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan hal qilinadi.

### TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

BANK

QARZ OLUVCHI

---

(imzo)

---

(imzo)

M. U.

Huquqshunos:

**To'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminallarini ijaraga berish shartnomasi №\_\_\_\_\_**

Toshkent sh.

«\_\_\_» 2012 y.

Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi, keyinchalik «Ijaraga beruvchi» deb ataluvchi «Bank» OATB \_\_\_\_\_ filiali nomidan \_\_\_\_\_ bir tomondan, va keyinchalik «Ijaraga oluvchi» deb ataluvchi \_\_\_\_\_

(tashkilot, xususiy tadbirkorni nomi)

ikkinci tomondan \_\_\_\_\_

(rahbarning familiyasi, ismi-sharifi)

2011 yil \_\_\_\_\_ dagi topshirish va qabul qilish dalolatnoma asosida quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

**I. SHARTNOMANING MAVZUSI**

1.1. Ijaraga beruvchi Ijaraga oluvchiga To'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish:

Terminal nomi	Terminal markasi	Seriya nomeri	Summasi
Summa (so'z bilan)			
Qo'shimcha klaviatura nomi	Klaviatura markasi	Seriya nomeri	Summasi
Summa (so'z bilan)			
Printer nomi	Printer markasi	Seriya nomeri	Summasi
Summa (so'z bilan)			

terminalini har oyda to'lov o'tkaziladigan kun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo'yicha **10 (Un) YEVRO** ijara haqi to'lash sharti bilan foydalanishga beradi.

## II. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Ijaraga beruvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

2.1.1. Ijaraga oluvchiga texnik jihatdan soz, foydalanish uchun yaroqli holdagi to'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalini \_\_\_\_\_

*(Mavzuda keltirilgan terminallardan ijaraga berilayetgan terminal nomlari)*

ijara-  
ga berish.

2.1.2. To'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalardan foydalanish qoidalarini o'rgatish.

2.1.3. Kommunal va boshqa to'lovlarni terminal orqali plastik kartochkalardan qabul kilganda to'lovlarni o'z vaqtida hisob varaqlarga o'tkazib berishni ta'minlash.

2.1.4. Ijaraga oluvchi tomonidan terminalni texnik qurilmalarini ta'mirlash uchun yeki boshqa holatlarda ijaraga beruvchiga qaytarganda, sabablarini yozma ma'lum qilish, topshirish va qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish.

2.2. Ijaraga oluvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

2.2.1. To'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalidan maqsadli foydalanish.

2.2.2. To'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalidan foydalanganligi uchun ijara haqini har oyning 25 sanasiga bankning **45249000** hisob varaqiga o'tkazib berilishini ta'minlash.

2.2.3. To'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalida aniqlangan nosozliklar to'g'risida Ijaraga beruvchiga o'z vaqtida yozma xabar berish.

2.2.4. Kommunal va boshqa to'lovlarni terminal orqali plastik kartochkalardan qabul qilganda, to'lovlarni o'z vaqtida hisob varaqlarga o'tkazib berishni, har kuni soat 15.00 ga qadar bankga yetkazilishini ta'minlash.

2.2.5. Zarur hollarda terminaldan maqsadli foydalilanayotganligi va texnik sozligini ko'zdan kechirish uchun terminal o'rnatilgan joyga ijaraga beruvchining vakillarini kiritish.

2.2.6. Mijoz manzili o'zgarganda bankga yozma ravishda **3 kun** ichida xabar berish.

2.2.7. Ijaraga oluvchi tomonidan terminalni texnik qurilmalarini ta'mirlash uchun yoki boshqa holatlarda ijaraga beruvchiga qaytarganda, sabablarini yozma ma'lum qilish, topshirish va qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirishni talab qilish

2.2.8. Ijaraga oluvchi tomonidan terminalni texnik qurilmalarini butsaqlash choralarini ko'rish va saqlanishini ta'minlash.

### III. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Ijaraga beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Ijaraga oluvchidan to'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalidan texnik foydalanishning yagona qoidalari va normalariiga rioya qilinishini talab qilish

3.1.2. Ijaraga oluvchidan ijaraga olingen to'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalidan foydalanganligi uchun shartnomaning 2.2.2-bandida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda haq to'lashni talab qilish yoki hisob varaqidan to'lash kunida bank hujjati memorial orderi bilan hisob varaqidan so'ndirish, to'lov talabnomasi orqali undirish.

3.1.3. Har chorakda bir marta (favqulodda holatlar bundan mustasno) ijaraga olingen to'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminali holatini ko'zdan kechirish.

3.1.4. Terminal, terminal jihozlari va terminal qismlarida nosozliklar aniqlanganda, tuzatish qiymatini ijaraga oluvchidan to'la undirish.

3.1.5. Terminalni saqlashda texnik qoidalarga rioya qilishni talab qilish

3.1.6. *Terminaldan foydalanish qoidalariiga rioya qilmaganda, ijara haqi to'lovlari to'lashni muddatlari kechiktirilganda, oy davomida terminaldan «OATB bank plastik kartochkalariga xizmat ko'rsatish» shartnomasida kelishilgan minimal oylik inkassatsiya summasi miqdorida foydalanilmaganda, shartnomalarini bekor qilish huquqiga ega.*

3.2. Ijaraga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Zarur hollarda ijaraga beruvchidan to'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminali texnik qurilmalarining holatini rejadan tashqari ko'zdan kechirishni talab qilish

3.2.2. Terminal orqali qabul qilingan to'lovlarni o'z vaqtida hisob varaqlariga o'tkazib berilishini talab qilish

#### **IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

- 4.1. Ijaraga beruvchi mazkur shartnomaga ko'ra o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni ijaraga oluvchiga qonunda belgilangan tartibda jarima (penya, neustoyka) to'lagan holda qoplaydi.
- 4.2. Ijaraga oluvchi mazkur shartnomaga ko'ra o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni ijaraga beruvchiga qonunda belgilangan tartibda jarima (penya, neustoyka) to'lagan holda qoplaydi.
- 4.3. Ijaraga oluvchi tomonidan **terminalga tashki shikast yetkazganda yoki terminal plombasi buzilganda u Markaziy Bank kursi bo'yicha 50 AQSH dollari + ta'mirlash uchun ketgan xarajat miqdorida jariman ni** to'laydi.
- 4.4. **Terminal** Ijaraga oluvchi tomonidan **yuqotilganda Markaziy Bank kursi bo'yicha 100 AQSH dollari + terminal qiymatini to'liq qoplaydi.**

#### **V. SHARTNOMANING MUDDATI**

- 5.1. Mazkur shartnomaning muddati tomonlar imzolagan kundan boshlab 1 (bir) yil muddatga tuziladi. Shartnoma muddati kelganda, tomonlar yozma ravishda shartnomani bekor qilish haqida xabar bermasa, mazkur shartnoma muddati yana 1 (bir) yil muddatga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

#### **VI. ALOHIDA SHARTLAR**

- 6.1. Ijara shartnomasi to'xtatilgan hollarda Ijaraga oluvchi to'lovlarni plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminali texnik jihozlarini Ijaraga beruvchiga topshirish majburiyatini oladi. Ijaraga oluvchi rad javobini berishi mumkin emas.

#### **VII. YAKUNLOVCHI SHARTLAR**

- 7.1. Mazkur shartnoma tomonlarning xohlagan biridan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda, ikkinchi tomonni bu haqda 1 (bir) hafta avval xabar qilgan holda bekor qilinishi mumkin.
- 7.2. Mazkur shartnomani bajarish chog'ida tomonlar o'rtasida paydo boladigan nizolar qonunda belgilangan tartibda hal etiladi.
- 7.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi, ulardan biri Ijaraga beruvchida, ikkinchisi Ijaraga oluvchida turadi.

**To'lovlarни plastik kartochkalar bilan qabul qilish terminalidan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqdim.**

**TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI**

Ijaraga beruvchi

bank OATB

\_\_\_\_\_ filiali \_\_\_\_\_

h/r \_\_\_\_\_

Manzil: \_\_\_\_\_

tel: \_\_\_\_\_

MFO \_\_\_\_\_

INN \_\_\_\_\_

Ijaraga oluvchi

Boshqaruvchi \_\_\_\_\_

M. U.

Huquqshunos \_\_\_\_\_

## SUG'URTA KIZMATLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

(Jami: 4 soat: 2 soat ma'ruba, 2 soat amaliy mashg'ulot)

### Reja:

- 10.1. Sug'urta haqida tushuncha.
- 10.2. Mol-mulk sug'urtasi.
- 10.3. Shaxsiy sug'urta va uning turlari.

### 10.1. Sug'urta haqida tushuncha

Mamlakatimizda moliyaviy bozorning tarkibiy qismi hisoblangan ssuda kapitallar bozori, qimmatli qog'ozlar bozori va sug'urta bozorini rivojlan-tirish borasida mustaqillikning dastlabki kunlарidan boshlab qator cho-ra-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sug'urta bozori o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar uchun iqtisodiy ahami-yati kattadir.

**Sug'urta haqida tushuncha.** Ma'lumki, turli ko'ngilsiz hodisalar, xusu-san, zilzila, suv toshqini, qurg'oqchilik, yer ko'chkisi, sel, kuchli shamol, do'l va shunga o'xshash tabiiy ofatlar qadimdan insoniyat boshiga katta kulfatlar keltirgan. Keyinchalik ishlab chiqarishning rivojlanishi, sanoatning yangi bosqichga ko'tarilishi turli texnogen tusdagi xavf-xatarlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Jamiyatning barcha tarmoq va sohalari taraqqiy etishi barobarida fu-qarolarning bir maromda hayot kechirishlariga va korxonalarining barqa-tor faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'paya boshladи. Jumladan, sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi tabiat va jamiyat o'r-tasidagi muvozanatning buzilishiga, bиринчи galda, ekologik vaziyatning tang ahvolga tushib qolishiga sabab bo'ldi. To'g'ri, insoniyat tabiatning injiqqliklariga ko'nikib yashashga o'rgangan va tabiiy ofatlar, yong'in

va boshqa nohush hodisalar ro'y berishi oqibatida yuzaga kelgan zararlar, yo'qotishlarning o'rnnini qoplash vositalarini izlab topishga harakat qilgan. Har ehtimolga qarshi zaxiralarni yaratish va oldindan ko'rib bo'lmaydigan, insoniyat tomonidan boshqarib bo'lmaydigan ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lishi oqibatida yuzaga kelgan zararlarning o'rnnini qoplash hozirgi zamон sug'urta munosabatlарining asosini tashkil etadi.

Tabiiy ofatlar, yong'in va boshqa nohush hodisalar yuz berishi natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnnini qoplashda sug'urta muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotda va me'yoriy hujjatlarda sug'urta tushunchasiga turlicha ta'riflar keltirilgan. 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida sug'urtaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sug'urta deganda, yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakkantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqeа (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi»<sup>33</sup>.

Ko'rinib turibdiki, yuridik va jismoniy shaxslar xizmat haqi sifatida to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobidan maxsus maqsadga mo'ljallangan pul fondlari tashkil etiladi. Bu pul fondlari sug'urta tashkilotlarining tassarrufida bo'ladi. Sug'urta tashkiloti va yuridik, jismoniy shaxslar o'rta tuzilgan sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

**Yodda tuting!** Sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararlar, fagat sug'urta tashkiloti bilan tegishli sug'urta shartnomasini tuzgan yoki sug'urta polisini olgan yuridik va jismoniy shaxslarga shartnomada ko'rsatilgan xavf-xatarlar sodir bo'lgan taqdirdagina qoplanadi. Demak, sug'urta qoplamasini olish uchun yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta mukofotini to'lagan va shu asnodda pul fondini shakllanishida ishtirok etgan bo'lishi kerak.

### **Diqqat! Sug'urta quyidagi ikkita sohaga ajratilgan:**

- hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni

33 Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги Конуни://Халқ сўзи, 28.05.2002 й.

tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'r-satib o'tilgan oshirilgan foizini o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini qamrab oladi);

- umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qiliш hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'limgan boshqa sug'urta turlari).

**Unutmang!** Sug'urta majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda majburiy sug'urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil, temir yo'l, havo va suv transpor-tidagi yo'lovchilarни majburiy sug'urtasi;
- harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarning majburiy davlat sug'urtasi;
- davlat soliq xizmati xodimlarining majburiy davlat sug'urtasi;
- davlat sud ekspertlarining majburiy davlat sug'urtasi;
- hukumat kafolati ostida kiritilayotgan va Davlat budgeti mablag'lari hisobidan qurilayotgan obyektlardagi qurilish risklarini majburiy su-g'urtasi;
- havfli ishlab chiqarish obyektiga ega korxonalarda avariya yuz berган taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy su-g'urtasi;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilish, fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, xorijga chiquvchi fuqarolarni sug'urta qilish, tibbiy sug'urta, uzoq muddatli hayotni sug'ortalash, yuklarni sug'ortalash kabi sug'urta turlari ixtiyoriy shaklda amalga oshiriladi.

**Yodda tuting!** Majburiy sug'urta qonun asosida joriy etiladi. Majburiy davlat sug'urtasi davlat budgeti mablag'lari hisobidan, majburiy sug'urta esa yuridik yoki jismoniy shaxsning o'z mahlag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**Sug'urta kompaniyalari.** «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun ning 6-moddasida sug'urta kompaniyasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tegishli turdagи sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan

va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni (sug'urta puli) to'lovi-ni amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi»<sup>34</sup>.

**Diqqat!** Sug'urta kompaniyasi tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lishi shart. Unga litsenziyani maxsus vakolatlari davlat organi — O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi beradi.

**Unutmang!** Sug'urta kompaniyasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi lozim. Sug'urta kompaniyalarini yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Sug'urta kompaniyalarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan tubdan farq qiladi. Avvalo, sug'urta kompaniyalari ko'plab yuridik va jismoniy shaxslar — sug'urta qildiruvchilar oldida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mas'ul hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda ularning faoliyati davlat tomonidan nazorat qilinadi. Xususan, sug'urta faoliyatini nazorat qilishga vakolatli davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan me'yorlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sug'urta zaxiralarini shakllantirish, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini nazorat qilish bo'yicha ham me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va amal qiladi.

**E'tibor bering!** O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi bo'lib hisoblanadi.

*Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyatidan boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Buni shu bilan tushuntirish mumkin-ki, sug'urta kompaniyalari savdo-vositachilik operatsiyalari bilan shug'ulansa, bu holat, pirovardida, sug'urtalovchining to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.*

34 O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni (qo'shimcha va o'zgarishlar bilan birga).

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida sug'urta kompaniyalarining huquq va majburiyatlar ko'rsatilgan.

### **Mazkur qonunga asosan sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:**

- qonun hujjatlarda belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari tuzish;
- o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug'urta qilish;
- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sug'urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;
- sug'urta (qayta sug'urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni, shuningdek sug'urta agenti sifatida sug'urta vositachiligini amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;
- o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.

### **Sug'urtalovchi qonunga asosan quyidagi majburiyatlarni bajariishi lozim:**

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioxha etishi;
- sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning mafyligini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'minlashi;
- o'zi vakolat bergen sug'urta agentlarining reestrini yuritishi;
- qonun hujjatlarda belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;
- sug'urta hodisasi yuz bergen taqdirda, qonun hujjatlarda yoki sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlar da barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishi va sug'urta tovoni to'lashi;
- maxsus vakolatli davlat organi belgilangan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi;
- qonun hujjatlarda belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi.

Sug'urta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdorlari qonunchilik hujjatlarda ko'rsatilgan tartibda shakllantiradilar. Boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan farqli ravishda sug'urtalovchilar ustav kapita-

lining 90 foizi pul shaklida bo'lishi talab etiladi va litsenziya olayotgan paytda ustav kapitali 100 foiz shakllantirilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 31-maydag'i «Sug'urta chilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1544-sonli Qaroriga asosan sug'urta faoliyati turlariga qarab, sug'urtachilarning ustav kapitali minimal miqdorlarini 2012–2014-yillar mobaynida bosqichma-bosqich, tabaqlashtirilgan tarzda oshirib borilishi maqsadga muvofiq, deb topildi. Ya'ni, qayd etilgan yillarda sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlari quyidagi miqdordarda shakllantirishi zarur.

Sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam

MIQDORLARI<sup>35</sup>

Sug'urta faoliyati turlari	(ekvivalenti ming yevro)	
	2012-yil 1-iyuldan	2014-yil 1-iyuldan
Umumiy sug'urta sohasida	1125,0	1500,0
Hayotni sug'urtalash sohasida	1500,0	2000,0
Majburiy sug'urtalash bo'yicha	2250,0	3000,0
Faqat qayta sug'urtalash bo'yicha	5000,0	6000,0

Ko'rinish turibdiki, sug'urta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdorlari faoliyat turlariga qarab farqlanadi.

**Sug'urta shartnomalarini tuzish va uni ijro etish tartibi.** Sug'urta shartnomasi ikki yoki undan ortiq shaxs ishtirokida tuzilgan yozma bitim boilib, unga asosan sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lash, sug'urtalovchi esa sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatini oladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra, sug'urta shartnomasi faqat yozma shaklda tuzilgan bo'lishi shart.

Shuningdek, kodeksda sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs sug'urta tashkiloti bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan.

35 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 31 майдаги «Суғуртачиларнинг молиявий баркарорлигини янада оширишга oid кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПК-1544-сонли Карорига илова.

Sug'urta shartnomasi yuridik yoki jismoniy shaxsning yozma yoki og'zaki arizasiga asosan tuziladi. Arizada sug'urta qildiruvchi yuridik shaxsning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, manzili, telefon raqamlari ko'rsatilgan bo'ladi. Jismoniy shaxslar esa arizada familiyasi, ismi-sharifi, uy manzili, telefon raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, arizada sug'urtaga qabul qilinayotgan obyektlar, uning qiymati haqida ham aniq ma'lumotlar keltirilishi zarur.

**Unutmang!** Sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin sug'urta tashkilotining vakili sug'urta qilinayotgan obyektni obdon ko'zdan kechirishi va albat-ta, arizada keltirilgan ma'lumotlarga qanchalik mos kelishini tekshirishi shart.

Sug'urta shartnomasida sug'urtalayotgan obyekt, mazkur obyekt bo'yicha sug'urta javobgarligi, sug'urta ta'rifi, sug'urta mukofoti va sug'urta hodisisi sodir bo'lganda, taraflar, ya'nisi sug'urta tashkiloti va sug'urta qildiruvchi o'rta-sida, vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish shartlari o'z aksini topadi. Shuningdek, sug'urta shartnomasida uning amal qilish muddati, ishtirok etuvchi taraflarning huquq va majburiyatları, javobgarligi hamda man-zillari, mas'ul shaxslarning imzolari va muhrlari qayd etiladi.

**Diqqat!** Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langandan so'ng boshlanadi. Agar sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchining hisoh raqamiga sug'urta mukofoti shartnomada ko'rsatilgan muddatda va tar-tibda to'lanmasa, sug'urta shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi.

**Sug'urta munosabatlariida qatnashuvchi tomonlarning huquq va majburiyatları.** Sug'urta munosabatlariida qatnashuvchi tomonlarning huquq va majburiyatları qonunchilik hujjalardida, sug'urta shartnomalarida o'z aksini topadi. Sug'urta shartnomasi sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuziladi hamda unda ikkala tomonning ham huquq va majbu-riyatları ko'rsatiladi.

**Diqqat!** Sug'urta kompaniyasining huquqlariga quyidagilar kiradi:

- sug'urta obyektini ko'zdan kechirish, shu jumladan, sug'urta qildiruvchining arizasida keltirilgan ma'lumotlarning sug'urta obyektining ha-qiqiy holatiga muvofiq kelishini tekshirish;
- sug'urta hodisisi sodir bo'lganda uning oqibatlarini bartaraf etish va kamaytirishda ishtirok etish, bu borada sug'urta qildiruvchiga za-rur ko'rsatmalar berish;
- sug'urta kompaniyasiga sug'urta hodisisi yuz berish ehtimolini va eh-timoli bo'lgan zararlarning miqdorini aniqlash uchun muhim ahami-

yatga ega bo'lgan soxta ma'lumotlar taqdim etilganligi ma'lum bo'lib qolsa, sug'urta shartnomasini bekor qilish;

- sug'urta hodisasi sug'urta qoplamasini olish maqsadida atayin uyush-tirilganligi aniqlangan taqdirda sug'urta qoplamasini to'lamaslik.

**Sug'urta kompaniyasining shartnomasi doirasidagi majburiyatlari-ga quyidagilar kiradi:**

- sug'urta mukofoti kelib tushgandan so'ng sug'urta polisini berish;
- sug'urta hodisasi kompaniya tomonidan tan olingan taqdirda sug'urta qoplamasini belgilangan muddatlarda to'lash;
- sug'urta qildiruvchini sug'urtalash qoidalari bilan tanishtirish;
- sug'urta qildiruvchiga tegishli ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;
- kompaniyaning manzili, nomi, mulkchilik shakli o'zgargan taqdirda yoki litsenziyasini vaqtincha to'xtatilganda, chaqirib olinganda bu haq-da sug'urta qildiruvchiga xabar berish.

**Yodda tuting! Sug'urta qildiruvchining huquqlariga quyidagilar kiradi:**

- sug'urta kompaniyasi to'g'risida ma'lumotlar so'rash;
- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtaga oid masla-hatlar olish;
- sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning nushasini olish;
- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasiga qo'shim-chi va o'zgartirishlar kiritish;
- naf oluvchini mustaqil belgilash;
- sug'urta hodisasi sug'urta kompaniyasi tomonidan tan olingandan so'ng sug'urta qoplamasini olish.

**Sug'urta qildiruvchining majburiyatları quyidagilardan iborat:**

- sug'urtalanayotgan obyekt, uning risk darajasini oshishiga ta'sir ko'r-satuvchi holatlar haqida aniq ma'lumotlar berish;
- sug'urta shartnomasi amal qilayotgan davrda sug'urta obyektida o'zgarish, ya'ni sotilishi yoki ijara ga berish yohud boshqa o'zgarishlar bo'l-ganda, bu haqda sug'urta kompaniyasiga xabar berish;
- shartnomada ko'rsatilgan muddatda va tartibda sug'urta mukofotini to'lash;
- sug'urta obyekti boshqa sug'urta kompaniyalarida sug'urtalangan-mi yoki sug'urtalanmaganligi to'g'risida haqqoniy ma'lumotni taq-dim etish;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lгanda, bu haqda zudlik bilan shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida sug'urta kompaniyasiga xabar berish;

- sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni kamaytirish, yong'in, portlash va avariya holatlari ro'y berganligi to'g'-risida tegishli vakolatli organlarga xabar berish.

**Unutmang.** Yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarni tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalardan himoyalashda sug'urta samarali va ishonchli vosita hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchilar sug'urta obyekting qiymatiga nisbatan juda oz miqdorni tashkil etuvchi xizmat haqi — sug'urta mukofotini to'lash orqali, sug'urta hodisalari yuz berishi tufayli yuzaga kelgan katta miqdorda, ba'zan to'langan sug'urta mukofotining bir necha yuz baravari miqdorida sug'urta qoplamasini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sug'urtaning afzallik tomoni ham mana shunda. Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlariga tegishli mol-mulklarni yoxud hayotini saqlash bilan bog'liq risklarни sug'urta kompaniyasiga berish orqali o'z xotirjamligini ta'minlaydi. Shu bois, sug'urtani xotirjamlik uchun to'lov sifatida ham talqin etadilar.

**Aholini ijtimoiy himoyalashda sug'urtaning o'rni.** Sug'urta o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ijtimoiy himoyaning muhim vositasi hisoblanadi. Masalan, baxtsiz hodisa ro'y berishi natijasida fuqaro tan jarohati olish yoki mehnat qobiliyatini vaqtinchada yohud umrbod yo'qotishi mumkin. Agar, fuqaro baxtsiz hodisalardan ehtiyoji shart sug'urtalangan bo'lsa, u holda sug'urta kompaniyasi fuqaroning boshiga baxtsiz hodisa ro'y berishi oqibatida kulfat tushganda unga moddiy ko'mak beradi, shu fuqaroni oyoqqa turib olishiga imkon beradi.

Ayniqsa, tibbiy sug'urtaning fuqarolarni ijtimoiy himoyalanishidagi ahamiyati katta. Fuqaro kasallikka duchor bo'lganda tibbiy sug'urta shartnomasi bo'yicha davolanish, dori-darmon sotib olish bilan bog'liq xarajatlar sug'urtalovchi tomonidan to'lab beriladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi qator sug'urta kompaniyalari tibbiy sug'urta turlarini amalga oshirmoqdalar.

**Sug'urta xizmatlari turlari.** Yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish sug'urta turlari bo'yicha ishlab chiqilgan sug'urta shartnomalarini tuzish yoki sug'urta polislарini rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Sug'urta turlari obyekti va shakliga ko'ra farqlanadi. Masalan, mulk sug'urtasida sug'urta obyekti sifatida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar, moddiy boyliklarni saqlash bo'yicha iq-tisodiy manfaatlар yuzaga chiqadi. Shaxsiy sug'urtada esa insonlarning hayoti, salomatligini saqlash bilan bog'liq manfaatlар sug'urta obyekti bo'lib hisoblanadi.

Mulkni sug'urtalashning o'zi qator sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash va boshqalar mulkni sug'urtalash turlariga misol bo'ladi. Shaxsiy sug'urtada fuqarolarni haxtsiz hodisalardan ehtiyyoti shart sug'urtalash, xorija chiquvchi fuqarolarni sug'urtalash, yo'lovchilarni sug'urtalash, tibbiy sug'urta kabi xizmat turlari mavjud.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda 200 dan zi-yod sug'urta xizmatlari turlari ishlab chiqilgan va mijozlar e'tiboriga yetkazilgan. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari o'rtacha 30–40 ta sug'urta xizmat turlarini ko'rsatadi. Sug'urta xizmatlari turlari ixtiyoriy va majburiy shakkarda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida aholi, korxona va tashkilotlarga ko'rsatiladigan sug'urta xizmat turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarining 70 foizdan ortig'ini ixtiyoriy sug'urta turlari, 30 foizga yaqinini majburiy sug'urta turlari tashkil etadi.

## 10.2. Mol-mulk sug'urtasi.

Mulkiy sug'urta hayot sug'urtasidan tashqari umumiy sug'urta tarmoq'ida eng asosiy sug'urta turlarini o'z tarkibiga oladi. Hayotiy tajribadan ma'lumki, har qanday korxona, tashkilot yoki fuqaro o'z mol-mulkini avaylab-asrashga harakat qiladi. Ammo, oldindan ko'rib bo'lmaydigan ko'ngilsiz voqealarning tasodifan sodir bo'lishi oqibatida bu mol-mulklar zararlarlanadi yoki butunlay nobud bo'ladi.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlarga o'tkazish bilan bog'liq iqtisodiy islohotlar mulkiy munosabatlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Tabiiyki, yangi sharoitda davlat xususiy sektordagi korxona va tashkilotlarning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi. Bir tomonдан, bozor sharoitida raqobatning mavjud bo'lishi hamda turli ichki va tashqi xavf-xatarlar tadbirkorlik faoliyatini bir maromda amalga oshirishga tahdid solsa, ikkinchi tomondan, yuqori foya olishga intilish katta tavakkalchiliklar qilishni talab etadi.

Yuridik shaxslarning quyidagi mulklarini saqlash bilan bog'liq mulkiy manfaatlarini sug'urta obyekti sifatida qabul qilinishi mumkin:

- binolar, inshootlar, tugallanmagan qurilish obyektlari;
- ishchi mashinalar, uzatish qurilmalar, quvvat beruvchi uskunalar;
- inventar;

- tovar zaxiralari, xomashyo, materiallar, yoqilg'i va boshqalar.
- Sug'urtalanuvchiga mulk huquqi sifatida tegishli bo'lgan mol-mulklar, ijara va keyinchalik egalik huquqini berish sharti bilan qabul qilingan mol-mulklar ham sug'urtalanishi mumkin.

Sug'urta hodisalari sug'urtalanuvchilarning qo'pol ehtiyyotsizligi, atayin xatti-harakati natijasida sodir etilsa va uning natijasida mol-mulkka zarar yetkazilsa, bu zararlar sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

**Mol-mulk sug'urtasi bo'yicha tarif stavkasi.** Yuridik shaxslar mulkini sug'urtasi bo'yicha sug'urta summasi mol-mulk balans qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Tarif stavkasini aniqlashda mol-mulkning joylashgan o'rni, eskirganlik va risk darajasi kabi omillar hisobga olinadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilishda sug'urta obyekti boshisi bozor narxi asosida aniqlanadi.

**Unutmang!** Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkasi sug'urta kompaniyasi tomonidan risk darajasi, ish yuritish xarajatlari va bozordagi talab, taklifdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalari qonunchilikda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Sug'urta mukofotini hisoblash va to'lash jarayonini hisobga olish.** Sug'urta mukofoti tarif stavkasi asosida sug'urtaga qabul qilinayotgan obyektning sug'urta summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Masa-lan, korxonaga tegishli va sug'urtalash uchun qabul qilingan stanokning qoldiq qiymati 150 000 so'm. Tarif stavkasi — 1,0 foiz. Sug'urta mukofti ( $S_m$ ) quyidagicha hisoblanadi.

$$S_m = \frac{150\ 000 \times 1}{100} = 1500 \text{ so'm}$$

Misol. Korxonaga tegishli stanokning qiymati 150 000 so'm. Sug'urta summasi ham 150 000 so'mga teng. Tarif stavkasi — 1,0 foiz. Hisoblangan va sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdori 1500 so'mni tashkil etadi. Sug'urta shartnomasi mud-dati — 1,0 yil. Sug'urta shartnomasida mazkur sug'urta mukofotini bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan. Shunga asosan sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilgandan so'ng 3 kun ichida hisoblangan sug'urta mukofotining 750,0 so'mni to'ladi. Sug'urta hodisasi shartnoma tuzilgandan so'ng 15 kun ichida sodir bo'ldi. Bunday holatda va mazkur su-

g'urta hodisasi sug'urta kompaniyasi tomonidan tan olingen taqdirda, sug'urta qildiruvchiga zarar to'langan sug'urta mukofotiga mutanosib ravishda, ya'ni 50 foizi miqdorida qoplab beriladi.

**Sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash.** Sug'urta qoplamasasi sug'urtalanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek vakolatlari organlardan olingen tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

**Yodda tuting!** Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi xabarni su-g'urta qildiruvchi shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida sug'urtalovchiga yetkazishi shart. Aks holda, sug'urta kompaniyasi zararni qoplashdan voz kechishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergach, komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatlari tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va miqdorini aniqlaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof etgan taqdirda yo'qotish va zararlar miqdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining miqdori aniqlanadi. **Diqqat!** Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovoni to'laniishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va miqdori xususida tomonlar o'rtaida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- sug'urta hodisasi yuz bergen sana va uning tavsifi;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlari;
- zarar miqdori va sug'urtalanuvchi da'vo qilayotgan sug'urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro'yxat va summa ko'rsatilishi kerak;
- zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingen tovon miqdori.

Mabodo zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sud qaroriga ko'ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo'lsa, sug'urtalanuvchi sug'urta tovoni olish huquqididan mahrum bo'ladi.

**E'tibor bering! Quyidagi hollarda sug'urta tovoni to'lanmaydi:**

- agar sug'urtalanuvchi zarar yetkazilishiga olib keluvchi xatti-harakatlarni ataylab yoki qo'pol ehtiyyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo'lsa, tekshiruv tamom bo'lgunga qadar.

Shartnoma imzolagandan so'ng, tavakkalchilik darajasida ro'y bergan va sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o'zgarishlar sug'urtalovchiga sug'urta shartlarini o'zgartirish hamda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo'qotadi, to'langan sug'urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

### 10.3. Shaxsiy sug'urta va uning turlari.

Shaxsiy sug'urta deganda insonning sog'ligi, hayotini saqlash bilan bog'liq manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug'urta turlari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrida qabul qilingan «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 417-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Sug'urta faoliyati klassifikatori»ning umumiyligi sug'urta sohasiga oid 1-klassi «Baxtsiz hodisalardan ehtiyoji shart sug'urta qilish» va 2-klassi «Kasallikdan ehtiyoji shart sug'urta qilish» shaxsiy sug'urta tarmog'iga mansub. Shuningdek, hayotni sug'urta qilish sohasining barcha klasslari doirasida amalga oshiriladigan sug'urta turlari ham shaxsiy sug'urta tarkibiga kiradi. Shaxsiy sug'urtaga oid ommaviy sug'urta turlariga quyidagilar kirdi:

- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;
- xorijga chiquvchi fuqarolarni sug'urta qilish;
- tibbiy sug'urta;
- bonus to'lovli hayot sug'urtasi;
- ta'lim olish uchun hayotni uzoq muddatga sug'urtalash;
- nikoh uchun hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish.

Shaxsiy sug'urtaning yuqorida keltirilgan dastlabki uchta turini umumiy sug'urta sohasida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalari va hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalari o'tkazishlari mumkin. Ammo, so'ngi uchta sug'urta turi hayotni sug'urta qilish sohasiga oid bo'lib, ularni faqat shu sohada faoliyat yuritish uchun tegishli litsenziyaga ega sug'urta kompaniyalari amalga oshirishlari mumkin.

*Hayot sug'urtasining ijtimoiy ahamiyatga egaligi. Inson hayoti quvonch va tashvishlardan iboratligini yaxshi bilasiz. Ayniqsa, inson hoshiga tashvish tushganda, aniqroq qilib aytganda baxtsiz hodisa sodir bo'lgan-da, u har doim moddiy ehtiyojlik sezadi. Hayot sug'urtasi fuqarolarning ma'lum bir yoshgacha yashashi yohud vafot etishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash imokniyatini beradi.*

Shu jihatdan ta'kidlash mumkinki, hayot sug'urtasi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali vositasidir. Aslida, sug'urta qildiruvchi shaxsning sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi, sug'urta qildiruvchining vafot etishi holatlarda sug'urta summalarini to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi va sug'urta muddati bir yildan ortiq bo'lган sug'urta turlariga hayot sug'urtasi deyiladi.

**Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta shartnomasini tuzish shartlari.** Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta shartnomalari sug'urta kompaniyasi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuziladi. O'zbekistonda hayot sug'urtasining keng tarqalgan turlaridan biri hayotni jamg'ariradigan tarzda sug'urta hisoblanadi. Bu sug'urta turi sug'urta qildirgan shaxsni sug'urta holati yuz bergen taqdirda moddiy yordam bilan ta'minlaydi. Quyidagi sug'urta hodisalari yuz berishi sug'urta holatlari deb hisoblanadi: sug'urta qildirgan shaxsning yashashi yoki vafot etishi. Sug'urtalash shartlari: sug'urta qildirgan shaxs har oyda (har chorakda) sug'urta badallari to'laydi. Ularning miqdori belgilangan tariflarga muvofiq aniqlanadi. Tariflar ikkita ko'rsatkichga: sug'urta qildirgan shaxsning yoshiga va sug'urtalash davriga bog'liq bo'ladi. Bunda jamg'arilgan resurslardan tashqari har oyda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda bonus yozib boriladi.

Shuni aytish kerakki, foiz stavkalari ancha yuqori bo'lgan bank depoziti bu sug'urta bilan raqobatlashadigan mahsulotdir. Depozitning afzalligi shundaki, mijoz shartnoma amal qilib turgan davrda daromadning bir qismini olishi mumkin, holbuki, hayotni jamg'arib boriladigan usulda sug'urtalashda sug'urta shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab mijoz sug'urta davrida o'z mablag'-larining bir qismini olish huquqiga ega bo'lmaydi. U shartnoma amal qilish muddati tugaganidan keyin summaning hammasini olishi mumkin.

**Diqqat!** Hayotni jamg'ariradigan sug'urtalashning bank depozitiga nisbatan afzalligi ham bor. Hayot sug'urtalanganida sug'urta qildirilgan shaxs shartnoma amal qilib turgan davrda vafot etgan taqdirda sug'urta to'lovlarini amalga oshiriladi. Holbuki, depozit bo'yicha bunday to'lovlar yo'q. Merosxo'rlar sug'urta kompaniyasidan butun sug'urta summasini, ya ni sug'urta qildiruvchi sug'urtalash davri oxirida olishi kerak bo'lgan summani oladilar.

**Javobgarlik va tadbirdorlik faoliyatini sug'urtalash xususiyatlari.** Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan uchinchi shaxslarning mol-mulki va sog'ligiga zarar yetkazilganda, ularning yuzaga kelgan zararni qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarlikni sug'urta qilishning obyekti hisoblanadi.

**Yodda tuting!** Javobgarlikni sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy shakkarda o'tkazilishi mumkin.

Javobgarlikni sug'urtalashning majburiy turlariga quyidagilar kiradi:

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;
- xavfli ishlab chiqarish obyektiga ega korxonalarining unda avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;

Javobgarlikni sug'urta qilishning ixtiyoriy turlariga quyidagilar kiradi:

- shifokorlar, advokatlar va boshqa kasb egalarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish;
- yuk va yo'lovchi tashuvchining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlarining o'z investorlari oldidagi fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;
- Qarz oluvchining bank oldidagi javobgarligini sug'urta qilish va boshqalar.

Hozirgi kunda javobgarlikni sug'urtalashning keng tarqalgan turlaridan biri — transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hisoblanadi.

Majburiy sug'urtaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda 2008-yil 21-aprelda «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi<sup>36</sup>. Qonun 41 ta moddadan iborat bo'lib, unda mazkur Qonunning maqsadi, asosiy tu-shunchalar, majburiy sug'urtaning prinsiplari, majburiy sug'urtani amalga oshirish shartlari va tartibi, sug'urta hodisalarini bo'yicha zararning o'trnini qoplash, kompensatsiya to'lovlari, majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash kabi boblar mavjud. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur Qonunning 41-moddasida «Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin kuchga kiradi», — deb ko'rsatib o'tilgan edi<sup>37</sup>.

*Qonun qabul qilingandan so'ng uni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan Hukumat qarorini qabul qilishga zarurat tug'ildi va 2008-yilning 26-iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'-risida» 141-soni qaror qabul qildi.*

Mazkur Qarorga asosan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari» tasdiqlandi<sup>38</sup>. Shuningdek, Qarorda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasini tashkil etish va uning vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Eng muhim, mazkur qaror asosida majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqini olish uchun sug'urtalovchi-larga muayyan talablar belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

36 Ўзбекистон Республикасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий сугурта килиш тўғрисида»ги Конуни. Ўзбекистон Республикасининг Конун хужжатлари тўплами. — Т.: Адлия вазирлиги, 2008, 17-сон.

37 Ўзбекистон Республикасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий сугурта килиш тўғрисида»ги Конуни. Ўзбекистон Республикасининг Конун хужжатлари тўплами. — Т.: Адлия вазирлиги, 2008, 17-сон.

38 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий сугурта килиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Конунини амалга ошириш чора-тадбирлари хакида»ги 141-сонли Карори. Ўзбекистон Республикасининг Конун хужжатлари тўплами. — Т.: Адлия вазирлиги, 2008, 26-27-сон.

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqini olish uchun sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjalarda belgilangan me'yordan kam bo'lmasligi kerak;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqini olish uchun sug'urtalovchilar Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sug'urta shartnomalarini tuzish, jabrlanuvchi (uning merosxo'ri yoki huquqiy vorisi)ning sug'urta to'lovlari to'g'risidagi talablarini ko'rib chiqish va sug'urta to'lovlarini amalga oshirish vakolati berilgan o'z filiallariga va boshqa alohida bo'linmalariga ega bo'lishi shart.

Davlat tomonidan majburiy sug'urtani amalga oshirishda sug'urtalovchilarga nisbatan bunday talabning o'rnatilishi bejiz emas, albatta. Buni shu bilan izohlash mumkinki, majburiy sug'urta butun O'zbekiston hududini qamrab oladi va yo'l-transport hodisasi mamlakatimizning qaysi joyida sodir bo'lishidan qatiy nazar, yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zarar, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urtalovchi tomonidan jabrlanuvchiga zarar qoplab berilishi lozim.

**E'tibor bering!** Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqiga quyidagi sug'urta tashkilotlari haqlidirlar:

1. «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadordik sug'urta kompaniyasi;
2. «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi;
3. «Kafolat» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi;
4. «Kapital sug'urta» sug'urta kompaniyasi;
5. «Alfa invest» sug'urta kompaniyasi;
6. «Asia insurens» sug'urta kompaniyasi;
7. «Alskom» sug'urta kompaniyasi;
8. «Ishonch» banklararo sug'urta kompaniyasi;
9. «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyasi.

Yuqorida nomlari keltirilgan sug'urta tashkilotlarining ustav fondi 2012-yil 1-iyuldan sug'urtalovchilarning ustav fondlariga nisbatan o'rnatilgan yangi talablarga to'la-tukis mos keladi va eng kam miqdori 2,250 ming yevro ekvivalentidagi summadan kam bo'lmasligi shart. Bu haqda 2011-yil 31-maydag'i «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1544-sonli qarorida

aniq ko‘rsatilgan<sup>39</sup>. Shuningdek, mazkur sug‘urta tashkilotlarining O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida filiallari mavjud.

Tadbirkorlik faoliyatini sug‘urtalash deganda tadbirkorlik subyektlariiga tegishli mol-mulkarni, shu jumladan garovga qo‘yilgan mol-mulkarni sug‘urtalash, lizing obyektlarini sug‘urtalash, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni eksport qilish bo‘yicha shartnomalarini sug‘urta qilish va shunga o‘xhash sug‘urta turlari tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatini sug‘urtalashning zamonaviy turlariga quyidagilar ni kiritish mumkin: ishlab chiqarishni to‘xtab qolishi natijasida kutilgan daromadni ololmaslik riskini sug‘urta qilish, shartnoma shartlarini bajarmaslik riskini sug‘urtalash.

## TAYANCH ATAMALAR

**Sug‘urta** — inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo‘ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar, talafotlarni jismoniy va yuridik shaxslar to‘lagan sug‘urta badallaridan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to‘liq yoki qisman qoplash yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug‘urtalanishini ta‘minlashga doir munosabatlar yig‘indisidan iborat.

**Sug‘urta obyektlari** — fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati, fuqarolar va yuridik shaxslarning mol-mulki, moddiy boyliklari, javobgarlik majburiyatları, mulkiy hamda mulkka oid bo‘lmagan huquqlari yoki manfaatlari sug‘urta obyektlari hisoblanadi.

**Davlat majburiy sug‘urtasi** — davlat majburiy sug‘urtasi davlat budgeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

**Ixtiyoriy sug‘urta** — tomonlarning xohish-irodasiga ko‘ra amalga oshiriladigan sug‘urta ixtiyoriy sug‘urta hisoblanadi.

**Sug‘urta munosabatlарining subyektlari** — sug‘urtalanuvchilar va sug‘urtalovchilar sug‘urta munosabatlарining subyektlari hisoblanadi.

**Sug‘urta summasi** — muayyan summa bo‘lib, ana shu miqdorda sug‘urtalovchi mol-mulk sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lash majburiyatini oladi yoki u shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha summani to‘lash majburiyatini oladi.

39 Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Сугуртачиларнинг молиявий баркарорлигини янада оширишга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2011 йил 31 майдаги ПК-1544-сон Карор.

**Sug'urta to'lovlari (sug'urta mukofotlari)** — sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga to'laydigan badallar bo'lib, ularni hisoblab chiqarish tartibi va ularning miqdori sug'urta shartnomasida belgilab qo'yiladi.

**Ikki tomonlama sug'urta** — sug'urta himoyasining shunday shakllaridan biriki, unda sug'urta qildiruvchilar (fuqarolar va yuridik shaxslar) zarur mablag'larni kiritish yo'li bilan ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlariga birlashadilar.

**Sug'urta shartnomasi** — sug'urta shartnomasi yozma ravishdagi bitim bo'lib, unga ko'ra sug'urta tashkiloti ko'zda tutilgan voqeа yuz berganda, sug'urtalanuvchiga yoki sug'urta pulini olishga haqli bo'lgan boshqa kishiga yetkazilgan zararni qoplash yohud sug'urta puli to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi.

**Shaxsiy sug'urta** — insонning sog'ligi, hayotini saqlash bilan bog'liq manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug'urta turlari tushuniladi.

**Javobgarlikni sug'urtalash** — yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan uchinchi shaxslarning mol-mulki va sog'ligiga zarar yetkazilganda, yuzaga kelgan zararni qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urta qilishning obyekti hisoblanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Sug'urtaning obyektiv zaruriyati nimadan iborat?
2. O'zbekistondagi qanday sug'urta kompaniyalarini bilasiz?
3. Sug'urta shartnomalari xo'jalik shartnomalaridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
4. Sug'urta munosabatlarining moliya munosabatlaridan qanday farqli tomonlari mavjud?
5. Sug'urta kompaniyalarining qanday huquq va majburiylari mavjud?
6. Qanday tabiiy ofat turlarini bilasiz?
7. Qanday holatlarda baxtsiz hodisalarlar sodir bo'ladi?
8. Qanday majburiy sug'urta turlarini bilasiz?
9. Mol-mulk sug'urtasining obyektlariga nimalar kiradi?
10. Shaxsiy sug'urtaning qanday obyektlari mavjud?
11. Qaysi holatlarda sug'urta hodisalari ro'y berganligi qayd etiladi?
12. Sug'urta tarifini pasaytirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirish kerak?
13. Qaysi holatlarda sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti beriladi?

## TESTLAR

1. Sug'urta qanday sohalarni qamrab olgan?  
 a) umumiy va hayotni sug'urta qilish;  
b) korxona va tashkilotni sug'urta qilish;  
v) davlat va oilani sug'urta qilish;  
g) mahalliy va xorijiy fuqarolarni sug'urta qilish.
2. Sug'urta qanday shakllarda amalga oshiriladi?  
 a) faqat majburiy ravishda;  
b) majburiy va ixtiyoriy ravishda;  
v) faqat ixtiyoriy ravishda  
g) to'g'ri javob yo'q.
3. O'zbekistonda majburiy sug'urtaning qanday turlari amalga oshiriladi?  
a) umumiy foydalanishdagi avtomobil, temir yo'l, havo va suv transportidagi yo'lovchilarni majburiy sug'urtasi;  
b) harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarning majburiy davlat sug'urtasi;  
v) davlat soliq xizmati xodimlarining majburiy davlat sug'urtasi;  
 g) barcha javoblar to'g'ri.
4. Sug'urta kompaniyasi tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun nimaga ega bo'lishi shart?  
a) soliq inspeksiyasidan rozilik olish;  
b) hokimiyatdan rozilik olish;  
 v) Moliya vazirligidan tegishli litsenziya olish;  
g) pensiya jamg'armasidan litsenziya olish.
5. Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyatidan tashqari yana qanday tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin?  
a) xomashyolarni import qilishi mumkin;  
b) xomashyolarni eksport qilishi mumkin;  
 v) faqat sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin;  
g) qonunda taqiqlanmagan har qanday tadbirdorlik bilan shug'ullanishi mumkin.
6. Umumiy sug'ortalash bilan shug'ullanuvchi kompaniyaning ustav kapitalining eng kam miqdori qancha summada bo'lishi zarur?  
 a) 1125,0 ming yevro ekvivalentida;  
b) 2500,5 ming yevro ekvivalentida;  
v) 5000,0 ming yevro ekvivalentida;  
g) 10000,0 ming yevro ekvivalentida.
7. Hayotni sug'ortalash sohasida faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyasining ustav kapitalining eng kam miqdori qancha summada bo'lishi lozim?

- a) 1125,0 ming yevro ekvivalentida;  
 b) 2500,5 ming yevro ekvivalentida;  
 v) 1500,0 ming yevro ekvivalentida;  
 g) 10000,0 ming yevro ekvivalentida.
8. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi xabarni sug'urta qildiruvchi qanday muddat ichida sug'urtalovchiga yetkazishi shart?  
 a) bir yil muddatida yetkazishi shart;  
 b) bir oy muddatida yetkazishi shart;  
 v) 5–10 kun ichida yetkazishi shart;  
 g) shartnomada ko'rsatilgan muddatda yetkazishi shart.
9. Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkasi sug'urta kompaniyasi tomonidan nimalarni e'tiborga olgan holda belgilaydi?  
 a) sug'urtalanuvchining moliyaviy ahvoliga qarab belgilaydi;  
 b) risk darajasi, bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilaydi.  
 v) sug'urta obyektining qiymatiga qarab belgilaydi;  
 g) to'g'ri javob yo'q.
10. Shaxsiy sug'urtaga oid eng ommaviy sug'urta turlarini ko'rsating?  
 a) fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;  
 b) tibbiy sug'urta;  
 v) nikoh uchun hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish;  
 g) barcha javob to'g'ri.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2008.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги Қонуни://Халқ сўзи, 28.05.2002 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 31 майдаги «Суғуртчиларнинг молиявий баркарорлигини янада оширишга oid кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-1544-сонли Қарорига илова.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта килиш тўғрисида»ги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Қонун хужжатлари тўплами. — Т.: Адлия вазирлиги, 2008, 17-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта килиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора- тадбирлари хақида»ги 141-сонли Қарори.

- 
- Ўзбекистон Республикасининг Конун хужжатлари тўплами. —  
Т.: Адлия вазирилиги, 2008, 26-27-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Иш хаки, пенсиялар, стипендиялар ва ижтимоий нафакалар миқдорини ошириш тўғрисида»ги Фармони. 09.11.2012 й.
7. Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. —  
Т.: Маънавият, 2008.
8. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иктисодий инқизози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. — Т.: Ўзбекистон, 2009.
9. Вахобов А. В., Маликов Т. С. Молия. Дарслик. — Т.: Ношир, 2011.
10. Вахобов А. В. Бозор муносабатлари тизимидағи ижтимоий фондлар. — Т.: Шарқ, 2003.
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) — O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasining sayti.
12. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) — O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bazasining sayti.

Vaxabov A. V.

**Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma**

A. V. Vaxabov, Sh. A. Toshmatov, N. X. Xaydarov, A. V. Vaxobov.

**Nashriyot uyi MChJ «BAKTRIA PRESS»**

Litsenziya AI № 203, 28.08.2011 у.

100000, Toshkent, Buyuk Ipak Yuli mavzesi, 15-25

Telefon: +998 (71) 233-23-84

Bosishga ruxsat etildi 21.10.2013 у.

Bichimi 64×90 1/16. Ofset bosma.

Shartli bosma tabogi 19,4. Adati 1600.

MEGA bosmaxonasida chop etilgan.

ISBN 978-9943-4064-5-2